

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

“TARIX” KAFEDRASI

**«O`ZBEKISTONNING MADANIYATI VA SAN'ATI TARIXI»
FANIDAN O`QUV-USLUBIY MAJMUA**

**Bilim sohasi: 100000 – Gumanitar soha
Ta'lim sohasi: 120000 – Gumanitar fanlar
Ta'lim yo'nalishi: 5120300 – Tarix (jahon mamlakatlari bo'yicha)**



Guliston – 2021

Fanning o`quv-uslubiy majmuasi O'zbekiston respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan 2018 yil 14 iyunda 531-sonli buyruq asosida tasdiqlangan fan dasturi asosida ishlab chiqilgan.

Tuzuvchi: Qodirova L.B. - "Tarix" kafedrası dotsenti

Taqrizchi: Mirzayeva N.J. - "Tarix" kafedrası dots., t.f.n.

O'UM GulDU O'quv – uslubiy Kengashining 2021 yil ____ avgustda 1-sonli majlisida tasdiqlangan

GulDU Ilmiy – uslubiy Kengashi raisi:

prof. H.H. Qoshiyev

MUNDARIJA

1. O‘quv materiallari	
1.1. Ma’ruza mavzulari bo‘yicha o‘quv materiallari.....	4
1.2. Seminar mashg‘ulotlari mavzulari	114
1.3. Adabiyotlar ro‘yxati.....	126
2. Mustaqil ta’lim mavzulari	128
3. Glossariy.....	133
4. Ilovalar	
4.1. Fan dasturi.....	144
4.2. Ishchi fan dasturi.....	155
4.3. Tarqatma materiallar.....	168
4.4. Testlar.....	172

I. O'QUV MATERIALLAR

I.1. MA'RUZA MAVZULARI BO'YICHA O'QUV MATERIALLARI

1-mavzu: Kirish

Reja:

1. Madaniyat va san'at tushunchasi.
2. Madaniyatning sohalar va ko'rinishlar bo'yicha tasnifi, madaniyat va san'atning vazifalari.
3. Madaniy taraqqiyotning asosiy qonuniyatlari.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:

Madaniyat, san'at, moddiy va ma'naviy madaniyat, madaniyatning sohalar va ko'rinishlar bo'yicha tasnifi, madaniyatning funksiyasi, madaniy qadriyatlar, madaniy taraqqiyot, ma'naviy meros, milliy madaniyat

Madaniyat va san'at tushunchasi.

Madaniyat tushunchasi tabiat, jamiyat va insonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni belgilab beruvchi ko'plab qarashlar, nazariyalar va g'oyalarga, tushuncha va tasavvurlarga nisbatan qo'llaniladi. Madaniyat – jamiyat, inson ijodiy kuch va qobiliyatlari tarixiy taraqqiyotining muayyan darajasi bo'lib, kishilar hayoti va faoliyatining turli ko'rinishlarida, shuningdek, ular yaratadigan moddiy va ma'naviy boyliklarda ifodalanadi. Madaniyat tushunchasi muayyan tarixiy davr (antik madaniyat), konkret jamiyat, elat va millat (o'zbek madaniyati), shuningdek, inson faoliyati yoki turmushining o'ziga xos sohalarini (badiiy madaniyat, turmush madaniyati)ni izohlash uchun qo'llaniladi.

Hozirgi paytda “madaniyat” atamasining 400 dan ortiqroq ta'rifi mavjud. Agar ularga e'tibor bersak, madaniyat tushunchasi hayotning deyarli barcha va hatto bir-biriga zid bo'lgan sohalarini ham qamrab oluvchi tushuncha ekanligini ko'ramiz shu boisdan ham madaniyat tushunchasiga ta'rif berish juda mushkul.

Madaniyatshunoslikka oid adabiyotlarga nazar tashlasak, madaniyatning turlicha ta'rifu talqinlari mavjudligini ko'ramiz, chunonchi: “inson tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy boyliklar yig'indisi”; “moddiy va ma'naviy qadriyatlar”; “inson tomonidan yaratilgan ikkinchi tabiat”; “insoniy faoliyat mahsuli”; “ijodiy faoliyat”; “ijodiy faoliyat mahsuli”; “jamiyatning ma'naviy hayoti”; “insonning ma'naviy dunyosi”; “insonning axloqiy fazilatlarini”; “insonning ichki va tashqi olami”; “axloqiy sifatlar yig'indisi”; “jamiyat faoliyati”; “shartli belgilar tizimi yig'indisi”; “shartli tasvirlar”; “ramziy ishora va belgilar”; “me'yor va andazalar” va shu kabilar.

“*Madaniyat*” arabcha “madina” so'zidan olinib, “shahar” degan ma'noni anglatishini ko'ramiz. Arablar kishilar hayotini ikki turga: birini badaviy yoki sahroiylar turmush; ikkinchisini madaniy turmush deb ataganlar. Badaviylik — ko'chmanchi holda dashtu sahrolarda yashovchi xalqlarga, madaniylik — shaharda o'troq holda yashab, o'ziga xos turmush tarziga ega bo'lgan xalqlarga nisbatan ishlatilgan.

Yevropada madaniyat deyilganda dastlab insonning tabiatga ko'rsatadigan maqsadga muvofiq ta'siri, shuningdek, insonga ta'lim-tarbiya berish tushunilgan (lot. *cultura* – yerni ishlash, parvarishlash; ruschadagi “kultura” so'zi ham shundan olingan).

Kishilik jamiyatidagi beqiyos o'zgarishlar, davlatlar va mintaqalar o'rtasidagi iqtisodiy-siyosiy va ijtimoiy-madaniy aloqalarning murakkablasha borishi, jamiyatning iqtisodiy va ma'naviy hayotidagi tub o'zgarishlar, inson imkoniyatlarining yuzaga chiqqan borislii, tabiat va jamiyatning o'zaro aloqasida inson o'zining o'zaro borislii, tabiat, jamiyat, inson tafakkuri, taraqqiyoti, kishilarning turmushi, o'zaro munosabatlarga oid umumlashtiruvchi tushunchalarga bo'lgan ehtiyoj madaniyat tushunchasi mohiyatining o'zgarishiga olib keldi.

Markaziy Osiyolik buyuk tafakkur egalari madaniyatlilik masalasiga insonning ruhiy-ma'naviy kamoloti, ong va tafakkur taraqqiyoti, fozil jamiyat va komil insonlar masalasi nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda yondashdilar.

Abu Nasr Forobiy, Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Imom G'azzoliy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy kabi Sharq mutafakkirlari madaniyat masalasini insonning ma'naviy-aqliy barkamolligi shaklida, baxt-saodatga erishuvi tarzida tushunadilar. Bu an'anaviy tushuncha keyingi avlodlar tafakkuridan mustahkam joy olgan. Shu sababli “madaniyat” deganda ko'proq insonning ma'naviyati, uning ichki kechinmalari va tashqi qiyofasining mushtarakligini ko'z oldimizga keltiramiz.

Muayyan xalqning madaniyati dastavval ushbu xalqning har bir ijtimoiy tarixiy davrda yaratilgan moddiy va ma'naviy faoliyatining o'ziga xos tomonlari, xususiyatlari, o'zaro aloqadorligi bilan belgilanadi.

Insoniyat tomonidan barcha moddiy va ma'naviy boyliklarini yaratish jarayoni quyidan yuqoriga, oddiydan murakkablikka, alohidalikdan umumiylikka ega bo'luvchi o'ziga xos uzluksiz jarayon hisoblanib, uning o'tmishi va hozirgi ko'rinishi o'rtasida dialektik birlik mavjuddir.

Madaniy boyliklarning yaratilishi jarayonidagi barcha bosqichlar doimo bir-birini to'ldirib borgan. Lekin insoniyat tarixining muayyan bosqichida yaratilgan madaniyat o'zidan oldingi bosqichlarda yaratilgan madaniyatdan farq qiladi va o'zgargan holda vujudga keladi. Jamiyat o'zidan oldingi madaniy boyliklarni ko'r-ko'rona qabul qilmaydi, balki ularni ijobiy tomondan o'zgartiradi.

Madaniyat har bir davr ehtiyojlariga moslangan tarzda yaratiladi. Agar moddiy va ma'naviy madaniyatning o'zaro ta'siri masalasiga e'tibor bersak, insoniyat tomonidan dastlab moddiy madaniyat elementlari yaratilganligini, so'ngra moddiy madaniyatning bir necha elementlarini o'zida birlashtirgan, turli xil vazifalarni bajaruvchi birmuncha murakkabroq turlari paydo bo'lganligini ko'ramiz. Boshqacha qilib aytganda, insoniyat dastlab o'zining moddiy-biotogik ehtiyojlarini qondiruvchi moddiy boyliklarni, so'ng ma'naviy-ijtimoiy ehtiyojlarini qondiruvchi ma'naviy boyliklarni yaratganliklarini anglab yetamiz. Shu bilan birga moddiy madaniyat har qanday jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyasining bazasi - oddiy boyliklar ishlab chiqarish jarayonmi tashkil etadi va jamiyatning ustqurmasi

ma'naviy hayotini belgilab beradi. Moddiy ehtiyoj ma'naviy ehtiyojni belgilab berganidek, moddiy madaniyat ma'naviy madaniyatning shakllanish va rivojlanish jarayonini belgilab beradi. Ammo bu ma'naviy madaniyat moddiy madaniyatga butunlay tobe, degan ma'noni anglatmaydi. Tarixiy taraqqiyot qonuniyatlari va jarayonlari shuni ko'rsatadiki, ayrim hollarda madaniyat jamiyatning umumiy taraqqiyotidan ilgarilab ketadi, ayrim hollarda esa orqada qoladi.

San'at - ijtimoiy ong va inson faoliyatining o'ziga xos shakli bo'lib, jamiyat taraqqiyotining ilk bosqichlarida mehnat jarayoni bilan, kishilar ijtimoiy faoliyatining rivojlanishi bilan bog'liq holda vujudga kela boshlagan. U odamlarning estetik talablarini qondirish bilan birga, o'z taraqqiyotining turli davrlarida jamiyat a'zolarini ma'lum ruhda tarbiyalash, ularni aqliy va hissiy jihatdan rivojlantirish vositasi sifatida xizmat qilib kelgan, ularning turli maqsad, his-tuyg'u, manfaat, ideallarini ifoda etgan.

San'at ijtimoiy ongning boshqa shakllaridan o'zining predmeti, mazmuni, voqelikni ifoda etish usuli va uslubi, ijtimoiy hayotda tutgan o'rni hamda vazifalari jihatidan farq qiladi. U insonning moddiy va ma'naviy faoliyatidagi bilimi, tajribasi, mahorati va qobiliyatlarini namoyon etuvchi badiiy ijodiyot mahsulidir. Estetik tafakkur tarixida san'at narsa va hodisalarni qanday bo'lsa shunday aks ettirishdan hayotni go'zallik qonunlari asosida badiiy ifodalash g'oyalari sari yuksalib bordi. Tabiat, jamiyat va insonning ijtimoiy, ma'naviy, milliy dunyosi san'atning predmeti hisoblanadi. Voqelik qaysi shaklda badiiy ifoda etilmasin, ijodkor unga ma'lum ijtimoiy-estetik ideal nuqtai nazardan munosabat bildiradi va o'z estetik bahosini beradi.

San'at inson uchun estetik zavq-shavq manbai; inson hayotiga go'zallik baxsh etadi; odamlarda voqelikka nisbatan hissiy munosabatni shakllantiradi; hayotni kuzatish, o'rganish va bilish vositasi; hayotni inson orzu qilgan tomonga o'zgartirishda yordam beradi; tarbiya vositasi; hayotdagi go'zallikdan ilhomlanishga, xunuklikdan nafratlanishga chorlaydi; odamlar orasidagi ma'naviy ko'priq, muloqot vositasi; odamlarning badiiy-estetik didini tarbiyalaydi, ularda ma'lum dunyoqarashni shakllantiradi va h.k.

San'atning maqsadi dunyoni badiiy o'zlashtirish, odamga lazzat baxsh eta oladigan, uni ma'naviy boyita oladigan asarlar yaratish yo'li bilan kishilarning estetik ehtiyojlarini qondirishdan iborat. San'at asarlarining diqqat markazida insonlar, ularning ijtimoiy aloqasi va o'zaro munosabatlari, muayyan tarixiy sharoitlardagi hayoti, faoliyati turadi. Shuning uchun ham san'at asarlari beradigan ma'rifiy bilim muayyan mamlakat, millat yoki bir tarixiy davr va shaxslar haqidagi ilmiy asarlardan olingan ma'lumotlardan farq qiladi. Uning tarbiyaviy kuchi unda ifoda etilgan kechinma va obrazlarning har bir o'quvchi, tomoshabinning qalbiga kirib borishi, ularda zavqiy hissiyotlarni uyg'otishidadir.

Madaniyatning sohalar va ko'rinishlar bo'yicha tasnifi, madaniyat va san'atning funksiyalari.

Madaniyat tushunchasi keng va tor ma'nolarga ega. Keng ma'nodagi madaniyat tushunchasi o'ziga butun inson amaliy faoliyati natijasida bunyod etilgan barcha moddiy va ma'naviy boyliklarni qamrab oladi. Madaniyat bu insoniyatning ijtimoiy-tarixiy tajribasi jarayonida, ya'ni tabiat va jamiyatni o'zgartirishga qaratilgan mehnat faoliyati jarayonida vujudga keltirilgan barcha boyliklar majmuyidan iboratdir.

Tor ma'nodagi madaniyat tushunchasi insoniyat ma'naviy hayoti sohasini qamrab oluvchi barcha sohalarga nisbatan ishlatiladi.

Madaniyat, birinchidan, insonning biologik va ijtimoiy ehtiyojlarini qondiruvchi iste'mol vositalari shaklida, ikkinchidan, ishlab chiqarish faoliyati mahsuli sifatida olib qaraladi va ikkiga: *moddiy* hamda *ma'naviy* madaniyat kabi turga ajratiladi.

Moddiy madaniyat — bu, eng avvalo, mehnat qurollari, transport, aloqa vositalari, uy-joylar, kiyim-kechaklar, oziq-ovqatlar, har xil buyumlar, xullas, insoniyatning moddiy ehtiyojlarini qondiruvchi barcha narsalar hamda kishilarning ishlab chiqarish tajribalari, ko'nikmalari va mahoratlaridir.

Ma'naviy madaniyat esa kishilarning bilimlari, tajribalari, urf-odatlarini, xulq-atvorlari, fan, adabiyot, san'at, falsafa, axloq, huquq, ilmiy dunyoqarash, diniy e'tiqodlari, ta'lim-tarbiya, matbuot, xullas, insoniyatning ma'naviy ehtiyojlarini qondiruvchi barcha ma'naviy boyliklardir.

Madaniyat o'z taraqqiyoti jarayonida ayrim tarmoqlarga ham bo'linib boradi. Masalan, *ma'naviy madaniyat*, *badiiy madaniyat*, *estetik madaniyat*, *axloqiy madaniyat*, *kiyinish madaniyati*, *muomala madaniyati* va boshqalarga bo'linsa, moddiy madaniyat texnika madaniyati, dehqonchilik madaniyati, qurilish madaniyati, turmush madaniyati kabi tarmoqlarga ajraladi. O'z navbatida, bu tarmoqlar bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan turli-tuman tushuncha va xatti-harakatlarni qamrab oladi. Masalan, turmush madaniyati uy-joy qurilishidagi ko'rkamlilik, kiyim-kechak, poyafzal, oshxona, uy jihozlari, ozodalik, pazandalik, oila va jamiyatda maishiy xizmat va dam olishni tashkil etishni qamrab olishini tushunamiz.

Moddiy va ma'naviy madaniyatlarni bir-biridan ajralgan, alohida holda tasavvur qilish mumkin emas. Aslida, moddiy madaniyat ham ma'naviy madaniyat ham insoniy faoliyat natijasidir. Lekin har qanday insoniy faoliyat ma'naviy boylik bo'la olmaydi. Moddiy va ma'naviy ishlab chiqarish yagona ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonining ikki tomoni hisoblanib, bu jarayonda moddiy ishlab chiqarish belgiovchi rol o'ynaydi. Chunki moddiy ne'matlar ishlab chiqarish muayyan jamiyatning barcha tomonlarini, shu jumladan, ma'naviy ishlab chiqarish jarayonini ham belgilab beradi. Aslida ma'naviy ishlab chiqarish — bu ijtimoiy ong shakllarini tashkil etuvchi davlat, oila, mafkura, huquq, axloq, fan, san'at, diniy e'tiqodlar va boshqalarni ishlab chiqarishdir.

Moddiy va ma'naviy madaniyatlarning o'zaro bog'liqligi kishilarning ehtiyojlari, qobiliyatlari, maqsadlarining moddiy ko'rinishga aylanishida yaqqol ko'zga tashlanadi. Masalan, madaniy qadriyatlarda ehtiyojlar, qobiliyatlar,

maqsadlar ham ma'naviy ko'rinishda, ham moddiy ko'rinishda namoyon bo'ladi.

Biz yashab turgan dunyoda moddiy va ma'naviy madaniyatning unsurlari bir butunlik va o'zaro ta'sir doirasida mavjud bo'ladi. Masalan, moddiy va madaniy boyliklarni yaratishda mehnat qurollari: ish qurollari, texnika, texnologiya, uy-ro'zg'or buyumlari va boshqalar moddiy madaniyatdagi; so'z, xatti-harakat, bo'yoq, loyiha, qog'oz, yozuv qurollari va boshqalar ma'naviy madaniyatdagi asosiy mehnat qurollari hisoblanadi.

Moddiy va ma'naviy madaniyatlar nafaqat o'zaro bir-biri bilan bog'liq holda mavjud bo'ladi, balki ulami bir-biridan ajratib turuvchi farqli jihatlar ham ko'zga tashlanib turadi. Bu farq, birinchidan, ma'naviy madaniyatning ikki shaklda - predmetlar va faoliyatning mahsuli sifatida mavjud bo'lishida ko'zga tashlanadi. Kitoblar, tasviriy va haykaltaroshlik san'ati asarlari, me'moriy yodgorliklar, kinofilmlar, televideniye va boshqalar ma'naviy madaniyatning moddiy, ya'ni predmet shaklidagi ko'rinishlaridir. Sozanda, xonanda, raqqos, aktyor, suxandon. pedagoglarning va targ'ibotchilarning ijro hamda mahoratlari faoliyatning mahsullari hisoblanadi.

Moddiy madaniy boyliklar vaqt o'tishi bilan eskiradi, vayron bo'ladi, buziladi, xizmat vazifasini o'tab, nom-nishonsiz yo'q bo'lib ketishi mumkin. Ma'naviy madaniy boyliklar esa asrlar o'tsa-da, keyingi avlodlar ongi va ko'z o'ngida milliy qadriyatlar shaklida saqlanib qoladi. Ulardagi asosiy mazmun. g'oyalar, tamoyillar, me'yorlar avlodlardan avlodlarga o'tadi, abadiy yashab qoladi. Ular har bir tarixiy-madaniy jarayonda ijtimoiy taraqqiyotga yordam beradi.

Moddiy va ma'naviy madaniyatlaro'rtasidagi ikkinchi farqli jihat insonning moddiy ehtiyojlari - oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy va boshqalarga bo'lgan ehtiyojlari ma'lum darajada cheklangan bo'ladi. Ma'naviy ehtiyojlari, ya'ni bilim olish, san'at asarlarini tomosha qilish yoki tinglashi, fan sohalarini o'rganishi, kishilar bilan muloqotda bo'lishi, urf-odatlar, marosimlarni tashkil etishi yoki undagi ishtiroki hamda aqliy faoliyatning boshqa turlariga ehtiyoji doimo va to'xtovsiz ravishda oshib boradi.

Uchinchidan, moddiy va ma'naviy madaniyat o'rtasidagi farqlardan yana biri shuki, moddiy qadriyatlar (moddiy madaniyat) ko'proq iste'molga mo'ljallangan bo'lsa, ma'naviy qadriyatlar (ma'naviy madaniyat) inson shaxsini shakllantirishga, uni kamol toptirishga xizmat qiladi.

To'rtinchidan, moddiy madaniyatning turli elementlari aniq ehtiyojlarni qondirishga mo'ljallangan bo'ladi. Masalan, mehnat qurollari faqat ishlab chiqarish jarayonini tashkil etishga, oziq-ovqat faqat tirik organizmning moddalar almashinuvi ehtiyojini qondirishga, kiyim-kechaklar tabiat hodisalari ta'siridan saqlanishga xizmat qiladi. Shuningdek, transport va aloqa vositalarining, uy-ro'zg'or buyumlarining ham aniq bir vazifalari mavjud. Ma'naviy madaniyatning har bir unsuri ko'p qirrali xususiyatga ega bo'ladi, ya'ni o'zida boshqa elementlar (tarkibiy qismlar)ning vazifalarini birlashtiradi. Masalan, san'atni olib qarasa, u nafaqat badiiy estetik, balki siyosiy, axloqiy, mafkuraviy, diniy mazmunga ham ega bo'ladi. Yoki huquq o'zida axloqiy, siyosiy, mafkuraviy va hatto, diniy

mazmun-mohiyatni birlashtiradi. Ma'naviy qadriyatlarda ham siyosiy, mafkuraviy, huquqiy, axloqiy, falsafiy, estetik, diniy mazmun birlashib keladi.

Madaniyat ijtimoiy-tarixiy hodisa sifatida jamiyatning rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qolmaydi. Bu ta'sir madaniyatning jamiyat hayotida bajaradigan vazifalarida o'z ifodasini topadi: 1) *bilish funksiyasi*; 2) *axborot berish (informativ) vazifasi*; 3) *aloqa bog'lashlik (kommunikativ) vazifasi*; 4) *tartibga solish (regulativ) vazifasi*; 5) *baholash vazifasi*.

San'at ham turli ko'rinishlari bilan o'ziga xos badiiy-estetik qadriyatlarni to'plash, saqlash va boshqalarga uzatish xususiyatiga ega bo'lgan estetik tizimni tashkil etadi. San'at *tasviriy san'at, me'morlik, rassomlik, haykaltaroshlik, musiqa, teatr, kino sirk, badiiy adabiyot, xoreografiya* va boshqalarni o'z ichiga oladi. San'atning turlari o'z predmeti, tasvir vositalari va ifoda imkoniyatlari jihatidan bir-biridan farq qiladi. Masalan, adabiyotda asosiy ifoda vositasi bo'lib til xizmat qiladi; tasviriy san'atda bo'yoqlap orqali konkret-hissiy obraz gavdalantiriladi; teatrda pesa qahramonlarining siymosi aktyorlarda o'z aksini topadi.

Madaniy taraqqiyotning asosiy qonuniyatlari.

Madaniyat - umuminsoniy hodisa, faqat bir xalqqa tegishli, faqat bir xalqning o'zigina yaratgan sof madaniyat bo'lmaydi va bo'lishi ham mumkin emas. Har bir milliy madaniyatning asosiy qismini shu millat o'zi yaratgan bo'lsa-da, unda jahon xalqlari yaratgan umuminsoniy madaniyatning ulushi va ta'siri bo'ladi, albatta. Madaniyat hech qachon sinfiy hodisa bo'la olmaydi. U barchaga baravar xizmat qiladi. Masalan, san'at va adabiyot durdonalari, me'morlik obidalari, maqomlar, fan yutuqlari va b. barchaga tegishlidir.

Har bir jamiyat o'z madaniyat tipiga ega. Jamiyatlarning almashinishi bilan madaniyat tipi ham o'zgaradi, biroq bu hol madaniyat taraqqiyoti uzilib qolganini, eski madaniyat yo'q bo'lib madaniy meros, o'tmish qadriyatlardan voz kechilganini anglatmaydi. Zotan, har bir yangi jamiyat o'zidan ilgarigi jamiyatning madaniy yutuqlarini zaruriy ravishda meros qilib oladi va ularni ijtimoiy munosabatlarning yangi tizimiga kiritadi.

Madaniy meros o'tmish ajdodlarning o'z avlodlariga vorisilik asosida yetkazib berilgan, asrlar, dolg'ali davrlar, buhronli kunlar sinovlaridan o'tib kelgan, insoniyatning hozirgi va keyingi davrlari taraqqiyotiga yordam beruvchi moddiy va ma'naviy boyliklari majmuyidir. Ma'naviy meros esa, o'tmish ajdodlarning hayotiy tajribalari, dunyoqarashi, axloq-odobi, iymon-e'tiqodi, badiiy-estetik, ilmiy, falsafiy, siyosiy-huquqiy qarashlari va milliy-ma'naviy qadriyatlari yig'indisidir.

O'tmishdan bizga yetib kelgan barcha narsalar umumiy merosni tashkii etsada, faqat uning madaniy qadriyatlar darajasiga chiqqan qismigina madaniy meros hisoblanadi. Masalan, sobiq sho'rolar davrida yaratilgan, uning siyosati va mafkurasiga xizmat qilgan va uni targ'ib etgan, endilikda mamlakatimiz taraqqiyotiga xizmat qilmay qo'ygan ayritn badiiy asarlar, kinofilmlar, teatr va musiqa, haykaltaroshlik va tasviriy san'at asarlari, inqilob, quloqlashtirish. bosmachilik harakati va ularga qarshi kurashganlar haqidagi asarlar madaniy meros

bo'la olmaydi. Ularni faqat tarixiy fakt sifatida saqlab qo'yish mumkin, xolos.

Madaniy va ma'naviy meros bir-biri bilan bog'liq. Sababi, ma'naviy faoliyatning ma'naviy-ruhiy bilimlar, qobiliyatlar, iste'dod va salohiyat, aql-farosat, ilmiy va amaliy bilimlar, tajriba, malaka va ko'nikmalar kabi elementlari madaniy merosning yaratilishida bevosita ishtirok etadi. Boshqacha qilib aytganda, insonning ma'naviy-ruhiy holatlari natijalari madaniy merosda moddiylashadi.

Madaniy va ma'naviy meroslar, birinchidan, umumiy va xususiy jihatlar (madaniy merosda umumiylik, ma'naviy merosda xususiylik)ning ustunlik qiliishi, ikkinchidan, madaniy meros, umuman, madaniyat yutuqlarini, ma'naviy meros esa faqat ma'naviy madaniyat yutuqlarini qamrab olishi jihatlari bilan bir-biridan farqlanadi. Ma'naviy merosga nafaqat madaniyatning moddiylashgan shakllari (arxitektura, kinofilm, sahna asarlari, badiiy asarlar va boshqalar), balki ilm-fan, falsafiy, siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, axloqiy, diniy g'oyalar, tushunchalar, tasavvurlar va boshqalar ham kiradi. Ma'naviy meros zamonlar o'tsa-da, o'z qadrini yo'qotmaydi, barcha davrlarda kishilarning ongi va his-tuyg'usiga ta'sir etib, ezgulikka chorlaydi. Ma'naviy meros kishilarning umumsaviyasini kengaytiruvchi bilimlarning bitmas-tuganmas manbayi hamdir.


Albatta, o'zligini angelayotgan har bir xalq, millat yoki elat o'z ajdodlarining madaniy merosini tiklash, asrab-avaylash, rivojlantirish, boyitishga, keyingi avlodlarga yetkazib berishga harakat qiladi. O'zbek xalqining bundan ko'zlagan maqsadi, avvalo, unutilayotgan milliy-madaniy merosimizni qaytadan tiklash, o'zligimizni saqlab qolish va hozirgi davr ijtimoiy taraqqiyotigajavob beradigan komil insonni vujudga keltirishdir.

Albatta, o'tmish madaniy merosini tiklash va uni o'rganishda unga tobe bo'lib qolmaslik o'ta muhim. Hozirgi kunda o'tmish madaniy merosiga jamiyatimizni isloh qilish nuqtayi nazaridan turib, ayrimlariga yangicha mazmun bag'ishlagan holda yondashish talab qilinadi. Masalan, islom madaniy merosiga mutaassiblik va aqidaparastlik nuqtayi nazaridan emas, aksincha, umuminsoniy madaniy boylik, iymon-e'tiqod pokligiga, umuminsoniy axloq me'yorlari, ma'naviy hayotimizni boyituvchi azaliy qadriyatlarimizni mustahkamlovchi, milliy qiyofamizni namoyon qiluvchi asosiy manba sifatida yondashishimiz zarur.

Madaniy merosga baho berganda uning qay darajada milliy madaniyatimiz ravnaqiga xizmat qila olishini, xalqimiz ma'naviy hayotini shakllantirishi va mustahkamlashi, kishilarimizni ezgulik va poklikka chorlay olishini, yovuzlik, tubanlik, nopoklik va axloqsizlikka qarshi kurasha olishini asosiy mezon qilib olish zarur.

Milliy madaniy merosimizga yondashishda quyidagi umuminsoniy mezonlarga suyanishimiz maqsadga muvofiqdir: a) insonparvarlik; b) vatanparvarlik; d) xalqchilik; e) taraqqiyparvarlik.

Umuman olganda, madaniy merosga inson, vatan, xalq va umumjamiyat taraqqiyoti manfaatlaridan kelib chiqqan holda yondashiladi.



Nazorat savollari:

1. Madaniyatga siz qanday ta'rif bergan bo'lar edingiz?
2. Madaniyat va san'at qanday umumiy xususiyatlarga ega?
3. Moddiy va ma'naviy madaniyatning o'xshash va farqli xususiyatlariga ta'rif bering.
4. Madaniyat va san'atning inson va jamiyat hayotidagi o'rni va ahamiyatiga baho bering.
5. Madaniyat va san'at tushunchasi talqinida tarixiylik qanday mazmun kasb etadi?

2-mavzu: Qadimgi davr madaniyati va san'ati, uning taraqqiyot bosqichlari

Reja:

1. Ibtidoiy davr madaniyati va san'ati
2. Qadimga davr madaniyati va san'ati taraqqiyotining o'ziga xos xususiyatlari.
3. Antik davr madaniyati va san'ati
4. Kushonlar davrida madaniyat va san'atning yuksalishi.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: Diniy e'tiqodlar, urf-odatlar, axloqiy me'yorlar, submadaniyatlar, zardo'shtiylik, "Avesto", Ahamoniylar imperiyasi, oromiy yozuvi, madaniyat sintezi, ellinizm, Buyuk Ipak yo'li, kushonbaqtriya yozuvi, so'g'd va xorazm yozuvlari.

Ibtidoiy davr madaniyati va san'ati

Mamlakatimiz madaniyati umuminsoniy madaniyatning bir tarkibiy qismi bo'lib, turli davrlarda ikki qit'a - Osiyo hamda Yevropa madaniyatlari va manfaatlari to'qnashadigan joy bo'lgan. Bir tomondan, hozirgi O'rta Osiyo xalqlarining madaniyati qadim-qadim davrlardan buyon bir-biri bilan bog'liq holda shakllanib taraqqiy etgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, qo'shni davlatlar va mintaqalar xalqlari madaniyatidan ta'sirlangan va aksincha, aks ta'sir etgan.


Agar umumjahon miqyosida insoniyat tarixi, shu jumladan, madaniyati tarixining vujudga kelishi jarayoniga e'tibor bersak, bu jarayonning eng katta qismi ibtidoiy davrga to'g'ri kelishini ko'ramiz. Ibtidoiy davr madaniyati insoniyat tarixining 99 foizini tashkil etadi.

Ilk paleolit davrida eng qadimgi odamlar moddiy madaniyatning dastlabki namunalarini: toshdan yasalgan qo'pol mehnat qurollarini yarata boshlaganlar, tabiiy olovdan foydalanishni o'rganganlar, asosan, g'orlarda yashaganlar, asta-sekin oddiy turar - joylar (shox-shabba va qamishlardan qurilgan chaylalar, yerto'lalar va boshqalar) qurishib, tasavvurlarning shakllanish jarayoni sodir bo'ladi.

O'rta paleolitda yashagan neandertal odamlarning qoldiqlari dastlab O'zbekistonning Teshiktosh g'oridan topilgan. Shuningdek, Respublikamiz hududidagi Omonqo'ton, Zirabuloq (Samarqand viloyati), Obirahmat, Ko'lbuloq (Toshkent viloyati), Uchtut (Navoiy viloyati) kabi hududlardan ham o'sha davrga oid bo'lgan madaniyat qoldiqlari ochib o'rganilgan.



Katta kiyik. Yuqori paleolit. Xo'jakent



Zarautsoy tasvirlari

So'nggi paleolitning dastlabki davrlariga kelib, zamonaviy aqlli odam (homo sapiens) shakllanadi. Bu davrda tasviriy san'at o'ta sodda ko'rinishda bo'lsa-da, birmuncha rivojlangan, ya'ni qoya toshlar hamda g'or devorlariga ov manzaralari, hayvonlar va odamlarning eng sodda tasvirlari tushirilgan. Bunga Surxondaryodagi Zarautsoy qoyatoshlaridagi, Molguzar va Nurota tog'laridagi, Qoratog'ning Uchtut darasidagi, Chodakdagi (Namangan viloyati) g'or devori va

boshqa joylardagi chizib ishlangan rasmlar hamda suyaklarga hayvon va odamlar qiyofalarining o'yib ishlanganligi misol bo'la oladi. Urug'chilik davriga kelgach, suyakdan tasviriy va xalq amaliy san'atining ilk va eng sodda asarlari yaratilgan, ya'ni suyakdan turli xil taqinchoqlar yasaganlar, suyak ustiga turli rasmlar chizilgan, ona timsolini aks ettiruvchi nomukammal haykalchalar yaratilgan. Ibtidoiy rassom va haykaltaroshlar, eng avvalo, insonga hayot baxsh etuvchi homilador ayollar rasmini chizib, haykalchalar yaratganlar. Ov qilinadigan yirik hayvonlar rasmini va ov manzaralarini tasvirlaganlar.

O'rta tosh (mezolit) asrining eng katta yutuqlaridan biri, kishilar tomonidan o'q-yoyning kashf etilishi bo'lgan. Bu ovchilikning rivojlanishiga sabab bo'lgan. Ovchilikning rivojlanishi, o'z navbatida, ayrim hayvonlarni qo'lga o'rgatishga olib kelgan. Bu davrga oid Machay g'ori (Surxondaryo viloyati) topilmalari shuni ko'rsatadiki, so'nggi mezolit davriga kelib kishilar tosh qirg'ichlar, pichoqlar, suyakdan bigiz va ignalar yasaganlar. Bu esa hayvon terilaridan kiyim tikib kiyish va turarjoy atroflari hamda tepasini terilar bilan bekitish imkonini bergan

Mezolit davrida ibtidoiy rassomlar tabiatning u yoki bu kuchlariga bo'lgan munosabatlarini, dunyoqarashlarini — u diniymi yoki dunyoviymi, bundan qat'iy nazar, qoyalarga chizilgan rangli suratlar orqali ifodalab berganlar. Masalan, Zarautsoy qoya toshlaridagi suratlarining bir qismi qizil rang bilan ishlangan. Zarautsoy qoyalaridagi rasmlar orqali o'rta tosh davri rassomlarining fikr doirasi, diniy tasavvurlari qay darajada rivojlanganligini bilib olsa bo'ladi.

Til va ongning asta-sekin paydo bo'lishi natijasida obyektiv voqelik va uning turli xil hodisalari haqida tushuncha va tasavvurlarda o'zgarishlar ro'y bera boshlaydi. Ibtidoiy kishilarning eng sodda ko'rinishdagi diniy va badiiy dunyoqarashi shakllana boshladi. Ibtidoiy kishilar o'zlarining tabiat va uning hodisalariga bo'lgan munosabatlarini turli xil vositalar - qoya toshlar, g'or devorlariga chizilgan eng sodda ko'rinishdagi suratlarda mehnat ritmi bilan bog'liq bo'lgan raqslarda ifodalay boshlaganlar. Demak, ibtidoiy davr, moddiy ishlab chiqarish jarayonining takomillashuvi ma'naviy madaniyat elementlarining shakllanishini tezlashtirgan.

Mintaqamizning iqtisodiy-geografik joylashuvi, tarixiy manbalarva asariarda ko'rsatilishicha, m.a. VI- IV ming yilliklar oralig'ida Markaziy Osiyo geografik joylanishuvi va iqlim sharoitiga ko'ra ikkita yirik madaniy-tarixiy hududga bo'lingan.

Janubi-g'arbiy hududlarda (hozirgi Turkmanistonning janubiy hududlarida) dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanuvchi o'troq qabilalar yashagan bo'lsa, shimoliy hududlarda ovchilik, baliq ovlash va yig'uvchi-terimchilik bilan shug'ullanadigan kishilar istiqomat qilganlar. Ular o'rtasida tosh qurollardan foydalanish uzoq davrlargacha saqlanib qolgan. Albatta, xo'jalik yuritishning cheklanganligi shimolda yashovchi turli qabilalar madaniyati va san'atining janubiy hududda yashovchi qabilalar madaniyatidan orqada qolishiga sabab bo'lgan. Faqat m.a. II ming yillikka kelibgina shimolda yashovchi kishilar dehqonchilik bilan shug'illanishni yo'lga qo'ya boshlaganlar, o'troq hayot kechirishga o'tishgan, metall (bronza)dan mehnat qurollari yasashgan. Mazkur bo'linish va sodir bo'lgan o'zgarishlar o'sha davr kishilarining xojalik yuritishida, turmush tarzi va o'zaro madaniy aloqalari hamda san'atida o'z aksini topgan.

Dehqonchilik bilan shug'ullanish qo'shni hududlarda yashovchi turli qabilalar bilan madaniy aloqalar o'rnatishga olib kelgan. Ulaming ma'naviy madaniyati Bolqon yarimorolidan Hindistongacha cho'zilgan ulkan hududda birmuncha ertaroq shakllangan.

Neolit davri Markaziy Osiyo xalqlari ma'naviy madaniyatining shakllanishi va rivojlanishiga qadimgi Sharqning yuksak madaniyatga erishgan Elam, Shumer,

qadimgi Misr va buyuk Hind sivilizatsiyasi hisoblangan Moxenjadaro va Xarrapa sivilizatsiyalari o'z ta'sirini ko'rsatgan.

M.a. V ming yillikda yashagan qabilalar madaniyatining asosiy xususiyati diniy qarashlarning vujudga kela borganligi va bu bilan bog'liq bo'lgan terrakota haykalchalarining ko'proq ona timsolini tasvirlaganligidir.

Qo'lda yasalgan sopol idishlarga qizg'ish-qora rangdagi tabiiy bo'yoqlar bilan turli geometrik shakllar chizilgan. Ayrim idishlarning tashqi tomonlariga hayvonlarning ko'proq. tog' echkisining suratlarini tushirish rasm bo'la borgan. Bu esa dehqonchilik madaniyati bilan shug'ullanuvchi qabilalar o'rtasida totemistik qarashlarning kurtaklari paydo bo'lganligini ko'rsatadi.

Neolit davri (m.a. VI-IV ming yilliklar oralig'i) insoniyatning tayyor mahsulotlardan foydalanishi, mahsulotlarni ishlab chiqarishga o'tishi bilan xarakterlanadi. Bu davrga kelib chorvachilik va dehqonchilik paydo bo'ladi, tosh qurollar yanada takomillashtirilib, kulolchilik va qurilish ishlari rivojlanadi, to'qimachilik va hayvon terilaridan buyumlar ishlab chiqarish vujudga keladi.

Hayot kechirish manbalarining ko'payishi, kishilarning yashash uchun yangidan yangi hududlarga ko'chib otishi kengayadi. Bu esa qabilalar o'rtasida hosildor yerlar va ov qilinadigan maskanlarni egallash uchun kurashlarni vujudga keltiradi. Mazkur o'zgarishlar kishilarning tabiat bilan o'sha davr madaniyatining rivojlanishida o'z ifodasini topgan, ya'ni kishilarning dunyoqarashi, ishlab chiqarish munosabatlarini, hayot shart-sharoitlarida tub o'zgarishlarning vujudga kelishiga olib kelgan. Mehnat taqsimotining o'sha borishi, qabilaviy munosabatlarning kuchayishi va mustahkamlanishi, matriarxat davridan patriarxat davriga o'tish kishilar o'rtasidagi munosabatlarni yanada murakkablashtirgan. Magik qarashlar kuchaygan, dehqonchilikka oid afsonalar rivojlangan.

Shunga qaramasdan, neolit davri san'atida kishilarning mehnat faoliyatini aks ettirish asosiy mavzuligicha qolgan.

Loydan turli xil kichik haykalchalar yasash, o'ta sodda badiiy hunarmandchilik va naqqoshlikning rivojlanishi amaliy-dekorativ (bezak) san'atining paydo bo'lishi neolit davri madaniyatining xarakterli xususiyati hisoblanadi. O'sha



So'xdan topilgan tosh tumor.
M.a. II m.y.

davr badiiy hunarmandchiligida kishilar mehnat jarayonlarida estetik tomonlarni his qila boshlaganligi ko'zga tashlanadi. Ularning obyektiv dunyo qonuniyatlarini qanchalik darajada anglab borganligi ham turmushda ishlatilgan ko'plab buyumlar va amaliy bezak san'atida o'z ifodasini topgan. Predmetlarda aks etgan naqshlar, o'z xarakteriga ko'ra, turli xil: parallel chiziqlar, qo'sh spiral, egri chiziqlar, doira va boshqa shakllarda bo'lgan.

Markaziy Osiyoda bronza davri taxminan m.a III ming yillik o'rtalaridan to I ming yillik boshlariga qadar davom etgan. Bronza davrida cho'l va adirlarda chorvachilik madaniyati rivojlangan bo'lsa, janubiy hududlarda hunarmandchilik madaniyati ravnaq topgan. Shu bilan biiga, janubiy hududlarda dehqonchilik taraqqiy etib, shaharlarning vujudga kelish jarayoni

kechgan.

Ilk bronza davrida kulolchilik buyumlariga bir xil geometrik naqsh berish odatga aylangan. Oltintepa (Janubiy Turkmaniston)da olib borilgan qazishmalar shuni ko'rsatadiki, bu davrda muhtasham ibodatxona saroy tipidagi monumental inshootlar qurish birmuncha rivojlanib borgan.

Bronza davrida respublikamizning janubiy hududlarida dehqonchilikning rivojlanishi bilan birga ibtidoiy shahar madaniyati ham taraqqiy eta borgan. Akademik A.Asqarov rahbarligida Sopollitepada (Surxondaryo viloyati hududida) olib borgan qazishmalar bronza davrida shahar madaniyati va hunarmandchilikning qanchalik rivojlanganligini ko'rsatib beradi.



Saymalitosh qoyatosh suratlari

Bronza davri moddiy madaniyati va unga singdirilgan badiiy tafakkurning qay darajada ekanligini Farg'ona shahri yaqinidan topilgan m.a. II ming yillikka oid bronza to'g'nag'ichlar, Chirchiq daryosi yuqori irmog'idan topilgan m.a II ming yillikka tegishli bronza bilaguzuk, Chust madaniyati

manzilgohidan topilgan turli xil taqinchoqlar, idishlar ko'rsatadi.

Ibtidoiy-diniy tasavvurlarning vujudga kelishi badiiy tafakkur namunalarida ham o'z ifodasini topgan. Ibtidoiy davrga oid tasviriy san'at namunalariga e'tibor bersak, ularda diniy va badiiy tafakkur hamda tabiat hodisalariga bo'lgan munosabatlar umumlashib kelganligini ko'ramiz. Masalan, Saymalitosh g'ori (Farg'ona viloyati)dagi suratda qo'lini yuqoriga ko'tarib, quyosh xudosiga topinayotgan va iltijo qilayotgan kishilar tasviri berilgan. Shuningdek, bu suratda doira chalayotgan odam va qo'lini yuqori ko'tarib juft-juft bo'lib raqsga tushayotgan kishilar tasviri berilgan, degan xulosaga ham kelish mumkin.

Mazkur suratlarda ibtidoiy davr kishilarining tabiat hodisalariga nisbatan munosabatlari ifodalab berilgan. Hayvonlar va odamlar tasvirining kengayishi, ov va diniy mavzularning tasvirlanishi ibtidoiy odamlar tafakkurining kengayib borganligini ko'rsatadi.

Ibtidoiy davrning ham moddiy, ham ma'naviy madaniyati ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi natijasida takomillasha borgan. Ibtidoiy davr ma'naviy madaniyatining vujudga kelishida, birinchidan, mehnat qurollarining takomillashib borishi, ikkinchidan, ibtidoiy odam nutqi va ongining ta'siri benihoya katta bo'lgan. Chunki ibtidoiy odam mehnat qurollari orqali, avvalo, o'zining oziq-ovqatlarga bo'lgan biologik ehtiyojini qondirgan bo'lsa, so'ngra ana shu qurollarni ishlatish natijasida o'zini qurshab turgan tabiat sirlariga chuqurroq kirib borgan. Tabiat sirlarini bila borish esa tafakkur taraqqiyoti uchun yo'l ochib betgan. Dastlab to'da, so'ngra urug' jamoasi a'zolari o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar va ijtimoiy hodisalarning shakllana borishi hamda tabiat hodisalarini turli xil vositalar orqali aks ettirishning takomillashuvi ham, sodda ko'rinishdagi ijtimoiy ishlab

chiqarish jarayoniga bog'liq bo'la borgan.

Ilk paleolit davrida ibtidoiy odamlarning obyektiv voqelik haqidagi tasavvurlari birmuncha aniq, hatto o'zlari yovvoyi odam, guruh, aralash oila haqida ham muayyan tasavvurlarga ega bo'lgan. Natijada tartibsiz jinsiy munosabatlar tartibga tusha boshlagan. Turli xil oilaviy an'analar, rasm- rusumlar, udumlar shakllana borgan.

So'nggi paleolit davridan boshlab odamlar atrof-muhitga ta'sir ko'rsatib, o'z tabiatini ham o'zgartira borganlar. Natijada yangidan yangi mehnat malakalari, yangidan yangi madaniy boyliklar yaratila boshlangan. So'nggi paleolitdan boshlab jamoa turar joylari o'zgargan. Endi kishilar yerto'la, yarim yerto'la va yer ustiga chaylalar qurib yashay boshlaganlar.

Bronza davriga kelgach, diniy tasavvur va tushunchalar murakkablasha borgan. Tabiat hodisalarini boshqarib turuvchi g'ayritabiiy kuchlar haqidagi tasavvurlar paydo bo'lgan. Ikkinchi tomondan esa yirik qishloqlar va hatto eng dastlabki shaharlar (ayniqsa, hunarmandlar to'planib yashaydigan shaharlar), qo'rg'onlar, diniy e'tiqod markazi hisoblangan ibodatxonalar vujudga kelgan.

Markaziy Osiyoning ilk bronza davriga oid arxeologik izlanishlar va topilmalar dehqonchilik madaniyati shakllanib, ya'ni chorvachilikdan dehqonchilik ajralib, o'z navbatida, hunarmandchilik ishlab chiqarishining kuchaya boshlaganligini ko'rsatadi.

Bu davrda sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik madaniyati qo'shimcha mahsulot va xususiy mulkning ko'payishiga olib kelgan. Sopollitepa, Jarqo'ton, Kuzamshir, Afrosiyob, Dalvarzin va Chust madaniyatlari hozirgi O'zbekiston hududida metall qurollar va buyumlar ko'plab ishlab chiqarilganligidan darak beradi. Metalldan yasalgan mehnat quroilari mehnat unumdorligining oshishiga, kishilar turmush madaniyatining o'zgarishiga olib kelgan.

Shahar madaniyati va davlatchilikning mustahkamlanishida muhim rol o'ynagan savdo-sotiq nafaqai minlaqa, balki boshqa hududlar va davlatlar bilan iqtisodiy- ijtimoiy, siyosiy va madaniy aloqaning asosiy vositasiga aylangan. Albatta, davlatchilik asoslarining shakllanishi va shahar madaniyatining yuksalishida nafaqat ishlab chiqarish munosabatlari (dehqonchilik va hunarmandchilik)dagi o'zgarishlar va savdo-sotiqning rivojlanishi, balki mintaqamizning tabiiy- geografik joylashuvi hamda g'arbiy-strategik (Sharq va G'arb manfaatlarining to'qnashuvi) ahamiyati ham muhim rol o'ynagan. Mazkur ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy o'zgarishlar hamda ilk davlatchilikning vujudga kelishida eng qadimgi shaharlar: Sopollitepa, Jarqo'ton (Surxondaryo), Yerqo'rg'on, Uzunqir (Qashqadaryo), Kuxatepa, Afrosiyob (Samarqand) va boshqa ko'hna shaharlar muhim rol o'ynagan.

Qadimga davr madaniyati va san'ati taraqqiyotining o'ziga xos xususiyatlari.

Ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi, shahar-qal'alarning paydo bo'lishi, yirik sug'orish va mudofaa inshootlarining qurilishi, ma'muriy va siyosiy boshqaruv tizimi - davlatlarning tarkib topishiga zamin yaratib berdi.

Qadimgi fors va yunon manbalari m.a. VIII - VII asrlarda hozirgi Markaziy Osiyo hududida Baqtriya va Xorazm singari davlatlar paydo bo'lganligi haqida xabar beradi. Persepol saroyidagi tosh qabrlarga bitilgan rasmlar, Naqshi Rostam darasidagi shoh Doro qabriga bitilgan bezakli tasvirlar, «Avesto», qadimgi yunon, rim va xitoy mualliflarining asarlarida hozirgi markaziy osiyoliklarning moddiy va ma'naviy madaniyati haqidagi muayyan ma'lumotlar berilgan.

Markaziy Osiyoda temir davrining boshlanishi taxminlarga ko'ra m.a. I ming yillikning dastlabki choragiga to'g'ri keladi. Temirdan mehnat, ov va jang qurollari ishlab chiqarila boshlanadi. Natijada jamiyatning tabaqalanish jarayoni tezlashib ketadi va ikkinchi mehnat taqsimotini vujudga keltiradi, ya'ni dehqonchilikdan hunarmandchilik ajralib chiqadi. Yirik ishlab chiqarish markazlari – shaharlar paydo bo'la boshladi.

Savdo-sotiqning yuksalishi natijasida mustahkam qilib qurilgan qal'alar xalqning keng iste'mol va tashqi savdoga olib chiqiladigan mahsulotlar ishlab chiqaradigan iqtisodiy va madaniy markazlariga aylana boshladi. Yirik iqtisodiy markaz - shaharlarning vujudga kela borishi uchinchi mehnat taqsimotining vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Jismoniy va aqliy mehnat bir-biridan ajrala bordi. Shaharlarda nafaqat moddiy va madaniy boyiiklami yaratuvchi tabaqalar, shuningdek, ma'naviy-madaniy boyliklar, ma'naviy qadriyatlami yuzaga keltiruvchi tabaqa - aqliy mehnat ahli shakllana boshladi.

Hozirgi o'zbek xalqining qadimgi davr madaniyati Markaziy Osiyoda yashovchi boshqa xalqlar madaniyati bilan chambarchas bog'liq holda ravnaq topgan. Milliy madaniyatimizning rivojlanish jarayoniga e'tibor bersak, xalqimiz milliy ongining rivoji va umuminsoniy madaniyatlarning o'zaro tasiri ostida ro'y berganligini ko'ramiz. Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati rivojida «Buyuk ipak yo'li»ning roli benihoya katta bo'lgan.

M.a. II ming yillikning oxiri va I ming yillikning boshlariga kelib, O'rta Osiyoda Baqtriya, So'g'diyona va Xorazm kabi madaniy jihatdan rivojlangan davlatlar paydo bo'ldi. Mazkur davlatlarning qadimgi davr madaniy taraqqiyoti boshqa bir qator xalqlar: Eron, Xitoy va Hind madaniyatlarining ta'siri ostida ro'y bergan.

Qadimgi moddiy va ma'naviy madaniyatimiz haqidagi ma'lumotlarni, eng avvalo, «Avesto»dan, shuningdek, yunon tarixchilari Gerodot, Kvint Kursiy Ruf, Plutarx, Arrian, Diodor, Strabon, Pompey Trog, Yustin asarlaridan olish mumkin.

Diniy dunyoqarashning murakkablashuvi natijasida tabiat hodisalariga nisbatan dualistik qarashlar shakllana boshlagan. Insonga foydasi tegadigan, inson uchun hayot manbasi bo'lgan hodisalarning o'z xudolari yoki homiylari mavjud degan tushunchalar vujudga kelgan.

M.a. II ming yillik oxirlariga kelgach, Eron va Markaziy Osiyoda Quyoshga sig'inish ancha takomillashib, uning zaminida insonga quyoshdek yorug'lik va issiqlik in'om etuvchi olovga sig'inish - otashparastlik e'tiqodi vujudga keladi. Olovni quyoshning yerdagi o'g'li, degan tasavvurlar chuqurlashadi va Quyosh xudosi Mitra, suv xudosi Anaxita va boshqalarga e'tiqod qilish otashparastlik e'tiqodiga qo'shib ketadi. Eron va Markaziy Osiyoda otashparastlik dini -

zardushtiylik hukmron dinga aylanadi.

Zardushtiylik ta'limoti va e'tiqodlar asosi uning muqaddas kitobi «Avesto»da bayon etiladi. Shuningdek, bu yozma madaniy yodgorlik qadimgi Markaziy Osiyo, Ozarbayjon, Eron va boshqa Sharq mamlakatlarining tarixi, ijtimoiy-iqtisodiy madaniy va maishiy hayoti, tili, yozuvi, xalq og'zaki ijodi haqida ma'lumot bemvchi asosiy manbadir. «Avesto» olimlarning taxminlariga ko'ra, m.a. I ming yillikning birinchi yarmida yaratilgan.

«Avesto» ko'pchilik manbalarda 21 nask-kitob (qism) dan iborat bo'lgan deb ta'kidlanadi.


Beruniy o'zining «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» nomli asarida «Podshoh Doro ibn Doro xazinasida o'n ikki ming qoramot terisiga tillo suvi bilan bitilgan bir nusxasi bor edi. Iskandar otashkadalarni vayron qilib, ularda xizmat etuvchilarni o'ldirgan vaqtda uni kuydirib yubordi. Shuning uchun «Avesto»ning beshdan uchi yo'qolib ketdi. Avesto o'ttiz nask- (qism) edi. Majusiylar qo'lida o'n ikki nask chamasi qoldi», - deb yozadi.

Bizgacha yetib kelgan «Avesto» quyidagi 4 qismdan iborat:

1. «Yasna» («sajda», «ta'zim») — xudolar va olovning muqaddasligi, turli xil marosimlar va urf-odatlar haqidagi qism. Bu qismda olovning oliy xudo Ahura (ulug') - Mazda (donishmand) izmidaligi, olovning insonning gunohkor yoki gunohsiz ekanligini aniqlab beruvchi xususiyati kuylanadi;
2. «Yasht» — Ahuramazda, yer, quyosh, osmon (havo) va suv hamda insonning ma'naviy dunyosi (ma'rifati, axloqi va iymon-e'tiqodi)ni madh etuvchi alqovlar;
3. «Visparad» — ma'budlarni sharaflovchi duolar va ibodat (namoz) payti ularga qarata aytiladigan murojaatlar;
4. «Videvdod» — Ahuramazda va Zardushtning savol-javoblari, yomon ruhlar va devlarni yengish yo'Uari va gunohlardan poklanish qoidalari.

«Avesto», birinchidan, insoniyat tomonidan yaratilgan buyuk yozma madaniy yodgorlik bo'lib, o'zida falsafiy, tarixiy, geografik, etnografik, folkloristik va diniy qarashlar tizimini mujassamlashtirgan o'tmish ajdodlarimizning nodir yodgorligi, ikkinchidan, avlod-ajdodlarimiz tarixidagi birinchi mukammal diniy e'tiqod manbayi. uchinchidan, bu din islom, nasroniy, yahudiylik, mitraizm va monizm kabi ko'plab dinlar, ularning marosimlari, diniy e'tiqodlari manbayi vazifasini bajarganligi sababdan ham uning umumjahon madaniyatidagi o'rni, olam haqidagi tasavvur va tushunchalariga batafsil to'xtalib o'tish joizdir. Eng avvalo, «Avesto» otashparastlik axloqining asosini: a) ezgu fikr; b) ezgu so'z; d) ezgu amal kabi tamoyillardan iboratligini ko'rsatadi.

«Avesto»da kosmogonik tasavvur o'ziga xos tarzda berilgan. Makondagi barcha hodisalar o'ziga xos tarzda tushuntiriladi. Barcha hodisalar bir-biriga qarama-qarshi kuchlarning ayovsiz kurashi natijasi, deb hisoblanadi. Bu kurashda yaxshilik va ezgulikka qarshi yovuz kuchlar qarama-qarshi turadi. Zardushtiylik



Ostadon

falsafasida, birinchidan, butun olam ikkiga bo‘linib, bir- biriga qarama-qarshi kuchlar, qarama-qarshi harakatlar, tasavvurlar va boshqalarning doimiy harakati, olam hodisalarining oddiydan murakkablikka rivojlanishi (olamning to‘rt bosqichda yaratilishi), bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan kuchlar — Ahuramazda va uning yordamchilari, Axriman va uning tarafdorlarining quyidan yuqoriga, yuqoridan quyiga qarab joylashtirilishi, qarama-qarshi kuchlarning to‘xtovsiz va ayovsiz kurashishi talqinida beriladi. Ikkinchidan, zardushtiylik falsafasida to‘rt unsur - yer, havo, suv, olov e‘zozlanadi.

Zardushtiylikda dehqonchilik, yer va unga ishlov berishga alohida e‘tibor beriladi. Muqaddas matnlarda kimki bekor yotgan (o‘lik) yerga suv chiqarib ishlov bersa, u keyingi hayotida mukofot oladi, deyiladi. Hosil berib turgan yerga ishlov bermaslik, sug‘orish tizimini buzish va yerni cho‘lga aylantirish katta gunoh hisoblangan, buning uchun Ahuramazda gunohkorni qattiq jazolaydi, deb ta‘kidlanadi.

Zardushtiylik dini o‘zidan oldingi tabiat kuchlarini ilohiylashtirishga qaratilgan qabilaviy dinlardan o‘zining birmuncha ilg‘orligi va yakka xudo - Ahuramazdaga e‘tiqod qilishi bilan ajralib turadi. U behuda qon to‘kuvchi qurbonliklar, harbiy to‘qnashuvlar, bosqinchiliklarni qoralab, o‘troq va osoyishta hayot kechirishni, mehnat qilishni, chorvachilik va dehqonchilik bilan shug‘ullanishni da‘vat qiladi.

Zardushtiylik xalq madaniyatining nodir yodgorligi sifatida muhim qiymatga ega bo‘lib, birinchidan, u qadimgi Sharqda vujudga kelgan bir qator dinlar, dastlab yahudiy dinining, so‘ngra jahon dinlariga aylangan islom va nasroniylik dinlariga asos bo‘lib xizmat qilgan.

Ikkinchidan, Zardushtiylik ta‘limotiga binoan xudo, quyosh, olov kabilar inson uchun eng zarur hisoblangan narsalar (yer, hayvon, o‘simlik, suv va b.)da namoyon bo‘ladi. Bu esa panteistik falsafaning vujudga kelishiga sabab bo‘ladi.

Uchinchidan, ajdodlarimizdan meros bo‘lib o‘tib kelayotgan axloqiy me‘yorlarning shakllanishiga katta ta‘sir qiladi. Chunki avlod-ajdodlarimiz qadim-qadimdan tabiatni, yer, suv, daraxt, o‘simlik va jonivorlarni e‘zozlab keladi.

To‘rtinchidan, zardushtiylik dini qadimgi yunon madaniyatining rivojlanishiga ham ta‘sir ko‘rsatgan. Chunki yunonlar Zardusht haqida ko‘plab hikoyalar eshitganlar va bu din hamda uning ta‘limoti haqida muayyan tasavvurga ega bo‘lganlar.

Turkiy asotirlarda ham Quyoshga sig‘inish, unga atab qurbonlilar qilish, turli xil marosimlar o‘tkazish haqida ma‘lumotlar uchraydi.

Markaziy Osiyo xalqlarining madaniyati turli tillarda so‘zlashuvchi xalqlar tomonidan yatratilgan M.a. I ming yillikning o‘rtalaridan boshlab Markaziy Osiyo hududlariga turkiy qabilalarning tez-tez ko‘chib kelishlari natijasida, bu yerlarda turli xil tillarning shakllanish jarayoni ro‘y beradi. Murakkab tarixiy jarayonlar tufayli Markaziy Osiyoning ko‘pgina hududlarida forsiy va turkiy xalqlar tillari vujudga kelgan. Bu tillarda so‘zlashuvchi turli etnik guruhlarining iqtisodiy-madaniy aloqalari natijasida urf-odatlar, marosimlari, yashash tarzi, ma'naviy madaniyati bir-biriga o‘xshash bo‘lgan hozirgi Markaziy osiyoliklarning qadimgi


ajdodlari shakllangan.

O'rta Osiyo xalqlarining yagona tarixiy makonda shakllangan madaniyati bir qancha submadaniyatlardan tashkil topgan. Xususan, sak va massagetlar, xorazmiklar, baqtriyaliklar, so'g'diyonaliklar submadaniyati. Ularning diniy e'tiqodlari, urf-odatlari, axloqiy me'yorlardagi umumiyliigi madaniy umumiylikning shakllanishida kata ahamiyatga ega bo'lgan. Xususan, Strabon xorazmiylarni sak- massagetlar turkumiga kiritadi, qadimgi so'g'dlar va baqtriyaliklar turmush tarzi va xulq-atvori bilan o'zaro farqlanmaydi, deydi. Tarixiy va arxeologik manbalarga ko'ra xorazmiylar, baqtriyaliklar va so'g'diylar o'z kiyim-kechaklari, bosh kiyimlari, qurol-aslahalari bilan saklardan farq qilmaganlar. Vohadagi elatlar saklar bilan deyarli bir tilda gaplashganlar. Etnik jihatdan dehqonchilik vohalarida joylashgan elatlarda Amudaryoning yuqori havzasidagi xorazmiylar, Gurgan quyi oqimidagi girkanlar, Kopetdog etaklaridagi umumiy nomdagi parfianlar, Murg'ob havzasidagi marg'iyonlar, Zarafshon, Qashqadaryo vohalaridagi so'g'dlar, Surxondaryo vohasidagi baqtriyaliklar va parkana (farg'ona)liklar tarixiy manbalarda tilga olinadi. Yuqori Amudaryoning ikki sohilidagi barcha elatlar m.a. I ming yillik o'rtalarida yuksak madaniyatga ega bo'lib, irrigatsiya va qurilish inshootlarini, hunarmandchilik sirlarini egallagan, zo'r ma'naviy qadriyatlar yaratgan etnik guruhlar, hatto qo'shni davlatlarga o'z ta'sirini o'tkazganlar.

Hozir biz yashab turgan hududlarda qadim-qadimda sak, massaget va boshqa skiflar dunyosining vakillari yashagan. Keyinchalik skiflar hozirgi Volga, Don, Dunay daryolari bo'ylarigacha bo'lgan hududlarni bosib olganlar. «Skiflar Markaziy Osiyodan tarqalgan edi», - deb yozadi rus olimi A.B.Ditmar o'zining «Skifiyadan Elefantingacha» nomli asarida. Demak, turli sabablarga ko'ra (bizningcha, o'zaro qabilaviy kelishmovchiliklar natijasida) Markaziy Osiyo hududlaridan ketib qolgan skiflar Yevropaning ancha ichkarisigacha cho'zilgan bepoyon o'lkalarga kirib borib yashaganlar va u yerlarda o'ziga xos madaniyatni yaratganlar.

Olib borilgan arxeologik qazishmalar hamda yozma manbalar qadimgi *Xorazm* madaniyati yuksak darajada rivojlanganligini ko'rsatadi. Qadimgi Xorazm davlatining yuksak madaniy taraqqiyotga erishishida bir tomondan, Yaqin Sharq, Xitoy va Shimoliy Hindiston bilan, ikkinchi tomondan, Sharqiy va Janubiy Yevropa (ko'proq Volga daryosi bo'ylari) xalqlari bilan olib borgan madaniy-iqtisodiy aloqalari muhim rol o'ynagan.

Qadimgi Xorazm hukmdorlari mamlakatning iqtisodiy-madaniy jihatdan yuksalishi uchun ko‘plab tadbirlarni: tangalar zarb qilish, boshqa davlatlar bilan savdo-sotiqni rivojlantirish, sug‘orma dehqonchilikni kengaytirish ishlarini olib borganlar. Mamlakatning iqtisodiy taraqqiyoti ko‘plab shaharlar, qal’alar, qasrlar va istehkomlar qurilishida o‘z aksini topgan. Ko‘hna xarobalami tekshinsh bu o‘lkada yirik suv inshootlari, qal’alar, ko‘plab karvonsaroylar mavjud bo‘lganligini, shaharlarda hunarmandchilik va savdo-sotiq gurkirab rivojlanganligini ko‘rsatadi.



Tuproqqal’adagi “Jangchilar zali”

Qadimgi Ko‘zaliqir, Qal’aliqir, Jonbosqal’a, Tuproqqal’a, Ayozaqal’a, Bozoraqal’a, Qangaqal’a, Qirg‘iz kabi ko‘plab qal’alarda olib borilgan arxeologik izlanishlar qadimgi Xorazmning nafaqat moddiy madaniyati, balki arxitektura va amaliy bezak san’ati ham yuksak darajada rivojlanganligidan dalolat beradi. Birgina Tuproqqal’adagi izlanishlarning o‘zi qadimgi Xorazm shaharlarining puxta reja asosida qurilganligini, qurilish san’ati yuksak darajada bo‘lganligini ko‘rsatadi. Qal’adagi saroy nihoyatda mahobatli va go‘zal bunyod etilgan. Saroy ichida joylashgan «Podsho zali», «Jangchilar zali», «Raqqoslar zali», «G‘alaba zali» kabi ko‘plab zallarning har biri o‘ziga xos tarzda bezatilgan.

Xorazm vohasidagi ko‘plab qadimiy qal’alar o‘z qa’rida xorazmliklarning badiiy dunyoqarashi namunalarini saqlab kelgan. Mashhur arxeolog S.P.Tolstov Jonbosqal’a va Tuproqqal’a xarobalarini o‘rganib, Jonbosqal’adan ko‘plab terrakota haykalchalari, Tuproqqal’adan esa qadimgi xorazm hukmdorlari tomonidan zarb qilingan tangalarni topadi. Shu boisdan ham S.P.Tolstov Jonbosqal’ani «Haykallar muzeyi», Tuproqqal’ani esa «Behisob tangalar muzeyi» deb atagan.

Qal’alar (masalan, Qo‘yqirilganqal’a) ichidan topilgan turfa ashyolar Qangyuy davrida (m.a. IV-I asrlarda) qal’a aholisining madaniy hayoti, dunyoqarashi, turmush tarzi qanday bo‘lganligini ko‘rsatadi. Sopoldan yasalgan suvdonlarning tashqi bezaklari, og‘zi odam shaklida ishlangan kichik idishlar, ot va grifonlar surati tusliirilgan turli xil rangdagi sopol ritonlar, kichik hajmdagi sopol haykalchalar, dastasi fil yoki ot bosliiga o‘xshatib yasalgan ko‘zalar qadimgi Xorazm haykaltaroshligi va amahy bezak san’ati haqida ma’lumot beradi. Qal’a xonalari devoriga ishlangan rang-barang naqshlar, hayvon va tasviri, ossuariy-ostadonlar tashqi bezaklari o‘sha davr san’atkorlarining badiiy tafakkuri nihoyatda yuqori bo‘lganligidan dalolat beradi.

Qadimgi Xorazm o‘lkasi tarixi va etnografiyasini keng tadqiq etgan S.P.Tolstov, Ya.G‘ulomov, I.Jabborov va boshqalar xorazmliklarning eng dastlabki diniy tasavvurlari animizm, totemizm, fetishizm, magik ko‘rinishda bo‘lganligi va m.a. I ming yillik o‘rtalariga kelib, quyosh so‘ngra esa olovga sig‘inganliklarini ko‘rsatib o‘tadilar.

Qadimda har bir rivojlangan davlatning o'z yozuvi mavjud bo'lganidek, Qadimgi Xorazm ning ham eng katta ma'naviy boyligi - yozuvi mavjud bo'lgan. Qadimgi Xorazm yozuvi taxminlarga ko'ra m.a. III asrning oxirlari va II asrning boshlarida oromiy yozuvi ta'siri ostida shakllangan. Qadimgi Xorazm yozuvining dastlabki namunasi ilk bor S.P.Tolstov rahbarligidagi ekspeditsiyaning Oybo'yirqal'a va Qo'yqirilganqal'ada olib borgan tekshiruvlar natijasida topilgan edi. Eroncha «Aspabarak» yoki «Aspabadak» («Otda ketayotgan») so'zi xumcha chanbaragi ostiga yozib qo'yilgan. Bundan tashqari yana xumcha va ayolni tasvirlovchi haykalchanning orqa tomoniga yozilgan boshqa yozuvlar ham topilgan.



Oybo'yirqal'adan topilgan xum sirtidagi yozu

Umuman olganda, qadimgi xorazmliklarning afsonalari, yozuvi va diniy qarashlari qal'alardan topilgan san'at va hunarmandchilik namunalari bu o'lka xalqlarining ma'naviy madaniyati, estetik didi va dunyoqarashi nihoyatda yuqori bo'lganligini ko'rsatadi.

Qadimgi davrda madaniy-iqtisodiy jihatdan yuksalgan davlatlardan biri *Baqtriya* davlati hisoblangan. G'arb va Sharqqa boradigan savdo yo'lining markazida joylashgan qadimgi Baqtriya davlati nafaqat Markaziy Osiyo hududidagi moddiy va ma'naviy madaniyatning taraqqiyotiga, balki o'ziga qo'shni bo'lgan boshqa davlatlarning madaniy-iqtisodiy taraqqiyotiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatgan.

Baqtriya yirik shaharlar, qasrlar, istehkomli qal'alar va ibodatxonalari ko'p bo'lgan mamlakat hisoblangan. Shu sababli qadimgi Baqtriya «Shaharlar mamlakati» deb atalgan.

Bu shaharlarda hunarmandchilik va savdo-sotiq rivojlangan. Baqtriyaning shimoliy hududlari (Kobadiyon)dan topilgan «Amudaryo xazinasi» nomi bilan mashhur bo'lgan buyumlar - 179 oltin, 7 kumush buyumlari va o'sha zamonda zarb qilingan 1500 dona kumush va chaqa tangalar (ular orasida Yunon-Baqtriya podshohlari — Diodot va Yevtidemlar tomonidan zarb qilingan tangalar ham bor), oltin zeb-ziynatlar, bilaguzuk, uzuk, majjon, quyma oltindan yasalgan odam, ot-arava, echki, g'oz, baliq va boshqa hayvonlarning haykalchalari, oltin jomlar Yunon-Baqtriya davlatida nafaqat hunarmandchilik va zargarlikning naqadar rivojlanganligidan, balki qadimgi baqtriyaliklarning yuksak estetik tafakkurga ega bo'lganligidan ham dalolat beradi.

Baqtriya davlati eronlik ahamoniylar hukmronligi ostida yashagan paytda Eron madaniyati ta'siri, ayniqsa, mahalliy xalq tilida sezilarli darajada bo'lgan. Aleksandr Makedonskiy (Iskandar Zulqarnayn) boshchiligidagi yunon- makedonlar istilosi davriga kelib yunon madaniyati ta'siri kuchaygan. M.a. III asrdan to Kushonlar davrigacha bo'lgan uzoq davr davomida qadimgi Baqtriya madaniyatining rivoji bevosita ellinistik madaniyat ta'siri ostida tadrijiy ravishda rivojlangan.



Amudaryo xazinasidagi bilaguzuk

Shu boisdan ham Baqtriyada ellinistik san'at namunalari yetuk darajaga ko'tarilgan.

Qadimgi *So'g'diyona* Markaziy Osiyoning madaniy hayotida salmoqli o'rin egallagan. Uning Maroqand, Kesh, Buxoro, Poykand, Varaxsha kabi ko'pgina shaharlari «Buyuk ipak yo'li» ustida joylashgan bo'lib, 25 asr mobaynida Markaziy Osiyoning Sharqu G'arb bilan savdo-sotiq ishlarini olib borishda, xalqaro aloqalarni mustahkamlashda va madaniy taraqqiyotida muhim rol o'ynagan. Qadimgi Afrosiyob (Maroqand) *So'g'diyona*ning moddiy va ma'naviy madaniyati markazi hisoblangan.

So'g'diyona madaniyati A.Makedonskiy bosqiniga qadar ikki yo'nalishda: birinchisi, dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi o'troq xalqlarning madaniyati; ikkinchisi, cho'l va adirlarda chorvachilik bilan shug'ullanuvchi ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi aholi madaniyati shaklida rivojlangan.

Buni qadimgi Afrosiyob xarobalaridan topilgan *gemma* (sirtiga xat, naqsh yoki surat o'yib ishlangan tosh)lardagi suratlar A. Makedonskiy istilosigacha qadimgi *so'g'diyonaliklar* san'atining asosiy mavzularini ko'rsatadi. Gemmalarning birida yoy otuvchi jangchi (o'troq xalq san'ati), ikkinchisida bir tomoniga bo'yniga yoy o'qi sanchilgan serka, orqa tomonida esa qanotli buqa tasviri (chorvachilik va ovchilik bilan shug'ullanuvchi ko'chmanchi va yarimko'chmanchi aholi san'ati) bu fikrimizning dalili bo'lishi mumkin

A.Makedonskiy bosqini qadimgi *So'g'diyona* madaniyatiga o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qolmaydi, biroq ellinlar madaniyatining ta'siri Baqtriya madaniyatiga ko'rsatgan ta'sirchalik bo'lmagan. Eilinar davrida zarb qilingan tangalar, yunonlarga taqlidan yaratilgan buyumlar va idishlarni hisobga olmaganda, *So'g'diyona* hududidan birorta ellinlar uslubida qurilgan shahar xarobasi topilgan emas.

Qadimgi *so'g'diyalar* madaniyatining qay tarzda rivojlanganligini *So'g'diyona* hududidagi madaniy jihatdan taraqqiy etgan Afrosiyob, Navtak-Yerqo'rg'on, Panjikent kabi shaharlar xarobalaridan topilgan materiallar, tasviriy va amaliy bezak san'ati namunalari hamda terrakota haykalchalariga qarab aniqlash mumkin.

Afrosiyob xarobalarini o'rganish natijasida topilgan tangalar, idishlar, terrakota haykalchalari va gemmalarda tasvirlangan yunon ma'budalari suratlari hamda eilinar bosh kiyimida tasvirlangan jangchilar tasviri bu shahar ellinistik madaniyatning markazi bo'lganligini ko'rsatadi.

Qadimgi Navtak (Yerqo'rg'on)da olib borilgan arxeologik izlanishlar bu shaharda nafaqat hunarmandchilik, balki tasviriy va amaliy bezak san'atlari ham ancha rivojlanganligini ko'rsatadi. Haykalchalarning tashqi qiyofasi va kiyimlari qadimgi *So'g'diyona* va Baqtriya o'rtasida o'zaro madaniy aloqalar mustahkam bo'lganligini ko'rsatadi. Chunki Yerqo'rg'on (*So'g'diyona*) va Xolchayon (Baqtriya)dan topilgan sopol haykalchalar kiyimlari bir-biriga juda o'xshash bo'lgan.

So'g'diyona tarkibidagi bosh shaharlardan biri bo'lgan Panjikentda olib borilgan arxeologik qazishmalar natijasida bir necha ming bronzadan yasalgan *so'g'd* tangalari, naqsh bilan bezatilgan sopol idishlar, sopol haykalchalar topilgan,

Ibodatxona, saroy va aholi turajoylari devorlari sujetli suratlar bilan bezatilgan. Suratlarida boy-badavlat kishilarning bazmlari, diniy marosimlar, ov va jang manzaralari, sport musobaqalari va hatto dehqonchilikka oid (hosil taqsimoti) suratlar aks etgan.

Yog'ochni o'yib, relyefli shaklda ishlangan tasvirlarda taxtda o'tirgan hukmdor, aravada o'tirgan kishi, sher mingan ayol, sher ovlayotgan otliq, ot choptirib ketayotgan kishi suratlar aks etgan. Shuningdek, Panjikentdan ko'plab devoriy surallar qoldiqlari topilgan bo'lib, bu tasvirlar qadimgi So'g'diyonada rang-tasvir ancha rivojlanganligini ko'rsatadi.

Qadimgi so'g'diyonaliklar ham boshqa xalqlar singari dastlabki davrlarda otoboblar va o'tganlarning ruhlariga sig'inishib, hayvon va tabiat hodisalarini ilohiylashtirganlar, magiya va shomonizmga e'tiqod qilganlar. Tabiat hodisalarini ilohiylashtirish dastlab Quyoshga, so'ngra, olovga sig'inishga olib kelgan. Natijada otash-olov diniy e'tiqoddagi yagona obyektga aylangan. Unga atab yirik-yirik va hashamatli ibodatxonalar qurganlar. O'rta asr arab yozma manbalarida qadimgi So'g'diyonada mavjud bo'lgan otashxona - ibodatxonalar mavjud bo'lganligi haqida ko'plab ma'lumotlar uchraydi. Bu manbalarda otashparastlikka oid ibodatxonalar «otashdon», «otashkada», «otashxona» sifatida, otashparastlar esa «Mug'», «ma'jush» sifatida islom yoyilgan paytda ham saqlanib qolgan muqaddas olov bilan bog'liq bo'lgan marosimlar haqida so'z yuritiladi.

Ma'lumki, qadimgi So'g'diyonaning katta qismida, ayniqsa, Buxoro vohasida Siyovushga atalgan bayram — xotirlash kuni o'tkazilgan. Bu kun ertalab zardushtiylar ibodatxonasiga erkaklar xo'roz, ayollar esa tovuq keltirganlar. Mazkur bayram «Qizil gul sayili» («Sayili guli surx») deb atalgan. So'g'diylar o'rtasida Siyovush obraziga hurmat shunchalik baland bo'lganki, hatto uning obrazini tabiatning tirilishi va o'lishi xudosi darajasiga ko'targanlar.

So'g'd yozuvi m.a. I ming yillikning oxirlarida oromiy yozuvi ta'siri ostida vujudga kelgan bo'lib, asosan 25 harfdan iborat bo'lgan. So'g'd yozuvi savdosotiq bilan shug'ullangan hududlarda keng tarqalgan. So'g'd yozuvi namunalari Sinszyan, Mug' qal'asi, Afrosiyob, Toshkent, Quva va boshqa joylardan topilgan.

So'g'dlar nafaqat savdo ishlarida mashhur bo'lganlar, balki o'zlarining san'atlar bilan ham «Buyuk Ipak yo'li» tarmog'i bo'yicha qator mamlakatlarga yetib borgan, ayniqsa, Xitoyda mashhur bo'lgan. Xitoy manbalarida ko'rsatilishicha, xitoyliklarning barcha bayramlari va imperator saroyida tashkil etilgan tantanalarda so'g'diyonalik san'atkorlar faol ishtirok etganlar.

Umuman olganda, Markaziy Osiyoda istiqomat qilgan barcha xalqlar va elatlar umumiy madaniy taraqqiyot va milliy madaniy qadriyatlarimizning shakllanishiga o'z hissalarini qo'shganlar.

Antik davr madaniyati va san'ati

Aleksandr Makedonskiyning Markaziy Osiyo hududlarini zabt etishi natijasida yunonlar bilan mahalliy xalqlar, Yevropa bilan Osiyo o'rtasida o'zaro iqtisodiy-madaniy aloqalar vujudga kelgan. Yunonlar osiyoliklarning madaniyatiga, osiyoliklar esa yunonlar madaniyatiga qiziqish bilan qaray

boshlaganlar. Makedonskiy qo'shinlari bilan bosqinchilik va qirg'in urush dahshatlari kirib kelgan bo'lsa, shu bilan birga, o'ziga xos yunon madaniyati ham kirib kelgan. Yunon tili davlat tili hisoblangan. Yunon yozuvi hatto islom dini kirib kelgunga qadar ham muomalada bo'lgan.

Aleksandr Makedonskiy o'rta osiyoliklarning madaniyati va san'atiga, urf-odatlarini, marosimlari, diniy e'tiqodlari va hatto, kiyim-kechagiga alohida e'tibor berish orqali mahalliy xalq va yunon istilochilari o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni, ziddiyatlar va kelishmovchiliklarni bartaraf etishga, turli xalqlar qarishig'ini vujudga keltirish hamda yagona til va madaniyat birligini qaror toptirishga harakat qiladi. Natijada u saroyda mahalliy xalq udumlari va liboslarini joriy qiladi, mahalliy aholi bolalari uchun yunon maktablarini tashkil etadi, aralash nikohga yo'l ochadi.

Makedonskiy o'z bosqinchilik siyosatini hamda Yunon-Makedoniya ta'sirini singdirishda mahalliy shart-sharoitni, xalqning azaliy an'analari, marosimlari va diniy e'tiqodini hisobga olgan bo'lsa, Salavkiylar bu siyosatni amalga oshirishda qattiqqo'llik, ya'ni G'arbga xos diktatura siyosatidan foydalandi. Mahalliy aholini, uning madaniyatini umuman inkor etish, noiblarni faqat yunonliklar orasidan tayinlash, mahalliy boshqaruvda ko'plab harbiy istehkomlar, inshootlar qurib, harbiy kuch orqali aholini bo'ysundirib turish tadbirlariga zo'r berganlar. Chunonchi, Aleksandrning yunon va mahalliy madaniyatlarini o'zaro uyg'unlashtirishdagi sa'y-harakatlari bo'lganini bilgan holda, salavkiylarning, aksincha, tobe xalqlar orasida faqat yunon madaniyatini targ'ib etishni vazifa deb bilganliklarini qayd etish lozim.

Salavkiylar davlatidan ajralib chiqqan eng yirik antik davlatlardan bo'lgan Yunon-Baqtriya davlati davridagi madaniyat ellinizm va mahalliy xalq madaniyatining o'ziga xos, ya'ni iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy hayot va mafkurada ellinizm va mahalliy xalq madaniyatlarining uyg'unlashuvi tarzida ro'y bergan. Mahalliy badiiy uslub natijasida yaratilgan buyumlar: oltin va kumush kosa, lagan, medalonlarga turli xil afsonalar, marosimlar, bayramlarning elementlari, xudolar, o'simlik va hayvonlar tasviri tushirilgan. Xudolardan Anaxita va Mitra, olma ushlab turgan ona va chavandoz haykallari yaratilgan.

Ellinizm madaniyatining, shu jumladan, Yunon-Baqtriya davlatchiligi va madaniyatining rivojlanishida o'sha davr yunon-baqtriyaliklar dinlarining sintezlashuvi muhim rol o'ynagan. Bu davrning hukmron dini zardushtiylilik bo'lsa-da, mahalliy diniy tasavvurlar yunon mifologiyasidagi timsollar bilan chatishib ketgan. Ikkala xalq e'tiqod qilgan xudolarning tangalar va ibodatxonalarini bezab turuvchi suratlari hamda haykallar va boshqalarda birgalikda tasvirlanishi yunon madaniyatining hukmronlikni butunlay o'z ixtiyoriga olmaganligini ko'rsatadi. Yoki yunonlar e'tiqod qiluvchi xudolar mahalliy xalq kiyimida, Zevs, Gelios kabi



Yevkratidning oltin tangasi

yunon xudolari baqtriyaliklar e'tiqod qiluvchi Mitra singari boshidan nur sochuvchi xudo shaklida tasvirlangan.

Yunon-Baqtriya davlati hududida hukmron til - yunon tili, tarixi, adabiyoti va madaniyatini o'igatishga mo'ljallangan va uni targ'ib qiluvchi ko'plab maktablar, gimnaziyalar, teatrlar, kutubxonalar tashkil etilgan.

Yunonlar o'z san'atlarining hukmronligiga erishishga harakat qildilar. Natijada mahalliy xalqning, ayniqsa, shahar aholisining doimiy ko'z o'ngida namoyon bo'lib turuvchi va yunoncha ruhni sezdirib turuvchi san'at turlari: arxitektura, haykaltaroshlik va tasviriy san'atga mahalliy xalqning diniy e'tiqodi va ruhiyatiga chuqurroq kirib borish maqsadida yunon xudolariga e'tiqod qilishni yoyishga alohida e'tibor berdilar, yunoncha uslub asosida qurilgan shaharlarni bunyod etdilar. Bu shaharlar jumlasiga hozirgi shimoliy Afg'oniston hududidagi qadimgi Oyxonum, hozirgi Tojikiston hududidagi qadimgi Saksanoxur va Taxtisangin, hozirgi O'zbekiston hududida qurilgan qadimgi Dalvarzintepa, shuningdek, Yerqo'rg'on Aleksandriya Esxata (chekka Aleksandriya) va boshqa shaharlarni kintish mumkin. Mazkur shaharlar arxitekturasida yunonlarning Ioniy va Korinfcha uslublaridan, bazalt ustunlar, ustunlarning muqarnas qismida akanf yaproqiari, palmetta tasvirlaridan keng foydalandilar. Eng yirik shaharlardan biri hisoblangan Oyxonum (Amu Aleksandriyasi)ga alohida e'tibor beradilar. Unda Yunoniston ruhini sezdirib turuvchi teatrlar, gimnaziyalar, kutubxona, yunon xudolari uchun ibodatxona, qasrlar, saroylar, haykallar bilan bezatilgan favvoralami quradilar.

Bu sa'y-harakatlar, birinchidan, mahalliy xalqning haykaltaroshligi, arxitekturasi, tasviriy san'ati va badiiy hunarmandchiligiga o'z ta'sirini ko'rsatgan bo'lsa, ikkinchidan, mahalliy xalq san'atining rivojlanishiga sabab bo'ldi.

Ellinistik san'atning mahalliy xalq san'atiga ko'rsatgan ta'siri, eng avvalo, mahalliy san'atkorlarning ellinlar san'atidan andaza olishi, ya'ni unga taqlid qilishi shaklida (yuqori qismida haykalning bosh qismi o'matilgan, Zevs va Dionis haykallari tagliklari, Afrodita haykallarining topilishi), ikkinchidan, yunonlar san'atiga mahalliy san'atkorlarning ijodiy yondashuvlari shaklida (Gerakl, Afina va Nikalarning sopoldan yasalgan terrakota haykalchalari) ko'zga tashlanadi.

Yunon arxitekturasi uslublari binolarning tashqi ko'rinishlarida ham o'z ifodasini topgan. Ayniqsa, binoning devor peshtoqlarida piramon (peshtoqda naqsh yoki bo'rtma haykalchalar)dan foydalanilgan. Masalan, qo'hna Ayritom shahri xarobalari o'rganilganda, bino peshtoqida ishlatilgan 7 ta piramon topilgan.

Yunon-Baqtriya davlatida nafaqat arxitektura, haykaltaroshlik va tasviriy san'at taraqqiy etgan, balki teatr va musiqa san'atlari ham ancha rivojlangan. Bunga misol tariqasida Baqtriya hududidagi Oyxonum shahri xarobalari tagidan topilgan bir nechta teatr qoldiqlarini ko'rsatish mumkin. Bu teatrlarda yunonlar tragediyalari sahnalashtirilgan. Mahalliy aholiga tushunarli bo'lishi uchun tragediyalar namoyishida ko'proq «maskars» (niqob) va «mim» (so'zsiz harakat) uslublaridan foydalanganlar. Raqs, ko'zbo'yamachilik, masxarabozlik, akrobatik harakatlar va musiqa spektakllarining muhim elementlari hisoblangan.

Amaliy bezak san'atida ko'proq afsonaviy ramzlardan foydalanilgan.

Binoning muqamas qismiga sherlar, yirtqich qushlar, burgut yoki arslon boshli, arslon gavdali baliyabat qanotli maxjuq — grifonlar, idishlar sirtiga esa turli hayvonlar tasviri tushirilgan.

Kushonlar davri madaniyati

Mamlakatimiz davlatchiligi va madaniyati taraqqiyoti tarixida yorqin iz qoldirgan sulolalardan biri Kushonlar sulolasi hisoblanadi. Kushonlar yangi era boshlarida Markaziy Osiyodagi va unga chegaradosh bo‘lgan barcha hududlardagi siyosiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlarni birlashtira olgan va hukmronlikni boshlab bergan suloladir.

Kushonlar Sharqning minglab yillar davomida shakllanib kelgan an’anaviy va ellinlashgan madaniyatlari hamda Osiyoning keng dashtlarida shakllangan ko‘chmanchi va yarimko‘chmanchi xalqlar madaniyatlarini bir-birlari bilan sintezlashtira (uyg'unlashtira) olgan sulola hisoblanadi.

Kushonlar taxt tepasiga kelgach, asosiy e'tiborni iqtisodiy hayotni mustahkamlashga, ya'ni, birinchidan, dehqonchilik madaniyatini yuksakka ko'tarish uchun sun'iy sug'orish shoxobchalarini ko'paytirishga, ikkinchidan, o'sha davrmng eng kuchli davlatlari bo'lgan Rim, Parfiya va Xitoy bilan savdo-sotiqni rivojlantirishga, uchinchidan, tarqoq hududlarni birlashtirish maqsadida pul islohotini amalga oshirishga qaratadilar. Natijada dehqonchilik va hunarmandchilik, savdo-sotiq gurkirab rivojlanadi.

Kushoniy hukmdori Kudzula Kadfiz oltin va misdan zarb qilingan tangalami muomalaga chiqaradi. Oltin tangalaming qiymati uning og'irligiga qarab belgilangan. Ko'shk dinor, dinor, yarim va chorak dinorlar muomalaga kiritilgan. Bir dinor 8 gramm oltinga teng bo'lgan.

Kushonlar saltanati tarixidagi oltin davr, ya'ni ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-madaniy taraqqiyotda eng yuqori darajaga erishilgan davr Kanishka davri (78-123-yillar) hisoblanadi.

Kanishka saltanatda hukmronlik qilgan yunon va hind tillari o'miga Kushon-Baqtriya tilini joriy qiladi. Tangalarga Baqtriya yozuvi zarb qilinadi. U muomalaga cliiqargan tangalarga hindlarning xudosi Shiva tasvirini tushirtirib, unga o'z nomidan «Shohlarning shohi - ulug' xaloskor» yozuvini zarb ettiradi. Kanishka Buddaviylikm davlat dini deb e'lon qiladi. Davlatning diniy mafkurasi sifatida budda dinidan foydalangan bo'lsa-da, boshqa diniy jamoalarning faoliyati uchun ham erkinliklar beradi.

Muomalaga chiqarilgan tangalarga hind, zardushl va yunon xudolarining nomi va tasvirining tushirilgatiligi ham diniy e'tiqodda tenglikka e'tibor berganligini anglatadi. Natijada Kushonlar saltanati sarhadlarida buddaviylik, zardushtiylik, jaynjzm, shivaizm, manaxiylik va yunon xudolariga birdek sig'inilgan.

U mamlakatda budda diniga atab e'tiqod markazlari — budda rulii saqlanadigan stupalar va ulaming yonida ibodatxonalar qurishga alohida e'tibor beradi.

Buddaviylik biz yashayotgan hududlarda keng tarqalgan, hatto qadim

ajdodlarimizning asosiy diniy e'tiqodiga aylangan. Hozirgi O'zbekiston hududida markaziy budda ibodatxonalari (Ko'hna Termiz, Quva va boshqa joylarda) mavjud bo'lgan. Bu ibodatxonalarda o'z davrining mashhur buddaviy kohinlari faotiyat ko'rsatganlar.

Kushonlar imperiyasi davrida saltanatda har xil dinlarga e'tiqod qilingan, masalan, qadimgi Baqtriyada buddaviylikka e'tiqod qilish keng tarqalgan bo'lsa, Xorazm, Buxoro, Samarqand viloyatlari hududida zardushtiylikka e'tiqod qilish kuchliroq bo'lgan.

Hozirgi Surxondaryo hududidagi Fayoztepa va Qoratepadagi ibodatxonalar ko'rinishi bilan Hindistondagi budda ibodatxonalaridan ajralib turadi. Budda haykali ham Hindistonda keng tarqalgan budda haykallaridan farq qiladi. Ma'lumki b' buddaning uchta o'ziga xos farqlanuvchi tomonlari - peshanasida dog', boshining o'rtasida do'nglik va qulog'ining solinchog'i uzun bo'lishi bilan farqlangan. Qoratepa va Fayoztepadan topilgan budda haykallarida bunday o'ziga xosliklar bilan birga budalaviy boshi atrofi yog'du — nur yoki alanga bilan o'ralgan. Ikkala manzilgohdan topilgan Budda haykallari esa ko'proq Sharqiy Turkiston va Uzoq Sharqdagi buddaviylarning ibodatxonalari va suratlariga o'xshab ketadi. Lekin Sharqiy Turkiston va Uzoq Sharqqa buddaviylik birmuncha keyin tarqalgan. Demak, bundan buddaviylik Sharqiy Turkiston va Uzoq Sharqqa O'rta Osiyo orqali tarqalgan, degan xulosaga kelish mumkin.



Fayoztepadan topilgan
Budda haykali

Markaziy Osiyodan yetishib chiqqan ruhoniylar (kohin)lar buddaviylik ta'limotlarining dastlab Xitoyda, so'ngra Quriya (Koreya) orqali Yaponiyada keng tarqalishida muhim rol o'ynaganlar. Ular buddaviylik ta'limotiga oid manbalarni Xitoy tiliga tajjima qilishib, diniy maktablarni tashkil etishda ishtirok etganlar.

Turli davrlarda olib borilgan arxeologik izlanishlar natijasida Kushonlar sulolasi davrida madaniy-iqtisodiy jihatdan rivojlangan shaharlar xarobalari topilgan. Birgina qadimgi Baqtriyada hududidagi Xolchayon, Dalvarzintepa, Zartepa, Qadimiy Termiz, Qoratepa, Fayoztepa, (hozirgi O'zbekiston), Ayritom, Bagram, Surxko'tal va Dilbarjin (hozirgi Afg'oniston)da olib borilgan qazishmalar Kushonlar davri ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-madaniy hayoti haqida tasavvur hosil qilishga yordam beradi.

Kushonlar saltanati davrida me'morchilik rivoj topgan. Mustahkam istelikomlar bilan o'rab olingan shaharlar qad ko'targan. Shahar ichidagi saroylar, qasrlar va arkalarning ichki bezagi va tashqi ko'rinishiga alohida e'tibor berilgan. Me'morchilikda monumental haykaltaroshlik, tasviriy va amaliy bezak san'atlari uyg'unlashtirilgan. Binoning tashqi bezagida piramonlardan keng ko'lamda foydalanilgan bo'lsa, ichki bezakda amaliy va tasviriy san'at hamda haykaltaroshlikdan foydalanilgan. Bunga misol tariqasida qadimgi Ayritomdagi ibodatxona peshtoqini bezab turgan



Ayritom frizi

sozandalar haykalini olib ko'rish mumkin.

Mazkur frizlarda tasvirlangan sozandalar budda dini bilan bog'liq bo'lgan hind afsonalaridagi beshta "Muqaddas tovush taratuvchi" sozandalar tasviri bo'lishi ham mumkin. Rivoyatlarga ko'ra, Buddaning beshta sozanda hamrohi bo'lib, ular chiltor, tor, nog'ora, ud va hind nog'orasini chalishib Buddaga lazzat bag'ishlab yurganlar. Sozandalarningyuz tuzilishi, kiyimi va bezaklariga qarab, ularning baqtriyaliklar ekanligini bilish mumkin.

Qadimgi Xolchayondagi shahzoda saroyining ichki bezagi me'morchilikda tasviriy san'atdan foydalanish qay darajada bo'lganligini ko'rsatadi. Saroydagi qabulxona devoriga tushirilgan suratlar diqqatga sazovor bo'lib, suratda shoh, malika va saroy ahlari tasvirlangan.

Shoh o'tiradigan sahnaning chap tomoniga otlarini yeldek uchirib borayotgan kamonli otliqlar tasviri tushirilgan. Devorlarning yuqori qismida ikki metr balandlikkacha haykallar joylashgan. Saroy devorlarini bezab turgan haykallar va suratlarda tantanavor rnhdagi qabul marosimi va jang manzarasi tasvirlangan.

Bu davr haykaltaroshligi, tasviriy va amaliy bezak san'atlarida, umuman, Kushonlar davri madaniyatida mahalliy xalqlar, ellinlarva ko'chmanchi yuechji qabilalari madaniyati sintezlashib kelgan. Kanishka davriga kelib tasviriy va amaliy bezak san'atlarida ellinizm an'analari o'rnini budda dini bilan bog'liq bo'lgan mavzular egallay borgan. Buning asosiy sabablaridan biri Kanishkaning buddaviylikni davlat dini deb e'lon qilishi bo'lsa, ikkinchidan, Hindistonning Kushonlaming taxminan 400 yillik hukmronligi ostida bo'lganligidir. Buning natijasida ilgari faqat savdo-sotiq orqali mavjud bo'lgan madaniy aloqalar kushonlar davrida yaxlit jarayonga aylangan. Ko'hna Termiz va Ayritom xarobalarida sopol va toshga bitilgan sanskrit, kharoshta hamda Kushon - Baqlriva yozuvlari namunalari topilgan.

Xullas, Kushonlar davri arxitekturasi, tasviriy san'ati va haykaltaroshligining taraqqiyotini o'zida aks ettiruvchi ibodatxonalar Dalvarzintepa, Zartepa, Dilbarjin va boshqa qadimgi shaharlaming xarobalari o'rnidan ham topilgan.

Qadimda din har qanday jamiyatning davlat mafkurasi vazifasini bajargan. Aholiga mafkuraviy ta'sir ko'rsatish ko'pincha san'at asarlari orqali amalga oshirilgan. Buddaviy kohinlaming ham diniy ta'sir ko'rsatishning bu yo'lini tanlashi tabiiy. Buddaviylikning asosiy ta'timoti san'at asarlariga singdirilgan. Ibodatxonalar budda va bodisatvalar haykallari bilan bezatilgan. Ibodatxona devorlariga ularning hayotini aks ettiruvchi suratlar chizilgan. Amaliy bezak san'atida ham diniy mavzuga e'tibor berilgan.

Shunday qilib, Kushonlar o'zlarining taxminan 400 yillik hukmronligi davrida ko'pgina obod shaharlarni bunyod etishib, noyob san'at asarlarini yaratib, insoniyat taraqqiyotida o'chmas iz qoldirganlar. Ular ko'plab sug'orish inshootlarini - Xorazmda Gavhar va Charmanyob, Buxoroda Gav Kitfor, So'g'diyonada Darg'om kanallaritii qurdiradilar. Kulolchilik ravnaq topib, yorg'uchoqlar o'miga tegirmonlar paydo bo'ladi.

Nazorat savollari:

1. Qadimgi davr madaniyatining shakllanishida muhim rol o'ynagan omidlarni tahlil qiling.
2. Ibtidoiy san'atning mazmun-mohiyatiga baho bering.
3. Antik davr madaniyati taraqqiyotida ellinistik an'analar qanday rol o'ynadi?
4. Kushonlar davri madaniyatining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlang.

3-mavzu: Ilk o'rta asrlar madaniyat va san'ati

Reja:

1. Eftaliylar davri madaniy taraqqiyoti.
2. Turk xoqonligi davri madaniyati va san'ati.
3. Arab istilosining mahalliy madaniyat va san'atga ta'siri.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:

Eftaliylar davlati, Turk xoqonligi, mahalliy davlatlar, qo'rg'onlar, ko'shklar, pandus, terrakota, koroplastika arablar istilosi, arab istilosining mahalliy madaniyat va san'atga ta'siri.

Eftaliylar davri madaniy taraqqiyoti

Kushonlar saltanati inqirozga uchragach, hayot sahnasida yangi bir davlat - Eftalitlar davlati paydo bo'ldi. Eftalitlar qadimgi Orolbo'yi ko'chmanchi massagetlar avlodlaridan bo'lib, o'z davrida o'ta jangariligi va hujumkorligi bilan ajralib turganlar. Shu sababli qisqa vaqt ichida Sharqiy Turkistondan Kaspiy bo'ylarigacha bo'lgan katta hududlarni o'zlariga bo'ysundirganlar. Hatto, sosoniylardan bo'lgan podshoh Peruzni ham (459484) mag'lubiyatga uchratib, eroniylarni o'lpon to'lashga majbur qilganlar.

Qabila-urug'larning azaliy an'alariga qat'iy bo'ysungan hamda ko'chmanchi va yarimko'chmanchi hayot kechiruvchi eftaliylarda ko'p erlilik (poliandriya) an'anasi, ya'ni aka-ukalaming bir ayolni xotinlikka olishi hamda zodagonlaming ko'p xotin olish an'anasi, yuqori tabaqa vakilining 20 va undan ortiq do'stlarga ega bo'lishi va vafot etganda o'zining sevimli oti va do'stlari birgahda dafn etilishi kabi an'analar qonun darajasida bo'lgan.

Eftalitlarda hokimiyatni boshqarish maxsus kengash zimmasida bo'lgan. Hokimiyat tepasida kengash ma'qullagan kishi turgan. U taxtni kengash tasdiqlagan qonun asosida boshqargan. Qabul qilingan huquq me'yorlari barcha uchun qat'iy qonun tusiga ega bo'lgan. Masalan, o'g'rilik uchun kim boiishidan qat'iy nazar, eng avvalo, o'g'irlangan mol o'n baravar qilib undirib olingan, so'ngra o'lim jazosiga mahkum etilgan.

Eftalitlarning kuchli davlatga ega bo'la borishi ularning o'troqlashuviga olib kelgan, sun'iy sug'orish shoxobchalari kengayib, dehqonchilik madaniyati yuksala borgan. Qalin mudofaa devorlari bilan o'ralgan istehkomli qal'alar, qo'rg'onlar soni tezlik bilan ko'paygan.


Bu davrda Amudaryo, Surxondaryo, Qashqadaryo, Zarafshon va Chirchiq daryolari bo'ylarida dehqonchilik rivojlanadi. Mazkur daryolardan suv ichuvchi shaharlarda hunarmandchilik taraqqiy etadi. Ayniqsa, kulolchilik, chilangarlik,

shisha ishlab chiqarish, bo‘zchilik va sarrojlik, zargarlik va qurolsozlik yuksaladi.

Eftalitlar davrida Xorazm, So‘g‘diyona. Baqtriya va Shosh viloyatlarida mustahkam va hashamatli qo‘rg‘onlar vujudga kelgan. Savdo-sotiqning gurrkirab rivojlanishi eftalitlar davlatchiligi iqtisodiyotining yanada rivojlanishiga olib keladi, harbiy qudratini yana oshiradi. Tashqi savdogaipak, bo‘yoq mahsulotlari, rangli shishalar, qimmatbaho tosh, arg‘umoq otlar, matolar, qurol-yarog‘lar chiqariladi.

Albatta, mamlakatning iqtisodiy taraqqiyoti nafaqat mamlakatning madaniy hayotiga, balki unga chegaradosh bo‘lgan boshqa davlatlar va mintaqalar bilan bo‘ladigan madaniy aloqalariga ham samarali ta’sir ko‘rsatadi. Eftalitlar mamlakat ichkarisidagi katta-kichik shaharlarda hashamatli binolar qurdiradi.

Eftalitlar davri arxitekturasida ikki qavatli qilib qasrlar qurish odat tusiga kiigan. Qasrlar shaharning markazida, tuproq bilan baland qilib ko‘tarilgan joyda (eng baland qismi yoki tuproq bilan sun‘iy ravishda ko‘tarilgan balandlik – *pandus* tepasiga) qurilgan. Masalan, hozirgi Buxoro viloyati hududida joylashgan qadimgi Varaxsha, Poykand shaharlari, Xorazmdagi Tuproqqal’a shahri, Qashqadaryo viloyatidagi qadimgi Zakhoki Moron qasrlari ana shunday sun‘iy tepalik ustiga quriigan bo‘lib, tashqi ko‘rinishidan nihoyatda mahobatli bo‘lib ko‘ringan.



Xorazmdagi Yakkaparson qo'rg'oni

Eftalitlar davri arxitekturasida, eng avvalo, ibodatxona yoki qasrning tashqi mahobatlilikiga va uning ichki bezaklariga alohida e’tibor berilgan. Ichki devorlar rangli suratlar, naqshlar va haykallar bilan bezatilgan. Masalan, hozirgi Surxondaryo viloyati hududida joylashgan qadimgi Bolaliktepa shahrida quriigan qasr devorlarida saqlanib qolgan devoriy suratlar o‘zining nafaqat tabiiyligi, rangdorligi, balki maishiy hayotning bir bo‘lagini badiiy tasvirlashi bilan ham ajralib turadi.

Haykaltaroshlikda ko‘proq *terrakota* (loydan ishlanib xumdonga pishirilgan sirlanmagan va rang berilmagan mayda haykalchalar) va *koroplastika* (ayollar haykali) haykaltaroshligidan foydalanilgan. Bu davr haykaltaroshligida hudud va unda yashovchi kishilarning kiyim-kechaklari, taqinchoqlari va o‘xshash tomonlari ko‘zga tashlanib turgan. Ma’bud yoki ma’budalar haykallari (albatta yirik va ulkan haykallar yasalmagan)da uni yaratuvchi haykaltaroshning diniy dunyoqarashi o‘z ifodasini topgan.

Eftalitlar davrida Poykent shahri, Tuproqqal'a (hozirgi Xorazm hududida), qadimgi Chochdagi Oqtepa qal’asi, qadimgi Varaxsha qo‘rg‘onlan shaharsozlikning namunalari hisoblangan. Misol tariqasida Varaxsha qo‘ig‘onini olib qarasak, eftalitlar davrida me'morchilik san'ati qanchalik rivojlanganligining guvohi bo‘lamiz. Varaxsha qo‘rg‘oni ulkan kvadrat shaklida mustahkam tepa ustiga qurilgan. Binoning devorlari ganch bilan suvalgan va devoriy suratlar biian bezatilgan.

Eftalitlar davrida saroylar, ibodatxona va boy-badavlat kishilarning

turajoylari ichki bezagida sujetli tasviriy san'at asarlari va turli xil naqshlardan foydalanish odatiy tusda bo'lgan. Masalan, Bolaliktepa qasri devorlariga tushirilgan ziyofat marosimi nihoyatda yorqin bo'yoqlar bilan chizilgan bo'lib, unda gilamchalar ustida juft-juft bo'lib tiz cho'kib o'tirgan erkak va ayollar tasvirlangan. Bolaliktepa qasri devorlarida tasvirlangan ayollarning tashqi qiyofasi VI asrda eftalitlar hukmdori huzurida bo'lgan budda kohinini hayratga solgan saroy zodagoni ayollarini eslatadi.

Eftalitlar davrida diniy e'tiqodlar xilma-xilligi - zardushtiylik, Anaxita va Mitraga, buddaviylik, iudizm va nasroniylik mavjud bo'lgan. Buxoro vohasida esa ko'proq Siyovushga e'tiqod qilish rivojlangan.

Siyovushga e'tiqod qiluvchilar Navro'z kuni uning qabri atrofida katta bayram o'tkazganlar. Bu bayram «Navro'zi kishavarzon» — «Dehqonlar navro'zi» deb atalgan. Buxoro otashparstlari Siyovush dafn etilgan joyni aziz tutganlar va unga atab har yili har bir erkak Navro'z kuni Quyosh chiqmasdan o'sha joy da bittadan xo'roz so'yadi. Buxoro aholisining Siyovushning o'ldirilishiga bag'ishlab aytgan marsiyalari bo'lib, u barcha vitoyatlarida mashhur bo'lgan. Kuychilar unga moslab kuy tuzganlar va qo'shiq qilib aytgan. Qo'shiqchilar uni «otashparastlar yig'isi» deb ataganlar.

Shuningdek, Eftalitlar davrida O'rta Osiyo va Sharqiy Turkistonda money dini keng tarqala boshlaydi. Moniychilik tasviriy san'atni diniy marosimlarga olib kiradi. Tuproqqal'a (Xorazm), Varaxsha (Buxoro) va Panjikent (Tojikiston Respublikasi) dagi ibodatxonalar bezaklari bu fikrimizning dalili bo'la oladi. Xususan Panjikentdagi suratda motam marosimi tasvirlangan.

Eftalitlar o'z urf-odatlari, ayniqsa, dafn marosimlariga ko'ra kuchli tabaqalanishga ega bo'lganlar. Oddiy eftalitlar murdasi tuproqqa qo'yilgan. Boy-badavlat kishilar vafot etganda esa, ularning jasadi maxsus tayyorlangan tosh dahmaga qo'yilgan. Urug' boshlig'i vafot etganda, juda katta tantana bilan dafn marosimi o'tkazilgan. Odatga ko'ra urug'ning eng boy-badavlat kishilari 20 va undan ham ko'proq sodiq do'stlarga ega bo'lgan.

Xulosa qilib aytganda, eftalitlarning 100 yildan oshiqroq hukmronligi davri Markaziy Osiyodagi xalqlarning jipslashuvi, turli qabilalarning qo'shilishi, iqtisodiy va madaniy hayotning yanada rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etgan.

Turk hoqonligi davri madaniyati va san'ati.

V asrning ikkinchi va VI asming birinchi yarimlarida Oltoy va Janubiy Sibir hududlarida uyushgan yangi bir kuch - turk qabilalar ittifoqi vujudga keladi. Bu ittifoqning eng ko'zga ko'ringan boshlig'i Bumin VI asrning o'rtalarida Jujan xoqonligiga katta zarba beradi va o'zining Turk xoqonligiga asos soladi. VI asrning 70-80-yillariga kelib, Enasoy daryosining yuqori oqimidan to Amudaryo bo'ylarigacha, Manjuriyadan Kimmeriy Bosforigacha bo'lgan ulkan hududlar Turk xoqonligining tasarrufiga o'tadi.

Turklar o'zlari bosib olgan hududlarning ichki hayotiga aralashmaydilar va hokimiyatni yerli sulolalar hukmdorlari orqali boshqaradilar. Natijada, Turk xoqonligi tasarrufidagi ko'plab mayda hokimiyatlar vujudga keladi. Xoqonlikka

kiruvchi yerli sulolalar hukmdorlarning boyishi uchun xalqni ayovsiz talashi, urug'-aymoqchilikning kuchayib ketishi va mayda yer egalarining hokimiyat uchun zimdan kurash olib borishi tufayli Turk xoqonligi 603-yilda ikki mustaqil davlatga - Mo'g'ulistonda tashkil topgan Sharqiy turk davlati va Markaziy Osiyo, Jung'oriya hamda Sharqiy Turkistonni birlashtirgan G'arbiy turk xoqonligiga bo'linib ketadi.

VII asrning birinchi choragida G'arbiy turk xoqonligi kuchayib, shimoliy chegaralarini Oltoy bududlarigacha, janubiy chegaralarini esa Hind daryosi bo'ylarigacha kengaytiradi. Yettisuv G'arbiy turk xoqonligining markaziga, Siyob shahri esa uning poytaxtiga aylanadi.

G'arbiy xoqonlik aholisining kattagina qismi o'troq hayot kechirib, dehqonchilik bilan, shaharlar va yirik qishloqlar aholisi savdo-sotiq hamda hunarmandchilik bilan mashg'ul bo'lganlar. Hunarmandchilikning kulolchilik, to'qimachilik, misgarlik, chilangarlik, temirchilik, zargarlik kabi turlari ancha rivojlangan. Farg'ona va So'g'diyonada oltin, mis, temir, simob va boshqa ma'danlar qazib olingan. Hunarmandchilik, dehqonchilik va savdo-sotiqning rivojlanishi, birinchidan, o'troq aholining jipslashuviga sabab bo'lgan bo'lsa, ikkinchidan, aholining madaniy jihatdan taraqqiy etishining asosiy omili bo'lib xizmat qilgan.

VII asrning boshlariga kelib ishlab chiqarish jarayonining rivojlanishi, savdo-sotiq va hunarmandchilikning taraqqiy etishi yangidan yangi shaharlar va qishloqlarning vujudga kelishiga ta'sir ko'rsatadi. Buxoro, Zarafshon, Qashqadaryo va Xorazmning keng dashtlarida yangi qo'rg'on va qal'alar qurilib, ularga suv chiqarilib, atroflar obodonlashtiriladi.

Bu davrga kelib, xoqonlik hududida ko'plab qal'alar, qo'rg'onlar, qasrlar, saroylar, ko'shk va sardobalar qurilishi keng avj oladi. Bu inshootlarning qurilishida, birinchidan, hunarmandchilik, ikkinchidan, savdo-sotiq, uchinchidan, mahalliy hukmdorlarning shuhratparastligi (chunki ular o'zlarini haqiqiy hukmdor, xoqon deb hisoblaganlar), to'rtinchidan, markazlashgan xoqonlik tomonidan boshqarilsa-da, yerli mayda feodal hokimlar o'rtasida o'zaro nizo, bir-biriga ishonchsizlik tufayli o'z-o'zini himoya qilishga bo'lgan intilish kabi sabablar muhim rol o'ynagan. Shu boisdan mazkur arxitektura inshootlarining qurilishi bir necha baravar oshib ketgan. Masalan, Xorazm vohasidagi Burgut qal'a mavzeyida 100 ga yaqin, Buxoro atrofida 4000 ga yaqin qasrlar, Chochda 50 dan ortiq katta-kichik istehkomlar, yirik yer egalari qo'rg'onlari, ko'shk va obod qishloqlar qad ko'taradi.



Bolaliktepa devoriy suratlari

Markaziy Osiyoga shimoldan turkiy qabilalarning ko'chib kelishi natijasida (m.a. 2 asrdan boshlab) turkiy lahjalar va shevalarda gaplashish odat tusiga kitgan. Turkiy til so'g'd va yunon tillari bilan bir qatorda muomala tiliga aylangan, ya'ni eron lahjalari va shevalarida so'zlashuvchi ayrim gumhlar turkiy tilda so'zlasha

boshlaganlar.

Eron tillari guruhidagi tillar zaminida fors-tojik tillari vujudga kelganidek, turkiy tillar zaminida o'zbek, turkman, qozoq, qirg'iz, uyg'ur va boshqa turkiy tillar paydo bo'ladi.

Eramizning boshlaridan VIII asrgacha bo'lgan davrda ijtimoiy hayotda ro'y bergan barcha o'zgarishlar me'morlik, haykaltaroshlik va tasviriy san'atda o'z ifodasini topgan. Tasviriy san'at, haykaltaroshlik va me'morlikning ilk o'rta asrarga xos bo'lgan jihatfari ko'proq o'sha davrda qurilgan turli qasrlar, saroylar, qal'alar, qo'rg'onjar, ko'shldar, ibodatxonalar, otashkadalar va ulami bezagan rasmlarda, budda va nasroniylik ibodatxonalariga o'rnatilgan haykallar va sanamlarda, zarb etilgan tangalarda, xilma-xil bezaklarda o'z aksini topgan.

O'sha davrning o'ziga xos san'at asarlarini hamda bu san'at asarlarini yaratgan me'morlar, haykaltaroshlar va musavvirlarning dunyoqarashi,



Varaxsha devoriy surati

intilishlariyu orzu-umidlarini qadimgi Bolaliktepa, Panjikent, Varaxsha, Afrosiyob, Quva va boshqa qadim shaharlar xarobalaridan topilgan devoriy suratlar, haykallar, ganchkor naqshlar, turli xil zeb-u ziynatlarda ko'rish mumkin. Bu yodgorliklar ilk o'rta asming o'ta murakkab siyosiy va iqtisodiy, madaniy va maishiy hayotining sermazmun va serjilo, jozibali va ayanchli, zavqli va

munгли manzaralarini o'z bag'rida yashirib kelgan. Misol uchun, Bolaliktepadan topilgan devoriy suratlardagi qo'llariga qadah tutgan juft-juft ayol-u erkaklarning tasviri o'sha davr hayotining jozibadorligini ko'rsatib bersa, Varaxsha saroyidagi oq fil ustidagi filbon va boshqa pahlavonlarning old va orqadan chovut solayotgan arslon hamda qanotli grifonlar bilan jang qilishi insonning hayot va yashash uchun kurashini ko'rsatib beradi.

Panjikent xarobalaridagi qariyb 15 metrga cho'zilgan rangtasvirda to'riq otliq suvoriy boshchiligida choparlarning yurishi, ularning dushman bilan olishuvi, suvoriyrung ajdaho va otliq dushmanga qarshi yakkama-yakka janggi, chokarlarning devlar to'dasi bilan kurashi tasvirlangan. Suratning oxirida qulagan ajdahoni yanchib tashlab, o'z chokarlarini boshlab borayotgan suvoriyning g'alaba nashidasini surishi tasvirlangan.

Panjikent xarobalarida xona devorlariga chizilgan suratlar turli xil mavzulaga bag'ishlangan. Bu suratlardan biri dehqonchilikka bag'ishlangan bo'lib, yana bir tasvirda Siyovushning o'limi bilan bog'liq bo'lgan aza marosimi ifodalangan.



Afrosiyob devoriy surati

Qadimgi Afrosiyob xarobalarida topilgan suratda esa tantanali yurish tasvirlangan. Suratda tasvirlangan oq fil, uning ustiga oʻrnatilgan taxtiravonga joylashib olgan malika, uning joriyasi, ot minib olgan hamrohlari va qoʻriqchilari koʻz oldingizda namoyon boʻladi. Bu suratda hukmdorning uylanish marosimiga oid kelin (malika)ni tushirib kelish lahzasi tasvirlangan boʻlishi mumkin. Malikani kuzatib kelayotgan ayollarning birinchisining qoʻliga soʻgʻdcha «malikaning yangasi» deb yozib qoʻyilgani bundan dalolat beradi.

VI-VII asrlar Markaziy Osiyoda sanʼatning rivojlanganligi bilan xarakterlanadi. Ayniqsa, musiqa va qoʻshiqchilik sanʼatlari yuqori darajaga koʻtarila boradi. Musiqa va qoʻshiqchilik sanʼatlarining rivojlanishi Soʻgʻdiyona hududida yaqqol sezilib turgan.

Qadimgi Markaziy Osiyo musiqa madaniyati yuksak darajada rivojlanganligini mintaqaning turli hududlarida olib borilgan arxeologik qazislimalar natijasida topilgan ashyoviy dalillar ham koʻrsatadi. Bunga musiqachilar tasviri tushirilgan turli xil buyumlar va idishlar dalil boʻla oladi. Jumladan, V-VI asrlarga oid Bolaliktepadan topilgan tasvirda bazmi jamshid tasvirlangan boʻlib, unda chang va nay chalayotgan sozandalar, qoʻshiq kuylayotgan xonanda koʻzga tashlanadi.

Ushbu davr sanʼatkorlari nafaqat Markaziy Osiyoda faoliyat koʻrsatganlar, balki boshqa davlatlarda tashkil etilgan bayram, tantana va bazmlarda ham ishtirok etganlar. Xususan, Markaziy Osiyolik sanʼat ahli bilan xitoylik sanʼatkorlar oʻrtasida doimiy hamkorlik mavjud boʻlgan. Markaziy osiyolik sanʼatkorlar Xitoyda boʻladigan tantanalarda va bayramlarning doimiy ishtirokchisi boʻlgan. Xitoy imperatorlari saroylarida oʻtkaziladigan tantanalarda Turkistondan borgan dorbozlar, akrobatlar, koʻzboylagʻichlar, olovyutgich va purkagich afsungarlar hamda qiziqchilar oʻz mahoratlarini zavq-shavq bilan namoyish qilganlar. Hatto Xitoyning Chanon shahri aholisi qoʻgʻirchoq oʻyinini ilk bor VII asrda Turkistondan borgan sanʼatkorlar ijrosida tomosha qilishga muayassar boʻlgan.

Qadimgi Markaziy Osiyoning ilm-fani dunyoning barcha madaniy jihatdan taraqqiy etgan hududlaridagi singari, eng avvalo, dehqonchilik madaniyatining, hunarmandchilik va iqtisodiy-madaniy aloqalarning rivojlanishi bilan bogʻliq holda

vujudga kelgan. Bizgacha yetib kelgan ko'pgina hujjatlar, taqvimlar va boshqa yodgorliklarda ko'rsatilishicha, qadimgi Markaziy Osiyoda ilmi nujum, handasa, yer ilmi, fizika va boshqa tabiiy fanlar taraqqiyotida birmuncha ilgarilash mavjud bo'lgan.

Bu davrda, ayniqsa, turli elatlar va xalqlarning tili va yozma adabiyoti, san'ati va fani taraqqiy etib, qo'shni davlat va hududlar: Hindiston, Eron, Vizantiya, slavyan xalqlari madaniy taraqqiyotiga o'z ta'sirini ko'rsatgan. Ushbu davlatlar bilan iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalarning yo'lga qo'yilishi madaniy boyliklarning boshqa o'lkalarga yoyilishi va boshqa xalqlar madaniy hayotining ilg'or yutuqlarini o'rganish imkonini yaratib bergan. Bu davrda diniy dunyoqarashda o'zgarishlar ro'y bera boshlagan.

Turk xoqonligi hududlarida o'troq, ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi aholi yashaganligi sababli, ularning diniy qarashlarida ham turli-tumanlik mavjud bo'lgan. Masalan, o'troq aholi o'rtasida ko'proq zardushtiylik, buddaviylik, moniylik dinlari asosiy diniy e'tiqodlar bo'lgan bo'lsa, ko'chmanchi aholi o'rtasida ko'proq totemizm va shomonlik hukmron diniy tasavvurlar hisoblangan. Yarimko'chmanchi aholi o'rtasida ham totemistik, ham zardushtiylik, ham xristianlik, ham monizm, ham Anaxita va Er Xubbiga sig'inish mavjud bo'lgan.

Tohariston, Farg'ona, Yettisuv va Sharqiy Turkistonda buddaviylik dini keng tarqalgan. Shu sababli bu hududlarda olib borilgan qazishmalar natijasida ko'plab budda ibodatxonalari topilgan. Masalan, Tohariston hududidagi Balx shahrida yuzga yaqin, Termizda o'nga yaqin, Kabodiyonda uchta hamda Farg'ona vodiysidagi qadimgi Quva shahri xarobalaridan ikkita buddaviylarning ibodatxonalari topilgan. Quva shahridagi ibodatxonalarda olib borilgan arxeologik qazishmalar natijasida loydan yasalgan rang-barang haykal va haykalchalar qazib olingan.

Turk xoqonligi davrida O'rta Osiyo va u bilan muntazam ravishda madaniy aloqalar olib boruvchi Sharqiy Turkiston hamda Xitoy xalqlari mafkuraviy hayotida moniylik dini ham muhim rol o'ynagan. Ma'lumki, moniylik dini zardushtiylik, nasroniylik va buddaviylik dinlarining qo'shiluvi natijasida vujudga keldi. Uning asoschisi Moniy hozirgi Iroqda 216-yilda tug'ilgan bo'lib, mazkuruchala dinning asosiy jihatlarini: zardushtiylikdan ezgulik va yovuzlikning o'zaro kurashi; buddaviylikdan taqvodorlik yo'lini; nasroniylikdan missiya (xudoning vakili) g'oyalarini birlashtirib, dastlab qadimgi Midiya va Eron hududlarida targ'ib qila boshlaydi. Eron shohi Bahrom I tomonidan 277-yili qatl etiladi.

Turk xoqonligi davrida moniylik So'g'diyona, Tohariston, so'ngra, Sharqiy Turkiston va Xitoyda keng tarqaiadi. Sharqiy Turkiston va Xitoyda keng tarqalishida so'g'diyonalik missionerlarning roli benihoya katta bo'lgan. VIII asrda



Moniylik koinlari tasvirlangan surat va so'zda yozuv. Tarim vodiysi

uyg'ur xoqonlari moniylikni davlat dini deb e'lon qiladilar. Xitoy imperatorlari esa so'g'dlarga xitoy hududlarida ibodatxonalar qurishga va moniylikni targ'ib qilishga ruxsat beradi.

Moniy va uning izdoshlari o'z ta'limotlarini targ'ib qilishda san'atga, ayniqsa, uning musiqa va tasviriy san'at turlariga alohida e'tibor beradilar. Turk xoqonligi davridagi haykaltaroshlik va qo'shiqchilik san'atlarining rivojlanishida buddaviylik va zardushtiylikning o'rni ham beqiyos katta bo'lgan. Sababi, buddaviylikda Budda ibodatxonalar va stupalar bezagida nafaqat terrakota haykalchalar, balki relyefli va gorelyefli haykallardan ham keng ko'lamda foydalanilgan. Mazkur haykallarda Budda va uning izdoshlari hisoblangan bodhisatvalarning haykallari yaratilib ibodatxonalarga joylashtirilgan.

Zardushtiylik dini esa qo'shiqchilik san'atining rivojiga beqiyos darajada katta ta'sir ko'rsatgan. Chunki, zardushtiylik ibodatida Ahuramazda va boshqa ezgu kuchlar qo'shiq bo'lib kuylanuvchi goxlar (qo'shiqlar) orqali madh etilgan, yovuz ruhlarga la'nadar o'qilgan.

Oltoy hamda Janubiy Sibirdan ko'chib kelgan turkiy qavmlar o'rtasida shomonga e'tiqod qilish ham saqlanib qolgan. Chunki ko'chmanchi chorvador qavmlarda hali urug' jamoasi an'analari saqlab qolgan edi. Xuddi shuningdek, tuproq, suv, olov va havoni yaratgan Ko'k tangriga e'tiqod qilish, unga atab ot, sigir, va qo'y qurbonlik qilish marosimi ancha muqim bo'lgan.

Turkiy qavmlarning olovga e'tiqodi nihoyatda yuqori bo'lgan. Chunki ularning tasavvuriga ko'ra olov tozalovchilik xususiyatiga ega. Qadimgi turklarda qavmga begona bo'lgan kishi ular yashayotgan hududga kirganda yoki qavm oqsoqoli (hukmdori) huzuriga kirayotganida albatta ikki olov orasidan o'tish shart bo'lgan.

Turk xoqonligi davriga kelib, buddaviylik markazlari O'rta Osiyoning madaniy jihatdan birmuncha rivojlangan markazlari Buxoro, Balx va Bomiyyonda saqlanib qolgan. Arablar istilosi arafasida Buxoro hududida ko'plab buddaviy ibodatxona (Vihara)lar saqlanib qolgan. Arablar Poykent shahrini ishg'ol qilganlarida shahardagi ibodatxonalarda kumushdan yasalgan budda butlarini to'plab, eritadilar.

Islom dinining Turk xoqonligi hududiga kirib kelguniga qadar, mamlakatda turli xil bayramlar nishonlangan. O'rta Osiyo xalqlarining asosiy odat, marosim va bayramlari koinot, tabiat, fasllar va mehnat faoliyati bilan bog'liq bo'lgan. Ajdodlarimiz koinotda yer harakati bilan bog'liq to'rt ulug' kunni ham belgilab, nishonlashga odatlanishgan: tabiatning kun-tun tengligi - Navro'z; yozgi quyosh turishi, suvga ehtiyoj kuchaygan vaqt - Angom (Vaxshangom); kuzgi tengkunlik-Mehrjon (Chir-ruj, Nim-sarda); qishgi quyosh turishi, sovuq avjiga chiqqanida (qishki chilla) isitishga ehtiyoj kuchaygan paytda Sada-Olov bayrami (gulxanlarda isinish) kabilarni uyushtirishgan.



Nirvanadagi Budda. Ajinatepa

Nazorat savollari:

1. Ilk o'rta asrlarda madaniy taraqqiyotga iqtisodiy-ijtimoiy va siyosiy o'zgarishlar qanday ta'sir ko'rsatdi?
2. O'rta asrlarda mavjud diniy e'tiqodlar madaniyat va san'at taraqqiyotida qanday rol o'ynadi?
3. O'rta asr me'morchiligining o'ziga xos xususiyatlariga baho bering.

4-mavzu: IX-XIII asrlarda O'zbekiston madaniyati va san'ati

Reja:

1. IX-XII asrlarda madaniy taraqqiyot omillari
2. Me'morchilik va amaliy san'at taraqqiyoti
3. Xattotlik va miniatyura san'ati

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:

Uyg'onish davri, islom ma'naviyati, arab yozuvi, hadisshunoslik, tasavvuf, sufiylik, madrasa, masjid, maqbaralar, rabot, karvonsaroy, turkiy til, turkiy yozma adabiyot, kulolchilik, shisha san'ati, zargarlik, hattotlik va miniatyura san'ati.

IX-XII asrlarda madaniy taraqqiyot omillari

Mamlakatimiz tarixida IX-XII asrlar ilk Uyg'onish davri nomi bilan ataladi. Bu davr milliy madaniyatimizdagi eng yorqin sahifalardan biri bo'lib, nafaqat moddiy madaniyat, balki ma'naviy madaniyatning barcha sohalarida yuqori darajaga erishilgati davrdir.

Uyg'onish davri — bu, eng avvalo, ijtimoiy taraqqiyotda ishlab chiqarish munosabatlarining ham, ma'naviy hayotning ham yangi bosqichga o'tish davridir, ya'ni eski ishlab chiqarish munosabatlari va ma'naviy hayotning yangisiga o'tishidir.

Uyg'onish davri madaniyati tushunchasi, birinchidan, muayyan millat yoki xalqning ma'naviy mahdudlikdan ozod bo'la borishi, milliy qobiqdan chiqib, dastlab hududiy, so'ngra umumjahon ma'naviyatiga ta'sir ko'rsata borishi, ikkinchidan, tanazzulga yuz tutgan yoki boshqa kuchliroq xalqlar ma'naviyati tazyiqiga uchragan, tarix sahnasidan tushib ketishga mahkum etilgan millat, elat yoki xalqning milliy madaniyatini qaytadan jonlantirish, tiklash, rivojlantirish va yuksak darajaga ko'tarilishini anglatadi.

IX -XII asrlar Movarounnahr va Xurosonda vujudga kelgan Somoniylar, Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Saljuqiylar, Xorazmshohlar davlatlari, eng avvalo, iqtisodiy jihatdan yuksalishga erishdilar. So'ngra islom ma'naviyatiga asoslangan madaniy taraqqiyotni vujudga keitirdilar.

Arab xalifaligi bosib olingan yerlarda islom dini keng yoyilib, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy hayot xalifalik tartib-qoidalariga butunlay bo'ysundirilgan edi. Uyg'onish davri madaniyatining taraqqiy etishida islom dini — yangi mafkuraning yovilishi muhim omil bo'ldi.

Xalifalik tarkibiga kiritilgan o'lkalarda faqat islom dinigina emas, balki arab

tili va uning imlosi ham joriy etildi. Islomni qabul qilgan aholining arab tili bilan muloqoti, ibodat vaqtlarida qur'on suralarini tilovat qilishdan iborat bo'lgan bo'lsa, mahalliy zodagonlar arab tilini xalifalik ma'murlari bilan yaqinlashish va mamlakatda o'z siyosiy mavqelarini tiklab uni mustahkamlashning garovi deb hisoblaydilar. Arab tiliga bo'lgan bunday ehtiyoj va intilish tufayli ko'p vaqt o'tmay Movaraunnahrda xatto o'z ona tilidan ko'ra arab tili va yozuvi o'zlashtirib olgan bilimdonlar paydo bo'ldi. Chegaralari borgan sari kengayib, ulkanlashib borayotgan xalifalikni boshqarishda xalifalik ma'muriyati bilimdon siymolarga muhtoj edi.

Sharq Uyg'onish davri madaniy taraqqiyoti boshida o'sha davr hukmdorlarining o'zlari turganlar va madaniy jarayonning rivojlanishiga imkoniyat yaratib berganlar. Masalan, Sharq Uyg'onish davri madaniyati rivojlangan paytda o'sha davrning hukmdorlari - xalifa Xorun ar-Rashid, uning o'g'li Ma'mun, Somoniylar, Qoraxoniylar va boshqa sulolalarning vakillari turganlar. Ular islomning mustahkamlanishiga, ma'rifatning tarqalishiga, turli xil fan sohalarining rivojlanishiga boshchilik qilganlar. O'zlarining poytaxtlariga o'sha davrning ko'zga ko'ringan olimlari, fiqhshunoslari, muhaddislar, tarixchilar, shoirlar, me'morlar, san'atkorlarni to'plagan. Maxsus ilm markazlari, kutubxonalar, madrasalar barpo etib, ulami mablag' bilan ta'minlab turganlar. Shu boisdan ham IX asrdan boshlab ilm-fan, adabiyot va san'at, me'morchilik va teologiya yuksak darajada rivojlana boshlaydi.

Bu davrning donishmandlari insonning o'ziga, atrof-muhitga, o'tmish madaniy merosiga bo'lgan munosabatlarini o'zgartirishga alohida e'tibor beradilar. Inson, uning taqdiri, kelajagi, orzu-umidlari, his-tuyg'ulari fan va san'atning asosiy mavzusiga aylanadi. Madaniy va ma'naviy ta'sir real insonga qaratiladi. Natijada kishilarning dunyoqarashi o'tmishga bo'lgan bahosi axloqiy va estetik qarashlari o'zgarib boshlaydi.

Umuman olganda, Uyg'onish davri madaniy taraqqiyotning eng muhim xususiyati - ijtimoiy-ma'naviy taraqqiyotda muayyan etnik birliklarning milliy madaniyatini, milliy qadriyatlarini qayta tiklash va yuksaltirishga bo'lgan yuqori darajadagi bunyodkorlik intilishlari bilan xarakterlanadi.

XI asrlarda arab xalifaligi, shu jumladan, Movarounnahr va Xurosonda nafaqat dehqonchilik, balki metallurgiya, to'qimachilik, hunarmandchilik kabi sohalar ham rivojlanib, ilm-fanning rivoji uchun ehtiyoj tug'dirdi. Natijada matematika, astronomiya va boshqa tabiiy fanlar, shuningdek, jamiyatni boshqarish, uning ma'naviy-mafkuraviy hayotidagi muammolar yechimini topishga yordam beruvchi ijtimoiy-gumanitar fanlar ham rivojlandi.

Tabiiy va ijtimoiy-gumanitar fanlarning yuksalishidagi asosiy omillardan yana biri shuki, bu davrda turli xil nazariyalar, qarashlar va g'oyalarni ilgari suruvchi oqimlarning paydo bo'lishi va turli fikrlar uchun keng yo'lning ochib berilganligidir. Bu oqimlar nafaqat islom nazariyasi va ta'limoti, balki tabiat hodisalari va uning qonuniyatlari hamda inson va uning mehnati, yaratuvchilik salohiyati haqidagi turli xil nazariyalar va ta'limotlarni ilgari suradilar.

O'rta Osiyoda IX-XIII asr boshlarida hukm surgan Somoniylar,

Qoraxoniylar, G'aznaviylar va Xorazmshohlar davlatlari xalqaro maydonda o'z mavqei va tutgan o'rni jihatidan katta e'tibor va nufuzga ega bo'ldilar. Bu davrda O'rta Osiyoda hayotning barcha jabhalarida yuksalishlarga erishildi, davlat hokimiyati mustahkamlandi, nisbatan tinchlik, osoyishtalik va barqarorlik vujudga keldi. Jumladan, Somoniylar davlatining paydo bo'lishi mintaqamiz madaniy taraqqiyotining yuksalishiga zamin hozirladi. Natijada Somoniylar davrida umuminsoniy madaniyat, ayniqsa, ilm-fan taraqqiyotida o'z izini qoldirgan Muso Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy va Ibn Sino singari buyuk mutafakkirlar yetishib chiqdilar.

Bu davr ilm-fanining rivojlanishidagi asosiy omillardan yana biri - ilm ahllariga ko'rsatilgan g'amxo'rlik, homiylik, hurmat-ehtiromning yuqori darajadagidir. Bu davrda olimlarning shohlardan ham ko'ra ulug'roq deb hisoblanishining o'zi ilm ahliga bo'lgan munosabatni ko'rsatadi.

Sharq Uyg'onish davri ilm-fanining rivojlanishida V-VI asrlarda Sharqning ko'pgina shaharlariga ko'chib kelib yashagan yevropalik olimlar ham muhim rol o'ynaydilar. Ular yordamida qadimgi yunon mutafakkirlarining asarlari arab tiliga tarjima qiltna boshlangan. Sharqning Forobiy, Beruniy, Ibn Sino kabi buyuk siymolari ana shu tarjimalar orqali qadimgi yunon falsafasi, adabiyoti, tabobati, matematikasi, fizika va mexanikasiga oid asarlar bilan tanishib chiqadilar. Musulmon madaniyatining vujudga kelishida arab, yunon, eron va hind madaniyatlarining o'zaro qo'shiluvi ham muhim rol o'ynagan.

Markaziy Osiyo va Xurosondan yetishib chiqqan buyuk muhaddis va fiqhshunos olimlar islom dinining nazariy jihatdan mustahkamlanishida o'z hissalarini qo'shdilar. Xususan, islom olamida dovrug' taratgan muhaddis-hadishunoslar - Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy (810-870) va Iso at-Termiziy (824-892) bizning vatandoshlarimizdir.

Markaziy Osiyodan yetishib chiqqan buyuk allomalar islom olamida keng tarqalgan tasavvuf tariqatlarining ayrimlariga ham asos solganlar. Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro kabi buyuk vatandoshlarimiz tomonidan asos solingan sufiylik tariqatlari islomdagi umuminsoniy axloq me'yorlarining takomillashuviga, azaliy muammo bo'lib kelgan inson muammosini hal qilishga o'zining hissasini qo'shganligi bilan qimmatlidir.

IX-XI asrlarga kelib turkiy tilning shakllanishi va rivojlanishi uchun qulay sharoit vujudga keladi. Bunda, birinchidan, Movarounnahr va Xuroson hududlarida Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Xorazmshohlar, Saljuqiylar kabi turkiy sulolalar hukmronligi natijasida uning saroy tiliga aylana borganligi, ikkinchidan, dehqonchilik, hunarmandchilik, savdo-sotiq aloqalarining diniy e'tiqodlar va umuminsoniy xususiyatga ega bo'lgan urf-odatlar hamda marosimlaming, ya'ni ham moddiy, ham ma'naviy madaniyatning rivojlana borishi va shakllanishida muhim rol o'ynadi. Bu borada Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asari turkshunoslik va uning tarixiga oid ko'plab faktik materiallarni o'zida qamrab olgan qimmatbaho manba hisoblanadi.

O'rta asrlarda Movarounnahr, Shosh, Farg'ona, Yettisuv va Sharqiy Turkistonda yashayotgan turkiy xalqlarning ham qadim davrlardan buyon davom

etib kelayotgan og'zaki adabiyoti bilan bir qatorda yozma adabiyot rivojlana boshladi. Natijada turkiy olamning nodir didaktik dostoni - Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig», («Qutga, baxt-saodatga erishtiruvchi bilim») asari, Ahmad Yugnakiyning «Hibatul haqoyiq» («Haqiqat armug'oni») asarlari o'rta asr turkiy xalqlarining eng noyob yozma yodgorliklari hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, bu boshqa diniy e'tiqodlarga amal qiluvchi xalqlar tili, madaniyati bilan tanishish imkoniyatining turli xil yangi oqimlar, yo'llar, qarashlar, ijod turlari va shakllarining keng yoyilishi, mahalliy xalq vakillari uchun noma'lum bo'lgan muqaddas yozuvning, uning mazmun va mohiyatini o'rganishga bo'lgan intilishning kuchliligi, o'sha davr hukmdorlarining ma'rifatga intilishi, o'z zamonasining ilg'or fikrli namoyandalarini, fozilu fuzalolarini, san'atkorlarini yig'ish va ularga homiylik qilish asosida ro'y bergan.

Xullas, bu davr Markaziy Osiyo xalqlari madaniyatining yuksalishi hududiy chegaradan chiqib, mintaqa, so'ngra umumjahon madaniyati taraqqiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatganligi bilan xarakterlanadi. IX-XII asrlar madaniy taraqqiyoti keyingi davr Yevropa Uyg'onish davri madaniyatiga kuchli ta'sir ko'rsatdi.

Sharq Uyg'onish davri madaniyatida asosiy e'tibor insonning ma'naviy dunyosi takomiliga qaratildi. Komil inson, Haqqa intilishga chorlash, imon va e'tiqod yakdilligi, falsafiy tafakkur, san'at va adabiyotning barcha ko'rinishlarining asosiy mavzusiga aylandi,

Ilk Uyg'onish davri madaniyati fan, adabiyot, san'at va me'morlikda insoniyat ijodi mahsulining eng noyob yodgorliklari va asarlarining yaratilishiga, keyingi davr mutafakkirlarining ilhom manbayiga aylangan.


Me'morchilik va amaliy san'at taraqqiyoti

IX-XII asrlarga kelib, Markaziy Osiyo me'morlik san'ati yangi bosqichga ko'tarildi. Bu davrda Movarounnahr va Xorazmning o'ziga xos moddiy madaniyat uslub va shakllari to'xtovsiz rivoj topib borganligini ko'ramiz. Shaharsozlik ravnaq topdi, jumladan, IX asr o'rtalaridayoq Buxoro shahri qalin devorlar bilan o'ralgan bo'lib, uning 11 ta salobatli naqshindor darvozalari bo'lgan.

Markaziy Osiyoning ko'pgina me'morlik yodgorliklari islom dini xususiyatlaridan kehb chiqqan holda qurila boshlangan bo'lsa-da, o'zida islom dinigacha bo'lgan xususiyatlarni ham saqlab qolgan. Me'morlikda pishiq g'ishtdan keng ko'lamda foydalanish, murakkab kompozitsiyalarni yaratish, binoning tashqi va ichki ulug'vorligini ta'minlash imkoniyatini bergan. IX asrdan boshlab arxitekturada g'ishtni turlicha terish orqali bino devorlarida o'ziga xos turli bezaklar, naqsh solish yuksak darajaga ko'tariladi. Darvozalar, eshiklar, darchalar va taxmonlar ravoqli qilib qurila boshlangan.

Bu davrning eng nodir yorgorligi va Markaziy Osiyo me'morligining barcha xususiyatlarini o'zida saqlab qolgan Ismoil Somoniy maqbarasi o'zining tarovatini hozirgi kunimizgacha saqlab qolgan. Bu yodgorlik dastlab o'zining soddaligi va strukturasi aniq, nisbatlarining nihoyatda mutanosibli va me'morlik shakl bezagining bir-biri bilan nihoyatda nafis uyg'unlashib ketganligi bilan ajralib turadi. Maqbara asosi kvadrat bo'lib, uning hajmi katta emas (7,20x7,20 m.), to'rt

tomonida nayzasimon arkli eshik mavjud. Maqbara tashqi tomondan tepaga bir oz torayib boruvchi kub va uning ustiga o'rnatilgan yarim aylana shaklidagi qozonni eslatadi. Binoning tashqi devor yuzasi pishiq g'ishtning turlicha taxlanishi hisobiga badiiylashtirilgan. G'ishtning goh yon, goh burchak qilib qo'yilishi yuzada yorug'—soya o'yinini oshirib, uning xushmanzarali bo'lishini ta'minlagan. Bu yorug'-soya o'yini esa quyosh nurining o'zgarishi bilan turlanib boradi va binoga har safar qaytarilmas joziba kiritadi.




Samarqand, Buxoro, Urganch, Termiz, O'zgan, Marv kabi shaharlarda saroylar, masjidlar, xonaqohlar, madrasalar va minoralar, tim va sardobalar qurilgan. Ayniqsa, naqshinkor mehmonxonalar, hammomlar, karvonsaroylar, ko'rkam va so'lim istirohat bog'lari qurish avj olgan. Ularning mavzuli va manzarali rasmlar va bo'rtma tasvirlar bilan bezatilishiga e'tibor berilgan.

IX-X asrlar me'morchiligining yana bir xususiyati shahar markazi shahristonlarning vujudga kelishidir. Ya'ni shahar markazida turli saroylar, maqbaralar, madrasa va masjidlar, yirik bozorlar, karvonsaroylar va savdo rastalarining qurilganligidir.

IX-X asrlarga kelib Samarqand Movarounnahming eng go'zal shahriga aylandi. XI-XII asrlarda hokimiyat tepasiga Qoraxoniylar va Saljuqiylar keldi. Iqtisodiy-madaniy taraqqiyot natijasida shaharlar o'z qiyofasini o'zgartirdi, yirik inshootlar qurila boshlandi. Ayniqsa, pishiq g'ishtdan ravoqlar va gumbazlar qurilishi an'anaga aylandi. Buxorodagi Raboti Malik o'sha davr me'morligi san'atining noyob yodgorligi hisoblandi.

Bu davr me'morligining yana bir xususiyati binolarda sirli va rangli koshinlardan foydalanilganligidir. Natijada, maxsus hunarmandchilik sexlari ochilgan. Qurilishda foydalaniladigan turli maxsus kasblar paydo bo'lgan. Bu davr me'morligi tarixga «Binokor shoh» nomi bilan kirgan Muhammad Sulaymon Tegin o'g'li Arslonxon katta hissa qo'shgan.


Muhammad Arslonxon davrida ayniqsa, Buxoro me'morchilikning gullab-yashnagan markaziga aylanadi. U Buxoroda ko'plab madrasalar, maqbaralar, timlar, karvonsaroylar qurdiradi. Uning davrida Minorai Kalon (yoki Arslonxon minorasi), Karmanadagi Mirsaid Bahrom maqbarasi, Buxoro atrofidagi Raboti Malik, Vobkent minoralari, Surxondaryodagi Jarqo'rg'on minoralari quriladi. Sutxondaryo viloyatining Jarqo'rg'on tumanida joylashgan Jarqo'rg'on minorasi (1108-1109 yy) 8 qirrali poydevor ustiga yarim aylana shaklida 16 qirrali qilib qurilgan. Uning balandligi 21,6 m, diametri 5,4 m bo'lib, me'mori – Ali ibn Muhammad Saraxsiy.



Minorai Kalon



Mag'oki Attor masjidi



Jarqo'rg'on minorasi

Bu davrning eng ajoyib, kishini hayratda qoldiradigan me'moriy yodgorliklaridan biri Buxorodagi Kalon minorasidir. Balandligi chamasi 60 metrlar bo'lib, qumli bo'ronlar payti uning tepasiga kechalari chiroq yoqib qo'yilgan u adashgan tuyalar karvoni uchun mayoq vazifasini bajargan.

IX- XII asrlarda masjidlar qurilishiga alohida e'tibor berilgan. Masalan, Buxoroning Xazora qishlog'ida qurilgan Dehgaron masjidi XI asrda qurilgan. Buxorodagi Nomozgoh, Mag'oki Attor masjidlari ham xuddi ana shu davrda qurilgan. Bu davrda peshtoq gumbazli maqbaralar qurilishi me'morlikning bir ko'rinishi sifatida keng rivojlangan. Bunda binoga kiraverishdagi peshtoqning bezagiga alohida e'tibor berilgan.

Markaziy Osiyoga islomning kirib kelishi an'anaviy, tasviriy san'atda tub o'zgarishlar ro'y berishiga olib kelgan bo'lsa, naqqoshlik, ganchkorlik, o'ymakorlik, kandakorlik va boshqa xalq amaliy san'atlarining boyishiga ta'sir ko'rsatadi.

Islom talablariga qat'iy bo'ysunish, an'anaviy tarzda rivojlanib kelgan tasviriy san'atning odam, hayvon va qushlarning, ya'ni tirik jonzotlarning aks ettirilishi man etilgan. Natijada, rangtasvir ustalari butun e'tiborini naqqoshlik san'ati rivojiga qaratadi. Arab yozuvi o'zlashtirilib, epigrafika uslubi vujudga keladi. Arab yozuvidan naqsh sifatida foydalanish keng rivojlanadi. Arab yozuvi ham bezak, ham duo-afsun, ham arab yozuvi va ilohiy so'zlarning targ'ibotchisiga aylanadi. Dastlab arab yozuvlaridan binoning ichki qismlarini bezashda foydalanilgan bo'lsa, birmuncha vaqt o'tgandan so'ng, binoning tashqi qismlari, gumbazlar va minoralarning atroflarini bezashda ham foydalanildi.

Binolarni bezashda garih (to'rtburchak, uchburchak, aylana, yoy, to'g'ri, egri va aralash chiziqlardan iborat), kundal, islamiy, ramziy va boshqa turli xil naqshlardan keng foydalanilgan. Naqqoshlikda uslubiy ko'rinishlardan sebarga, uchburchakli tutash doira, olti qirrali yulduz, bargak va boshqalardan foydalanilgan.

Bu davrda yog'och, tosh va ganch o'ymakorligi ham keng rivojlangan. Binolarning tashqi qismiga namoyon (tugal naqsh kompozitsiyasi) ustun va

peshtoqlarga esa, o'yma ganch naqshlaridan ishlatadilar. Har bir chizilgan naqsh ramziy ma'no kasb etgan. Masalan, gulsafsar naqshi osoyishtalik va uzoq umr timsoli hisoblangan bo'lsa, pechak isiimiy naqshi — boylik va farovonlik, novda — to'kin-sochinlik, yaproq shaklidagi naqshlar — bahoriy uyg'onish ma'nolarini anglatgan.

Oltin, kumush, temir, qalay, qimmatbaho va yarimqimmatbaho toshlarning boy xomashyo manbalarining mavjudligi tufayli bu davrda xalq amaliy san'ati yanada rivoj topdi. Jumladan, kandakorlikda qimmatbaho metallardan yasalgan idishlar islom olamining eng chekka burchaklarigacha yetib borgan. Qizil misdan turli xil ko'zalar, idish-tovoqlar, dekchalar, choygumlar, oftobalar, jez va sariq misdan shamdonlar, oq misdan kirtog'oralar, turli xil uy-ro'zg'or buyumlari yasalgan. Oltin suvi yuritilgan ipdan turli xil kiyimlar tikilib, buyumlarga naqshlar solingan. IX-X asrlarda Movarounnahr va Xurosonda puflash yo'li bilan tayyorlangan shisha idishlar va buyumlar Sharqda mashhur bo'lgan.

Musiqa san'atining gurkirab rivojlanishi ham bu davrning yutuqlaridan biridir. Bu davrda xalq ijodiyotining bir turi hisoblangan musiqa madaniyatining nazariy asoslarini organish ayj ola boshlaydi. Musiqa madaniyatining rivojlanishida xalqning an'anaviy tomosha san'ati muhim rol o'ynadi. Mumtoz musiqa madaniyati, ayniqsa, o'zbek va tojik xalqlarining mumtoz musiqasi hisoblangan «Shashmaqom» ning zamini ham xuddi mana shu davrda mustahkamlandi.

Biroq XIII asrda mo'gullar bosqini O'rta Osiyo madaniy taraqqiyotining izdan chiqishiga olib keldi, biroq uni batamom to'xtatib qo'ya olmadi. Buxorodagi XIII—XIV asr me'morlik namunalari bunga dalildir.



Raboti Malik karvonsaroyi

1261 yilda bunyod etilgan Sayfiddin Boxarziy maqbarasi bu davrning noyob yodgorligi sanaladi. Baland peshtoqli va tuxumsimon qo'sh gumbazli bu maqbara ilohiyot olamiga bag'ishlangan. Xivada Najmiddin Kubro maqbarasi, Qo'hna Urganchdagi Qutlug' Temur minorasi, To'rabekxonim maqbarasi va boshqa me'morlik yodgorliklarning yaratilganligi fikrimiz dalilidir.

Xattotlik va miniatyura san'ati

Xattotlik (arab. — husnixat yozuvchi) kitob ko'chirish hamda me'moriy inshootlar, badiiy buyumlarning kitobalarini yaratish san'atidir. Sharqda, jumladan, O'rta Osiyoda kitob bosish vujudga kelguniga qadar qo'lyozma kitob tayyorlash, ularning nusxalarini ko'paytirish (matn ko'chirish) bilan xattotlar shug'ullangan.

Xattotlikda 10 xil asosiy xat uslublari (nasx, kufiy, muxakkak, nasta'lik, suls, tavqe, ta'liq, devoniy, riko, rik'iy) mavjud bo'lgan. Xususan, kufiy yozuvi ko'pgina me'moriy va boshqa yodgorlik obidalarining bezagida, saqlanib qolgan.

Jumladan, O‘zbekiston musulmonlari diniy idorasida saqlanayotgan Usmon Qur’oni ham ana shu kufiy (qad. hijoz adabiy yozuvi)da ko‘chirilgan. Qur’on ko‘chirishda nasx, buyruq va farmonlar yozishda tavqe, maktublar bitishda riqo ishlatilgan. Bulardan tashqari tumor, g‘ubor, shajariy, tug‘ro va boshqa yozuv usullari ham bo‘lgan.

Somoniylar davrida xattotlik san’atining taraqqiy etishida Ismoil ibn Hamid Javxariy, Muqla Yazidiy, Abuabdullo ibn Hamid Xorazmiy, Abulqosim Nishopuriy, Yoqub ibn Makul va boshqalar muhim rol o‘ynagan.

Kitobat san’ati bilan bir qatorda yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, binolarning kitobalari, shu bilan birga qabrtoshlardagi bitiklar va buyumlarda xattotlik keng qo‘llanilgan.



Kufiy yozuvida Olloh nomi zikr etilgan mozaika. Samarqand

IX-XII asrlarda tasviriy san’at taraqqiyotiga islomdagi tirik jonzoetni tasvirlashni man etgan ta’qiqilar o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Ammo bu chegaralashlar tasviriy san’atning umumiy taraqqiyotini bo‘g‘a olmaydi. Mana shu ta’qiqanishlar natijasida Sharq mamlakatlarida qo‘lyozma kitoblarga ishlangan bezaklar – miniatyura san’ati yuksak darajada rivoj topdi. Miniaturaning yuzaga kelishi va rivojlanishi, badiiy adabiyotning ravnaqi, kitobning qadimda Sharqda ilmu ma’rifat manbai sifatida yuksak qadrlanganidan dalolat beradi. XIII asrda Xurosonda bo‘lgan arab sayyoh-geografi Yoqutning yozishicha, o‘nlab kutubxonalar bo‘lgan: “Butun dunyoda men bu kabi ko‘p ajoyib kitoblarni ko‘rmaganman”¹.

Miniatyura (frans. miniature; lot. minium — qizil bo‘yoq) badiiy usullari o‘ta nafis bo‘lgan kichik hajmli (mo‘‘jaz) tasviriy sanat asarlaridir. O‘rta asr qo‘lyozmalarini ziynatlash uchun yaratilgan nafis mo‘‘jaz rasmlar, shuningdek, suyak, pergament, mag‘zi soxta (toshqog‘oz), metall, chinni, ba‘zan maishiy buyumlar (tamakidon, soat, uzuk va b.)ga ishlangan kichik hajmdagi rangtasvirga ham miniatyura atamasi qo‘llanadi.

Badiiy miniatyuraning kitob va portret miniatyurasi kabi sohalari keng tarqalgan. Kitob miniatyurasi – kalligrafiya, sahifalarni ziynatlash, muqova bezagi bilan bir qatorda qo‘lyozmaning eng asosiy murakkab dekorativ unsurlaridan birini tashkil qiladi. Miniaturaning asosiy ahamiyati matn mazmunini tushuntirish va umuman olganda, dunyoviy xarakterga ega bo‘lgan asarlarni bezashdan iborat bo‘lgan. Ular turli bo‘yoqdar bilan qo‘lda bevosita qo‘lyozma kitoblar varaqlariga ishlanib, undagi naqshlar (sarlavqa, unvon, lavha va b.) shu kitoblarning bezaklari bilan uyg‘unlashgan.

¹ Пугаченкова Г.А. Среднеазиатские миниатюры. –Т.: Шарк, 1994.- С. 5

Miniatyura qadimdan ma'lum bo'lgan. Qadimgi Misr papiruslariga xira bo'yoqlar bilan peroda rasmlar tekis yuzali qilib rangtasvir usulida ishlangan. So'nggi antik miniatyuralari (4—6-a.lar) shakllar va nur-havo holati to'g'ri berilganligi bilan diqqatga sazovor.

Miniatyura qo'lyozma kitoblarning mo'jaz rasmlari va alohida ishlangan rasmlar sifatida XII asrlardan boshlab Sharqda keng tarqalgan. Avval ilmiy qo'lyozmalar (masalan, tabobatga oid Dioskoridning «Dorilar» risolasi arab tiliga tarjimai, Abu Rayhon Beruniyning «Osar ul-boqiya» — «O'tmishdan qolgan yodgorliklar», Qazviniyning «Nujum» — «Yulduzlar» va b.), keyinchalik badiiy asarlar (Haririyaning «Maqomot», «Kalila va Dimna», «Tarixi Tabariy» kabi asarlar)ga rasmlar ishlangan.

O'rta asrlarda Sharqda miniatyuraning o'ziga xos maktablari shakllangan. Ushbu davr Sharq miniatyurasida bir qator maktablar ajralib turadi: Misr, Suriya, Iroq, Afg'oniston, O'rta Osiyo, Ozarbayjon, Eron, Hindiston qo'lyozma kitoblarining barcha bezaklari o'zaro uyg'unlikda bog'langan; chiziqli ritm, manzara, ranglarning nozik uyg'unligi ularning bezak tuzilishini belgiladi.

Miniatyura san'ati kitobat san'ati (arab, kataba -yozish, yozmoq so'zidan) — qo'lyozma kitoblarni yaratish va ziynatlash bilan bog'liq bo'lgan. Markaziy Osiyoda (jumladan, O'rta Osiyoda) qo'lyozma kitoblarni bezash juda qadimdan maxalliy madaniyat taraqqiyot bosqichlari bilan bog'liq holda shakllangan. Eng qadimgi kitoblardan «Avesto» qo'lyozmalari; sug'd tilida yaratilgan «Vessantaraka jataka» asari (uning varaqlari turli mamlakatlar — Rossiya, Fransiya, Angliyada saqlanadi); sopol yuzasidagi bitiklar, charm o'ramlari, metall buyumlardagi yozuvlar, qog'oz varaq taxlamalari (taxtachalar orasiga olib tizimchalar bilan bog'langan turi) va boshqa o'rta asrlarda umummusulmon yoki arab tilidagi qo'lyozma an'alariga asoslangan kitobat san'ati to'liq shakllandi va yuksak taraqqiyot darajasiga erishdi. Kitobat san'ati hunarmandlar — qog'ozrez, xattot (kitob va risolalarni ko'chiruvchi kotib), lavvoh (sarlavha va jadvallarni bezovchi), muzahhib (zarhal beruvchi mo'yqalam sohibi), musavvir, sahhof (muqovasoz) va boshqalardan iborat guruh (jamo) tomonidan bajariladigan jarayon bo'lib, O'rta va Yaqin Sharq islom tasarrufidagi davlatlarda bir xil usulda amalga oshirilgan.

Qo'lyozma kitoblarni tayyorlashda kitob uchun yaxshi, sifatli qog'oz tanlash muhim bo'lgan. Bu o'rinda Samarqand qog'ozi, ayniqsa, o'zining bejirimligi va sifati bilan dong taratgan. Samarqand qog'ozlari miloddan avvalgi davrda Buyuk Ipak yo'li orqali Eron, Hindiston, Shom va Rungacha yetib borgan.

Qo'lyozma kitob uchun yaxshi, sifatli qogoz tanlangan, xattot matni qog'ozga yozishda maxsus qog'ozkarton (mistar) ustiga ip tortib uning izini matn yoziladigan qog'ozga tushirib olgandan so'ng xat yozilgan. Matni joylashtirilishi xattotning mahoratiga bog'liq bo'lgan. Bitilgan matni lavvoh hoshiya qog'ozga yelimlagan. Ustidan jadvalkash ayni yopishtirilgan joydan turli ranglarda chiziqlar tortib, matni jadvalga olgan. So'ngra muzahhib suyultirilgan oltin va boshqa turli ranglar yordamida qo'lyozmani ziynatlagan va «shams», «lavha», «sarlavha», «zarvaraq» «xotima» naqshlar bilan bezagan. Bo'sh qoldirilgan joylarga musavvir rasm (miniatyura) ishlagan. Musavvir, naqqosh nafis qamish qalam bilan rasmning

asosiy tarhini, shakllar chizig'ini, zaminni, detallarni chizib, so'ng turli rangda (oltin, kumush ishlatgan holda) bo'yagan. Muqovachi qo'lyozmani karton yoki charmdan ishlangan (naqsh zarb qilingan, bo'yoqlar, oltin bilan bo'yalgan) muqovaga biriktirgan, muqova qopqog'i yog'ochdan ba'zan kumushdan quyib tayyorlangan hamda bosma, o'yma va qadama naqshlar, yorqin rasmlar bilan bezatilgan.

VIII-XII asrlarda mutafakkirlar, olimlar asarlari, asosan, arab tilida (Xorazmiyning «Kitobi surat al-arz» — «Yer tasviri kitobi», 1036; Beruniyning «Osor ulboqiya» — «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar», XIV-asr va boshqalar), keyinchalik (X—XIX-asrlar) fors tilida bitilgan va rasmlar bilan bezatilgan.

5-mavzu: Amir Temur va Temuriylar davri madaniyati va san'ati

Reja:

1. Amir Temur davri madaniyati va uning asosiy xususiyatlari
2. Me'morchilik san'ati
3. Miniatura, musiqa san'ati va badiiy adabiyot

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:

Amir Temur, obodonchilik ishlari, hunarmandchilik va uning turlari, tasviriy san'at, Kamoliddin Behzod kitobat san'ati, devoriy rassomchilik, amaliy, amaliy-bezak san'ati, me'morchilik, shaharsozlik, Ulug'bek rasadxonasi, saroy va bog'lar qurilishi, Samarqand registoni, naqqoshlik, xattotlik san'ati, Samarqand miniatyura maktabi, ilm-fan taraqqiyoti, o'zbek adabiyoti, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Naqshbandiylik.

Amir Temur davri madaniyati va uning asosiy xususiyatlari

Agar Markaziy Osiyo madaniy taraqqiyotiga nazar tashlansa, madaniy-tarixiy jarayonda O'rta Sharqda markazlashgan qudratli davlatni barpo etgan Amir Temurning roli beqiyos katta bo'lganligini anglab yetish mumkin. Amir Temur va temuriyzodalar Sharqning, ayniqsa, IX-XII asrlar musulmon madaniyati an'alarini davom ettirdilar.

Bu davr madaniy hayotining ko'zga tashlanib turadigan asosiy xususiyatlaridan biri islom dinining jamiyat ma'naviy hayotiga sezilarli ta'sir ko'rsata boshlaganligidir. Mo'g'ullar davrida parokandalikka uchragan madaniy-maishiy hayot yana o'zining azaliy o'zaniga tushib oldi. Shariat qonunlari ijtimoiy-madaniy mavqeyini tikladi. Islomning keng ko'lamda yoyilgan, diniy - falsafiy oqimi hisoblangan tasavvuf ta'limoti ham jamiyat ma'naviy hayotidan mustahkam o'rin egalladi.

XIV asrda Markaziy Osiyoda tasavvufning Naqshbandiylik tariqati keng quloq yoydi. Bahouddin Naqshbandning fikriga ko'ra, Ollah o'zi yaratgan barclia narsalarda mujassam. Ollah diydoriga yetishmoqchi bo'lgan, unga qo'shilib ketishni xohlagan har bir sufiy xudo tomonidan yaratilgan narsalardan o'zini tiymasligi, undan bahramand bo'lishi, lekin unga o'z mehnati orqali erishmog'i

zarur. Ollohga qo'shilmoq uchun uni qalbdan saqlab, mehnat bilan shug'ullanish lozim.

Ma'lumki, ilk Uyg'onish davri, ya'ni IX-XIII asrlar Movarounnahr va Xurosonda gurg'irab-yashnagan madaniy hayot mo'g'ul bosqinchilari tomonidan yakson qilindi. Madaniy, iqtisodiy jihatdan rivojlangan shaharlar, obod qishloqlar, yam-yashil bog'lar xarobaga aylantirildi. Ilm-fan maskanlari ma'naviyat va ma'rifat o'choqlari hisoblangan madrasalar, rasadxonalar, kutubxonalar yo'q qililib, ularda avaylab asralgan nodir asarlar va qo'lyozmalar yondirildi yoki tashib ketildi. Ilm-fan, san'at, adabiyot va me'morlik taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan buyuk tafakkur egalari o'ldirildi yoki quvg'in ostiga olindi. Lekin xalqning milliy tafakkuri va e'tiqodining kuchliligi, milliy uyg'onish va o'zlikni anglab yetish ijtimoiy qonuniyatga aylangan, bosqinchi xalqning tili, diniy e'tiqodlari, maslagi, mafkurasi va hayot tarzining mahalliy xalq tomonidan qabul qilinishi an'anasi buzildi. Ilk Uyg'onish davrida shakllanib ulgurgan, taraqqiy etgan ma'naviyat va madaniyat bosqinchi xalq maslagini qabul qilish qonuniyatini buzadi. Mahalliy xalq ma'naviyatining mustahkamligi sabab, mo'g'ul bosqinchilari mahalliy xalq e'tiqodini, tili va hayot tarzini qabul qilishga majbur bo'ladilar.

Mo'g'ul bosqinchilariga qarshi mustaqillik uchun olib borilgan kurashlar o'z samarasini beradi, ya'ni istilochilar davlat boshqaruvining zaiflashuviga va kuchli Temur davlatining vujudga kelishiga olib keladi. Hokimiyat tepasiga kelgan Amir Temur mo'g'ul bosqinchilari mayda bo'laklarga bo'lib tashlagan feodalliklarni birlashtirib, markazlashgan qudratli saltanatni vujudga keltirdi.

Amir Temur o'z tasarrufidagi mamlakatlarning mavjud boyligini ishga solib, o'z imperiyasini iqtisodiy va madaniy jihatdan yuksalgan qudratli davlatga aylantirdi. Mamlakat ichida birlik va barqarorlikni o'rnatish, tinchlik va osoyishtalikni ta'minlash uchun ko'plab chora-tadbirlarni amalga oshirdi. Xalqning diniy e'tiqodini mustahkamlash maqsadida xalq ishonchini qozongan ruhoniylar va tasavvufning yirik vakillari obro'sini yanada balandga olib chiqdi.

O'z mamlakatini iqtisodiy va madaniy jihatdan mustahkamlashda dehqonchilikka alohida e'tibor berdi. Ko'priklar, rabotlar, sardobalar, madrasalar, shifoxonalar va yo'llarning qurilishiga ko'plab mablag' sarfladi. Savdo- sotiq ishlarining mo'tadilligi uchun savdo karvonlarining xavfsizligini ta'minladi. Bular haqida Amir Temurning o'zi shunday deb yozadi: «Xarob bo'lib yotgan yerlar egasiz bo'lsa, xolis (daromad va yer ishlari bilan shug'ullanuvchi hay'at) tarafidan obod qilinsin. Agar egasi bo'lsayu, yerni obod qilishga qurbi yetmasa, unga turli asboblardan va kerakli narsalardan berilsin, toki o'z yerini obod qilib olsin. Yana amr qildimki, xarob bo'lib yotgan yerlarda korizlar qursinlar, buzilgan ko'priklarni tuzatsinlar, ariqlar va daryolar ustiga ko'priklar qursinlar, yo'l ustidagi har manzilgohga rabotlar qursinlar».

Amir Temur Ilk Uyg'onish davri ilmi va san'atparvar hukmdorlari an'anasini davom ettirib, matematika, geometriya, astronomiya, tarix, falsafa kabi fanlarning hamda she'riyat, musiqa va me'morlikning rivojlanishiga katta imkoniyatlar yaratib berdi. U o'zining har bir safari chog'ida olimlar, tarixchilar, munajjimlar, san'atkorlar va xattotlarni o'zi bilan olib yurgan.

Umuminsoniy sivilizatsiyalaiga e'tibor bersak, har bir madaniy taraqqiyotni yuzaga keltiruvchi omillar mavjud ekanligini ko'ramiz. Xuddi shuningdek, Amir Temur davri madaniy taraqqiyotini yuzaga keltirgan omillar mavjud bo'lib, bizningcha ular quyidagilarga bo'lingan:

- 1) Ijtimoiy-siyosiy omil, ya'ni Amir Temur parokanda bo'lgan xalqning boshini bir yerga qovushtirib, mamlakatdagi o'zboshimchaliklar va zo'ravonliklarga barham bergan.
- 2) Iqtisodiy omil, ya'ni izdan chiqib ketgan xo'jalik tizimlari: dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq tizimi tartibga tushirildi. Iqtisodiy islohotlar — mulk, soliq, vaqf va boshqalar to'g'risida qonunlar qabul qilinib, pul islohoti o'tkazilgan. Boshqadavlatlar bilan diplomatik va savdo-sotiq aloqalari o'matiJgan.
- 3) Ma'naviy omil, ya'ni mo'g'ullar tomonidan oyoqosti va yo'q qilingan madaniy boyliklar, ma'naviy meros hamda ma'naviy qadriyatlar qayta tiklanishiga alohida e'tibor berilgan. Mo'g'ullar istilosigacha hukmronlik qilgan sulolalarning ilm-fanni rivojlantirish, ma'naviy boyliklarni, ma'naviy-madaniy merosni to'plash, saqlash, foydalanish va ularni rivojlantirish an'analari davom ettirilgan.
- 4) G'oyaviy-mafkuraviy omil, ya'ni davlat mafkurasining ahvoli va holati. Bu davriga kelib. Movarounnahr va Xurosonda keng tarqalgan tasavvuf - Naqshbandiylik ta'limoti jamiyat hayotidan mustahkam o'rin egallay boshlagan edi. Naqshbandiylik tariqatining yirik vakillari mashhur shayxlar: shayx Shamsiddin Kulol, shayx Zaymddin Havofiy va Mir Sayyid Barakalar mamlakat ma'naviy hayotiga o'z ta'sirini o'tkaza boshlagan edi. Temuriy davrida esa Naqshbandiylik tariqatining yirik vakili Xoja Ahror Valiy nafaqat mamlakat ma'naviy hayotida, balki siyosiy va iqtisodiy hayotga ham o'zining ta'sirini o'tkaza olgan.
- 5) Huquqiy omil, ya'ni mamlakat hayotida huquq ustuvorligiga erishish, qonunlarga qat'iy amal qilish, oddiy fuqarodan tortib, oliy martabali aslzodalargacha qonunchilikka itoat etishi adolatli davlat siyosatining asosiy dasturiga aylangan.

Amir Temur hokimiyat tepasiga kelishi bilan qonunchilikka alohida e'tibor beradi, qonunbuzarliklarning payini qirqib, adolatparvar siyosat yurita boshladi.

Davlatni boshqarish, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotini tashkil etish siyosatining qay darajadali mamlakat madaniy hayotining rivojlanganlik yoki tanazzulga uchrashini belgilab beradi. Davlatni boshqarishda ikki xil siyosat — taraqqiyparvar va adolatsiz, ya'ni jaholatparastlik siyosati olib boriladi.

Mamlakatda ayrim guruhlar, tabaqa yoki firqalarning manfaatlarinigina himoya qilish, ko'pchilikning manfaatlariga zid siyosat yuritish adolatsiz siyosat hisoblanadi. Bunday siyosat ko'pchilik huquqlarining poymol etilishiga, mamlakat moddiy va ma'naviy boyliklarining ozchilikning mulkiga aylanishiga, zo'ravonlik va jaholatparastlik hamda axloqiy va ma'naviy tanazzulning avj olishiga, qonunlarning buzilishiga, jamiyat boyliklarini talon-taroj qilayotgan ozchilikning qonunlarni poymol qilishlariga yo'l qo'yilib, ko'pchilikdan esa qog'ozdagi qonunga rioya qilishlarini talab etishga olib keladi.

Taraqqiyparvar va adolatli siyosat esa ko'pchilik manfaatni himoya qiladi.

Kishilarni ma'rifatga chorlaydi. Qonun va unga amal qilish davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishi deb belgilanadi. Adolatli siyosat yuritish eng muqaddas burchga aylanadi.

Adolatparvar siyosat tufayli har bir kishining moddiy va ma'naviy manfaatdorligi uchun imkoniyat yaratiladi. Mamlakatning tinchligi va osoyishtaligi ta'minlanadi. Ilm va ma'rifat, ma'naviyat va madaniyatning yuksalishi uchun barcha chora-tadbirlar ko'riladi.

Amir Temur saroyida arzbegi, adolat amiri, aminlar (hukmdorning ishonchli vakillari) mansablari bo'lib, ular davlat siyosatidagi adolat mezonlariga qat'iy amal qilinishini, qonunlarning amalga oshirilishini, mahalliy hukmdorlarning qonunchilikka rioya qilishlarini, adolat bilan siyosat yuritishlarini nazorat qilib borgan.

Bu omillar Amir Temurning mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jihatdan qudratli davlatga aylanishini nafaqat qalban his qilganini, shuningdek, o zidan oldin hukmdorlik qilgan hukmdorlarning davlat boshqaruv siyosatidagi ustun jiliatlari va yo'l qo'ygan kamchiliklarini to'g'ri tahlil qila olganligini ham ko'rsatadi. U ilm-fan va madaniyatni rivojlantirishgina davlatning qudratiga qudrat qo'shishi mumkinligini anglab yetgan.

Sohibqiron o'zining e'tiborini mo'g'ullar davrida o'z ta'sir kuchini susaytirgan islom dini va uning ta'sir doirasini mustahkamlash va kengaytirish, milliy ma'naviy qadriyatlarini yanada rivojlantirish maqsadida madrasalar faoliyatini jonlantirishga qaratadi. Ularning faoliyatini kengaytirish, ularga yoshlarni jalb qilish maqsadida ushbu o'quv dargohlarini moliyaviy jihatdan mustahkamlashga kirishadi. Egallari tashlab ketgan qarovsiz yerlarni ular ixtiyoriga beradi. Albatta, Sohobqironning bu sa'y-harakatlari Temuriyzodalar tomonidan davom ettiriladi. Ular ko'plab madrasalar, maktablar barpo etishib, ko'plab nodir qo'lyozmalari bo'lgan yirik kutubxonalariga ega boiganlar.

Amir Temur mo'g'ullar istilosigacha hukmdorlik qilgan sulolalar an'analarini davom ettirib, ilm ahllarini o'z homiyligiga oldi. Samarqand shahriga ilm-fan, adabiyot va san'at ahllarini yig'di. Shu boisdan poytaxt Samarqand haqiqiy ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jihatdan yuksaklikka ko'tarilgan markazga aylandi. Samarqand nafaqat Temur davrida, balki Teniuriyzoda Ulug'bek davrida ham turli fan sohalari: tibbiyot, matematika, geografiya, astronomiya, mantiq, tarix, falsafa, she'riyat, musiqa, me'morchilik va boshqa fan sohalari rivojlangan markaz bo'lib qolaverdi.

Amir Temur qaysi mamlakatga bormasin, eng avvalo, o'sha joyda mashhur bo'lgan olimlar, din peshvolari, so'z ustalari bilan suhbatlashib ko'rar, ulaming eng mashhurlari bilan tarixchi Ibn Arabshoh ta'kidlaganidek, «mazmunli bahs yuritar», ko'ngliga o'tirganlarini, shuningdek, o'sha yerdagi eng mashhur hunarmandlar, ustalar, naqqosh va me'morlarni o'zining poytaxtiga olib kelar edi.

Bu davr ilm-fanining rivojidagi eng asosiy omillaridan yana biri Amir Temuming mamlakatda osoyishtalik va barqarorlikni qaror toptirganligidir. Amir Temur davriga kelib nafaqat mo'g'ullar istilosi davrida tinch joylarni istab, Movarounnahrni tark etgan ko'plab ilm-ma'rifat va ijod ahllari o'z vatanlariga

qaytib kela boshladilar, balki Osiyoning boshqa hududlaridan ham ilmparvar kishilar va ijod ahlari ko'chib kela boshladilar.

Temur va Temuriylar davri ilm-fanning yuksalishidagi uchinchi omil - hukmdorlarning o'zlaridagi ilm-fan va ijodga bo'lgan maylning kuchliligidir. Ularning ko'pchiligi matematika, astronomiya, geografiya, tarix, falsafa, tabobat, she'riyat, din nazariyasi, me'morlik, xattotlik va boshqa ilm sohalari bo'yicha salohiyatli bo'lganlar. Birgina Ulug'bekning dunyodagi eng mashhur astronomlardan biri bo'lganligi hamda astronomiyaga oid «Risolai Ulug'bek», «Ziji jadidi Ko'ragoniy», matematikaga oid «Bir darajali sinusni aniqlash haqida risola» va tarixga oid «To'rt ulus tarixi» asarlarini yozib, o'z davrining ko'zga ko'ringan mutafakkiri darajasiga ko'tarilganligi, Boysunqur Mirzo (1397-1434)ning Hirot siahrida «Nigoriston» nomli yirik ilmiy-ijodiy va badiiy markaz tashkil qilib unga o'zining boshchilik qilganligining o'ziyoq, Temuriyzodalar salohiyatining nihoyatda yuqori bo'lganligini ko'rsatadi. Tarixchi Davlatshoh Samarqandiyning ta'kidlashicha, Boysunqur «Nigoriston»ga o'sha davning 40 ga yaqin mashhur hunar egalarini to'plab, ularga rahnamolik qilganligini ta'kidlaydi.

Amir Temur davri ilm-fani taraqqiyotida Mavlono Abdujabbor Xorazmiy. Mavlono Shamsuddin Munshi, Mavlono Abdulla Lison, Mavlono Bahruddin Ahmad, Xo'ja Afzal, Mavlono Alouddin Koshiy, Sa'diddin Taftazoniy, Mir Sayyid Sharif Juijoniy kabilar muhim rol o'ynagan bo'lsalar, mashhur matematik va astronomlar — Qozizoda Rumi, Ali Qushchi. Mansur Koshiy, Muhammad Birjandiy. Miram Chalabiy, G'iyosiddin Jamshid va Muhammad Chagminiylar Ulug'bek madrasasi va rasadxonasida faoliyat ko'rsatganlar. Tarixchi olimlardan Lutfillo Hofizi Abru, faylasuf Ali ibn Muhammad Jurjoniy, mashhur tabib Mavlono Nafis, Sirojiddin Bisotiy Samarqandiy, Badaxshiy Durbek, Sakkokiy kabi ijodkor shoirlar Ulug'bek davrida Movarounnahr ilm-fani taraqqiyotiga samarali ta'sir ko'rsata olganlar.

Ulug'bekning o'zi Movarounnahr hukmdori sifatida ilm-fan rivojiga rahnamojik qildi. Samarqandda mashhur rasadxona tashkil etib, astronomiya va matematika ilmiarining rivojiga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Ko'plab madrasalar qurdirib, Movarounnahr va Xurosonning ilmi toliblarining biiim olishlariga homiylik qildi.

Ulug'bek o'zining «Ziji jadidi Ko'ragoniy» nomli asarida sayyoralar taqvimini tuzib, ularning joylashishi hisob-kitobini deyarli yuksak texnologiya davri astronomiya fani darajasida ko'rsata olgan. Buni asarning nafaqat Sharq, balki G'arbdagi bir qancha rivojlangan mamlakatlar xalqlari tillariga bir necha marta qayta-qayta tarjima qilinganligi ham ko'rsatadi.

Mirzo Ulug'bekning jahon fani va madaniyatida tutgan o'rni astronomiya sohasidagi jahonshumulligini yirik polyak astronomi Yan Geveliyning mashhur «Prdomus astronomiya» («Astronomiya darakchisi») nomli kitobidagi ikkita suratda o'z ifodasini topgan. Birinchi suratda Ulug'bek munajjimlar va olimlar xudosi Uraniyaning yonginasida, o'ng tomonidan joy olgan. U Yevropaning eng mashhur astronomlari qatorida turibdi. Bu buyuk ajdodimizga ko'rsatilgan yuksak hurmat belgisidir.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash zarurki, Amir Temur o'zi vujudga keltirgan ulkan davlat hududidagi barcha xalqlarning madaniyatini yagona bir tizimga birlashtirdi. Islom olamining kattagina qismi moddiy va ma'naviy hayotida to'siq bo'lgan barcha g'ovlarni ko'tarib tashladi. Umumislom e'tiqodiga asoslangan turli etnik birliklarning ma'naviy qadriyatlarini umuminsoniy ma'naviy qadriyatlar darajasiga ko'tara oldi.

Amir Temur o'zining yetuk siyosatdonligi, ilm-fan va adabiyot namoyandalariga ko'rsatgan g'amxo'rliqi bilan mo'g'ul bosqinchilari tomonidan yakson etilgan Markaziy Osiyoning Ilk Uyg'onish madaniyatini qaytadan tikladi. Buyuk va qudratli turkiy urug'larning boshini bir yerga birlashtirib, jahon davlatchiligi tarixidan munosib va mustahkam joy egallashlariga erishdi. Temuriylarning boshqa vakillari ham unga munosib voris bo'lishga harakat qildilar.

Me'morlik san'ati

Amir Temurning go'zallik va ulug'vorlikka bo'lgan ishtiyoqi nihoyatda kuchli bo'lgan. U o'zining bu ishtiyoqini hayotida ro'y beigan quvonchli voqealarga atab qurdirgan me'moriy yodgorliklariga singdirtiradi.

Amir Temur tomonidan qurdirilgan me'moriy yodgorliklarning bir qismi jamiyat ma'naviy hayotida muhim rol o'ynagan diniy e'tiqod maskanlari va u bilan bog'liq bo'lgan binolar; diniy maktablar, madrasalar, maqbaralar hamda masjidlardan iborat bo'lgan. Ikkinchi bir qismi o'z avlodlari va ma'naviy rahnamolarining nomini abadiylashtirishga mo'ljallangan, uchinchi bir qismi esa yurt obodonchiligi, iqtisodiy taraqqiyotga yordam beruvchi bog'-rogiar va inshootlar edi.

U Samarqandda dovrug'i olamga yoyilgan bir qator me'moriy yodgorliklar: Ko'ksaroy, Bibixonim masjidi, Shohizinda majmuasidgi bir necha maqbaralar, Samarqand atrofidagi Bog'i Chinor, Bog'i Shamol, Bog'i Dilkusho, Bog'i Behisht, Bog'i Nav, Bog'i Naqshi Jahonnamo va Davlat Obod kabi saroy bog'larini qurdirdi.

Shuningdek, Amir Temur ko'plab yangi yo'llar, Zarafshon (Ko'hak), Amu va Sirdaryolarga ko'priklar qurdiradi. Boshqa shaharlarda ham turli-tuman binolar barpo ettiradi. Masalan, Tabriz shahrida masjid, Sherozda ulkan saroy, Bag'dodda madrasa, Turkiston shahrida hazrati Ahmad Yassaviy maqbaralarini qurdirdi.

U 1392-yili Ohangaron daryosining Sirdaiyoga quyilish joyida o'g'li Shohruh Mirzo sharafiga Shohruhiya shahrini barpo ettirdi. Bu shahar tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, XVII asrgacha savdo va hunarmandchilikning markazlaridan biri bo'lgan. Shaharda kulolchilik, shishasozlik va qayiqsozlik ustaxonalari bo'lgan. Tarixchi Abdurazzoq Samarqandiyning



yoʻzishicha, Shohruhiya Movarounnahr hududidagi mustahkam qalʼali shahar boʻlgan va uch tomondan Sayxun (Sirdaryo) bilan oʻralgan. Toʻrtinchi tomoni esa suv toʻlatilgan xandaqlar va zovurlar bilan oʻralgan.

Shahrisabz shahri, ayniqsa, Amir Temur davrida gullab-yashnaydi. U oʻzining vatani hisoblangan shaharga eʼtibor berdi. 1380-yili Oqsaroyni mashhur xorazmlik ustalarga qurdirdi.

Oqsaroy devorlaridagi turli-tuman ranglarning jilosi, koshinkoriy sujetlar, tarixiy, falsafiy va diniy mavzudagi kufiy-sulsiy yozuvlar, islamiy, geometrik va oʻsimliksimon naqshlarning oʻzaro uygʻunligi binoga ajoyib va sehrli mazmun bagʻishlagan. Ranglarning oy yorugʻida jilolanib-oqarib koʻrinishidan bino «Oqsaroy» nomini olgan.

Shuningdek, Amir Temur Shahrisabzda oʻgʻli Jahongir Mirzoga atab maqbara qurdirdi. Bundan tashqari, Shahrisabzda «Dor us-Saodat», «Dor ul-tilovat», «Gumbazi Sayidon» kabi mashhur meʼmoriy yodgorliklar, masjid, madrasa, hammom, karvonsaroy, besh gumbazli chorsu binolarini barpo ettirdi.

Amir Temur meʼmorchilik obidalarini bunyod etishda, eng avvalo, binolarining mahobati va goʻzalligiga alohida eʼtibor berdi. Oʻzining qudratini oʻzi qurdirgan binolarga singdirishga harakat qildi. Shu boisdan ham u oʻzining ota yurti Shahrisabz (Kesh)da qurdirgan «Oqsaroy» peshtoqiga «Kimki bizning kuch-qudratimizga shubha qilsa, qurgan binolarimizga boqsin», deb yozdirtirib qoʻydi.

Ikkinchi tomondan esa, Movarounnahrda qurdirgan binolarning boʻysundirilgan mamlakatlardagi binolardan ham koʻra yuksakroq, koʻrkamliroq va ulugʻvorroq boʻlishiga eʼtibor berdi.

Uchinchidan, Amir Temur davrida meʼmorchilik sanʼati oʻzida qadimgi Sharq (Suriya, Iroq, Eron, Xuroson va boshqa hududlar)ning koʻpgina mintaqalari meʼmorlik unsurlarini mujassamlashtira boshladi. Natijada Amir Temur davri Movarounnahr meʼmorchiligi oʻzining mukammalligi bilan yaqqol koʻzga tashlanib turdi.

Amir Temur vafotidan soʻng Temuriyodalardan (Shohruh Mirzo, Ulugʻbek va boshqalar) ham Movarounnahr va Xuroson meʼmorchiligi ravnaqiga oʻz ulushlarini qoʻshdilar. Masalan 50 yil Xuroson taxtida oʻtirgan Shohruh Mirzo Hirot, Marv, Balx va boshqa shaharlarda koʻplab meʼmoriy yodgorliklar, bogʻ-rogʻlar bunyod ettiradi, sunʼiy sugʻorish tizimlarining qurilishiga (masalan, Murgʻob daryosiga toʻgʻon qurdirib Marv shahrining suvga boʻlgan ehtiyojini qondiradi) alohida eʼtibor beradi.

Ulugʻbek Mirzo ham Movarounnahr shaharlarini, ayniqsa, uning poytaxti Samarqandni obod qilishga ulkan hissa qoʻshdi. Eng avvalo, bobosi Amir Temur davrida boshlangan, lekin turli sabablarga koʻra tugallanmay qolgan binolar - Shohizinda, Goʻri Amir, Shahrisabzdagi Koʻkgumbaz va boshqa binolarning qurilishini nihoyasiga



yetkazdirdi. Samarqand shahri markazini obodonlashtirishga alohida e'tibor berdi. Shaharning markaziy maydoni - Registonda madrasa, xonaqoh, karvonsaroy, hammom va boshqa ko'rkam binolarni qurdirdi. Movarounnahmmg madaniy jihatdan rivojlangan uch shahri - Samarqand (1417- 1420-yillarda), Buxoro (1417-yilda) va G'ijduvon (1433-yilda) shaharlarida madrasalar barpo ettirdi. O'zi bevosita rahbarlik qilgan holda 1424-1428-yillarda o'sha davrning akademiyasi hisoblangan — rasadxona qurdirdi.

Ulug'bek madrasasi Registon ansamblinig g'arbida joylashgan ikki qavatli madrasa bo'lib, ravoq tepasida yulduzli osmon aks etgan. Ganchkori panjaralar orqali xonaga yorug'lik tushib turadi. Madrasaning to'rt tomonini darsxona va ayvon egallagan, vayron bo'lgan ikki qavati, devorlaridagi ko'chib kegan bezaklari qayta tiklangan (1936 yil) , V.Shuxov va M. Mauerlar loyihasi asosida shimoli-sharqiy minorasi ta'mirlangan (1932 yil.)

Agar Ulug'bek davrida quriigan me'moriy obidalarining maqsadli tomonlariga e'tibor bersak, mazkur binolarning ko'pchiligi ilm-fan, ma'naviyat va ma'rifatni rivojlantirishga xizmat qilganligini ko'ramiz. Masalan. Samarqand, Buxoro, G'ijduvondagi madrasalar, Samarqanddagi rasadxona ilm-fan rivojiga ulkan hissa qo'shgan. Samarqand va Shahrisabzda qurilgan masjidlar va maqbaralar esa kishilarning ma'naviy e'tiqodini mustahkamlashga, diyonat va imon pokligining shakllanishiga xizmat qilgan.

Sulton Husayn Boyqaro davrida Xuroson oikasida ko'plab me'moriy yodgorliklar, turli xil inshootlar qurildi. Katta obodonchilik ishlarining rivojlanishiga bevosita Alisher Navoiyning o'zi boshchilik qildi. Mirzo Muhammad Haydar o'zining «Tarixi Rashidiy» nomli asarida Alisher Navoiy o'zining har yilgi daromadi - o'n sakkiz ming «Shohruhiy» dinorni obodchilik ishlariga sarflaganligini yozdi.

Xondamir o'zining «Makorim ul axloq» nomli asarida Navoiy va uning safdoshlari tomonidan 300 dan ziyod jamoat binolari qurilganligini ko'rsatib o'tadi. Qurilishning ko'pchiligiga Alisher Navoiyning o'zi homiylik qilganligi yoki o'z mablag'idan sarflaganligini, Navoiyning Xurosonda madrasa, karvonsaroy, 52 rabot, 19 hovuz, 16 ko'prik, 9 hammom va boshqa binolarni barpo etganligini ta'kidlab ko'rsatadi. Birgina Astraboddagi ikki yillik hokimligi davrida «Mir saroyi», «Jome' masjidi»ni qurdiradi. Hirotida ham masjid, Marvda esa «Xusraviya» nomli madrasa qurdiradi.

Alisher Navoiy vazirlik vazifasidan bo'shagandan so'ng, Husayn Boyqaro o'z do'stiga shahar tashqarisidagi Injil arig'i bo'yidan uy-joy va bog' qurish uchun yer ajratib berdi. Navoiy esa bu joyda nafaqat uy-joy, balki xalqqa yordami teguvchi ko'plab binolar barpo ettirdi, ya'ni madrasa, shifoxona, hammom, savdo rastalari, xonaqoh, dam olish uchun bog'lar barpo ettirdi. Bu binolarni «Ixlosiya» (do'sti Husayn Boyqaroga bo'lgan ixlosi ramzi), «Shifoiya» (sog'iiq ramzi), «Safoiya» (poklik ramzi), «Xusraviya» (shahzoda Muhammad Suitor) sharafiga) deb nomlaydi.

Navoiy ijodining markazida inson, ulardan tashkil topuvchi xalq, ular makon tutgan Vatan, insoniyatning ko'rki - odob-axloq masalalari turadi. Mutafakkirning

ijodi va falsafiy tafakkuri markazida insonparvarlik, axloqiy fazilat, mehnatsevarlik, adolatparvarlik g'oyalari yotadi. Uningcha, inson butun mavjudotning eng oliy toji, koinotning bezagidir.

Miniatura, musiqa san'ati va badiiy adabiyot

Amir Temur davrida Samarqandda o'ziga xos miniatyura rassomlik maktabi qaror topdi. Tasviriy san'atda Temuriylar maktabining asoschisi Ustod Gung sanalgan. Uning shogirdi buxorolik Ustod Jahongir bo'lgan. Ustod Jahongir Pir Sayid Ahmad Tabriziyga ustozlik qilgan.


Samarqanddagi saroy musavvirlari Abul Xayya va uning shogirdlari Shayx Mahmud Tahliliy, Pir Ahmad bog'i Shamoliy, Muhammad Bin, Muhammadshoh, Darvesh Mansurlar ishlagan temuriylar davriga xos ov-shikor mavzuida yaratilgan. 1420 yildan keyin Boysunqir Mirzo Hirotda xattotlik va naqqoshlik ustaxonasi tashkil qilgach bu rassomlarning ayrimlari Hirotda ko'chib o'tdi.

Turkiya va Berlin kutubxonalarida saqlanayotgan ko'chirma-xomaki miniatyura nusxalari XIV-XV asrlarga oid bo'lib, ularda alohida shaxslar, daraxtlar, gullar, kichik kompozitsiyalar, naqshlarda chiziqlar uyg'unligi xarakterlar aniqligi, qiyofalarining o'z o'rnida joylashtirilishi bilan ajralib turadi.

Tarixiy shaxslarning qiyofalari ham miniatyuralarda aks etgan. Amir Temur qiyofasi tiriklik vaqtida aks etgan miniatyuralar hali topilmagan. Asl holatiga yaqin sur'atlar «Zafarnoma» ning dastlabki ko'chirilgan nusxalarida uchraydi. Uning bir muncha yorqinroq qiyofasi Hirotda (1467 y.) ko'chirilgan «Zafarnoma» da keltiriladi. Dastlab Mirak naqqosh boshlangan va Behzod yakunlangan ushbu miniatyura kopozitsiyasi va serjilo bo'yoqlarning uyg'unligi ajralib turadi.

Temur hayotlik davrida uning saroy devorlarida shoh va shahzodalar bor bo'yida tasvirlangan. Abul Xayya tarixiy asarlarida ishlangan miniatyuralarda ham Amir Temur va Temuriylarning qiyofalari aks etsa, badiiy asarlarga ishlagan rasmlarida ham ular turli holatlarda tasvirlangan. Xalil sulton davrida ishlangan ayrim miniatyuralar grafik tarzda, badiiy jihatdan o'ziga xos «siyohi qalam» uslubida ishlagan.

Temuriylar tasvirlangan ko'plab miniatyuralar dunyoning turli kutubxonalarida saqlanmoqda. Ularning aksariyatifa rasm chizilgan davr yoki rassom, joy maktab ko'rsatilmagan. Biroq bu miniatyuralarda nur sochib turgan quyoshsimon sherning boshi tasvirlangan tug'- Temurning gerbiuning saroyi peshtoqida, Xalil Sulton va Ulug'bek zarb qilgan tangalarda uchraydi. Shuningdek tabiat tasvirida to'q yashil va jigarrang ko'pligi, kiyimlar turkiy millatiga xos bo'lganligidan bu miniatyuralar Samarqand miniatyurachiligi maktabiga mansub



Amir Temur Samarqand atrofidagi ziyofatda. "Zafarnoma" ga ishlangan miniatyura.

deyish mumkin. Samarqand maktabi miniatyuralari vakilliklari kompozitsiyasi yaratish va manzara tasvirida mahoratlidirlar.

Ulug'bek davrida mashhur bo'lgan hattot va musavvir asli Obivardlik Sulton Ali Boverdiy miniatyuralari ranglarining yorqinligi bilan o'ziga xosdir va uni ko'rsatiladi. Samarqand maktabiga xos bo'lgan 18 ta miniatyura Nizomiyning «Xamsa» asariga va 49 ta miniatyura «Shohnoma» asariga ishlangan hozir Turkiya kutubxonasida saqlanadi. Ulug'bek davrida as-So'fiyning «Siljimas yulduzlar ro'yxati» asariga ishlangan miniatyuralarda xaritalar qizil va qora doiralar bilan katta va kichik yulduzlarning joylashishi ko'rsatilgan bo'lib, grafik tarzda rang bermay, qora siyohda chizilgan. Yulduz turkumi oddiy xalq vakili qiyofasida tasvir etildi. Sharq miniatyurachiligida oddiy xalq hayoti temuriylar davrida paydo bo'lgan. Masalan «Samarqand masjidini qurish», «Iskandar devorini bunyod etish», «Ko'chmanchilar turmushi», Jamshidning oddiy xalqqa hunar o'rgatish mavzuida miniatyuralar bunga misoldir.

Alisher Navoiy davrida xattotlik san'ati taraqqiy etdi. Sulton Ali Mashxadiy, uning shogirdlari Muhammad bin Nur, Darvesh Muhammad Toqiy, Sulton Muhammad Xandon, Darvesh Muhammad Samarqandiy, Abduljamil kabi kotiblar edi. Bular orasida Sulton ul-xattoton, Qiblat ul-kuttob nomini olgan Sulton Ali Mashxadiy alohida o'rin egallaydi. U Jomiy, Alisher Navoiy, Sulton Husaynlarning yuqori bahosiga sazovor bo'lgan.

Husayn Boyqaro davrida miniatura san'ati ham yuksak darajaga ko'tarildi. Bu davrda tasviriy san'at. shu jumladan, miniatura san'atining yirik vakillari Kamoliddin Behzod, Mirak Naqqosh, Qosim Ali, Mahmud Muzahhib, Hoji Muhammad Naqqosh, Shohmuzaffar kabi miniatura san'ati ustalari faoliyat ko'rsatganlar. Bu davr miniatura san'atida mavhumlikdan realizm tomonga intilish kuchayadi. XV asrgacha tasviriy san'atda o'ta bo'rttirish va jimjimadorlikka e'tibor berilgan bo'lsa, XV asr o'rtalaridan boshlab haqqoniylikka intilish, jonlilik va hayotiylikni tasvirlash ko'zga tashlana bordi. Masalan, miniatura ustasi Mahmud Muzahhib Alisher Navoiy portretini chizarkan, uning qarilik yuzaga chiqargan hotg'inligini, allomalarga xos ulug'vorligini va donishmandligini, bag'rikeng va mehribon insonligini tashqi qiyofa, ayniqsa, yuzdagi ifoda orqali tasvirlab beradi.

Bu davrda tasviriy san'atning portret janri rivojlandi. Natijada hukmdorlardan Husayn Boyqaro, Shayboniy, Bobur Mirzoning, allomalardan Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Hotifiy, Behzod va boshqalarning portretlari yaratildi. Shuningdek, bu davrda tasviriy san'atning maishiy, bataliya (jang) manzara kabi janrlari ham miniatura shaklida rivojlandi.

Bu davrning ko'zga ko'ringan musavviri Kamoliddin Behzod «Hirota miniatyura maktabi»ga asos soldi. Nafaqat Sharqda, balki butun dunyo san'atida munosib iz qoldirgan Kamoliddin Behzod san'at



sirlarini Pir Sayid Ahmad Tabriziydan o'rgangan. Shu bilan bir qatorda otanasidan erta judo bo'lgan Behzodni Hirotning buyuk musavviri Amir Ruxillo (Mirak Naqqosh) o'z tarbiyasiga olgan va Nigoristonida (san'at akademiyasi) naqqoshlik va miniatyura sirlarini o'rgatgan.

Behzod o'sha davrning ko'plab mashhur asarlariga miniaturalar chizdi. Masalan, Shayx Sa'diyning «Bo'ston» asariga 4 ta, Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma»siga esa 8 ta miniatura ishladi. Uning portretlaridagi qahramonlar o'z ma'naviy qiyofalari bilan ichki hissiyotlarini, xulq-atvorini shundaygina yuzaga chiqaradi. Masalan, Husayn Boyqaro cho'kka tushib, kim bilandir suhbatlashayotgandek tasvirlangan. U serhasham kiyim kiyib olgan, shohona salla o'ragan, belida xanjar osilgan tilla kamar. Shayboniyxon esa sarkarda va davlat arbobi, ilmi, adabiyot va san'atning qadriga yetadigan kishi sifatida tasvirlangan. U Hirotda rasm bo'lgan yengi kalta, sodda, lekin bejirim tikilgan to'n kiygan, boshida oq salla. U chordona qurib, katta yostiqa (bolishga) biroz suyanib o'tiribdi. Oldinda siyohdon, qalamdon va kitob, o'ng qolining bosh barmog'ida kamondan o'q uzganda ishlatiladigan halqa, chap qo'lida qamchi. Savlati, baquvvat gavdasi, o'tirishi, o'zini tutishi, qo'llarining holati va chehrasidagi belgilardan uning serg'ayrat, shijoatli, o'z qadrini biladigan, aqlli shoh ekanligini payqasa bo'ladi.

Husayn Boyqaro portreti.
Kamoliddin Behzod

Xulosa qilib aytganda, Sulton Husayn Boyqaro davrida miniatura san'ati rivojlandi va unga sultonning o'zi juda katta imkoniyatlar yaratib berdi. Zayniddin Vosifiyning «Badoye ul vaqoye» nomli asarida yozilganidek, Sulton Husayn ko'ngilxushlik uchun usta musavvirlar va uslubi go'zal naqqoshlarni poytaxtda saqlab, ularga zo'r iltifot ko'rsatadi.

XIV-XV asrlarda Movarounnahr va Xuroson musiqa madaniyati rivojining chinakam markaziga aylangan. Bu davrda musiqa madaniyati nazariyasiga oid asarlar yaratilib, Abdulqodir Noiy, Ali Shunqor, Qulmuhammad Shayxiy, Husayn Udiy, Shohquli G'ijjakiy, Alijon G'ijjakiy, Qosim Rabboniy, Zaynulobiddin al-Husayniy, Darvesh Ahmad Qonuniy, Xo'ja Yusuf Andijoniy, Najmiddin Kavkabi kabi bastakorlar, sozanda-yu xonandalari yetishibchiqqan.

Tarixchi olim A.Muhammadjonov ta'kidlab o'tganidek, hatto Ulug'bek va Navoiy singari buyuk siymolar ham musiqa asarlari yaratganlar. Masalan, Ulug'bek «Bulujiy», «Shodiyona», «Axloqiy», «Tabriziy», «Usuli Ravon», «Usuli Otlig'», Navoiy esa «Isfaxoniy» kuyini yaratganlar. Shuningdek, bu davrda Xoja Abdulqodir Noiyning «Zubdat ul advor» («Asosiy musiqiy davrlar») va «Maqosid ul-alxon» («Kuylar maqsadlari»), Safiuddin Abdulmo'min Urmaviyning «Risalat ush-sharafiyya» («Sharafga loyiq lisola») va «Kitob ul-advor» («Musiqiy davrlar haqida kitob») asarlari, Abdurahmon Jomiyning «Risolavi musiqiy» («Musiqiy ilm risolasi»), Najmiddin Kavkabiyning «Risolavi musiqiy» va «Risola dar bayoni Duvozdahmaqom» («O'n ikki maqom bayoniga bag'ishlangan risola»), Zaynulobiddin Mahmud al-Husayniyning «Qonuni ilmiy va amaliy musiqiy» («Musiqiya ilmi va amallari qonunlari»), Darvesh Ali Changiyning «Tuhfat us-surur» («Shodlik tuhfasini») kabi musiqa ilmi haqidagi asarlari vujudga keladi.

Temuriylar sulolasining so'nggi davridagi adabiy jarayon sarmahsul davr

bo'lgan. Adabiy-badiiy jarayon uslub jihatidan ancha takomillashdi va yangi bir bosqichga ko'tarildi. Movarounnahr va Xuroson hududlarida chig'atoy (eski o'zbek tili) va fors-tojik adabiyoti o'rtasidagi hamkorlik kengayib bordi. Bu davr adabiyotining o'ziga xos xususiyatlaridan biri – ko'pgina shoir va adiblar o'zbek tilining go'zalligini, uning so'z boyligini namoyish qilishlaridir. O'zbek (turkiy) tiliga ikkinchi darajali til sifatida qarashlarni inkor qildilar. Zamonasining iste'dodli va yetuk shoirlari hamda adiblaridan Qutb, Sayfi Saroyi, Haydar Xorazmiy, Durbek, Amiriy, Yaqiniy, Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy, Navoiy, Bobur va Muhammad Solihlar o'sha davr adabiyotining ko'zga ko'ringan vakillari bo'lib, ular o'zbek tilida ham ko'plab asarlar yaratib, bu tilning o'ziga xos jozibadorligini namoyish qildilar. Ular tomonidan rang- barang g'azallar, ruboiylar, qit'alar, tuyuqlar, nomalar, dostonlar va boshqa janrlardagi asarlar yaratildi.

Bu davr adabiyotining yana bir xususiyati — o'zbek adabiyotida she'riy noma janrining yaratilganligidir. Xorazmiy noma janrining asoschisi sifatida «Muhabbatnoma»ni yaratdi. «Latofatnoma»ni yaratgan Komil Xo'jandiy sevgi-muhabbat mavzusini davom ettirdi. Temuriy Mironshohning o'g'li shoir Said Ahmad esa «Taashshuqnoma» («Oshiqlar maktubi»)ni yaratib, bu mavzuni yanada yuqori bosqichga olib chiqdi.

Durbek diniy-afsonaviy «Yusuf va Zulayho» dostoniga dunyoviy tus berib, o'zi qayta ishladi. Atoiy yor vasfmi kuylovchi g'azallar bitsa, Sakkokiy jo'shqin va haroratli g'azallar bitdi hamda qasida janrini yanada rivojlantirdi. Lutfiy g'azailari o'zining hayotiyliigi, badiiy mahorati va til boyligi bilan ajralib turadi. Bu davr adabiyotining eng buyuk siymolari Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiylar edi. Ular tasavvuf she'riyatini barkamollik darajasiga olib chiqdilar.

Bu davr ma'naviy hayoti va madaniyati taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan buyuk siymolardan biri Alisher Navoiydir. Alisher Navoiyning so'nggi temuriy zoda Husayn Boyqaro davri ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti taraqqiyotidagi o'rni benihoya kattadir. Navoiy inson baxt-saodati uchun xalqning osoyishtaligi, mamlakat barqarorligi, obodonchilik, ilm-fan, adabiyot va san'at taraqqiyotining buyuk kurashchisi sifatida tarix sahifasida o'chmas iz qoldirdi.

Xulosa qilib aytganda, Amir Temurning hokimiyat tepasiga kelishi va tarqoq feodal davlatlarni birlashtirishi ilk Uyg'onish davri madaniy taraqqiyoti natijasida vujudga kelgan, lekin mo'g'ullar tomonidan bir-biridan ajratib tashlangan yagona madaniy jarayonni yanada rivojlanishiga turtki bo'ldi. Eng avvalo, iqtisodiy hayot, shuningdek, fan, san'at va adabiyotdagi azaliy an'analar qaytadan tiklandi. Inson va uning aql-idroki, ma'rifatga intilishi, Sharq renessansiga xos xususiyat hisoblangan ma'naviy komil insonni shakllantirishga bo'lgan e'tibor va ma'rifatga intilish kuchayadi. Fan va adabiyotda jahonshumul ahamiyatga ega bo'lgan asarlar yaratildi. O'z davrining dorulfununlari - oliy o'quv yurtlari, Ulug bek akademiyasi vujudga keldi. Astronomiya, matematika, mantiq, falsafa til va adabiyotshunoslik, tarix va fikhshunoslik, ilmi aniz va musiqashunoslikka oid ko'plab asarlar yaratildi. Miniatura va me'morlik san'atlari rivojlanib, xattotlik san'at va hunar darajasiga ko'tarildi.

Bu davr madaniy hayotini tahlil qilar ekanmiz, eng avvalo, Movarounnahr va

Xuroson madaniyati va ilm-fanni IX-XII asrlardagi singari Mirzo Ulug'bekni hisobga olmaganda. umumbashariy ahamiyat kasb eta olmaganligi, Al- Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Imom Buxoriy, Mahmud az-Zamaxshariy singari umumjahon madaniyati va fanida o'zining o'chmas izini qoldirgan buyuk siymolarni ko'rmaymiz. Bu davr madaniyati taraqqiyoti umumjahon miqyosida emas, balki mintaqa miqyosidagi ijodiy-madaniy jarayon darajasidagina saqlanib qolingan. Bu hol mavjud madaniy jarayonning azaliy an'analari va ilmiylikning mo'g'ullar bosqini natijasida uzib qo'yilganligi, ikkinchidan, ko'plab olimlar va ijod ahllarining tinch joylami izlab vatanlarini tark etganliklari, uchinchidan, Amir Temur vafotidan keyin avj olgan o'zaro taxt talashishlarning kuchayib ketganligi bilan izohlanadi.

6-mavzu: XVI-XVIII asrlarda o'zbek xonliklari davri madaniyat va san'ati

Reja:

1. Shayboniylar va Ashtarxoniylar davridagi madaniy taraqqiyot va uning asosiy xususiyatlari
2. Me'morchilik va musiqa san'ati
3. Miniatyura va kitobot san'ati.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:

Ko'chmanchi o'zbeklar, Shayboniylar, Ashtarxoniylar, siyosiy nizolarning madaniy taraqqiyotga ta'siri, diniy mafkuraning davlat mafkurasiga aylanishi, Naqshbandiylik tariqati, so'fiylik, ko'chmanchi va yarimko'chmanchi hayot tarzining ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy hayotga ta'siri, Samarqand qog'ozi, suvayirg'ich, xonaqoh, Nodir-Devon Begi, Samarqanddagi Sherdor, Tilla qori madrasalari, tasviriy san'at, kitobot va miniatyura san'ati,

Shayboniylar va Ashtarxoniylar davridagi madaniy taraqqiyot va uning asosiy xususiyatlari

XV asr oxirlariga kelib temuriyzodalarning o'zaro taxt talashishlari Xuroson va Movarounnahr ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Siyosiy tanglik avj olib, madaniy hayot izdan chiqdi. Dehqonchilik, savdo-sotiq va boshqa hududlar bilan bo'ladigan madaniy aloqalarga putur yetdi. Movarounnahr mayda hokimliklarga bo'linib ketdi. Temuriylar davlatidagi inqirozdan foydalangan ko'chmanchi o'zbeklar Shayboniyxon Movarounnahrda yangi davlatga asos soldilar.

Muhammad Shayboniyxon o'z davlatini mustahkamlab olgach, mamlakatning iqtisodiy hayotini yaxshilashga, uni ichidan mustahkamlashga qaratilgan bir qator islohotlar o'tkazdi. Dehqonchilikning rivojlanishiga yordam beruvchi yer to'g'risida, vaqf



masalalari bo'yicha bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirdi.

O'zaro taxt talashishlar natijasida tinch joylarni izlab, o'z yerlarini tashlab ketgan kishilarning qarovsiz yerlarini masjidlar, madrasalarga vaqf mulki sifatida berdi. 1502-yilda Zarafshon vohasida qaqrab va qarovsiz yotgan yerlarda dehqonchilikni rivojlantirish maqsadida Ko'hak (Zarafshon) daryosiga suvayirgich va ko'prik qurdiradi. Mamlakatning ichki birligini mustahkamlash uchun 1507-yilda barcha hududiy hukmdorlar zarb qildirayotgan pullarni bekor qilib, pul islohotini amalga oshiradi. Bu esa savdo-sotiqning rivojlanishiga, mamlakat siyosiy-iqtisodiy mavqeyining oshishiga yordam beradi.

Shayboniyxon portreti. Kamoliddin Behzod

Bu davrda to'qimachilik, kulolchilik, duradgorlik, metallga ishlov berish, qog'oz va mato ishlab chiqarish taraqqiy etdi. Shuningdek, xalq amaliy san'atining yog'och, tosh, metall o'ymakorligi, kandakorlik, naqqoshlik, xattotlik rivoj topdi. Samarqandda yuqori sifatli qog'oz ishlab chiqarish yanada yuksaldi. Ipak qog'ozi deb ataluvchi oliy nav qog'ozlar asosan ipak va paxtadan aralastirib tayyorlangan. Samarqandlik usta Miribrohim «Sultoniy» va «Miribrohimiy» nomli qog'ozlarni ishlab chiqarish bilan mashhur bo'lgan.

Movarounnahrning ko'pgina madaniy jihatdan yuksalgan shaharlaridagi madrasalar qoshida hamda boy-badavlat kishilar tomonidan tashkil etilgan kutubxonalar ko'paydi. Bu kutubxonalarda nodir qo'lyozmalar bilan birga tarix, tilshunoslik, adabiyot, geografiya, falsafa, mantiq, fiqhshunoslik, notiqlik, tibbiyot, matematika, astronomiya kabi ko'plab fan sohalariga oid kitoblar to'plangan.

XVI asrdan boshlab Shayboniy hukmdorlar, ayniqsa, Abdullaxon II savdo-sotiqning rivojlanishiga alohida e'tibor berdi. Hindiston, Xitoy, Eron, Rusiya va boshqa davlatlar bilan savdo-sotiq aloqalari rivojlandi. Movarounnahrda ishlab chiqarilgan to'qimachilik buyumlari, ayniqsa, ip va ipak gazlamalar, kimxob, gilam, metall buyumlar savdo-sotiqning asosiy manbasi hisoblangan.



Abdullaxon II portreti

Shayboniy davri madaniyatining rivojiga bevosita sulola vakillarining o'zlari sezilarli ta'sir ko'rsatdilar. Chunki sulolaning Muhammad Shayboniy, Ubaydullaxon, Rustam Sulon, Abdulazizxon, Abdullaxon Soniy va boshqa hukmdorlarining o'zlari o'qimishli kishilar bo'lishib, hatto she'riyatda qalam tebratganlar. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, Ubaydullaxon musiqa asboblarida kuy chalishning ustasi, nozik husnixat sohibi bo'lgan.

Bu davr madaniyatining asosiy xususiyati — diniy mafkuraning davlat mafkurasiga aylanganligidir. Shu boisdan diniy mafkurachilarni tayyorlovchi diniy madrasalar faoliyatiga alohida e'tibor bilan qaralgan. Movarounnahrning ko'pgina shaharlarida (masalan, Buxoro, Samarqand, Toshkent va boshqa shaharlarida) yangi madrasalar bunyod etildi. Mazkur madrasalarda nafaqat sof teologik fanlar o'qitilgan, balki axloqshunoslik, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, tarix,

matematika, astronomiyaga oid fanlar ham o'qitilgan.

Taxt tepasiga kelgan hukmdorlar izdan chiqib borayotgan ma'naviy hayotni qaytadan izga solish, ma'naviy tanazzulning oldini olish maqsadida o'sha davrda iuda katta obro'ga ega bo'lgan shayxlarning yordamiga suyanishga majbur bo'ladilar. O'z navbatida, shayxlar mamlakatning siyosiy hayotiga bevosita o'z ta'sirini ko'rsata boshlaydilar. Masalan, Jo'ybor qishlog'idan bo'lgan mashhur shayxlar shayboniylar davrida ham, ashtarxoniylar davrida ham jamiyatning ma'naviy hayotini o'z qo'llariga oldilar.

XVI asrdan boshlab madaniy taraqqiyot, ilm-fan, adabiyot va san'atning rivoji nafaqat umumjahon, balki mintaqa darajasidan ham pastga tusha boshlaganligi ko'zga tashJanadi. Mutaassiblikka yuz tutgan dinning ma'naviy hayotga ko'rsatadigan ta'siri natijasida madaniyat milliy mahdudlik qobig'iga o'rala boshladi. Natijada Markaziy Osiyo xalqlari madaniyatining ta'sir doirasi toraya bordi.

Shuningdek, bu davr madaniy taraqqiyotining susayishiga, eng avvalo, Shayboniylarning qisqa muddatli bo'lsa-da, o'zaro taxt talashishlari ham ta'sir ko'rsatdi. Natijada XVI asrdan boshlab Movarounnahr va Xuroson hududlarida faoliyat ko'rsatayotgan ko'pgina olimlar, shoirlar, san'atkorlar tinch joylarni izlab Eron va mo'tadil siyosat yuigizayotgan Boburiylar huzuriga — Hindistonga yo'l oladilar. Faqatgina Abdullaxon Soniy davriga kelib Movarounnahr madaniy hayotida ijobiy o'zgarishlar ro'y bera boshladi. Osoyishta hayotning boshlanganligi bilan birga, Boburiylar davlati bilan Movarounnahr o'rtasida madaniy aloqalarning yo'lga qo'yilishi bu rivojlanishning asosiy sabablaridan edi. Natijada Boburiylar huzuriga ketib qolgan, lekin hali o'z ona vatanlaridan butkul ko'ngil uza olmagan shoirlar, olimlar va san'atkorlar yana Movarounnahrqa qaytib kela boshlaydilar.

Shayboniylar davri madaniyatining o'ziga xos xususiyatlaridan biri — Shayboniylarning ko'chmanchi va yarimko'chmanchi hayot tarzining ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy hayotga ta'sir ko'rsatganligidir. Chunki bunday hayotga o'rgangan sulolalarda, birinchidan, ilm-ma'rifatning asosiy o'zagi hisoblangan tabiiy fanlar rivojiga bo'lgan qiziqish yuqori darajada bo'lmaydi. Ikkinchidan, ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi hayotdan o'troq hayotga o'tayotgan kimsalarda ko'proq yangi diniy e'tiqodga bo'lgan ixlos nihoyatda baland bo'ladi. Xuddi shuningdek, Shayboniy, so'ngra Ashtarxoniy sulolalari hukmdorlarida ham islom diniga ixlos yuqori darajada bo'lgan. Shu boisdan ular Movarounnahr taxtiga o'tirganlaridan so'ng bu yerda hukmron mavqega ega bo'lgan sufiylik - Naqshbandiylik tariqatiga, uning talablari va qonunga kirgan «pir-murshid» tamoyiliga katta ixlos bilan qaradilar va oxir-oqibat o'zlarining inon-ixtiyorlarini Jo'ybor shayxlari qo'liga tutqazdilar.

Har bir davrda kishilar va jamiyat o'rtasidagi ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-axloqiy vaziyatni barqarorlashtirib turuvchi ijtimoiy institutlar faoliyat ko'rsatib kelgan. Aynan islom dini XVI asrdan XIX asrning ikkinchi yarmigacha mazkur vazifani bajargan. Islom dini arboblari jamiyatdagi o'zaro nizolarni, oddiy xalq bilan yuqori tabaqa o'rtasidagi kelishmovchiliklarni bartaraf etuvchi va

barqarorlashtiruvchi asosiy kuch bo'lgan. Davlatni boshqarishda bevosita ishtirok etuvchi diniy arboblari, yirik-yirik yer egalari, mahalliy hokimlar, sarkardalar va boy-badavlat kishilar o'rtasida o'sha davrda tez-tez ro'y berib turadigan kelishmovchiliklar va nizolarni bartaraf etishib, sulolalar vakillarining o'zaro taxt talashishlarining oldini olishga harakat qildilar, ularni birlikka da'vat etdilar.

XV asrdan boshlab sufizm (naqshbandiya tariqati)ning yirik vakillari davlatni boshqarishda faol ishtirok eta boshladilar. Natijada davlatni boshqarishda katta kuchga ega bo'lgan shayx ul-islom (jamiyatni boshqarish me'yorlarini ishlab chiquvchi, boshqaruv organlari qarorlarining to'g'riligini, avvalo, Qur'on, so'ngra hadislar bilan qiyoslovchi), mufti (diniy huquq va huquqiy masalalarga fatvo beruvchi) va bosh qozi (jinoiyat va jazo masalalarini, ya'ni jinoiy ishlarni ajrim qiluvchi) kabi mansab egalari hukmdorlar (Shayboniylar va Ashtarxoniylar)ning pirlari, hukmdorlar esa ularning muridlari hisoblangan.

Davlatni boshqarishda Buxoro yaqinidagi Jo'ybor qishlog'ida istiqomat qiluvchi Muhammad Islom, Jaloliddin Kosoniy (Mahmudi A'zam nomi bilan mashhur bo'lgan), Hoji Muhammadamin, Hoji Hoshimiy, Abu Rahim, Tojiddin Hasan, Xoja Saad; Samarqandda istiqomat qilib jamiyat ma'naviy hayotida muhim rol o'ynagan Xoja Ahror Valiy (asli Toshkentda tug'ilgan) va uning nabirasi Bakirxo'jalar; XV asming 80-yillarida Movarounnahrda kelib Xoja Ahror Valiyning izdoshi va muridi bo'lgan Mir Arab (asli Yamanda tug'ilgan va Movarounnahrda kelib, Turkistondagi Sayram shahrida yashagan) Abdulloh al-Arabi al-Yamanlilar katta ta'sir kuchiga ega bo'lganlar.

Ikkinchi tomondan, naqshbandiylar sufiylar (o'z davrida Yassaviylik ham, Kubroviylik ham) millat ajratmasdan mahalliy o'troq, ko'chmanchi va yarim-ko'chmanchi xalqlarning azaliy an'analari va turli diniy ibodat unsurlarining umumlashuvi hamda fors, arab va turkiy xalqlar madaniyatlarining o'zaro uyg'unlashib, hozirgi milliy madaniyatimizning shakllanishi hamda rivojlanishida muhim rol o'ynagan.

Ashtarxoniy hukmdorlardan Subhonqulixon davrida fan taraqqiyotida ozgina bo'lsa-da siljish ro'y berdi. Masalan, Mulla Tursun Faroziy, Mulla Ne'mat Samarqandiylar matematika, astronomiya va geometriya bo'yicha, Abdulla Ofarinketiy, Ali Buxoriy, Mulla Rahmat Samarqandiylar musiqashunoslik bo'yicha faoliyat ko'rsatdilar.

Tabobat ilmi bilan qiziqqan Subhonqulixon 1697-yilda Buxoroda 18 hujrali «Dorush-shifo» nomli madrasa-kasalxona qurdirdi. Bu maskan qoshida tashxisxona, dorixona, kutubxona va boshqa yordamchi binolar mavjud boigan.

Xullas, bu davrda Markaziy Osiyoda istiqomat qilgan turli xil etnik guruhlarning kelib chiqishi, tili, urf-odatlarini, moddiy hayot shart-sharoitlari hamda taxt tepasida turgan hukmdorlar sulolalari, ularning davlat tepasiga kelishi, zafarli yurishlari va taqdiri haqidagi turli xil tarixiy asarlar yuzaga keldi.

Bu davr madaniyatining xarakterli jihatlaridan biri o'tmish falsafiy merosini o'rganish, ilmiy-tabiiy bilimlarni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish bilan cheklanganlik, falsafa va adabiyot orqali insonparvarlik g'oyalarini ilgari surish bo'lgan.

Shayboniylar va Ashtarxoniylar davri madaniyatining yana bir muhim xususiyati tarixnavislik fanining rivojlanganligidir. Buning boisi, birinchidan, millatning shakllanish jarayoni, milliy o'zlikni anglashga, ikkinchidan, o'zi mansub bo'lgan xalq, elat yoki urug'ning kelib chiqishi, ularning til, e'tiqod, ruhiyat birligi, xalq tarixida ro'y bergan hodisalarni yoritishga bo'lgan intilishning kuchaya borishi, boshqa urug'lar, elatlar bilan aloqasi va boshqa jihatlarini bilishga, uchinchidan, milliy ong, milliy g'ururva millatparvarlikning shakllana borishi natijasidir. XVI asrdan boshlab Markaziy Osiyoda yashayotgan turli xalqlar, elatlar va urug'larning tarixini yorituvchi asarlar yaratish an'anaga aylana bordi. Masalan, Shayboniylar davrida tarixga oid quyidagi asarlar vujudga keldi. Muallifi noma'lum bo'lgan «Tavorixi go'zidayi Nusratnoma», Mulla Shodiyning «Fathnoma», Binoiy va Muhammad Solihlarning «Shayboniynoma»lari, Abdulloh Nasrullohiyning «Zubdat al-asor», Fayzulloh Ro'zbxonning «Mehmonnomai Buxoro», Zayniddin Vosifiyning «Badoye' ul-vaqoye'», Hofizi Tanish Buxoriyning «Abdullanoma» va boshqa asarlari yozildi.

Bu davr adabiyotining asosiy xususiyati adabiy jarayonda o'sha davr hukmdorlari ta'sirining sezilib turganligi bilan xarakterlanadi. Hukmdorlarning o'zlari she'riy, nasriy va tarixiy asarlar yaratishga bo'lgan intilishlari bilan ko'zga tashlanib turganlar. Muhammad Shayboniyxon, Ubaydullaxon, Abdulazizxon, Subhonqulixon, Abulg'ozixon, va boshqalarning she'riyat, nasr va tarix sohalarida qalam tebratganlari fikrimizning dalilidir.

She'riyatda qalam tebratgan hukmdorlardan biri Muhammad Shayboniyxonning o'zidir. U o'z umrining ko'p qismini jangu jadalda o'tkazsa-da, ilm-fan va san'atga qiziqishi ancha baland bo'lgan. U yaxshi ta'lim-tarbiya olgan. Natijada iste'dodli shoir, musavvir, musiqachi va xushovoz qiroatxon bo'lgan.

Shayboniyylar suloiyasining yana bir vakili Ubaydullaxon ham ilm-fan adabiyot va san'atga qiziquvchi hukmdorlardan biri bo'lgan. U «Ubaydiy» taxallusi bilan o'zbekva fors tillarida ijod etgan va asosan g'azallar, ruboiylar va qit'alar bitgan.

Ubaydullaxonning o'g'li Abdulazizxon ham «Aziziy» taxallusi bilan g'azallar yozgan. Abdulazizxon o'z saroyida Hofiz Sulton Ali Ubaxiy, Vosifiy, Baqoiy, Majlisiy, Kavkabiyy, Surudiy, Shaydo kabi shoirlar va san'atkorlarni to'playdi, ularga ko'plab iltifotlar ko'rsatadi. U o'z saroyida shoirlar bilan muntazam ravishda mushoiralar o'tkazib turadi. Shuningdek, Abdulazizxon mamlakat obodonchiligi yo'lida ko'plab qurilishlarni amalga oshiradi, me'moriy binolar qurdirib o'z saroyi qoshida yirik kutubxona tashkil ettiradi.

Shayboniylardan keyingi davrda taxt tepasiga kelgan Ashtarxoniylar ham o'z davrining o'qimishli va yetuk kishilari bo'lganlar. Ularning ko'pchiligi uch tilni (turk, fors va arab tillarini) mukammal bilganlar. Dunyoviy va diniy ilmlarni egallaganlar. Imomqulixon, Nazarmuhammadxon, Abdulazizxon, Subhonqulixon she'riyatda qalam tebratganlar. Masalan, Subhonqulixon Nishoniy taxallusi bilan she'r bitgan. Imomqulixon yetuk siyosatchi, ilmparvar va ra'iyatparvar bo'lganligi uchun ham 30 yildan oshiqroq hukmdorlik qilgan. Uning davrida ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy barqarorlik vujudga kelgan. Imomqulixon chiqarilgan qonun va farmoyishlarning bajarilishini nazorat qilib borgan.

Shunga qaramasdan, ashtarxoniylar davrida mamlakatni holdan toydiruvchi o‘zaro taxt talashishlar, beklar va boylar o‘rtasidagi ixtiloflar davom etgan. Xalqning o‘zaro kurashlardan qiynalayotganligini ko‘rgan ijod ahllari, masalan, Turdi (Farog‘iy), Boborahim Mashrablar o‘z asarlarida hukmdorlar, beklar, sultonlar va ayrim din rahnamolarini qattiq tanqid ostiga olgan. Chunki ularga nisbatan xalqda ishonch qolmagan edi. Ular diyonat, insof, adolat va xalqparvarlikdan uzoqlasha boshlagan edilar. Ma‘lumki, qayerda diyonat, imon-e‘tiqod, adolat hukm surarkan, o‘sha joyda el hukmdordan xursand, o‘sha yerning shoirlari hukmdorlar madhida bo‘lgan, xalqning turmushi, ijtimoiy munosabatlar va hodisalar, botiniy va zohiriy ishqning kuychisiga aylangan.

Jamiyat hayotining taqdiri butunlay ruhoniylar qo‘liga o‘tgach, ya‘ni XVII asr oxiridan boshlab Markaziy Osiyo madaniyatida tushkunlik kayfiyatlari kuchaydi. Tasawuf ta‘limotining ildizlari jamiyat ma‘naviy hayotining ko‘pgina sohalariga chuqurroq kirib bordi. Ayniqsa, tasawufning qalandarlik oqimining ta‘siri kuchaydi. Qalandarlar tasawuf ta‘limotini yoyishning qudratli vositasiga aylandilar. Ular nafaqat diniy ta‘limotni, baiki tarki dunyochilikni targ‘ib qilishni ham asosiy vositasiga aylanganlar. Shuningdek, ular devonalik yo‘li orqali adolatsizlikka qarshi kurashganlar ham.

Umuman olganda, bu davr abadiy jarayonida bir tomondan ko‘proq botiniy va zohiriy ishq-muhabbatni kuylash ko‘zga yaqqolroq tashlansa, ikkinchi tomondan, riyokor dindorlar, ochko‘z boylar, boylik to‘plashga intiluvchi beklar tanqid ostiga olinadi, uchinchi tomondan esa, inson qismati taqdirning azaliy hukmi ekanligi g‘oyasi ilgari suriladi.

Ham Shayboniylar, ham Ashtarxoniylar o‘z saroylari qoshida ko‘plab san‘atkorlarni to‘plab, ularga homiylik qilganlar. Natijada nafaqat she‘riyat va me‘morlik san‘atlari, balki musiqa san‘ati ham taraqqiy etadi. Ikkala sulola hukmronligi davrida mohir sozanda va xonandalalar, shoir-bastakorlardan Mavlono Kavkabiy, Mavlono Rizo, Mavlono Pirmuhammad Kulol, Ali Do‘st Noiy, Amir Ali Akbar Samarqandiy, Amir Masti Kobuziy va boshqalar xalq orasida mashhur bo‘lgan.

XVI-XVII asrlarda yashagan Mavlono Kavkabiy va Darvesh Ali Changiylar musiqashunoslikka oid asarlar yaratishib, kuy va qo‘shiq, ularning turlari hamda shakllari masalasini yoritib berdilar.

Xulosa qilib aytganda, temuriylar davridan keyingi madaniy hayot da adabiy-badiiy jarayon sezilarli darajada rivojlanishda davom etdi. Lekin hayotning barcha sohalarini qamrab olgan mutanosiblik ishlab chiqarish kuchlari taraqqiyotiga, ayniqsa, aniq fanlar taraqqiyotiga salbiy ta‘sir ko‘rsatdi, Shuningdek, diniy mutaassiblik ishlab chiqarish kuchlari taraqqiyotiga ham salbiy ta‘sir ko‘rsatgan. Natijada moddiy va ma‘naviy boyliklar ishlab chiqarish oldingi davrlar — ilk Uyg‘onish va temuriylar davriga nisbatan birmuncha sust rivojlangan. Aholining ilm-fanga bo‘lgan qiziqishi ham, ilmiy tafakkur taraqqiyoti ham bir qadar susaya borgan.

Me‘morlik va musiqa san‘ati

Shayboniylar davrida nafaqat hukmdorlar, balki o'z davrining ko'zga ko'ringan va katta moddiy imkoniyatga ega bo'lgan shaxslari ham ko'plab me'moriy yodgorliklar qurganlar.

Bu davrda Samarqandda Muhammad Shayboniyxon qurdirgan Xoniya, Abu Said nomli madrasalar. Buxoroda shahar devonining ta'mirlanishi, Mir Arab (Ubaydullaxon qurdirgan), Abdullaxon, Modarixon (Abdullaxon o'z onasiga atab qurdirgan), Govkushon, Fathulla Qushbegi, Muhammad Xoja Porso, Jo'ybor, Ko'kaldosh, Qulbobo madrasalari, Kalon, Xoja Zayniddin, Baland, Chor Bakr, Abdullaxon masjidlari, toqi Sarrafon, toqi Zargaron, toqi Urdfurushon, toqi Tirgaron, toqi Telpakfurushon kabi beshta toqilar, Abdullaxon timi, Toshkentda Ko'kaldosh va Baroqxon madrasalari, Qaffoli Shoshiy maqbarasi, Turkistonda Muhammad Shayboniyxon masjidi, Balxda Abdullaxon va Qulbobo Ko'kaldosh madrasalari hamda boshqa me'moriy yodgorliklar quriigan.

Ashtarxoniylar davri ham ko'plab me'moriy yodgorliklarning bunyod etilganligi bilan ajralib turadi. Bu davrda Buxoroda Abdulazizxon, Ubaydullaxon madrasalari, Boqi Muhammad va Ubaydullaxon masjidlari, Subhonqulixon qurdirgan kasalxona, madrasa, Balx shahrida Nazar Muhammad va Subhonqulixon madrasalari, qator chorbog'lar, Mozori Sharifda Hazrat Ali qabridagi gumbaz va boshqa binolar barpo etiladi. Albatta, Ashtarxoniylar davrida ham o'ziga to'q kishilar, amirlar, amaldorlar ham o'zlarining mablag'lariga ko'plab me'moriy yodgorliklar qurdirganlar. Masalan, XVII asrda Xivada Arab Muhammadxon, Xojamberdi, Sherg'ozixon madrasalari qurilgan bo'lsa, Buxoroda Poyandibiy otaliq masjidi, Nazrdevonbegi madrasalari, Bozori Gusfand madrasasi, Samarqandda Amir Yalangto'shbiy tomonidan Registon maydonida Sherdor va Tillakori madrasalari bunyod etilgan.

Bunday ulug'vor va hashamatli binolar hukmdoming qudratidan dalolat berishini, ularning nomlarini abadiylashtirishning eng maqbul yo'ii ekanligini anglab yetganlar. Shuning uchun ham Shayboniy hukmdorlar bir tomondan nafaqat Buxoro, balki o'zlari bosib olgan boshqa shaharlarda ham ko'plab madrasalar, masjidlar va xonaqohlar qurdirgan bo'lsalar, ikkinchi tomondan, o'zidan oldin yetti iqlimni bo'ysundirib o'zining qudratini namoyish qilgan Amir Temurga g'ayrlik bilan qaraganlar va Temur tomonidan bunyod etilgan eng hashamatli va ulug'vorlikda boshqa me'moriy yodgorliklardan ustun bo'lgan «Oqsaroy»ni vayron qilishga harakat qilganlar «Oqsaroy»ni XVI asrdayoq Shayboniylar xonadoniga mansub yangi hukmdorlar nafaqat a'lo sifatli g'ishti uchun, balki saroy bunyodkorining ulug'vor xotirasini unuttirish uchun ham buzib tashladilar.

Shayboniy hukmdorlar markaziy shaharlar va ularning atrofini obod qilishga harakat qildilar. Jumladan Buxoro, ya'ni poytaxtda me'morchilikka katta e'tibor berildi. Mir Arab Madrasasi-Buxoro xoni, mumtoz shoir Ubaydullaxon in'om etgan mablag' hisobiga Shayx Abdulla tomonidan 1530-1536 yillar mobaynida qurilgan. Mir Arabning asl ismi Said



Mir Arab madrasasi

Abdulloh bo‘lib, naqshbandiya tariqatining rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan. U madrasa qurilishini nihoyasiga etkaza olmagan, 1536 yili vafotidan so‘ng vasiyatiga ko‘ra kuyovi Zakariyo qurilishini oxiriga etkazgan. Mir Arab madrasasi Minorai Kalonning qarshisida joylashgan. Bu madrasada O‘rta Osiyoda diniy maktablari qurilishiga xos an‘anaviy loyiha va mujassamlik o‘z ifodasini topgan. Buxoroning 2500 yilligi munosabati bilan madrasa peshtoqi va gumbazlaridagi to‘kilib ketgan koshinkor naqshlar va yozuvlar qayta tiklandi.

Masjidi Kalon - (fors-katta masjid) Buxorodagi me‘moriy yodgorlik. XII asrdagi qadimiy imorat qoldiqlari ustiga XIV-XV asrlarda qurila boshlanib, XVI asr boshlarida ta‘mir etilgan. Imoratning tashqi etti eshigi bo‘lib, asosiy sharqiy darvoza oldida va ichida keng ayvonlar joylashgan. Peshtoq oldidagi sahnada kichik ko‘shk (pavilon) qurilishini XX asrda usta Shirin Murodov ishlagan.


Mag‘oki Attoriy masjidi-Buxorodagi memoriy yodgorlik (X-XVI asrlar) Mag‘ok (chuqurlik) va Attor bozori yaqinida joylashgani sababli shunday nomlanadi. Qadimgi to‘rt ustunli Moh masjidi (IX asr) o‘rnida XII asrda eski loyiha asosida qayta qurilgan. XIV asrda ta‘mirlangan. XV asrda peshtoqining yuqori qismi buzilgan. Abdulazizxon davrida (1541-1542) yillar binoning yuqori qismi gumbazlari qayta qurilgan Mag‘oki Attori masjidi bezaklari Buxoro memorchilik maktabining yuksak namunasi sifatida O‘zbekiston me‘morlik tarixida alohida o‘rin tutadi.

Madarixon madrasasi-Buxoroda 1566-1567 yillarda Abdullaxonning onasi sharafiga qurilgan. Modarixon madrasasi Abdullaxon Madrasasi qarshisida joylashgan bu madrasa XVI asr Buxoro me‘morchiligiga xos ravishda ikki chekkasi pishiq g‘ishdan terilgan, o‘rtasi siniq g‘isht bo‘laklari bilan to‘ldirilgan. Madrasa binosi 1997 -1998 yillarda ta‘mirlangan.

1580 yillarda bino qilingan Govkushon majmuasi-XVI asr Buxorodagi memoriy yodgorlik, Joybor shayxlari qurdirgan madrasa, masjid, minora, hovuz va saroydan iborat majmua. (Gavkushon-Qassoblar bozori ma‘nosida). Madrasa va masjid o‘rtasidan Shoxrud arig‘i o‘tgan. 1930 yillarda hovuz ko‘mib tashlangan.

Fayzobod xonaqohi – 1598-1599 yillarda Buxoroda qurilgan memoriy yodgorlik. U Abdullaxon II davrida Do‘stun Devon Begi tomonidan bino etilgan. Xonaqohiy uch tomonidan ravoqli bostirma (galereya) o‘rab turadi. Fayzobod xonaqohi aynan ochiq ravoqli galereya shaklida qurilganligi bilan ajralib turadi. Vayronaga aylangan imorat XX asrning 70-80 yillarida Buxoro maxsus ilmiy ta‘mirlash ishlab chiqarish ustaxonasi tomonidan qayta tiklangan.

Toqi Zargaron-taxminan 1559 yillarida Buxoroda qurilgan – zargarlik buyumlari sotish uchun mo‘ljallangan savdo markazi. Gumbazi Arablar bosqiniga qadar qurilgan deb taxmin qilinadi. Bu yodgorlik XVI asr boshlarida Vosifiyning yozgan asarida Buxoro Chorsusi sifatida tilga olingan. Toqizargaron Ulug‘bek madrasasi yonida joylashgan. O‘tmishda bu erda 36 zargarlik ustaxonasi va do‘konlar bo‘lgan. Toqi



Toqi Zargaron

Zargaron Buxorodagi toqilarining eng yirigi va mujassamoti jihatidan murakkabi hisoblanadi.

Toqi Sarrofon-XVI asrda Buxoroda qurilgan pul almashtiradigan bosh savdo markazi. Shoxrud arig'i ustida Sarroflarning do'konlari qurilgan bo'lib, Toqi Sarrofon eng kichik gumbazdir. Shayboniylar davrida Buxoro xususiy tadbirkorlik qarzi berish va pul almashtirish markaziga aylangan. Buxoroda Sarroflar nomi bilan bog'liq uylar, savdo-gumbazi, karvon saroi, masjid, xammom va boshqalar mavjud bo'lgan.

Bundan tashqari Abdulazizxon qurdirgan koshinli xonaqoh (1549 yil) Karmanadagi Hazrati Qosimshayx xonaqohi, 1582 yilda qurilgan uch darvozali Timiy kalon, Oyposhsha Oyim madrasasi, Fatxulla Qo'shbegi madrasasi, Do'stum madrasasi kabi ko'plab me'moriy obidalar qad ko'targan. Abdullaxon madrasasi 1577 – 1578 yillarda qurilgan.

Samarqandda ham Shayboniylar nomi bilan bog'liq binoiy xayirlar anchagina. Masalan, Shayboniylar daxmasi - XVI asr memoriy yodgorligi. Shayboniyxon 1510 yili Eron shoxi Ismoil I Safaviy bilan bo'lgan jangda halok bo'lgach, Samarqandga olib kelib o'zi tomonidan qurila boshlanib, keyinroq 1515-1516 yillarda to'liq bitkazilgan madrasada marmar supa ostida dafn etilgan. Supa ostiga Shayboniyxondan tashqari boshqa Shayboniy sultonlar: Mahmud Sulton, Muhammad Temur Sulton, Abulxayir Sulton va boshqalar dafn etilgan. Samarqandda yana Abdurahim Sadr madrasasi qurilgan.

Baroqxon madrasasi-Toshkentda (1531-1532 yil XVI asrning ikkinchi yarimi) da qurilgan madrasa. Madrasa poydevori toshdan, qalin devorlari turli hajmdagi pishiq g'ishdan ishlangan. Madrasa o'rnida dastlab ikki (katta va kichik) maqbara bo'lgan. Kichik maqbarada Baroqxonning qabri bor. 1904 yilda masjidga aylantirilgan katta maqbarada Toshkent hokimi Suyunchxo'ja qabri joylashgan. Baroqxon ikki maqbarani o'z ichiga olgan madrasa qurdirgan. XX asr boshlaridagi ta'mir vaqtida qadimgi bezaklarning qoldig'i ko'chirib tashlanib, oq ganch bilan suvalgan, Baroqxon madrasasi naqshlarining go'zalligiga va qurilishi uslubi jihatidan Samarqandning eng yirik, yaxshi me'moriy yodgorliklariga yaqinlashadi. 1946 yil, 1949 yil, 1951 yil, 1967 yillarda madrasada ta'mir ishlari o'tkazilgan. Bu davrda yana Karmana yaqinida Zarofshon daryosi ustiga qurilgan ko'priklar juda mashhur (1582 yil).

Buxoroga kelgan ingliz elchisi Antoniy Jenkinson: "Buxoro juda katta shahar, unda g'ishtlik imoratlar, serhasham binolar ko'p." Shayboniylardan ayniqsa Abdullaxon II yurt obodonchiligi yo'lidagi sa'i-harakatlari tarixchilar tomonidan yuksak baholangan. Uning davrida markaziy hokimiyat kuchayishi tufayli katta qurilish amalga oshirilgan. Chunonchi, Abdullaxon II 1001 ta rabot, sardoba, ko'plab madarasa, masjid, ko'priklar, suv omborlarini qurdirgan.

Samarqand va Buxoro shaharlari hamisha mamlakatning siyosiy iqtisodiy va madaniy hayotida muxim rol o'ynab kelgan. Chunki, bu shaharlar davlat hokimiyatining tayanchi, savdo va hunarmandchiligi markazi, madaniyat hamda ilm fan o'chog'i vazifasini o'tagan. Samarqand va Buxoro xonlikning eng yirik shaharlaridan hisoblangan. XVI asr boshlarida mayda mulklarning birlashuvi va

markaziy xokimiyatning bir muncha mustahkamlanishi savdo va xunarmandchiligini ham rivojlanishiga imkon yaratdi. Xonlik shaharlarida savdo markaziy xiyobonlaridagi usti yopiq chorsularda olib borilgan. Ular “Tim” va “Chorsu” deyilgan. 5 tim bo‘lgan. Bu Buxoroda tijorat va bozorlarning obodligidan guvoh beradi. Chorsuni Buxoroda “toq” ham deyilgan. XIX asrning 40 yillarigacha Buxoroda 38 ta karvonsaroy bo‘lgan, shulardan 24 tasi g‘ishtan qurilgan, 14 tasi cho‘pkori edi. Buxoroda ichki va shaharlararo savdo 9 ta tim va chorsuda amalga oshirilgan:

1. Timi Abdullaxon-bunda adras, beqasam, duxoba va movut sotilgan.
2. Toqi Abdullaxon –bunda atlas, karbos, surp bilan savdo qilingan.
3. Uchta Timda-shoyi matolar sotilgan. Qolgan to‘rt chorsu (Xossa Biyo, Darroi, Timi, Kalampushti) Xindistondan keltirilgan oyoq kiyimlari, kovush, bosh kiyimlari sotilgan. Buxoro shahrida 103 ta madrasa, 360 masjid, 83 ta hovuzning mavjudligi uning yirik iqtisodiyot va madaniyat markazi bo‘lganligidan dalolatdir.

XVII-XVIII asrlarda me‘morchilikda katta yutuqlarga erishildi. Ashtarxoniy Imomqulixon Madina shahrida chorbog‘, Makkadagi Ka‘baga kiraverishda darvozalaridan biri ostonasi uchun oltin va kumush tutkichli yog‘och zina qurdirganligiga tarix guvoh. Buxoroda Imomqulixon amaldori Nodir Devonbegi masjid, Labi Hovuz nomi bilan mashhur hovuz, madrasadan iborat me‘moriy majmua bunyod etdi, hamda Samarqandda Xo‘ja Ahror maqbarasi yonida madrasa va nomozgoh barpo qildi. Abdulazizxon qurdirgan Buxorodagi madrasa muhtashamligi, nafis naqshli koshinlariga boyligi bilan ajralib turadi. Buxoro xonligining ko‘pgina shaharlarini bog‘lar o‘rab turar edi Alohida reja asosida bunyod etilgan bog‘lar ham bo‘lib, ular yirik amaldorlarga qarar va chorbog‘ deb atalar edi. Bunday bog‘lar to‘rt qisimdan iborat bo‘lib, ularni bir-biridan ariqlar ajratib turar edi. Buxorodagi Jo‘ybor, Toshkentdagi Kaykovus bog‘lari eng mashhur bog‘lar qatoriga kirar edi.

Bu davr me‘morchiligining eng katta yutuqlar hisoblangan Registon maydoni shakllandi. Registon ansambli uch madrasa - Ulug‘bek, Sherdor va Tillakori madrasalaridan iborat me‘moriy majmua. Dastlab Ulug‘bek madrasasi bunyod etilib, keyinchalik qarshisiga-maydon sharqiga Ulug‘bek xonaqohi, shimoliga Mirzoi karvonsaroi, Janubga Alike Ko‘kaldosh jome masjidi qurilgan, yonida esa yog‘ochdan xotamkori uslubida Masjidi Muqatta va Abu Said madrasasi qurildi.

Registon XV asrning 20-40 yillarida hashamatli me‘moriy ansamblga aylanib bo‘lgan edi. XVII asrda Samarqand hokimi Yalangto‘sh Bahodir vayrona xolatidagi Ulug‘bek xonaqohi o‘rnida Sherdor madrasasini, Mirzoi Karvonsaroi o‘rniga Tillakori

madrasa – masjidini qurdirgan. Sherdor madrasasi – Yalangto‘sh



Registon maydoni

Bahodir tomonidan 1619-1636 yillar mobaynida qurilgan. Madrasa tarxi to'rtburchak, ikki qavatli. Peshtoqda qizg'ish zarhal tusli sher oxuni quvayotgan manzara tasvirlangan. Peshtoqning ikki tomonidan gumbazli darsxona va masjid joylashgan. Ravoqli ayvon yozda darsxona vazifasini o'tagan. Bu betakror tarixiy yodgorlikni me'mor-muhandis Abdul Jabbor Samarqandiy, naqqosh Mxammad Avaz Samarqandiy, xattot va koshinkor Hasan Begisi Samarqandiy, kulol Muhammad Jabbor Samarqandiy bunyod etganlar. 1960-1964 yillarda peshtoq qanoslaridagi koshinkor naqshlar qayta tiklangan.

Tillakori madrasasi – 1646/47-1659/60 yil yillarda Yalangtoshbiy tomonidan qurilgan. Dastlab “Yalangtoshbiy kichik madrasasi” deyilgan. Keyinchalik masjid bezagida boshqa bir obida qurilishiga yetadigan miqdorida oltin sarflangani uchun “Tillakori” (tilladan ishlov berilgan) deb yuritila boshlangan. Tillakori madrasasidan shahar Jome masjidi va madrasa sifatida foydalanilgan. Shuning uchun ham madrasa masjidi katta va serhashamligi bilan ajralib turadi. Uning gumbazi nihoyasiga etkazilmagan va bir necha bor ta'mir qilingan. 1817 yida Amir Xaydar buyrug'i bilan zilziladan zarar ko'rgan peshtoqi qayta tiklanish jarayonida shakli buzilgan.

Xo'ja Ahror majmuasi-Samarqand atrofidagi me'moriy yodgorlik bo'lib, uning yaqinida turli davrlarda bun'yod etilgan Nodir devonbegi madrasasi, ikki ayvon, masjid, minora, hamda hovuzli hovlidan iborat majmua. Majmuani markazi 8 yoqli hovuz, uning janubda Xoja Ahrorning oq marmarli qabr toshi bor, qabr toshiga arab yozuvida xusnixat bilan marsiya yozilgan, hovlida g'arb tomonida bezaklari XVII asrga xos bo'lgan ayvon joylashgan.

XVII-XVIII asrlarda Turkistonda hukmronlik qilish uchun o'zaro kurashlar, boshboshdoqlik, parokandalik avj oldi. Bu esa madaniyatga salbiy ta'sir etmay qolmadi, nisbiy tushkunlik, oldingi yutuqlarni yo'qotish susayish bu davr madaniyatini tasvirlovchi xislatlar bo'lib qoldi. Madaniyat sohasidagi ayrim yangiliklar, o'zgarishlar asosan Buxoro va Samarqand, qisman Xiva shaharlari bilan bog'liq bo'ldi. Umuman XVI-XVIII asr birinchi yarmi madaniyatida ilm fan, xususan, tabiiy fanlarning o'rnini susayganini, diniy bilimlar diniy taa'subning roli kuchaya borganini ko'ramiz. O'zaro urushlar tufayli tashqi olam bilan aloqalar, ma'naviy-madaniy munosobatlarining kamayib ketishi ham madaniy xayotidagi ma'lum beqarorlikka, yangiliklaridan uzulib qolishga olib keldi. Ilm fan, madaniyat sohasida oldingi erishilgan yutuqlar ham o'z ta'sirini yo'qotib, ularga murojat etish o'rniga diniy ta'limlar kuchayganini ko'ramiz. Natijada bu davrda an'anaviy Islom uning qoydalari jamiyat hayotida hal etuvchi o'rnini egallab, tasavvuf, xususan Naqshbandiya ham ma'naviy hayotdagi oldingi ta'sirini yo'qota bordi.

Shu bilan birga bu davrda turkiy-o'zbek tilidagi ba'diy adabiyot namunalarining borgan sari ko'paya borganini, adabiyot, she'riyat ma'naviy xayotining eng muxim asosiy sohasiga aylanib, an'anaviy lirik asarlar bilan birga shoir, adiblar dunyoviy xayot qiyinchiliklari, diniy taasubning kuchayishiga bo'lgan noroziliklari, sufiyona fikrlarini she'riyat orqali ifoda etishga intilganliklarini ko'ramiz.

Miniatyura va kitobot san'ati.

Shayboniylar va Ashtarxoniyilar davrida ham xattotlik va miniatyura san'ati kitobot san'ati bilan bog'liq holda taraqqiy etdi. Shayboniylardan Abdulazizxon va Abdullaxonlar o'z davrining yetuk kutubxonalarini tashkil etganlar. Kutubxonalar qoshida qo'lyozma asarlardan nusxa ko'chiruvchi, eskilarini ta'mirlovchi xattotlar va ustalar faoliyat ko'rsatganlar.

XVI asrda Movarounnahrda Shayboniylar poytaxti Buxoro musavvirlik san'ati markaziga aylanadi. Endilikda O'rta Osiyo musavvirliги Hirotdan kelgan san'atkorlar faoliyati natijasida Behzod maktabiga xos bo'lgan gumanistik g'oyalar, yuksak mahorat xususiyatlari bilan Shayboniylar hukmdori didiga binoan ko'chmanchilik hayotiga xos urf-odat, cho'l manzaralari uyg'unlashadi. Demak, Buxoro musavvirliğida uch unsur – temuriylar davri Samarqand va Buxoro, Navoiy davri, Behzod maktabi bilan ko'chmanchilik hayoti unsurlari mujassamlanadi. Xususan, uncha mashhur bo'lmagan shoir Shodiyning Shayboniyxonga bag'ishlangan "Fatxnoma", Ma'sud ibn Usmon Qo'hisoniyning "Abulxayrxon tarixi" asarlariga ishlangan miniatyuralarda ko'chmanchi aholining hayot tarziga xos jihatlar o'z aksini topgan.

Mashhur musavvir Mahmud Muzahhib Shayboniylar Ubaydullaxon va Abdulaziz saroyida xizmat qilgan bo'lib, uning ilk asari - Alisher Navoiyning hassaga tayanib turgan holatini tasvirlovchi portreti Tehrondagi «Guliston» kutubxonasida saqlanadi, «Sulton Sanjar va to'quvchi qari kampir uchrashuvi» miniatyurasi muallifi.

Bu davrda ishlangan miniatyuralarda ko'pincha kompozitsiya, saroylar tasviri Hirot uslubida tabiat manzaralari, odamlar chehrasi, kiyim-kechaklar yerli uslubda tasvirlanadi, oddiy hayot manzaralari, xalq vakillari obrazlari ham beriladi. Mavzu jihatdan esa ahloq, odoь masalalarini yoritishga ko'proq ahamiyat beriladi. Bu o'rinda ayniqsa, Shohruhiyada ko'chirilgan Navoiy "Xamsa"si miniatyuralarini eslab o'tish o'rinli bo'ladi.

Buxoroda Ubaydulloxon va undan keying Shayboniylar davrida saroyda badiiy bezakli qo'lyozmalar tayyorlash ishi davom etadi. Ammo, viloyatlarda tayyorlangan badiiy qo'lyozmalardan farqli ularoq, Buxoroda qo'lyozmalar xon nazorati ostida ishlangan. Sulton Mirak Munshi, mavlono Mir Ali Kotib kabi mashhur xattotlar Sulton Ali Mashhadiy an'alarini davom ettiradilar. Asosan klassik adabiyot namunalari, Nizomiy, Sa'diy, Jomiy, Navoiy asarlarining badiiy bezakli qo'lyozmalari tayyorlanadi. Ularga ishlangan mo'jaz rasmlarda Hirot an'analari Buxoro san'atkorlari ko'pincha falsafiy allegorik asarlarni majoziy ma'noda emas, balki tom ma'nosida talqin etadilar.

Alisher Navoiyning Parij milliy kutubxonasida saqlanayotgan "Lison ut-tayr" asarining 1553 yilda Buxoroda ko'chirilgan qo'lyozmasiga ishlangan rasmlar ham ana shu xarakterdadir. Buxoroda ishlangan badiiy qo'lyozmalar orasida Angliyaning Oksford universiteti Bodleyan kutubxonasida saqlanayotgan Alisher Navoiyning "Sab'ai sayyor" va "Saddi Iskandariy" dostonlari muhim o'rin egallaydi. Dostonlarning 1553 yilda ko'chirilgan bu nusxalari Buxoro badiiy

qo‘lyozmasining eng yuksak namunasidir. Xati nihoyatda go‘zal, ravshan, mayda nasta‘liq, matn to‘rt ustunda, hoshiyalarga oltin suvi purkalgan va o‘simlik, geometrik naqshlar bilan bezatilgan. Har ikkala doston qo‘lyozmalariga ishlangan o‘n besh miniatyura go‘zalligi, nafosati, bo‘yoqlarining rangdor va ravshanligi, mutanosibligi, chiziqlarning nafisligi, personajlar qiyofasining jozibadorligi bilan kishini hayratda qoldiradi.


Eshmuhammadxonning buyrug‘iga ko‘ra 1556 yilda ko‘chirilgan Firdavsiyning “Shohnoma” asari O‘rta Osiyo miniatyura san‘atining durdonasi sanaladi. Biroq unga ishlangan ko‘p sonli miniatyuralar XVI-XVII asrlar chegarasiga oid. Ushbu miniatyuralarning beshtasiga Muhammad Murod Samarqandiyning dastxati qo‘yilgan.

Buxoroda XVI asrda kamolot cho‘qqisiga chiqqan kitobat va mo‘‘jaz rasmlar san‘ati XVII asrda ham davom etdi. Lekin endi ziynatlangan qo‘lyozmalar o‘rtasida Navoiy asarlari uchramaydi.

XVII asr Buxoro musavvirlik san‘ati, umuman olganda, XV-XVI asr an‘analarini davom ettirsa, kamolotdan chekinish sezilib turadi. 1628 yilda Samarqandda Sharafiddin Ali Yazdiyning “Shohnoma” asariga ishlangan miniatyuralar bu davr tasviriy san‘atining yorqin namunasidir.

Tarixiy manbalar va asarlardagi dastxatlar XVI asrning oxirgi choragi – XVII asrning birinchi yarmida Buxoro va Samarqandda ijod qilgan Xo‘ja Muhammad Musavvir, Muhammad Sharif, Muhammad Murod Samarqandiy, Muhammad Darvish Samarqandiy kabi musavvirlarning nomini yetkazib kelgan. Muhammad Amin nafaqat miniatyurachi, balki Buxorodagi Abdulazizxon madrasasidagi devoriy suratlar va naqshlarni bajargan musavviridir.

XVII asrning ikkinchi yarmida Abdulazizxon II davrida Muhammad Muqim, Avaz Muhammad, Muhammad Amin, Mullo Behzod, Subxonqulixon davrida Xoja Gadoylar ijod qilgan. Muhammad Muqimning 1664 yilda Buxoroda ishlangan “Shohnoma” ga ishlangan miniatyuralari ma‘lum.



Siyovushni olov bilan sinash. Firdavsiyning “Shohnoma”siga ishlangan miniatyura. Muhammad Murod Samarqandiy

Nazorat savollari:

1. Shayboniylar davri madaniyatining o‘ziga xos jihatlarini ochib bering.
2. Shayboniylar davri me‘morchiligi haqida nimalarni bilasiz.
3. Shayboniylar davri madaniyatini boshqa davr madaniyatlari bilan taqqoslang.
4. Ashtarxoniylar davri madaniyati haqida ma‘lumot bering.
5. Ashtarxoniylar davri me‘morchiligi to‘g‘risida nimalar bilasiz?

7-Mavzu: XVIII-XIX asrlarda o‘zbek xonliklari davri madaniyati va san‘ati

Reja:

1. XVIII-XIX asrlarda madaniy taraqqiyot va uning o'ziga xos xususiyatlari
2. Me'morchilik va san'at taraqqiyoti

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:

Xonliklar davri, Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonligi, Buxoroning Markaziy Osiyodagi diniy markaz sifatidagi o'rni, ta'lim, ma'rifatparvarlik, xalq amaliy san'ati, me'morchilikdagi an'analarning davom etishi, Ichan qal'a.

XVIII-XIX asrlarda madaniy taraqqiyot va uning o'ziga xos xususiyatlari

XVIII–XIX asrning birinchi yarmida O'rta Osiyo xonliklari va Buxoro amirligining xalq ta'limi, fan va madaniyati haqida gap borganda shu narsani alohida ta'kidlash kerakki, ijtimoiy-siyosiy hayotning hamma sohalarida va birinchi navbatda madaniyat va mafkurada islom dini g'oyasi markaziy o'rinni egallar edi. Hukmdorlar o'zlarini «Musulmon amirlari» deb e'lon qilgan Buxoro bu davrda ham Markaziy Osiyoning diniy markazi sanalgan. Ma'rifat, fan va maorifda ham islom mafkurasi asosiy va yetakchi yo'nalish bo'lib xizmat qilgan.

Mamlakat va davlat ahamiyatiga molik barcha ishlar, o'zga mamlakatlarga qarshi olib borilgan urushlar ruhoniylarning maslahati va fatvosi bilan e'lon qilingan. Ayni zamonda din ham xonlarni qo'llab-quvvatlagan, Olloh va Qur'on nomidan ularga katta va cheklanmagan huquqlar bergan. Jumladan, Amir Shohmurod Olloh irodasini bajo keltirishni qizg'in namoyish qilgani va davlatda Islomning ravnaq topishiga g'amxo'rlik ko'rsatgani uchun «begunoh amir» nomini olgan. U naqshbandiylar darvesh jamoasining a'zosi va o'sha davrda shu jamoaning boshlig'i bo'lgan shayx Safarning muridi bo'lgan.

Ruhoniylarning ta'siri va rahnamoligida o'z davrining mulkdorlari va xudojo'y kishilari mablag'lari hisobiga qabristonlar obod qilinadi, u yerlarga boradigan yo'llar, ko'priklar ta'mirlanadi va qabristonlarga yaqin joylarda masjidlar va madrasalar quriladi.

XVI–XIX asrning birinchi yarmida O'rta Osiyodagi har uchala amirlik va xonliklarning madaniy taraqqiyotiga xos bo'lgan umumiy o'xshashliklar mavjud:

- 1) O'rta Osiyo davlatlari XV asrlarda madaniy taraqqiyotda dunyoda yetakchi o'rinlardan birida turgan bo'lsa, XVI–XVII asrlardan e'tiboran bu hududda tushkunlik boshlanadi.
- 2) Har uchala davlat birliklari o'zlari alohida mustaqil faoliyat ko'rsatsalarda davlat idora ishlari o'zbek va fors tilida olib borilardi. Buxoroda fors, Qo'qonda fors-o'zbek, Xivada o'zbek tili rasman davlat tili bo'lib hisoblanardi. Turmushda, adabiy ijodda o'zbek va fors tillari keng qo'llanilar edi.
- 3) An'anaga ko'ra fanda, adabiyot va maktabda arab va fors tilining obro'si saqlanib qolgan.

Buxoro amirligi, Qo'qon va Xiva xonliklarida xalq ta'limining tuzilishi va faoliyati ham deyarli bir xil bo'lgan. Ularda madrasalar, maktablar va qoriqxonalar mavjud edi. Madrasalar musulmon oliy o'quv yurtlari hisoblangan. Maktablar masjidlar qoshida va xususiy uylarda tashkil etilgan. Odatda, maktablarda asosan

o'qish va yozish, arifmetika va adabiyot o'qitilar edi. Maktablar qizlar uchun alohida, o'g'il bolalar uchun alohida bo'lgan. O'qituvchilar o'z uylarida ochgan xususiy maktablaridan tashqari barcha o'quv yurtlari, turli shaxs va tashkilotlar tomonidan xayriya qilingan vaqflardan tushadigan daromad hisobiga ishlar edi.

Madrasalarda o'quv dasturi asosan uch bosqichda: boshlang'ich (adno), o'rta (avsat) va yuqori (a'lo) bosqichlarda olib borilib, unda uchta til (arab, fors va turkiy) mukammal o'rgatilgan. Madrasalarda Qur'on ilmi (o'qish usullari, qiroat, tavsif), fiqh (shariat qonunlari), xandasa, ilmi nujum, axloq, falsafa, mantiq, adabiyot, jo'g'rofiya, tarix, tabobat fanlari o'qitilgan. Madrasalarda ta'lim jarayonida badiiy adabiyotning mumtoz namunalari keng o'rin olgan, dunyoni, tafakkurni shakllantirish borasida badiiy asarlarga alohida ahamiyat berilgan.

Xiva xonligida XVII asrda ro'y bergan madaniy hayotdagi tushkunlik Buxoro xonligidagiga qaraganda kuchliroq bo'lgan. Xiva xoni Abulg'azi Bahodirxon hukmdor sifatida bekliklar o'rtasidagi ziddiyatlar, o'zaro qirg'in urushlarga barham berishga qaratilgan tadbirlar ko'rgan bo'lsa, ijodkor sifatida «Shajarai turk», «Shajarai tarokima» va «Manofe'-ul-inson» («Inson uchun foydali tadbirlar») kabi tarixiy badiiy hamda tabiblikka oid nodir kitoblar yozadi. Abulg'azi Bahodirxon o'zining «Shajarai turk» asari bilan Xorazm tarixchilik maktabiga asos soladi. U boshlagan g'oyatda ulug' va mo'tabar ishni undan keyingi avlodlar, Munis Xorazmiy va Muhammad Rizo Ogahiyilar davom ettiradi.

Ma'rifatparvar shoir, ajoyib san'atkor, musiqashunos, mohir hattot, tarjimon va davlat arbobidir Komil Xorazmiy (1825–1899) Sayid Muhammadxon, so'ngra uning o'g'li Muhammad Rahimxon II (Feruz) saroyida avvaliga hattot, so'ngra mirzaboshilik vazifalarini bajargan. Komil Xorazmiy bosmaxona tashkil etishning asoschilaridan biridir. Uning sa'y-harakati va tashkilotchiligida 1870-yilda Muhammad Rahimxonning g'amxo'rligida Xivada bosmaxona tashkil etilgan. Bu bosmaxonada Navoiyning «Xamsa»si birinchi marta nashr qilingan edi. Komil Xorazmiy musiqa ilmining katta bilimdoni va bastakor sifatida Xorazm maqomlariga notalar bitib qog'ozga tushirgan, sozanda va ijrochi ham edi. Uning tashkilotchiligida 1884-yilda Xorazmda birinchi rus-tuzem maktabi tashkil etilgan. Xiva xonligi madaniyatining taraqqiyotida turkman xalqining ulug' shoiri va mutafakkiri Mahtumquli Firog'iy (1733–1793)ning ham hissasi katta.

Buxoro amirligida tarix ilmining rivojida buxorolik munajjim va tarixchi olim Abdurahmon Tole', Muhammad Ya'qub Kenja ibn Ali Mirzo Buxoriy, Muhammad Hakimxon to'ra Ma'sumxon To'ra o'g'li kabilar salmoqli o'rin egallaydi.

Bu davrda badiiy ijod bobida ham ilg'or va yirik mutafakkirlar qalam tebratganlar, jumladan, o'zbek va fors-tojik tillarida ijod qilgan Mutribiy «Tazkirot ash-shuaro» kitobida badiiy ijod bilan shug'ullangan 320 dan ortiq shoir va yozuvchilarning nomlarini tilga oladi. Xususan, o'zbek milliy adabiyotining taraqqiyotida Vola, Junaydullo Hoziq, Xiromiy, Umarxon (Amiriy), Nodira, Uvaysiy, Boborahim Mashrab, Maxmur, Gilxaniylarning ijodi muhim o'rin egallaydi.

Xonliklarda me'morchilik bilan birga amaliy san'atning naqqoshlik, o'ymakorlik turlari rivoj topdi. Amaliy san'atning yangi-yangi turlari ham paydo bo'ldi. Amaliy san'atning gazlama tukish va unga gul bosish, zardo'zlik, do'ppiduzlik, charmga badiiy ishlov berish, zargarlik, misgarlik, uymakorlik, toshtaroshlik kabi turlari yaxshi rivojlandi. Xalq amaliy san'atning 60 ga yaqin turi rivojlandi. Metall buyumlar, ip-gazlamalar, ipak matolar, a'lo sifatli qog'ozlar ishlab chiqish yanada kengaydi.

Xullas, XVIII–XIX asrlarda Vatanimiz hududidagi xalqlar hududiy tarqoqlik xo'jalik va iqtisodiy tushkunlik holatida bo'lsalarda fan, madaniyat taraqqiyotida bir qator ijobiy yutuqlar va salmoqli muvaffaqiyatlarga erishdilar. Bu bilan ular jahon madaniyati va sivilizatsiyasi taraqqiyotiga munosib ulushlarini qo'shdilar. Ammo XVII–XIX asrlarda O'rta Osiyo va undagi davlatlar jahon sivilizatsiyasi jarayonidan tobora chetda qolaverdi, ilg'or davlatlardan orqada qoldi.

XVII–XIX asrlar jahon tarixiga moddiy va madaniy yuksalish davri bo'lib kirgan bo'lib, xususan, Yevropadagi bir qator mamlakatlarda ishlab chiqarish sezilarli darajada o'sdi, zavod-fabrikalar qurilib, yangi texnik uskunalar bilan jihozlandi, temiryo'llar qurildi, dengiz yo'llari ochildi, mehnat unumdorligi oshdi, odamlarning moddiy va madaniy turmush darajasi ko'tarildi. O'rta Osiyo xonliklari ana o'ziga xos siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy omillar ta'sirida shunday ijobiy jarayonlardan chetda qoldi, qoloqlikka yuz tutdi.

Me'morchilik va san'at taraqqiyoti

O'rta Osiyodagi xonliklarda XVIII–XIX asrlarda xo'jalik tushkunlikka yuz tutib borayotgan va aholi turmushi tobora tubanlashayotgan bo'lsada, me'morchilik va san'at taraqqiyotida bir qator ibratli ishlarning amalga oshirilganligiga guvoh bo'lamiz. Bu davrda qurilgan ulkan va go'zal me'morchilik yodgorliklari hozirgi kunda ham har qanday kishining diqqat-e'tiborini o'ziga tortadi.

Buxoroda yaxlit yodgorlik tariqasida rejalaniib amalga oshirilgan ajoyib me'morchilik ansambli – Registonning kun botishi tomonida 1712-yilda qurilgan Bolohovuz masjidi o'sha davrning eng yirik inshooti bo'lgan. Hukmdorning saroylari, masjidlari va tanga chiqarish muassasalari makoni bo'lgan Ark qurilish majmui ham XVIII–XIX asrlarda barpo etiladi.



Bolohovuz masjidi

XVIII asrning ikkinchi yarmi XIX asrning birinchi yarmida me'morchilik sohasida xorazmlik ustalar yetakchilik qiladilar. O'sha davr yodgorliklari orasida

ajoyib saroy majmualari Xazoraspdagi Rahmonqul inoq saroyi, Ko‘rinishxona, ayniqsa, diqqatga sazovordir. Bu binolar sirti naqshli sopol plita (koshin)lar bilan bezatilgan. Bu sopollardan to‘q ko‘k rang ustiga yashil va oq gullarning bir-biriga chirmashtirilgan rasmlari chiroyli qilib berilgan. Xonlikning poytaxti Xiva ayniqsa XVIII–XIX asrlarda gullab-yashnaydi. Shahar ikki qismdan – Ichan (ichkari) qal‘a va Dishan (tashqari) qal‘adan iborat. Shahar markazida joylashgan Juma masjidi (XVIII asr) – O‘rta Osiyoning eng go‘zal inshootlaridan hisoblanadi. Sherg‘ozixon (1718–1720), Qutlug‘ Murod Inoq madrasalari, Pahlavon Mahmud maqbarasi, Olloqulixon, Muhammad Aminxonning katta madrasalari (XIX asr) va Tosh hovli saroyi (1830–1838-yillar) o‘ziga xos nafis va go‘zaldir.

Xeva me‘morchiligida minoralar, gumbazlar, peshtoqlar, ustunlar, panjaralar, dahmalar o‘zining tuzilishi va qurilishi, kompozitsiyasiga ko‘ra alohida naqshlar, o‘ymakorlik namunalarini ifoda etadi. Ulardagi naqshlar, yozuvlar, tasvirlar ham o‘zining milliyliigi, mayinligi, kompozitsiyasi va rang tonlari bilan ajralib turadi. Xeva me‘morchiligi, amaliy va badiiy san‘atida namunali ijod qilgan xalq ustalari, me‘morlar, naqqoshlar, o‘ymakor, tosh-taroshlar o‘z uslubiga ega bo‘lib, ularning har biri o‘z maktabini yaratganlar. Mulla Nurmuhammad usta Qalandar o‘g‘li, So‘fimuhammad Niyoz, Abjabbor o‘g‘li, usta Abdulla, So‘fi Amir Kulol, Usto Xudoybergan hoji kabi yuzlab naqqosh, o‘ymakor va rassomchilik ustalari ijod qilganlar. Lekin xaliga qadar odamlarni, jahon sayyohlarini lol qoldira oladigan barcha Xorazm san‘ati ustalari, rassom - me‘morlarining nomlari aniqlanmagan.



Ichan qal'a

O‘sha davrda har uchala xonlikda ham yuqoridagidek inshoot qurilishi va hunarmandchilik san‘atining turli yo‘nalishlari rivoj topadi. Bulardan tashqari yog‘och va misga o‘yib nozik naqshlar solish, sopol va chinni, yarog‘-aslahalar yasash va har xil uy-ro‘zg‘or buyumlari, matolar to‘qish keng tarqaladi.

XVIII asrning ikkinchi yarmi va XIX asrning birinchi yarmida Qo‘qon xonligida ham xalq me‘morchiligi rivojlanadi. XVIII asrda Qo‘qonga Buxorodan bir guruh binokorlar, naqqoshlar, ganchkorlar, yog‘och o‘ymakorlari olib kelinadi. Ular madrasa, masjid, maqbara, karvonsaroy, ko‘priklar, yo‘llar va boshqa inshootlarni quradilar. Qo‘qon me‘morchiligi va ularni bezatilishida Buxoro uslubiga qat‘iy amal qilindi. Bu yerda qurilgan binolar buxorocha naqqoshlik va o‘ymakorlik, sirli g‘isht va koshinlar, peshtoqli, gumbazli, minorali qilib bunyod etilgan.

Xonlikning markazi Qo‘qon shahrida, Marg‘ilon, Andijon, Namangan, Toshkent shaharlarida masjid, madrasalar, kutubxonalar quriladi. Binolarni bezatish uchun gul namunalari keng qo‘llanilib, shiftlarga bo‘yoqli naqshlar

chizish, naqshlarni ganchga o'yib solish odat bo'ladi. Qo'qon shahri ham o'ziga xos yodgorliklari bilan ham mashhurdir, xususan Xudoyorxon o'rdasi, Norbo'tabiy madrasasi, Madrasai Kamol qozi kabi boshqa o'nlab tarixiy obidalar diqqatga loyiqdir.

Xudoyorxon o'rdasi o'z davrining g'oyat yuksak mahorat bilan yaratilgan me'moriy inshootidir (1860-70 y.y.). O'rdada xonning qabul marosimi, kengashlar uchun xonalar, qurol-aslaha omborlari, xazinaxona va xon oilalari uchun turar joylardan iborat bo'lgan bir butun me'moriy ansambl bunyod etiladi. Jome' masjidi ko'p ustunli, keng, baland ayvonlar bilan bunyod qilingan bo'lib, ular ham rangli naqshlar, ganch va yog'och o'ymakorligi bilan bezatilgan (1812 y.).

Bu davrda O'rta Osiyoda teatr san'atida masxarabozlik, qiziqchilik, dorbozlik, qo'g'irchoqbozlik kabi tomosha ko'rinishlari keng tarqalgandi. Masalan Buxoro amirligining turli shaharlarida XVIII–XIX asrlarda Sayfulla Masxara, Zokir Masxara, Ergach Masxara kabi artistlar «Rais», «Sudxo'ring o'limi», «Ko'histonlik domla», «Murabboshi» singari asarlarni sahnalarda mohirlik bilan ijro etganlar.

XIX asrda qo'g'irchoq teatrining Shosolih, G'ofur, Halfarang (Qo'qon), Orifjon Qo'g'irchoqboz, Azim burun, Doniyor (Toshkent), Shomuhitdin Shoazimov, Tursunboy Abduljabbarov (Marg'ilon), Siddiq Kalon, Jo'ra Qayroq, Hamro Qo'g'irchoqboz (Samarqand), Zarif Misgar, Sharif Sayyoh, Qori Hoji (Buxoro), Qilich (Shahrisabz) va boshqa shular singari ustalar bo'lgan.

Xonliklar hududida raqs san'atining Farg'ona, Buxoro, Xorazm va Tog'li usullari mavjud bo'lib, o'z navbatida ularning har biri o'ziga xos janr xususiyati va turlariga ega edi. Masalan: Farg'ona o'yin san'ati: «Katta o'yin», «Kema o'yin», «Xonaki o'yin», «Yalla», Xorazm o'yin san'ati: «Maqom o'yin», «Xonaki o'yin», «Lazgi», «Yalla», «Zangbozi»larni o'z ichiga olgan va hokazo. «Tog' o'yin» ko'proq O'zbekiston hududidagi janub xalqlari madaniyatiga xos bo'lib, «Besh qarsak», «Uch qarsak», «Dastbozi» kabi usullardan iborat edi.

Nazorat savollari:

1. XVIII–XIX asrning birinchi yarmida O'rta Osiyodagi har uchala davlatning madaniy taraqqiyotiga xos bo'lgan umumiy va farqli xususiyatlarini tahlil qiling.
2. Xonliklar davrida me'morchilik va san'atni rivojlanishiga baho bering.
3. Xonliklar davrida ta'lim taraqqiyoti haqida ma'lumot bering.
4. XVIII–XIX asrning birinchi yarmida O'rta Osiyo davlatlari madaniy taraqqiyotda kuzatilgan tushkunlik sabablarini aniqlang.
5. Xonliklarda kechgan badiiy-adabiy jarayon madaniy muhitga qanday ta'sir ko'rsatdi?

8 – Mavzu: Rossiya mustamlakasi davrida Turkistonda madaniyat va san'at

Reja:

1. Rossiya imperiyasi istilosi va uning milliy madaniyatga ta'siri

2. Rus va Yevropa san'atining keng yoyilishi, san'atda yangi yo'nalishlarning rivojlanishi

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:

Rossiya imperiyasi, mustamlaka siyosati, Turkistonda turmush tarzining o'zgarishi, Yevropa madaniyatining ta'siri, zamonaviy san'at turlarining kirib kelishi, amaliy-dekorativ san'at asarlaridagi kompozitsiyalar, syujet va motivlar va real hayotning tasvirlanishi, kino san'ati, ma'rifatparvarlar, jadidchilik, Yevropa va mahalliy me'morchilik san'ati an'alarining bir-biriga yaqinlashishi, O'rta Osiyoda rus badiiy maktabi vakillarining faoliyati, A.Donish, X.Devonov, Sh.Murodov, O.Polvonov, A.Karazin, I.Kazakov, S.P.Yudin, R.Zommer.

Rossiya imperiyasi istilosi va uning milliy madaniyatga ta'siri

Movarounnahrning uch xonlikka bo'linib ketishi uning nafaqat siyosiy-iqtisodiy va ma'naviy-madaniy jihatdan tanazzulga yuz tutishiga olib keldi, balki mamlakatni boshqarib boradigan davlatchilik asoslarining zaiflashib ketishiga. Bir millat va diniy e'tiqodga ega bo'lgan mintaqada mahalliylikning kuchayib ketishiga ham sabab bo'ldi.

XIX asrning 50-yillariga kelib Turkiston har tomonlama inqirozga uchragan hudud edi. Bu inqiroz boshqa mamlakatlar bosqinchiligi ta'siri ostida emas, balki asta-sekinlik bilan, o'zaro feodal urushlar orqali pishib yetildi. Inqiroz o'lkani Rossiya imperiyasi tomonidan istilo qilinishini tezlashtirdi va imkoniyat yaratdi.

Rossiya imperiyasi tomonidan O'rta Osiyoni bosib olishi, bir tomondan, mahalliy xalqning ma'naviy-madaniy hayot tarziga salbiy ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, o'sha davr O'rta Osiyo xalqlari uchun birmuncha ilg'or bo'lgan rus fani va texnikasining kirib kelishi, ma'rifiy-madaniy hayotning birmuncha siljishiga olib keldi. Salbiy ta'siri shundan iborat bo'lganki, ms bosqinchilari, birinchi navbatda, mahalliy xalqning an'anaviy madaniyati durdonalarini toptadilar, ikkinchi tomondan esa mahalliy xalq ustalari tomonidan yaratilgan ko'plab noyob san'at asarlari, qimmatbalio boyliklar rus amaldorlarining xonadoni, muzeylari va xazinaxonalarni bezadi va boyitdi. O'rta Osiyolik mutafakkirlar tomonidan yaratilgan fanning turli sohalarga oid ko'plab eng noyob asarlar talon-taroj qilindi. Masalan, birgina general Kaufman boshchihgida rus istilochilari Xivani qo'lga kiritgach, Xiva xoni Muhammad Rahimxon II (Feruz)ning noyob asarlarga boy kutubxonasini taladilar. Nodir qoiyozma asarlar, tariximiz uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan ilmiy-madaniy manbalar chet mamlakatlar hamda rus imperiyasi markaziga jo'natildi.

Shu boisdan ular Turkistonda o'z mavqelarini mustahkamlash va imperiya manfaatlarini amalga oshirish maqsadida o'lkaning strategik ahamiyatga ega bo'lgan hududlariga rus aholisini ko'chirib kelish siyosatini amalga oshirishga kirishdilar. Albatta, Turkistonga ko'chib kelganlar yerli xalq hayotiga yot bo'lgan turli xil zararli odatlarni, Yevropaga xos tartib-qoidalarni ham olib kira boshladilar.

Rossiya imperiyasi amaldorlari mahalliy aholining ongi, tafakkuri va dunyoqarashining, milliy ma'naviy qadriyatlariga aylangan islom axloqshunosligi

va qonunshunosligi — shariat qonun-qoidalariga qat'iy bo'ysunganligini anglab yetdilar va ana shu an'anaga aylangan tizimni yemirib tashlashga barcha kuch va imkoniyatlarini ishga soldilar.

Turkiston general-gubernatorligi tashkil etilgach, o'lkani boshqarishga alohida e'tibor berildi. Bu maqsadni amalga oshirish uchun 1886-yil 12-iyunda podsho Aleksandr III «Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risidagi Nizom»ni tasdiqlaydi.

Mazkur Nizomda nafaqat Turkiston o'lkasini boshqarish tizimi, balki yer, soliq, shariat (sud) ishlari, ta'lim tizimi va uni moddiy jihatdan ta'minlab turuvchi vaqf masalalari va boshqalar ham qamrab olingan edi. Nizomdan kelib chiqqan holda mahalliy xalqning ibodat markazlari, ular ta'lim oladigan maktablar, qiroatxonalar va madrasalar faoliyati hamda ularni moddiy mablag' bilan ta'minlab turuvchi vaqf mulklari to'g'risida turli xil qarorlar va farmoyishlar qabul qilingan.

Mustamlakachilik siyosatining asosida yerli aholining milliy o'zligini anglash tuyg'usini so'ndirish vazifasi yotardi. Buning uchun o'ikada buyuk rus shovinizmini shakllantirish, ruslar manfaatiga mos keluvchi g'oyalarni yerli xalq tafakkuriga singdirish masalasi asosiy maqsad qilib qo'yildi.

Mustamlakachilar tomonidan amalga oshirila boshlagan barcha tadbirlar faqat Rossiya imperiyasi manfaatiga mos kelar edi. Turli xil nizomlar, qarorlar va farmoyishlar yerli xalqning manfaatini suiste'mol qilishga qaratilgan edi. Ruslashtirish siyosati nafaqat Turkistonning eng serunum yerlarida rus qishloqlarini tashkil etish orqali, balki ta'lim tizimidagi cheklovlar orqali ham amalga oshirila boshlangan. Birgina 1898- yili qabul qilingan «Turkiston o'lkasidagi o'quv muassasalari, vaqf mahkamalari va diniy ishlarni vaqtincha nazorat qilish haqidagi nizom»da: a) diniy ishlarni boshqarish to'g'risida; b) musulmonlarning o'quv muassasalarini boshqarish to'g'risida; d) vaqf mahkamalari va ularning daromadlarini nazorat qilish to'g'risidagi bandlar ko'rsatib o'tiladi.

Mazkur nizomdan kelib chiqqan holda ta'lim tizimi va islom taig'iboti bilan shug'ullanuvchi tizimlarning faoliyatini moddiy jihatdan tang ahvolga solib qo'yish maqsadida 1887- yilning 1- iyuligacha barcha vaqf hujjatlarini viloyat boshqarmalariga topshirish talab etildi va belgilangan muddat ichida deyarli hamma vaqfnomalar aholidan yig'ishtirib olindi. Bu bilan podsho hukumati islom dini vakillarini o'z qo'lidagi huquqiy dalildan ham mahrum etdi.

Milliy-ma'naviy qiyofani shakllantirish, iymon-e'tiqod tarbiyasi markazlari hisoblangan maktablar, madrasalar, masjidlarqa qarshi zimdan ish olib borib, "pravoslav" va boshqa noislomiy diniy muassasalar faoliyatining doirasini kengaytirishga harakat qildilar.

XIX asr oxirida «Aholining ma'naviy-diniy hayotini zo'r diqqat bilan kuzatib borishni joriy etish» dasturi ishlab chiqildi. Dasturdan ko'zlangan asosiy maqsad islom dinini zaitlashtirish va unga barham berishdan iborat edi. Mazkur dasturning uchinchi bandida mahalliy kishilarni qozilar tayyorlanadigan madrasalarda ms tilini o'qitishni joriy etish to'g' risida taklif kiritishga undash; bu hoi mazkur o'quv yurtlari eshiklarini rus o'qituvchilariga ochib berish barobarida musulmon olimlari,

mutaassiblar va islomning har qanday arkonlan oqib keladigan madrasalarda nimalar qilinayotganligini doimiv va ishonchli ravishda kuzatib borishga imkon yaratadi, — deb ta'kidlanadi.

Mustamlakachilarning Turkiston o'lkasida olib borgan bunday siyosati, albatta, yerli xalq o'rtasida norozilik kayfiyatini vujudga keltirishi tabiiy edi. Bt xususda ms arxeologi va sharqshunos olimi N.I.Veselovskiy shunday deb yozgan edi: «Biz Turkistonga madaniyat olib keldik, deb o'ylaymiz. Bo'ysundirilgan osiyoliklarga tinchlik va osoyishtalik berdik, deb o'zimizni ovutamiz. Ammo bularda ham yuksak bir oliy tuyg'u borki, bu millat va uning milliy iftixoridir. Musulmonlar ahvolini tushunishimiz kerak. Siyosiy o'lim (milliy davlatchilikning yo'qolishi) og'ir, milliy o'lim esa undan ham og'irroqdir. Bizning hukmronligimizda esa ular shunday holga tushdilar. Bas shunday ekan, hukmronligimizga qarshi g'alayonlar ro'y bersa, ajablanishga o'rin yo'q. Shunday milliy manfaatlar borki, ular xalq och yoki to'qligidan qat'yi nazar, bir kunmas bir kun o'zini namoyon etajak».

Mustamlakachilar o'lkani ruslashtirish siyosatini tezkorlik bilan amalga oshirishga kirisha boshladilar. Bu maqsadni amalga oshiruvchi dasturlar qabul qilindi. Ularda yerli aholiga rus tilini o'rgatishm masjid va madrasalarda joriy qilishdan boshlab, xalqning ma'naviy-ruhiyatiga kuchli ta'sir ko'rsatuvchi islom muassasalari ishini nazorat ostiga olish, madrasalar faoliyatiga aralashish, barcha maktablami ma'muriyat ixtiyoriga o'tkazish, xalqning siyosiy dunyoqarashini shakllantiruvchi muassasalami yopib qo'yish kabi vazifalar belgilab berildi.

Turkiston o'lkasida Rossiya imperiyasi uchun zarur bo'lgan paxta xomashyosi yetkazib berish va uni qayta ishlashga ham oddiy fuqarolami jalb qilish ehtiyoji vujudga kela boradi. Bunga, birinchidan, mahalliy yer egalari va boy-badavlat kishilami jalb qilmasdan turib paxta yetishtiriladigan yer mavdonlarini kengaytirish va paxta sanoatini rivojlantirish mumkin emas edi. Ikkinchi tomondan esa, paxta zavodlarida ishlash uchun mahalliy kadrlar kuchidan foydalanish zarur edi. Shu boisdan ham endigina shakllanib kelayotgan kapitalistik munosabatlar rivojiga hamda o'lkani ruslashtirishga ko'mak beruvclii rus-tuzem maktablari tashkil etila boshlandi. XIX asrning oxirlariga kelib bu usuldagi maktablar o'lkaning yirik shaharlari (Samarqand, Toshkent, Qo'qon, Andijon, Marg'ilon, Xiva)da faoliyat ko'rsata boshladi.

1875- yili Turkistonda xalq maorifi haqida qonun qabul qilindi va general-gubernatorga bo'ysunuvchi hududlarda rus o'g'il va qiz bolalari uchun gunnaziylar, yerli xalq bolalari uchun esa rus-tuzem maktablari tashkil qilingan. Ayni paytda mahalliy xalq bolalari uchun milliy ma'rifatparvarlarimiz yangi usul maktablari ochishga kirishdilar. Bu maktablaming ochilishida endigina shakllanib kelayotgan mahalliy burjua



Yangi usul maktabi

vakillari va jamiyatning ilg'or ma'rifatparvar kishilarining roli benihoya katta bo'lgan. Chunki shakllanib kelayotgan mahalliy burjua vakillari mahalliy yoshlarning zamonaviy fan va texnika, savdo-tijorat ishlari bilan shug'ulanishlaridan manfaatdor edilar. Bu maktablar o'z oldiga yosh avlodga zamonaviy bilimlar berish vazifasini qo'yadi. Mashg'ulotlar sinf xonasida o'tkazilib, ko'rgazmali quroflardan foydalanish, partada o'tirish, mashg'ulotlar o'rtasida tanaffus qilish joriy etilgan. O'quv dasturlarining yarmi dinga oid va yarmi ilmiy bilimlarga ajratilgan. Bu usuldagi maktablarning milliy ruh bilan sug'orilganligi va milliy madaniyatning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatishini sezib qolgan ms amaldorlari ulami yopib qo'yish payiga tushib qoladilar.

Madrasalarni bitirib chiquvchi ruhoniylarning ta'sirini susaytirish uchun esa mahalliy yoshlarning Buxoro va Samarqanddagi tajribaga ega bo'lgan madrasalarga borib o'qishini cheklay boshlaydi.

Rossiya imperiyasi amaldorlarinmg fikricha, Turkiston o'lkasi yirik musulmonchilik markazlaridan biri bo'lib, aholining ruslar bilan yaqinlashuvi va ularning manfaatiga xizmat qilishi islom dinining ta'sir doirasi qisqargan taqdirdagina amalga oshuvi mumkin edi. Bu maqsadni amalga oshirish uchun, eng avvalo, o'sib kelayotgan yosh avlodga, uning ruhiyatiga va dunyoqarashiga ta'sir o'tkazish, ya'ni musulmon maktablaridagi ta'lim-tarbiyani rus maktablaridagidek umumta'lim bilan almashtirish, ruslar tomonidan tashkil etilgan maktablarni bitirgan mahalliy yoshlarni xizmatga tortish zarur deb topiladi. Shu maqsadda rus amaldorlari dastlab rus-tuzem maktablarini ochishga kirishadilar. 1884-yilda Toshkentda birinchi shunday maktab ochildi.

Rossiya imperiyasining Turkistonda olib borgan ma'naviy zulmi yerli xalqning ilg'or fikr egalari va asl vatanparvarlarini harakatga keltiradi. Ular kuch ishlatish orqali istilochilar olib borayotgan jabr-zulmni yengib bo'lmasligini anglab yeta boshlaydilar. Faqat ma'rifat tarqatish orqaligina xalqning ongi va dunyoqarashini o'zgartirish, toptalayotgan milliy qadriyatlarni tiklash, milliy o'zligini anglatish mumkinligini tushunib yetadilar. Natijada o'lkada ma'rifatparvarlik harakati avj ola boshlaydi.

Mazkur harakat quyidagi ikki yo'nalishda vujudga keladi:

a) ma'rifatchilik harakati, ya'ni Yevropa tillari, ilm-fani va texnikasi yutuqlarini egallashni targ'ib qiluvchi ilg'or fikr egalari;

b) ta'lim tizimini isloh qilish, yangi uslubdagi maktablarni tashkil etish. chet mamlakatlarga borib o'qib kelish, dunyoviy ishlarni egallash orqali mustamlakachilikka qarshi kurashish va ijtimoiy-siyosiy masalalarni hal qilish g'oyasini ilgari suruvchi jadidchilik harakati faoliyat ko'rsatgan.

Ma'rifatparvarlik harakati vakillari - Ahmad Donish, Avaz O'tar, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Anbar Otin, Hamza va boshqalar asosan Yevropaning ilg'or ilm-fani va texnikasini o'rganishni, feodal tuzumi va tartiblarini bartaraf etishni, Yevropaning tillarini o'rganishni o'zlarining asarlari orqali targ'ib qila boshlaydilar.

XIX asr oxiri va XX asr boshlariga kelib Turkistonda ijtimoiy-tarixiy jarayonlar va Rossiya tarkibiga kiruvchi turli xalqlarning ilg'or fikr egalari ta'siri

natijasida ijtimoiy-falsafiy oqim darajasiga ko'tarilgan jadidchilik harakati yoyila boshlaydi.

O'sha davrning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy o'zgarishlarini o'zida mujassamlashtirgan jadidchilik harakatining yoyilishida, birinclidan, mahalliy aholini ruslashtirish siyosatiga qarshi vujudga kelgan kurashlar, ikkinchidan, ma'rifat tarqatish orqali aholining milliy qiyofasini va kuchli zarbaga uchrayotgan miliy-ma'naviy qadriyatlamini saqlab qolishga, aholini feodal qoloqlikdan olib chiqishga bo'lgan harakatlar muhim rol o'ynagan.

Albatta, bu harakatning Turkistonda amalga oshiradigan ishlari silliqqina kechmagan. Jadidchilar dastlab diniy mutaassibchilikning kuchli qarshiligiga, so'ngra, yerli aholini qoloqlikda saqlab turishga harakat qilgan ms ma'muriyati tazyiqiga duch keldilar.

Turkistonda jadidchilik harakatining vujudga kelishida qrim-tatar xalqining ulug' farzandi Ismoil Gaspirali (Gaspirinskiy) muhim rol o'ynadi. U Turkistonga kelib jadidchilik g'oyalarini targ'ib qila boshladi va hatto Buxoro amiri Abdulahadxon bilan uchrashib, jadid maktabini ochishga ruxsat oldi. Uning sa'y-harakatlari tufayli Turkiston o'lkasida jadidchilik maktablari ochila boshladi.

Jadidchilik harakatining asosida Turkiston xalqini ma'rifat orqali taraqqiy topgan mamlakatlar darajasiga ko'tarish g'oyasi yotardi. Bu g'oyani faqatgina maorifni tubdan isloh qilish, dunyoviy fanlarni o'qitish orqaligina amalga oshirish mumkin edi.

I.Gaspiralinig xatti-harakatlari zoye ketmadi. Turkistonda uning Mahmudxo'ja Behbudiy (1875-1919), Munavvarqori Abdurashidxonov (1878-1931), Abdulla Avloniy (1878-1934), Abdurauf Fitrat (1884-1938), Ashurali Zohiriy kabi izdoshlari yetishib cliiqdi. Ular jadidchilik g'oyalarini o'zlari tashkil etgan maktablar, gazeta va jurnallar orqali targ'ibot qila boshladilar. Masalan, Munavvarqori «Xurshid», Abdulla Avloniy «Shuhrat», Behbudiy esa «Samarqand» gazetasi va «Oyna» jurnalini nashr qildirdi. Keyinchalik Turkistonning turli shaharlarida «Kengash», «Sadoi Turkiston», «Sadoi Farg'ona», «Najot», «Hurriyat», «Turon», «Ulug' Turkiston» kabi ommaviy nashrlar chiqa boshladi.

Turkiston jadidchilik harakati o'zining faoliyatini XX asrning 30- yillangacha davom ettirgan. Ularning 1917- yilgi to'ntarishdan keyingi faoliyati asosida til va adabiyotni isloh qilish, matbuot erkinligi, ko'plab teatrlar tashkil qilish g'oyalari yotar edi.

XX asr boshlariga kelib Turkistonda milliy teatring shakllanish jarayoni sodir bo'ldi. Milliy teatrning shakllanishida asosan diniy e'tiqodi bir, tili esa bir-biriga yaqin bo'lgan ozarbayjon va tatar teatrlarining ta'siri kuchli bo'lgan. Ozarbayjonlarning dramatik, prozaik va she'riy asarlari o'zbek tiliga tarjima qilina boshlagan. Ozarbayjon adabiyoti va san'ati vakillari Turkiston o'lkasiga tez-tez tashrif buyurib turganlar. Albatta, bu teatr truppalarning gastrollari yerli xalq ziyolilariga ta'sir qilmasdan qolmadi. Natijada, Abdulla Avloniy Ozarbayjon san'atkorlarining yordami bilan «Turkiston» nomli teatr to'garagi tashkil etdi. Bu to'garak o'zbek yozuvchilarining dramalari bilan bir qatorda Ozarbayjon

dramalarini ham sahnalashtirib Toshkent, Xo‘jand, Qo‘qon, Namangan, Andijon shaharlarida namoyish qildi.

Birinchi o‘zbek dramaturgi Mahmudxoja Behbudiy «Padarkush» dramasi yozib. Turkiston general-gubernatorligiga yuboradi. Lekin Rossiya imperiyasi senzurasining Turkiston bo‘iimi bu asarni xavfli deb hisoblab, chop qilishga ruxsat bermaydi. So‘ngra Behbudiy pyesaning muqovasiga «Rossiyaning Fransuz istilosidan ozod bo‘lishi va mashhur Borodina xotiralari yubileyiga bag‘ishlayman», deb yozib senzuraning Tiflis bo‘limiga yuboradi. Natijada ozarbayjonlik ilg‘or ziyolilar yordami bilan nashr qilishga ruxsat oladi.

Turkiston jadidchilik harakati vakillarining taqdiri ayanchli tugadi. Ular Rossiya imperiyasi davrida ham, sho‘rolar davrida ham ro‘shnolik ko‘rmadilar. «Millatchi», «xalq dushmani», «aksilinqilobchi» degan turli ayblar taqalib qatag'on qurbonlariga aylandilar.

Rus fani va texnikasining O‘rta Osiyo hududlariga kirib kelishi, mahalliy xalq vakillarining madaniyat, ilm-fan va texnikaga bo‘lgan qiziqishlarining kuchliligi sababli XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Turkiston o‘lkasining Toshkent, Samarqand, Qo‘qon, Andijon, To‘raqo‘rg‘on, Kogon kabi shaharlarida bosmaxonalar ishga tushdi. Natijada bu bosmaxonalarda o‘z davrining ko‘zga ko‘ringan ilm-ma‘rifat vakillari asarlari chop etila boshlandi.

Bu davrda O‘rta Osiyoning ko‘pgina joylari tarixini o‘rganish maqsadida, uning geografik joylanishi, hayvonot va o‘simliklar dunyosi, yer usti va yer osti ma‘danlari va boyliklarini izlab topish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar olib borilgan. 70-yillardan boshlab O‘zbekistonning tabiati, arxeologiyasi, etnografiyasini o‘rganuvchi jamiyatlar tuzildi. 1880 yili Peterburg Fanlar Akademiyasining bo‘limi ochildi. 1873 yili Toshkentda astronomiya va tabiatshunoslikni o‘rganuvchi observatoriya tashkil etidi.

Ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish va olib borishda rus olimlaridan P.P.Semyonov – Tyanshanskiy, A.P.Fedchenko, I.A.Mushketov, N.A.Seversov kabi mashhur geograflar, tabiatshunoslar va geologlar faol qatnashganlar. Rus olimlari O‘rta Osiyo, shu jumladan, Turkistonning geografik va tabiiy olami xaritalarini tuzadilar. Bu xaritalardan Rossiya imperiyasi harbiy maqsadlarda foydalandi.

Ijtimoiy fanlarning rivojiga mashhur rus olimlaridan V.V.Bartold, M.S.Andreyev, Ye.E.Bertels, N.P.Ostroumov, V.L.Vyatkin, A.A.Semyonov va boshqalar katta hissa qo‘shadilar.

Lekin shuni ta‘kidlab o‘tish zarurki, tabiiy fanlar bo‘yicha ilmiy izlanish ishlarini ohb borgan ko‘pgina rus olimlari O‘rta Osiyoning tabiiy boyliklarini tezroq o‘rganib, Rossiya imperiyasi manfaatlariga xizmat qildirish, mavjud barcha boyliklarni Rossiyaga olib ketish, shuningdek, yerli xalqlarning urf-odatlari. xulq-



Mahmudxo'ja Behbudiy

atvorlari, turli etnik birliklar o'rtasidagi munosabatlarni o'rganib, ular ongiga rus imperiyasi manfaatlariga mos keluvchi mafkurani singdirish va mahalliy xalqlarni boshqarishni osonlashtirishni o'z oldilariga maqsad qilib qo'yganlar.

Umuman olganda, rus olimlari va ular tomonidan tashkil etilgan ilmiy jamiyatlar va qidiruv ishlari, birinchidan, mahalliy aholining ilm-fanga bo'lgan qiziqishini oshirishda, ikkinchidan, hozirgi davrda jahon ilmiy dunyosida o'z o'rni va mavqeyiga ega bo'lgan milliy fanimizning paydo bo'lishi va rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etgan.

Rus va Yevropa san'atining keng yoyilishi, san'atda yangi yo'nalishlarning rivojlanishi

Rossiya mustamlakachiligi davrida Yevropa me'morchiligi an'analari, uslublari ham kirib kela boshladi. Turkiston o'lkasi shaharlari «yangi shahar» va «eski shahar»larga bo'lina boshladi. Yangi shaharda asosan ruslar uchun jamoat binolari, cherkovlar, qal'a, saroylar, turar joy binolari qurildi. Eski shahar qismida esa qurilishlar ancha cheklab qo'yildi. Eski shahar qurilishiga davlat tomonidan mablag' berilmas edi. Shuning uchun eski shaharda faqat masjid, madrasa, maqbaralar, u ham sanoqli holda kichik hajmda qurilardi.

Bu o'rinda XIX asrda qurilgan Buxoro amirining yozgi qarorgohi – Sitorai Mohi Xosa, Xeva xonligining Muhammad Rahimxon, Asfandiyor (1863-1818 yy) davrlarida qurilgan binolar, Islomxo'ja minorasi (1908 y) kabi binolar asosan pishiq g'isht, koshin, cherepitsalar vositasida qurildi. Bu qurilishlarda Usta Xo'ja Hofiz, Usta Shirin Murodov, Xudoybergan xo'ja, Ota Polvonov, Bolta Voisov va Madaminov kabi o'zbek milliy me'morchilik va amaliy san'at ustalari ijod qildilar.



Sitorai Mohi Xosa

Xivanning mashhur xalq ustasi Ota Polvonov ko'pincha o'ymakor ustun ishlab, ayrim vaqtlardagina qo'shtabaqali eshiklar yasagan. Ota Polvonov shogirdi Sapo Bog'bekov bilan birgalikda naqqosh Abdulla Boltaev ulgisi asosida 1937 yilda ustun tayyorlagan, ushbu ustun Parijdagi xalqaro ko'rgazmaga yuborilgan va yuqori baho olgan (oltin medal va 1-darajali diplom bilan taqdirlangan).

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Buxoro me'morlik san'ati asosan uy-joy qurilishi va o'ziga xos uslubda qurilgan Sitorai Mohi Xosada o'z ifodasini topgan. Bu saroy qurilishida ham G'arb, ham Sharq me'morchiligi an'alaridan foydalanilgan.

Sitorai Mohi Xosadagi «Oq saroy» (oq zal)ga berilgan naqshin pardozlar o'sha davr me'morchiligida xalq ustalari tomonidan yaratilgan o'yma ganchkorlik va devorlarga surat solishning namunasi hisoblanadi. Bu saroyda buxorolik usta,

me'mor hamda ganch o'ymakori Shirin Murodov (1879-1957 yy) boshliq bir guruh ustalar o'zlarining ganch o'ymakorligi bo'yicha butun mahoratlarini namoyish qilganlar. Ular ganchkorlik naqshlarida zargarlarni ham hayratga sola oladigan mahorat bilan o'ta nozik va jozibador naqshlar bita olganlar. Sh.Murodov o'z ijodida ganch o'ymakorligi an'analarini yangi mazmun va shakllar bilan boyitgan, ilk bor ganch o'ymakorligida naqsh zaminida ko'zgudan foydalangan, ya'ni ko'zgu ustiga ganchkori naqshlar ishlab, jozibadorlikka, ajoyib naqsh jilvasiga erishgan.

Bu davrda Xiva xonligida ham o'ziga xos me'moriy binolar, masjidlar, maqbaralar va madrasalar qurildi. Islom Xo'ja madrasasi Xivadagi eng salobatli me'moriy bino hisoblanadi. Bu madrasa va uning minorasini bosh vazir Islom Xo'ja 1908-1910- yillarda o'z mablag'i hisobiga qurdiradi. Me'mor Xudoybergan Xoji, mohir naqqoshlar Eshmuhammad Xudoyberdiyev va Bolta Voisov ishtirokida barpo etilgan Madrasaning old qismida Xivadagi eng baland - 44,6 metrli minora joylashgan.

Xivadagi yana bir me'moriy bino Qozikalon madrasasidir. Bu madrasani Xivaning adolatpesha qozisi Salimoxun o'z mablag'i hisobiga qurdirgan. Salimoxun qozi Xiva xonligidagi iqtidorli, lekin kam ta'minlangan mullavachchalarni o'z ta'minotiga olib o'qitadi. Bu davrda qurilgan me'moriy binolardan yana biri mashhur Pahlavon Mahmud qabri ustiga qurilgan maqbara hisoblanadi. Ushbu maqbara poydevori XIV asrda qurilgan bo'lsa-da, uning butun majmuasi XIX asrda bino etilgan. Pahlavon Mahmud maqbarasiga guldor sopol bezaklar ishlatilgan. Bu esa maqbaraning yanada hashamatli va mahobatli bo'lishiga yordam beradi.



Xivadagi Nurillaboy majmuasi

Xivadagi Nurillaboy majmuasi 1893-1904-yillar oralig'ida Xiva Xoni Muhammad Raximxon II tomonidan o'g'li shaxzoda Asfandiyorxon sharafiga qurdirilgan. Otasining o'limidan so'ng Asfandiyor xon xorijlik mexmonlarni qabul qilish uchun qo'shimcha saroy qurdirgan. 9 ta katta-kichik xonalar, darvozaxona, qabulxona, arzxona, madrasa, xizmatchilar uylari, bog', gulzorli hovlilardan iborat bu saroy Xivadagi xonlar qarorgohlaridan o'zining dizayni va arxitekturasi bilan tubdan farq qiladi. Saroy qurilishida Sharqona va Yevropacha uslub aralashgan. Barcha xonalar bir-biridan tubdan farq qiladi. Rus uslubidagi kamin, katta keng oynalar va sharqona uslubda geometrik naqshlar va gullar bezalgan turfa rang shiftlar. Qasrning balanda eshik va oynalari yemis duradgorlari tomonidan yasalgan. Uni qurishda ganchkor ustalar Xudoybergan hoji, usta Nurmat, Ro'zimat Masharipov, yog'och o'ymakorligi va bo'yash ustalari Bobojon Qalandarov, Ota shayx, Ismoil Abduniyozov, g'isht teruvchi Quriyoz Bobojonov qatnashganlar.

Turkistonga ruslar ko'chib kelishining kuchayishi turli shaharlarda Yevropa va Sharq-Yevropa uslubida qurilgan binolarning paydo bo'lishiga olib keldi.

Masalan, Toshkentdagi knyaz N.K.Romanovning 1891 yilda me'morlar A.L.Benua va V.S.Genselsmanlar loyihasi bo'yicha barpo etilgan saroyidagi zallar o'zbek ustalari tomonidan sharqona bezatilgan. 1902-1913 yillarda tiflislik G.M.Sinsadze tomonidan "Kolizey" sirk binosi barpo etilgan.

Shuningdek, bu davrda ruslarning ta'siri natijasida qadimiy shaharlar atrofida yo'ldosh shaharlar paydo bo'la boshladi. Masalan, birgina Toshkent shahri eski va yangi shaharlarga bo'linib, Anhor kanali orqali ajralib turgan. 1865- yildan qurila boshlagan yangi shaharda Yevropa uslubidagi binolar qurilgan bo'lsa, eski shahar o'zining sharqona uslubi bilan ajralib turgan. Eski shaharda ko'pgina yangi binolar paydo bo'ldi. Shayxontahur majmuasining darvozasi (1892-yil, usta Abdurahim), To'xtaboyvachcha masjidi (1906-y.), Shayxontahur dahasining Baland masjidi (1915-yil, usta Mo'min) kabi binolar bunga misol bo'la oladi. Ayni vaqtda Yangi shaharning ayrim binolarida, masalan, «Xiva» kinoteatrda (1910-1916-y., arx. G. Svarichevskiy, imorat saqlanmagan) mahalliy me'moriy shakllardan foydalanildi. XIX asr oxiri-XX asr boshida Toshkentda bir necha evropacha imoratlar qurildi. Ular jumlasida savdo binosi (1911-yil, 4-poliklinika), Eski shahardagi 1-telegraf (saqlanmagan, avvalgi kasb-hunar bilim yurti, keyin o'qituvchilarining malakasini oshirish kurslari, Jangob arig'i bo'yida bo'lgan).

Marg'ilon shahridan 8 kilometr chamasi uzoqlikda yangi shahar — hozirgi Farg'ona (Sobiq Skobelev) shahri qad ko'tara boshlagan. Natijada, Turkiston arxitekturasi Sharq va G'arb me'morchiligi sintezi sifatida shakllana borgan.



Toshkentdagi knyaz N.K.Romanov saroyi

Bu davrlarda Yevropada ishlab chiqarilgan arzon narxdagi iste'mol buyumlarini ko'plab olib kelinishi sababli, xalq hunarmandchiligi ham sustlasha bordi. Lekin xalq amaliy san'ati taraqqiy etishdan to'xtamadi.

Jumladan, Rossiya imperiyasi davrida kulol ishlab chiqarishi bevosita qo'llab-quvvatlangan. XX asr boshlarida Rishton 300 ta kishi ishlaydigan 80 tadan ortiq hunarmandchilikka oid kulol ustaxonalarini o'z ichiga olgan. Rishton kulollarining mahsulotlari Markaziy Osiyoning barcha shaharlariga kelib tushgan. Ba'zi hunarmandlar esa Qo'qon, Marg'ilon, Andijon, Samarqand, Toshkent va boshqa shahar bozorlarida o'zlarining shaxsiy savdo do'konlarini ochishni boshladilar. Shuningdek, Rishtonga Konibodom, ayrim paytda G'ijduvon, Qarshi, Shaxrisabz shaharlaridan ustalar o'zaro tajriba almashish uchun tashrif buyurishgan.

XIX asrning oxirlaridagi mashhur chinni ustalari – Abdurasulov Madamin Axun (Usta Mulla Madamin Axun), To'xta-bachcha (Usta To'xta), Bachayev Sali hamda iste'dodli va rassom bo'lmish, xotini bilan birga ishlagan Bobo Boy Niyazmatov Meliboy (Usta Boy Niyazmat) buyuk ustalarning shogirdi va izdoshlari hisoblanishgan. Mashhur chinnipaz-naqqosh ustalari hisoblanmish G'oziev Mayaqub (Usta Yaqub, 1862-1922), Madaliev Abdul Sattor (Usta

Abdusattor, 1862–1943), ko‘zagar Ortiqov O‘lmas (Usta O‘lmas, 1864—1950) Rishton kulollarining oxirgi oqsoqollaridan biri bo‘lishgan.

Eng yaxshi hunarmandlar – usta Mulla Madamin Axun, usta To‘xta, usta Soli va boshqa ustalar mahsulotlari bir necha marotaba butun Rossiya miqyosidagi ko‘rgazma-yarmarkalarida qo‘yilgan. 1890 yili Parijda bo‘lib o‘tgan Butunjahon ko‘rgazmada dunyo kulol mahsulotlari qadriga etuvchilari tomonidan rishton ustalari kulollarini Yevropaning eng zo‘r mayolika va xalqaro miqyosda raqobatlasha oladigan mahsulot sifatida yuqori baholashgan ko‘rgazma muvaffaqiyat bilan o‘tgan.

1904 yili Farg‘onadagi sanoat va hunarmandchilik ko‘rgazmasida Rishtonlik usta Bobo-xoji Mirsalim kulol samovari tayyorlagani munosabati bilan Farg‘ona viloyati harbiy gubernatori general-mayor V.I.Pokotilo qo‘lidan oltin medal olgan.

Bu davrda tasviriy san‘atda boshlangan yangi bosqich o‘ziga xos xususiyatlarga ega edi. Miyiatyuraga xos ishlanish uslublari va qonuniyatlaridan farqli o‘laroq, Yevropa davlatlarida ancha ilg‘orlab ketgan uch o‘lchamlilik qonuniyatlari asosida rivojlangan bu tasviriy san‘at aynan o‘sha davrlarda bizning o‘lkamizda deyarli mavjud emas edi. Ajdodlarimizning san‘atga ixlosmand ilg‘or vakillari esa ko‘proq xalq amaliy bezak san‘ati bilan mashg‘ul bo‘lganlar.

Bu davrda ijod qilgan mahalliy musavvirlar ichida Ahmad Donish alohida o‘rin tutadi. “Ahmad Kalla”, “Ahmad maxdum”, “Muhandis” nomlari bilan zamonasida shuhrat qozongan ma‘rifatparvar, shoir, faylasuf, hattob, falakiyotchi Ahmad Donish (1827-1897) yana musavvir iste‘dodiga ega edi. Uning bizgacha yetib kelgan rasmlari: Abduqodir Bedilning “To‘rt unsur” qo‘lyozma asariga bag‘ishlab chizilgan “Shoir va rassom” miniaturasi hamda shahar mirshabini aks ettirgan satirik miniaturasi bundan dalolat beradi. U chizgan miniaturlar nihoyasiga yetkazilgan mukammal rasm, o‘rniga qo‘yilgan bo‘yoqlar, aniq-ravon kontr chiziqlari, uning grafik dastxati bilan ajralib turadi. O‘zFA Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida Ahmad Donishning 16 ta qo‘lyozma asari saqlanadi. Aksariyati muallifning o‘z qo‘li bilan yozilgan nusxalardir.



Ahmad Donish

Ahmad Donishning shogirdi Abdulxoliq Mahmud ham qurt-qumursqalar va gullarni mahorat bilan aks ettirgan rassom sifatida tanilgan. 1915 yilda Toshkent litografiyasi “Go‘r o‘g‘li” epik dostonini rassom Sirojiddin Maxsum Siddiqiyning illustarsiyalari bilan chop etdi. Bu 19 asr oxirlari va 20 asr boshlarida ijodiyoti bosmaxona nashri bilan bog‘liq bo‘lgan yagona o‘zbek rassomidir.

XIX asrning 70-yillarida va XX asr boshlarida Turkiston tasviriy san‘atida rus rassomlarining, asosan Peterburg badiiy akademiyasi tarbiyalanuvchilarining asarlari o‘rin olgan. Bu rassomlar orasida A.Karazin, R.Zommer, S.Yudin, Dmitriyeva, I.Kazakov, L.Bure kabi rassomlar ijod qildilar. Bu rassomlarning ijodi

asosida yurtimizga Yevropaning realistik rassomchiligi, uning naturalizm, klassik uslublari ham kirib keldi.

Xususan, A.Karazin 1874-1879 yillarda Rus geofgrafya jamiyati tomonidan Amudaryo havzasini o'rganish uchun yuborilgan ilmiy ekspeditsiyada ishtirok etib, o'lka tabiatini aks ettiruvchi suratlar ishlagan. 1880 yilda rus qo'shinining Xiva va Buxoroga yurishlari mavzusida qator asarlar yaratgan: "Toshkentning olinishi", "Rus qo'shinining 1868 yil 8 iyunda Samarqandga kirib kelishi", "Maxramning zabt etilishi" va h.k. U nafaqat batal janrda ijod qilgan, O'rta Osiyoning tabiati va osiyoliklar qiyofasi uning asarlaridagi sevimli mavzulardir. Kazakov asarlarida esa xalqning psixologik holatlari, dunyoqarashlari, turmush sharoitlari ifodalandi.

1890 yillar oxirlaridan 1900 yillar boshigacha O'rta Osiyoda ko'p vaqt ishlagan R.Zommer ham o'z asarlarida maishiy, batal sahnalarni, Nurkiston me'morchiligi yodgorliklarini hamda Toshkent, Buxoro, Samarqandning eski mavzularini aks ettirgan.

Bu davrda ko'p asrlar davomida taraqqiyoti deyarli to'xtab qolgan haykaltaroshlik sohasida ham o'zgarishlar sodir bo'ldi. Toshkentlik To'xta Sodiq Xo'jayev o'z qo'li bilan, biron-bir haykaltaroshlik asboblari va kesiklarisiz, oddiy qalamtarashda o'yib ishlagan ot va kiyik haykalchalarining 1886 yildayoq Turkiston ko'rgazmasida namoyish etilganligi O'rta Osiyo xalqlarining borliqni badiiy tasvirda aks ettirishga intilishlaridan dalolat beradi. Ana shu ko'rgazmada Toshkentlik kosiblar tomonidan bajarilgan uylarning: ganchdan yasalgan ikki qavatli yevropa uslubidagi uy va nihoyatda mahorat bilan haqiqiysiga o'xshatib yasalgan ikkita o'zbek uyi modellari ham namoyish etilgan edi. Taniqli o'zbek ganchkor usta Toshpo'lat Arslonqulov (1882-1962) Toshkentdagi harbiy kengash (Ofitserlar uyi) binosida fotosuratlardan foydalangan holda A.V.Suvorov va M.I.Kutuzovlarning portretlari tushurilgan barelyef-medalonlarini ganchdan yasadi.

O'zbek xalqining ko'p asrlik taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan musiqa san'ati qadimiy va o'ziga xos an'alariga ega. XIX asrning ikkinchi yarmida o'zbek musiqasining barcha janrlari va shakllari xonanda va sozandalar avlodi tomonidan ijod qilinib, og'izdan og'izga o'tib kelgan og'zaki an'anaviy san'atdan iborat edi. Musiqa tuzilishi va ijro xususiyatlari jihatidan esa o'zbek kuylari terma, qo'shiq, lapar, yalla va ashula kabi janrlarga bo'linadi, bularning har birining mavzusi xilma-xil bo'lgan. O'sha davrda samarqandlik ashulachi va dutorchi Hoji Abdulaziz Rasulev, ashulachi Levi Boboxonov, xorazmlik tanburchi Matyoqub Harratovlar mashhur bo'lganlar.

Maqomlar Buxoro va Xivada rivojlangan edi. Buxoro «Shashmaqom»i mukammal olti maqomdan iborat bo'lib, bu maqomlardan har biri ko'plab qo'shiq va musiqaviy qismlarni o'z ichiga olgan. Lirik mazmunli Farg'ona katta ashulasi og'zaki an'anaga kirgan o'ziga xos professional musiqa janri hisoblangan.

Garchi o'zbek musiqasi xalq sozandalarining amaliy faoliyatida og'zaki an'anaviylik san'at tariqasida rivojlanib borgan bo'lsa ham, musiqa bilimining yuqori darajaga erishganligi natijasida o'rta asrlardayoq tovushlarni qog'ozga yozib

olish (nota yaratish) usullari ixtiro qilingan edi. Masalan, xorazmlik Pahlavon Niyozmuhammad (Komil Xorazmiy) o'zbek kuylarini yozib olish sohasida yangi tizim — «tanbur chizig'i»ni yaratgan. U rost maqomining bosh qismini ana shu «tanbur chizig'i»da yozadi.

Toshkentlik hofiz Mulla To'ychi Toshmuhamedov (1867-1943)ning nomi juda ham mashhur bo'lgan. To'ychi hofiz link asarlar: «Gulyor», «Bayot», «Lolalaring bordur», «Holim mening», «Yangi Kurd», «Suvvora», «llg'or» kabi kuylarni mohirona ijro etishi bilan xalqning mehr-muhabbati va hurmatiga sazovor bo'ldi. 1905- yilda bu ashulalardan ba'zi birlari yurtimizda ilk bor Mulla To'ychi ijrosida grammofon plastinkalariga yozib olingan.

Masxaraboz-qiziqchilar va qo'g'irchoqbozlik san'ati an'anaviy xalq madaniyatining asosiy janrlaridan biri hisoblangan. Tomosha san'atining bu turlari xalq ijodining juda ko'p tur va janrlari: askiyabozlik, taqlidchilik, nayrangbozlik, yog'ochoyoqbozlik san'atidan, shuningdek, maqomchilar, sozandalar, raqqoslarning faoliyatidan keng foydalanish natijasida rivojlangan. Qo'g'irchoqbozlik san'ati (qo'g'irchoq o'yin), o'z navbatida, qo'l qo'g'irchoqqa va chodirxayolga bo'lingan.

XIX asr oxirlariga kelib, O'rta Osiyoda foto va kinematografiya san'atiga xivalik birinchi o'zbek operatori Xudoybergan Devonov (1879-1940 yy) tomonidan asos solindi. U Xiva xonligiga ko'chib kelgan nemis-mennonitlaridan biri – Vilgelm Pennerdan fotoapparatdan foydalanish sirlarini o'rgangan, keyinchalik Sankt-Peterburgga safari chog'ida kinematografiya bilan qiziqib qolgan. O'z xalqi tarixi va o'tmish madaniyatini yaxshi bilgan san'atkor o'zi yaratgan kino asarlari xalqona, tarixiy mazmunda bo'lishiga katta e'tibor qaratgan. Shuning uchun ham u 1920 yilda yaratgan “Ishchi ayollar”, “Sho'rko'l” kinosyujet filmlari tajribali Moskva kino mutaxassislari tomonidan yuksak baholangan. “Chig'ir”, “Kustar usulda bo'z to'qish”, “Xivadagi xalq shodiyonalari”, “Paxta terimi”, “Birinchi traktor” filmlari o'zbek kinosi durdonalari qatoridan o'rin egallagan.

Xulosa qilib aytganda, XIX va XX asr boshlarida O'rta Osiyo, jumladan, Turkiston o'lkasi hududiga Yevropa va rus madaniyatining kirib kelishi bir qator madaniy o'zgarishlarning vujudga kelishiga sabab boldi. Ular quyidagilardir:

- a) ilm-fan, musiqa va teatr san'atida yangi ko'tarilish davri boshlandi;
- b) xalqni ma'rifatli qilishning asosiy vositasi - yangicha uslubdagi maktablar paydo bo'ldi;
- d) Turkiston va boshqa olkalar o'rtasida madaniy aloqalar kuchaya bordi;
- e) matbaachilikning shakllana borishi ma'naviy madaniyat taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatuvchi yangi bir vosita — ommaviy axborot vositalari (gazeta va jurnallar) ning vujudga kelishiga sabab bo'ldi;
- f) badiiy adabiyotning shakllanishida Yevropa badiiy ijodiyoti uslublarining ta'siri sezila boshladi. Natijada yozma nasriy va dramatik asarlar paydo bo'la boshladi;
- g) XX asr boshlarida Toshkent, Farg'ona kabi shaharlarda kino san'atini namoyish qilish yo'lga qo'yila boshlandi;

j) ommaviy xalq tomosha san'ati rivoji yangi bosqichga ko'tarildi, tomoshalar dasturida yangi mavzular — ma'rifatga chorlash, milliy istiqlol, ijtimoiy norozilik kayfiyatidagi tomoshalar ko'zga tashlana boshladi.

Nazorat savollari:

1. Turkistonda Rossiya mustamlakachiligi davri madaniy taraqqiyotining o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qiling.
2. Ma'rifatparvarlik va jadidchilik harakatining madaniy taraqqiyotda o'ynagan roliga baho bering.
3. XIX asr oxiri XX asr boshlarida me'morchilik rivojida qanday yangiliklar ko'zga tashlandi?
4. Ushbu davrda tasviriy san'atga kirib kelgan yangi uslub va janrlarga baho bering.
5. Rossiya mustamlakachiligi davrida milliy madaniyat rivoji xususida o'z xulosalaringizni bayon qiling.

9-mavzu. Sovet mustabid tuzumi davrida O'zbekiston madaniyati va san'ati

Reja:

1. Sovet mustabid tuzumi davrida madaniy taraqqiyotning o'ziga xos xususiyatlari
2. Sovet mustabid tuzumi davrida san'at taraqqiyoti

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:

Sho'rolar davri, mustabid tuzum, madaniyatga mafkuraviy tazyiq, sinfiy yondashuv va "sotsrealizm", zamonaviy san'atning turli ko'rinish va yo'nalishlarining paydo bo'lishi, o'zbek zamonaviy me'morchilik san'atining shakllanishi, Yevropa realistik san'ati, grafika san'atida tur va janrlarning kengayishi, bezak va illyustratsiya ishlari, portret san'ati, avtoportret, mahalliy rassomlar faoliyati, kino san'ati, me'morchilikda yangi texnologiyalarning yaratilishi.

Sovet mustabid tuzumi davrida madaniy taraqqiyotning o'ziga xos xususiyatlari

Sobiq sho'rolar davri madaniyati o'zining qarama-qarshi tomonlari va xususiyatlari bilan boshqa davrlar madaniy taraqqiyotidan farq qiladi. Bu davrning asosiy xususiyati hayotning barcha sohalari, jumladan, ma'naviy madaniyat sohasining kommunistik mafkuraga tobelligi bilan tavsiflanadi.

Ma'lumki, milliy madaniyat milliy e'tiqod va milliy his-tuyg'ular asosida rivojlanadi. Sho'rolar davrida ana shu xususiyat — milliy madaniy taraqqiyot o'zani begona madaniy oqim tomonga burib yuborildi. Natijada milliy madaniyat o'zining hayotbaxsh manbayidan, milliy e'tiqod va his-tuyg'ularidan ajratib qo'yildi. Madaniy-tarixiy hodisa g'oyaviylashtirildi, hukmron mafkura va hukmron sinf manfaatlariga bo'ysundirildi. Ikkinchi tomondan, sotsialistik lagerga

kirmaydigan «begona davlatlar» madaniy hayoti bilan milliy madaniyatlar o'rtasidagi tabiiy aloqadorlikka rahna solindi. Bu esa milliy madaniyatlarning umumbashariy madaniyatlardan uzilib qolishi va «begona»lashuviga olib keldi.

Bu davrning ikkinchi salbiy tomoni badiiy ijodiy jarayonning bir qadar cheklanganligi bilan xarakterlanadi. Ijodiy erkinlik hukmron mafkura ko'rsatmasi asosida qurildi. Badiiy ijod «shaklan milliy, mazmunan sotsialistik» uslubda bo'lishi shart qilib qo'yildi. Bu qonuniyat o'tmish madaniy merosga ham tatbiq etildi. Natijada o'tmish avlodlardan qolgan barcha madaniy boyliklarni o'rganishda, uning ana shu qonuniyatga javob bermaydigan tomonlari olinib, qolgan jihatlari «zararli, «kommunizm quruvchisi»ning ongini zaharlaydigan «og'u» deb topildi. Bu esa avlodlardan avlodlarga qonuniy tarzda o'tuvchi yaxlit jarayonning buzilishiga sabab bo'ldi.

Har bir jarayonning ijobiy va salbiy tomonlari mavjud bo'lganidek, sobiq sho'rolar davrining ham o'ziga xos ijobiy tomonlari ham mavjud bo'lganki, bundan ko'z yumish umumiy tabiiy-tarixiy jarayonga bir tomonlama nazar tashbsh bilan barobardir.

Sho'rolar davrida o'ziga xos madaniy taraqqiyot vujudga kelib, bu madaniy jarayon ozmi-ko'pmi umumbashariy madaniy taraqqiyotning rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsata olgan. Bu davrda ilm-fan, texnika va san'atning ko'pgina sohalarida (ayniqsa, me'morchilikda) ulkan yutuqlarga erishildi. Fanning ayrim sohalardagi rivoji dunyo miqyosidagi darajaga ko'tarildi.

Sho'rolar davri madaniyatining asosiy tomonlaridan yana biri majburiy ta'limning joriy etilganligidir. Bu vazifani amalga oshirish uchun ko'plab maktablar tashkil etildi. Natijada qishloq joylari madaniy-maishiy hayotining yaxshilanishida ana shu maktablarning ta'siri sezilarli darajada bo'ldi. Yoki xalq xo'jaligining turli sohalarini kadrlar bilan ta'minlash uchun ta'lim tizimining bosqichma-bosqich yaxshilanib borilishi ham aholi madaniy saviyasining ko'tarilishida muhim rol o'ynagan.

Sho'rolar davrida ham Rossiya imperiyasi amaldorlari tomonidan amalga oshiralayotgan siyosat - yerli xalqni ruslashtirish siyosati davom etdi. Milliy ma'naviy qadriyatlar millatning milliy g'ururi va o'zligini anglashga bo'lgan intilishlari bo'g'ib qo'yilishi davom etdi.

O'tmish madaniy merosga bo'lgan munosabatda sinfiylik tamoyili asosiy mezonga aylandi. Mazkur tamoyilning madaniy-ijodiy jarayonga tatbiq etilishi o'zbek milliy madaniyatining qadim ajdodlari tomonidan vujudga keltirilgan sarchashmalaridan bahramand bo'lishiga barham berdi.

O'tgan asrning 20- yillari boshida qabul qilingan "San'at buyumlari va ilmiy kolleksiyalarini chet elga olib chiqib ketishni taqiqlash to'g'risida" (1921- yil, 22-may), "Musulmon nashrlari uchun mablag' ajratish" (1922- yil, 10- avgust), "Turkistonda yerli bolalar uchun maktablar tarmog'ini kengaytirish" (1923- yil, may) va boshqa ko'pgina chora-tadbirlar o'z samarasini bermay qolmadi. Maktablar tarmog'i tez sur'atlar bilan rivojlandi, matbaa ishi yaxshilanib madaniy-ma'rifiy ishlar ko'lamining ta'siri kengaydi. Bu ishlarning amalga oshuvi natijasida mahalliy xalq orasidan A.Avloniy, A.Fitrat, A.Qodiriy, S.Ayniy, Hamza,

A.Cho'lpon, Botu (M.Xodiyev), Ziyo Said singari adiblar, M.Uyg'ur kabi atoqli aktyor va rejissyorlar yetishib chiqdi.

1925- yilga kelib o'zbek tilida 17 nomdagi gazeta va jumallar chiqa boshladi. Turkistonda yashovchi o'zbek, qozoq, rus va boshqa millat tillarida kitoblar chop etildi. 14 teatr, 19 kinoxona, 152 ta kutubxona va boshqa madaniy- ma'rifiy muassasalar faoliyat ko'rsata boshladi.

Savodsizlikni tugatish maqsadida xalq tilida maktablar tashkil etish sur'ati yanada kuchaytirildi. Ularni darsliklar va o'quv quroilari bilan ta'minlash chora-tadbirlari ko'rildi. 1930- yil 25- iyulda majburiy boshlang'ich ta'lim joriy etildi. 30-40- yillar oralig'ida mehnatga yaroqli aholining deyarli barchasi savodsizlikni tugatish tizimida o'qib chiqdi. 30- yillaming oxirlariga kelib, umumiy yetti yillik ta'limga o'tildi.

1920- yilda Toshkentda rasman tashkil etilgan O'rta Osiyo Davlat universiteti (hozirgi O'zbekiston Milliy Universiteti) nafaqat respublikamiz uchun, balki O'rta Osiyo respublikalari va Qozog'iston uchun oliy malakali mutaxassislar tayyorlab beruvchi yagona markazga aylandi.

20-30- yillarga kelib respublikamizning yirik shaharlarida xalq xo'jaligi uchun zarur bo'lgan mutaxassisliklarni yetkazib beruvchi ko'plab oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari tashkil etila boshlandi. Bu davrda respublika madaniy hayoti partiyaning qattiq nazorati ostida tashkil etilardi.

O'tmish madaniy meros va qadimiy madaniy yodgorliklarga yangi sotsialistik madaniyatning dushmani sifatida qaralar edi. Madaniyatning tarkibiy qismi hisoblangan dinga qarshi ayovsiz kurash boshlandi. Bu holat, ayniqsa, 30- yillarda avjga chiqdi. Ko'plab dindorlar uzoq o'lkalarga, begona yurtlarga surgun qilindi. Islom va xristian dinlariga oid qanchadan qancha kitoblar yo'q qilinib, masjidlar, cherkovlar, xonoqohlar va maqbaralar vayronaga aylantirildi.

Shunga qaramasdan, 20- yillardan boshlab respublika madaniy hayotida bir qator ijobiy o'zgarishlar ro'y bera boshladi. Xalq ta'limi tizimida, madaniy yodgorliklarni saqlash va mahalliy matbuotning rivojlanishida sezilarli o'zgarishlar sodir bo'ldi.

Respublika madaniy hayotida o'sha davming fidoyi siymolari eng murakkab sharoitda ham partiya yakkahokimligi va davlat tomonidan avj oldirilgan jazo choralariga qaramay, milliy ruh va milliy istiqloq uchun kurash olib bordilar. O'sha davming mashhur adiblari va publiitsistlari Munavvarqori, A. Fitrat, A. Cho'lpon, A. Qodiriy, A. Avloniy, Hamza, O'. Yunus, Ashurali Zohiriy, Xurshid (Sh. Sharofiddinov), keyingi yosh avlod vakillaridan Botu (M.Xodiyev), Ziyo Said va boshqalar hamda o'zbek professional teatri tashkilotchilaridan M.Uyg'ur kabi ziyolilar shular jumlasidandir.

20-30- yillar Respublika madaniy hayotidagi og'ir yillar hisoblanadi. Bu davrda milliy adabiyot va san'atni saqlab qolish, uning ilg'or an'alarini tiklash uchun harakat avj oldi. Shu bilan birga adabiy-badiiy jarayonni hukmron sinf manfaatlariga bo'ysundirishga yordam beruvchi ikkinchi guruh ham paydo bo'ldiki, ular millat qahramonlarini qatag'on qilishda jonbozlik ko'rsatdilar.

Ana shu kurashlar natijasida o'zbek adabiyoti tarixida yangi janr — o'zbek

romanchilikjanri vujudga keldi. Abdulla Qodiriy «O‘tkan kunlar» va «Mehrobdan chayon» nomli asarlar yaratib o‘zbek romanchiligi asosiga tamal toshini qo‘ydi. A.Fitratning «Chin sevish» va «Abulfayzxon», «Arslon», A.Cho‘lponning «Cho‘riqiz isyoni», «Yorqinoy» va «Zulmkor» nomli dramatik asarlarida Turkiston xalqlarining fojiasi, tuganmas dardlari to‘laqonli aks ettirildi.

Sobiq TASSRning ijozati bilan tuzilgan «Chig'atoy gurungi» tashkiloti Turkiston xalqlari madaniy merosini to‘plash va o‘rganish yumushlari bilan birga madaniyat va adabiyot sohasi orqali milliy istiqlolni targ‘ib qilish yo‘lida faoliyat ko‘rsatgan. Bu tashkilotga a‘zo shoir va adiblar, ma‘rifatparvarlar til va adabiyotning milliylik masalasida ulkan ishlarni bajarishdi. O‘tmish merosga, xususan, chig‘atoy adabiyotiga katta ixlos bilan qaragan holda, xalq tiliga, xalqona ifodaga, milliy zaminga alohida e‘tibor qaratdilar. O‘z amaliy ishlari bilan ruslashtirish siyosatiga qarshi turdilar. Lekin bunday sa‘y-harakatlar hukmron mafkura andazalariga mos tushmas edi.




Respublikaning mustaqilligi uchun kurash dastlab ochiqdan ochiq olib borilgan bo‘lsa, partiya yakkahokimligi va totalitar tuzum o‘rnatilishi hamda milliy istiqlol uchun kurashuvchilar ayovsiz jazolana boshlangandan so‘ng bu kurash yashirin tarzda olib borildi. Masalan, maorif vaziri bo‘lib ishlab turgan R.Inag‘omov rahbarligidagi «18 lar guruhi» yer-suv islohoti kompaniyasi boshlanishi oldidan o‘z faoliyatini ochiqchasiga olib borgan. R.Inag‘omov, eng avvalo, partiya rahbarligi, uning gegemonligiga qarshi chiqadi. Partiyani diktatorlikda va demokratiyani bo‘g‘ishda ayblaydi, jamiyatni boshqarishda barcha guruhlarning erkin qatnashishini ta’kidlaydi.

Ayrim ma‘rifatparvarlar mahalliy aholi bolalari uchun o‘z mablag‘idan maktablar ochdilar. Xalq ta’limining ko‘pgina tashkilotchilari pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanishdan tashqari, maktablar uchun o‘zbek tilida darslik tayyorlash ishida ham faol qatnashdilar. Munavvarqori, Abdulla Avloniy, Fitrat, Ashurali Zohiriy, Shorasul Zunnun, Rahimjon Shokiriy, Elbek, Qayum Ramazon, Sh.Saidrizo Alizoda, Rafiq Mo‘min, Abduqodir Shokiriy va boshqalar shular jumlasidandir.

1929-yilda O‘zbekiston yozuvchilar ittifoqi tuzildi. 30-yillarda adabiyot sohasiga G‘ayratiy, Oybek, G‘.G‘ulom, Botu (M.Xodiyev), H.Olimjon, A.Qahhor, O.Sobirova, U.Nosir, Amin Umariy, Uyg‘un singari yozuvchi va shoirlar kirib keldilar va xalq orasida tanila boshladilar.

20-30- yillarda o‘zbek teatr san‘ati shakllana boshladi. Bu davrda Hamza va Mannon Uyg‘urlar tomonidan o‘zbek professional teatri beshigi hisoblangan akademik teatr tashkil topdi. Natijada Yetim Bobojonov, Abror Hidoyatov, Muhiddin Qori Yoqubov kabi ulug‘ siymolar yetishib chiqdi.

Bu davrda O'zbekiston kino san'ati asosiga tamal toshi qo'yildi. «Farxod va Shirin», «Layli va Majnun», «Gulsara», «Buron» singari san'at asarlari yoki «Asal», «Qasam», «Ravot qashqirlari», «Azamat» nomli ilk kinofilmlar - bular o'zbek adabiy-madaniy hayotida muhim voqea bo'lgan edi. O'zbek musiqa, kinematografiya va teatr san'ati tezkorlik bilan rivojlandi, o'z davrining buyuk sanatkorlari: M.Ashrafiy, T.Sodiqov, M.Burhonov, (musiqa), Y.A'zamov, N.G'aniyev, S.Iskandarov, A.Umarov, R.Pirmuhamedov (kinematografiya), L.Narzullayev, Z.Hidoyatova, Sh.Qayumov, T.Saidazimova, X.Nosirov (teatr) kabilar yetishib chiqdilar. Keyingi davrda yaratilgan «Sen yetim emassan», «Mahallada duv-duv gap», «Maftuningman», «O'tgan kunlar» singari kinofilmlarda katta ijtimoiy-hayotiy voqealar keng rejada, chuqur realistik asosda, yorqin badiiy tasvirlarda yoritib berilganligi alohida e'tiborga molikdir.



30-yillar o'zbek fanining jadal rivoj topayotgan davrlaridan biri hisoblanadi. Bu davrda mashhur geolog olimlardan X.M.Abdullayev, G.A.Mavlonov, matematiklardan T.N.Qori Niyozov, T.A.Sarimsoqov, biolog olimlardan T.X.Zohidov, D.K.Saidov, A.M.Muzaffarov, A.T.To'laganov, kimyogarlardan O.S.Sodiqov, A.S.Sattorov, M.Yunusov, X.U.Usmonov K.S.Ahmedov, energetiklardan X.F.Fozilov, G.R.Rahimov, faylasuflardan M.Mo'minov, arxeologlardan Ya.G'.G'ulomov kabilar yetishib chiqdilar.

Bu davrning eng buyuk muvaffaqiyatlaridan biri - televideniyaning vatani Toshkent bo'lib qolganligidir. 1928- yili o'zbekistonlik V.P.Grabovskiy va F.Belyanskiylar elektron nur yordamida harakatdagi tasvimi bir joydan ikkinchi joyga uzatadigan va qabul qilingan «radiotelefon» yaratdilar.

Xullas, 30- yillarda ro'y bergan murakkab ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy jarayonlar respublika madaniy hayotiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Ayniqsa, ma'naviy hayot sohasidagi qatag'onlar milliy madaniyat taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

«Xalqlar otasi»ning jamiyat turmushidagi barcha sohalarga «dohiylarcha rahbarligi» xato va kamchiliklarsiz ideal jamiyat qurilayotganligini madh etuvchi asarlarning ko'payishiga olib keldi. San'atning turli sohalarida hayot haqiqatini biryoqlama ko'rsatuvchi, qolipgasolingan ijod namunalari paydo bo'lishiga sabab bo'ldi.

Qonunchilikning qo'pol ravishda buzilishi, insoniy qadr-qimmatning poymol etilishi natijasida milliy madaniyatning ko'pgina ko'zga ko'ringan namoyandaiari - Munavvarqori, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon. Fitrat, Zohiriy, Shokir Sulaymon, Elbek, Usmon Nosir, Otajon Hoshimov va boshqa inillatparvarlar yo'q qilindi.

II jahon urushi yillari adabiyot va san'atdagi asosiy mavzu — insonparvarlik g'oyalarining yanada kuchaytirilishi edi. Chunki fashizm butun insoniyat va uning tomonidan yaratilgan barcha madaniy merosni yo'q qiluvchi ofat hisoblanardi. Shu

sababli urush yillarida yaratilgan barcha madaniy boyliklar insoniylik g'oyalari yo'g'rilgan edi. Bu davrdagi asosiy mavzulardan biri — vatanparvarlik hissining oshib-toshib ketishi va barcha san'at asarlarida namoyon bo'lishi edi. Barcha narsa va harakat, barcha badiiy ijod — buyuk Vatan tuyg'usini shakllantirish, Vatan uchun jonini tikishdek qudratli hisga bag'ishlandi. Natijada bu davrda yaratilgan barcha san'at asarlarida millati, tili, e'tiqodi har xil bo'lgan kishilarning yagona, qudratli kuchiga aylangan ichki ruhiy hissiyot - Vatan tuyg'usi o'z ifodasini topdi.

Urush davrida O'zbekistonga Rossiya, Ukraina va Belorussiyadan 22 ta ilmiy tadqiqot instituti, 16 ta oliy o'quv yu'rti ko'chirib kelingan edi. Natijada O'zbekistonda ilm-fanning tez sur'atlar bilan rivojlanish imkoniyati vujudga keldi. Ishlab chiqarishni yanada kengaytirish va xomashyo zaxiralarini izlab topish ishlari amalga oshirildi.

Ijtimoiy fanlar rivojlantirilib, ko'plab arxeologik qazishma ishlari amalga oshirildi va respublikamiz hududidagi qadimgi madaniyat manzilgozlari izlab topildi.

O'zbekistonda 1943-yilda O'zbekiston Fanlar akademiyasi tashkil etildi. 1944-yilga kelib Fanlar akademiyasi tarkibida 22 ta ilmiy muassasa mavjud edi. 1943-yilda O'zbekistonda 41 ta oliy o'quv yurti (shundan 12 tasi ko'chirib kelingan), 52 ta o'rta maxsus o'quv yurti faoliyat ko'rsatdi va xalq xo'jaligining turli tarmoqlariga mutaxassislar tayyorlab berdi. Urush yillarida bu o'quv yurtlari xalq xo'jaligining turli sohalariga 20 mingdan ziyodroq malakali mutaxassislar yetkazib berdi.

Shu bilan birga, 40-yillardan 50-yillargacha davom etgan siyosiy qatag'onlar O'zbekiston madaniy hayoti va taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Bu qatag'onlar asosan ilm-fan va madaniyat arboblari qaratilgan edi. Ko'pgina yozuvchilar, shoirlar, olimlar va boshqa fan va madaniyat arboblari nohaq qoralandi, «millatchi»likda ayblanib, hatto «xalq dushmani» tamg'asini oldi. Natijada adabiyot, san'atning taraqqiyot yo'li yuqoridan belgilab beriladigan yo'liga solib qo'yildi. Asosiy e'tibor hayotni realistik, demokratik va oshkora tasvirlab berish o'rniga «xalqlar otasi»ning, partiya va rahbarlar gegemonligining buyuk qudrati hamda qahramonliklarini bo'ntirib tasvirlashga qaratildi.

Millat, xalq va Vatan tarixini yoritib beruvchi asarlarning mualliflariga «o'tmishni qo'msovchi», «o'tmishni ideallashtiruvchi» kabi ayblar qo'yildi. Yozilgan asarlar partiya organlari senzurasidan tomonidan qattiq tekshirilar va rahbariyatga yoqmagani «zararli elementlar» uchun ijodiy organlar va mualliflar badnom qilinadi. Partiya organlari ayrim yozuvchilar va shoirlarning asarlaridan jiddiy xatolar «topib», ulami milliy cheklanganlikda, o'tmishning zararli tomonlarini ideallashtirishda ayblay boshladilar. Natijada Oybek, Abdulla Qahhor, M.Shayxzoda, Shukrullo, Said Ahmad, M. Boboyev, Mirtemir va boshqa ijodkorlari badnom qildilar. Bir qator jumallar, jumladan, «Sharq yulduzi» va «Zvezda Vostoka» jurnallari tahririyatiga jiddiy ayblar qo'yildi.

Xullas, ma'naviy hayotdagi qatag'onlar keyingi madaniy hayotda ko'pgina salbiy oqibatlar kelib chiqishiga, ya'ni ijoddagi erkinlik o'rnini hadiksirash, mavzuning yuqoridan belgilab berilishini kutish kabi noxush holatlarning ro'y

berishiga olib keldi.

Shuningdek, ijodning hukmron millat, mafkura va sinf tazyiqi ostida belgilab berilishi yozuvchilarning ijtimoiy taraqqiyot hodisalarini bir tomonlama yoritishga, mavjud kamchiliklarni ko'rib-ko'rmaslikka olishga majbur etdi. Natijada 70-yillardan so'ng shahar hayotiga asosiy e'tibor berish bilan cheklanib, qishloq voqealarini yoritish e'tibordan chetda qola boshladi. Qishloq hayoti, madaniyat va turmush ikkinchi darajali mavzuga aylandi. Aholining ozchilik qismi yashaydigan shahar hayoti ko'klarga ko'tarib maqtaldi. Ayniqsa, badiiy filmlar ishlab chiqarishda yuzakilikka — g'oyaviy bo'sh, mazmunan sayoz, o'zbek millatining haqiqiy qiyofasini, urf-odatlarini, qadriyatlarini, milliy o'zligini ochib bera olmaydigan filmlar ishlab chiqarishga o'tib olindi.

Xulosa qilib aytganda, bu davr O'zbekiston madaniy taraqqiyotini boshdan kechirgan bir bosqich sifatida tarix sahifasidan munosib joy oldi. Fan, texnika, adabiyot va san'at hamda maorif sohalarida muayyan siljishlar bolib o'tdi, ularning moddiy-texnika bazasi ancha mustahkamlandi.

Sovet mustabid tuzumi davrida san'at taraqqiyoti

XX asr sovet davri madaniyatiga nazar tashlar ekanmiz, bunda ijtimoiy hayotning barcha jarayonlarida kommunistik g'oyalar, ta'siri va bosimini butun choralar bilan kuchaytirishga asosiy etiborini qaraganligini ko'ramiz. Bu esa oxir-oqibatda sovetlar yuritgan madaniy siyosatning butun borishi, mazmun, mundarijasiga, ijodkor ziyolilar, milliy kadrlarning hayoti va qismatiga o'zining salbiy ta'siri, xunuk asoratlarini o'tkazmay qolmadi, albatta.

XX asrning 20-30 yillariga kelib O'zbekiston ta'sviriy san'ati o'ziga xos shakl-shamoyilliga ega bo'ldi, alohida uslubiy izlanishlar evaziga rivoj topa boshladi. Moskva, Peterburg, Kiyev shaharlarida ta'lim olib, kelgusida o'z hayotlarini Sharq bilan bog'lagan rassomlar bu davrda O'zbekiston tasviriy san'atining yuzaga kelishida muhim rol o'ynaganlar. Bular qatorida L.Bure, G.Nikitin, O.Tatevosyan, V.Yeremyan, E.Korovoy, A.Nikolayev, A.Volkov, V.Ufimsev, P.Benkov, Z.Kavalyevskaya, N.Kashina, N.Karaxan, V.Rojdestvenskiy, N.Rozanov, M.Kazakov, M.Novikov M.Kurzinlar kirgan. Qayd etib o'tilgan rassomlarning har biri yorqin individualdir, ularning ijodi O'zbekiston yangi badiiy san'atining uzluksiz qismi bo'lib qoldi.

Sharq ular uchun ko'rkam va sirli olam edi, har biri o'lkaga bo'lgan muhabbatini o'zgacha ifodalar edi. Xususan, Usto Mo'min nomi bilan mashhur A.Nikolayev (1897-1957 yy) Sharqning, uning madaniyatining va tabiatining chinakam ixlosmandi edi. Suprematizm, shaklli tasvirda ijod qilgan, ijodiga O'rta Osiyo



Usto Mo'min. Bedanaboz


an'anaviy san'ati – kitob miniatyurasi, naqsh san'ati o'z ta'sirini ko'rsatgan. Peyzaj, portret janrlarida “Bedanaboz”, “Chol va o'smir”, “Kuyov” kabi asarlar yaratgan.

Farg'onada tug'ilgan A. Volkov rus rassomlarning an'alariga rioya qilgan bo'lsada, fransuz kubistlarining tajribasini ham o'zlashtirdi. U betakror rang-ta'svir tuzilmasini, sharqning o'ziga ritmikasi, ran-barang bo'yoqlarini XX asr birinchi choragidagi Parij maktabi bilan uyg'unlashtirishga intilgan. Tretyakov galereyasida saqlanayotgan “Yoqut choyxona” suratini u kubizmga qiziqib qolgan 1924-yilda yaratgan. Ushbu surat 1968-yilda Parijda namoyish etilganda, matbuot orqali shov-shuv bo'lgan edi.

Musavvirlar ishonchli qilib tasvirlangan o'ziga xos etnik tipajlar, etnografik rasmlar va me'moriy peyzajlar orqali haqiqatni real tasvirlash prinsiplariga rioya qilar edilar. Bular qatoriga L.Bure, G.Nikitin va I.Kazakovlarning asarlarini kiritish mumkin. P.Benkov va uning shogirdlari bo'lmish Z.Kovalevskaya va N.Kashinalar realizm prinsiplariga asoslanib impressionistik rasm chizish uslublaridan foydalanganlar. Chunki O'zbekistonning serquyosh tabiati rassomchilikning impressionizm salohiyatini gavalantirishga juda yaxshi imkon tug'dirar edi. P.Benkovning asarlari nur bilan soya o'yinini, yorqin havo muhitini iodalash bobida shu kungacha beqiyos bo'lib kelmoqda. “Hovuz labidagi suv tashuvchilar”, “Dutorchi qiz” va boshqalar kabi suratlar yaratgan uning shogirdi Z.Kovalevskaya ham shu yo'sinda ishlagan. Ikkinchi oqim asr boshidagi Yevropa san'atiga xos bo'lgan badiiy ifodani aks ettiruvchi avangard edi.

O.Tatevosyaning “Ro'za bayrami”, N.Karaxanning “Ko'prik ustidagi ayol”, A.Volkovning “Zumrad choyxona” kabi ko'pgina asarlari bu davr tasviriy san'atining mashhur namunalaridan sanaladi. Yuqorida zikr etilgan rassomlar ijodidagi g'arb avangardligi va mahalliy estetikaning simbioz davri tugadi.

Shu yillarda O'zbekistonning rassomlari birinchi avlodning fidoyiligi tufayli milliy rassomchilik maktabi vujudga kelishiga imkon yaratish maqsadida turli tasviriy studiyalar tashkil etildi. Shunday qilib L.Abdullaev, B.Hamdamiy, O'.Tansiqboev, A.Abdullaev, Sh.Hasanova, M.Nabiyev, A.Siddiqiy, Ch.Axmarov va boshqalarning ijodiy yo'li boshlandi. XX asr 40-yillarining ahamiyatli ko'rinishlaridan biri yosh milliy rassomlarining jiddiy ijodiy yutuqlari bo'ldi. B.Hamdamiyning “Avtoportret”, L.Nasrettdinovning “Ona portreti”, A.Siddiqiyning “Kolxozchi portreti”, Sh.Hasanova, X.Raximov va L.Abdullayevlarning asarlarida o'zlariga yaqin bo'lgan insonlar obrazi orqali o'z xalqining eng yaxshi fazilatlari namoyon etildi.




O'rol Tansiqboev. Solorda bahor

XX asrning 50 yillarda O‘zbekistonda tasviriy san’atning yangi turlari shakllandi: monumental yozuv, dastgohli va landshaftli haykal, grafikaning turlicha texnikasi. Ammo, avvalgidek muhim o‘zgarishlar sezilib turgan rassomchilik yetakchi mavqega ega edi. San’atga rassomlarning yangi avlod kirib keldi. O‘zbekiston tasviriy san’atining rivojlanishidagi yangi bosqich A.Abdullayev, R.Ahmedov, N.Qo‘ziboyev, M.Saidov, M.Saidov, T.Oganesov, Yu.Elizarov, Ch.Axmarov va boshqa rassomlar bilan bog‘liqdir. Inson ichki dunyosiga chuqur nazar solish bilan birga yorqin individual va o‘ziga xos bo‘lgan obraz yaratish, portretning psixologik va badiiy janrini boyitadi. Bular qatorida A.Abdullayevning “A.Hidoyatov Otello rovida”, “Buvi va nabira”, R.Axmedovning “R.Timurovning portreti” nomli asarlari kiradi. Shu davrda peyzaj rassomchiligida O‘.Tansiqboev, N.Karaxan, R.Timurov, B.Tokmin, N.Qo‘ziboev, T.Oganesyan, O.Yelizarov va boshqalar faol ish olib borishgan. Rassomlar xalq turmushi va uning kundalik hayotiga ko‘proq e’tibor qaratdilar. R.Ahmedovning “Tong. Onalik”, M.Saidovning “Oila”, Z.Inog‘omovning “Choyga” va boshqa ko‘pgina asarlari shular jumlasidandir.

Ilk o‘zbek ayol rassomlardan biri Shamsroy Hasanova portret va natyurmort janrida samarali ijod qilib, bolalarning portretlari seriyasini (“Bog‘bon qizcha”, “Skriokachi qizcha”), “Avtorportret”, “Shar gul”, “Xitoy chinnisi” va boshqa asarlarni yaratdi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida ham L.Abdullayev, Sh. Hasanova, Karsinskaya kabi rassomlar ko‘tarinki ruh bilan ishlab, urush yillaridagi qahramonliklarni asos qilib olib yaratgan bir qator ajoyib haykallar, portretlar yuksak baho olgan edi.

An’anviy tasviriy printsiplari yangilanishga intilish, yangi ma’nodor shakllar izlash, ekspressiv ramziy ifodalar uslubini ishlatish 60-80 yillardagi san’atning ajralib turadigan xususiyatlari bo‘lib qoldi. Rassomlar asta-sekin o‘zlarini zanjirband qilib turgan shavqatsiz qonun-qoidalar va tartiblardan qutila boshladilar, asarlarida hayotni faylasuflarcha idrok etish ustivorlik qila boshladi. Bu jarayon san’atgan rassomlarning yangi avlodi R.Choriyev, B.Boboyev, V.Geurmakin, Yu.Taldikin, N.Shin va boshqalar shiddat bilan kirib kelgan 60-yillarning ikkinchi yarmiga to‘g‘ri keldi. 70-yillarda ijod qilgan rassomlarni o‘ziga xosuslubda yaratish, qat’iy va obrazlarga qiziqish, yuksak kasb madaniyati ajralib turibdi. Shu kabi asarlardan ekspozitsiyada quyidagilarni ko‘rish mumkin: R.Choriyevning “Kelinchak”, A.Perovning “Natyurmort”, V.Burmakinning “Kundalik hayot”, Yu.Taldikinning “Natyutmort”, G.Ulkoning “Kulolchi Jo‘raqulov portreti”, J.Izentayevning “Oq buloq”, J.Umarbekovning “Aqlli inson”, B.Jalilovning



R.Choriyev. Kelinchak

“Pazolini haqidagi xotiralar”, A.Mirzayevning “Avtoportretli natyutmort” va boshqalar.

80-yillarning oxirida milliy o‘ziga xoslik bilan bog‘liq bo‘lgan an‘analarga – qadimiy va o‘rta asr san‘atiga, xalq hunarmandchiligiga bo‘lgan qiziqish yangi uslublarni hayotga olib kirdi. Shunday hissiyotli uslub yaratish, novatorlik, o‘ziga xos ijodkorlikka intilish bilan ajralib turadigan polotnolardan A.Turdiyevning “Tog‘dagi tun”, A.Nurning “Kun va tun”, F.Isanovning “Karvon”, O.Kazakovning “1941 yil” va boshqalarni keltirish mumkin.

XX asrning 90-yillarida yangi badiiy jarayonning vujudga kelishiga shart-sharoit paydo bo‘ldi. Bu rassomlarning jamiyatdagi o‘zgarishlarga tabiiy aks sadosi edi.

Haykaltaroshlik sa‘natining yurtimiz hududida rivojlanishiga iste‘dodli haykaltarosh Damir Ro‘ziboyev katta hissa qo‘shgan. Uning ijodida shakl va hajmlarni xosligi, harakatlarni tabiiyligi bilan ta‘svirlanishi, u tanlagan mavzularning rang-barang va keng qamrovligi ham yaqqol seziladi. 1962-yilda ishlangan “Choyxona” asarida keksa va nuroniy chollar suhbat, harakatchat sharqona bir ko‘rinishda aks etilgan. Ijodkor 1975-yillargacha O‘zbekiston rassomlar ittifoqining haykaltaroshlik bo‘limini boshqargan. 1977-yildagi “Sozandalar” deb nomlangan asrada esa katta bir bayramona tus aks ettirilishi birga, obrazning o‘ziga xos harakati, xususiyati e‘tiborga molikdir.

Sovetlarning har qanday mafkuraviy tazyiqiga qaramay, milliy madaniyatning ajralmas qismi bo‘lgan xalq amaliy san‘ati rivojlandi. Jmladan, XX asrning 20-yillaridan kulollar mehnatini tashqil etishga e‘tibor berildi. Toshkentda tajriba kulollik, Samarqandda kulollik ustaxonalari ochildi. O‘zbekistonda badiiy bezatish usuli, shakli va tayyorlanish usullariga ko‘ra quyidagi kulolchilik maktablari shakllangan Farg‘ona (asosiy markazlari — Rishton, Furumsaroy), Buxoro-Samarqand (asosiy markazlari — Samarqand, Urgut, G‘ijduvon), Xorazm (asosiy markazlari — Madir, Kattabog‘ qishloqlari) hamda Toshkent kulolchilik maktablari. Har bir maktab o‘zining rivojlanish va ijodiy tamoyillari, yetakchi markaz va ustalari, o‘zigagina xos xususiyatlariga ega bo‘lish bilan birga asosiy badiiy umumiylikni ham saqlagan.

Farg‘ova (Rishton)da kulolchilikning an‘anaviy badiiy va ishlab chiqarish usullari qayta tiklandi, ishqorli sir tayyorlash yo‘lga qo‘yildi. G‘urumsaroy kulolchilik buyumlariga bezakning mahobatli oydinligi va soddalik xos. Buxoro-Samarqand kulolchilik maktabi buyumlarining jarangdor nafisligida qo‘rg‘oshinli sir va sarg‘ish-yashil, jigarrang bo‘yoqlar muhim o‘rin tutadi. «Afrosiyob sopoli» an‘analariga asoslanib tayyorlanilgan buyumlar bezagida o‘simliksimon naqshlar yetakchilik qiladi, handasiy naqshlar, hayvonlar tasvirlari kam ishlatiladi. Ular, asosan, G‘ijduvon kulolchiligida qo‘llaniladi. G‘ijduvon, Shaxrisabz ustalari mo‘yqalamda ishlasalar, Urgut, Denov ustalari chizma naqshlarni ko‘p qo‘llaydilar. Xorazm kulolchilik maktabi o‘ziga xos badiiylik, bezaklar rangi va ishlanish uslubi bilan boshqa maktablardan ajralib turadi; uning milliy shaklli o‘ziga xos buyumi bodiyadir; naqsh mujassamoti handasiy va o‘simliksimon

naqshlardan iborat, buyumning markaziy qismiga arabeska girih tushirish ushbu maktabga xos uslublardan.

O'zbek musiqa madaniyati ham du davrda o'ziga yo'l topib, rivojlanishda davom etdi. Yurt san'atkorlari milliy mumtoz musiqa san'atini rivojlantirishga, qo'shiqchilik, raqs va boshqa janrlar faoliyatini yaxshilashga butun choralar bilan harakat etdilar.

O'zbek teatri san'atida Sh.Burhonov, O.Xo'jaev, R.Hamroyev, S.Xo'jayev, Z.Muhammadjonov, Y.Ahmedov, S.Qobulova, G.Izmaylova, L.Sarimsoqova, B.Qoriyeva, bastakorlik san'atida Y.Rajabiy, T.Jalilov, M.Ashrafiy, I.Ikromov, S.Kalonov, T.Sodiqov, M.Burhonov, K.Otaniyozov, G'.Toshmatov milliy qo'shiqchilik san'atida J.Sultonov, M.Uzoqov, V.Fayozov, M.Ahmedov, T.Qodirov, K.Rahimov, F.Umarov, O.Xotamov, B.Davidova, X.Oxunova, N.Ahmedova, N.Yusupova, M.Yo'lchiyeva, M.Dadaboyeva, M.Razzoqova singarilarning betakror ijodi ayricha ahamiyat kasb etadi.

Sho'rolar davrida O'zbekistonda me'morchilik taraqqiyoti o'sha davr me'morchiligining umumiy xususiyatlaridan farq qilmas edi. Jumladan, 1935-yildagi Moskva shahrini qayta qurish bosh rejasi Markaziy Osiyo shaharlarining bosh rejalarini ishlab chiqishga asos bo'ladi. Bosh rejani amalga oshirishda Moskva va Sank-Peturburg me'morlari ham faol qatnashadi. 1929-yildan boshlab Inqilob maydoni, Kafanov bog'i, Lenin xiyoboni, Xiva skveri, Lenin yodgorligi, Bog'li parklar, Kuznetsov, G'alaba parki qurila boshlanib, to 1966-1974-yillar oralig'ida bitkaziladi.

Bu davrning yirik me'morlaridan biri S.Odilov (1932-2002) bo'lib, Toshkent bosh arxitektori (1961-1991), Toshkent, Andijon, Jizzax shahar rejaları (1970-1980), Xalqlar do'stligi saroyi (1977), sobiq O'zbek SSR Oliy Soveti binosi (1979), Toshkent metropolitenning barcha stansiyalari loyihalari muallifi.

1939-42, 1944-48 yillarda qurilgan Alisher Navoiy nomidagi Akademik opera va balet teatri binosi loyihasining muallifi akademik A.Shusev bo'lib, uning bezak ishlari Usta Shirin Murodov, A.Xudoyberganov, X.Boltayev va boshqalar tomonidan bajarilgan.

1966 yilgi zilziladan so'ng Toshkent shahri deyarli to'liq qayta qurildi. 1968-yilda ma'qullangan Toshkentni qayta tiklash loyihasi muallifi L.T.Adamov (1929-2014) bo'lgan.

Toshkentning ajralmas qismiga aylangan Kurant binosi 1974 yilda, me'mor A. Muxamedshin, Usta Shirin Muradov ishtirokida qurilgan. 2009 yilda yodgorlik rekonstruksiya qilinib, yonida yana bir kurant binosi barpo etildi.

Ushbu davrning eng mashur me'moriy yodgorligi o'z davrida O'rta Osiyodagi eng balaand inshoot sanalgan Toshkent teleminorasidir



(375 m). Uning qurilishi 1979 yilda boshlangan va 1981 yilda tugallangan. Minoraning noyob loyihasi me'morlar D.Y.Semashko, N.G.Terziyev-Sarukov, muhandislar E.P.Morozov, M.D.Musheyevlar tomonidan ishlab chiqilgan.

1968-70 yillarda Toshkent metropolitenining barpo etilishi ham ushbu davr me'morchiligining taraqqiyotida muhim o'rin egallagan. 1977 yilda 9 stansiyadan iborat birinchi metro liniyasi barpo etilgan bo'lib, har bir bekat o'ziga xos uslubda ishlangan. Jumladan, "Alisher Navoiy" bekati Ch.Ahmarovning suratlari bilan bezatilgan.

Bugungu kunda "Istiqlol san'at saroyi" deb nom olgan O'zbekistonning bosh konsert zali 1981 yilda me'mor Y.Rozanov loyihasi asosida barpo etilgan.

Nazorat savollari.

1. Sho'rolar davridagi mafkuraviy jarayonlarning madaniy taraqqiyotga ko'rsatgan ta'sirini tahlil qiling.
2. Milliy madaniyatning sho'ro madaniyatiga moslashuvi haqida gapirib bering.
2. Sovet davrida xalq ta'limida qanday o'zgarishlar yuz berganini tavsiflang?
3. Sovet mustamlakachiligi davridagi adabiyot taraqqiyoti haqida nimalarni bilasiz?
4. Urush yillarida madaniyat va san'at ga'alabaga qanday hissa qo'shganligini baholang
5. Sho'rolar davrida me'morchilik rivoji o'z davrining qanday xususiyatlarini aks ettirgan?

10 - mavzu: Mustaqillik yillarida O'zbekiston madaniyati va san'ati

Reja:

1. Mustaqillik va milliy madaniyatning tiklanishi.
2. Mustaqillik O'zbekistonning madaniy taraqqiyoti
3. Mustaqillik davri me'morchiligi

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:

Mustaqillik, mustaqillik madaniyati, ma'naviy-ma'rifiy islohotlar, Ma'naviyat va ma'rifat markazi, milliy madaniy markazlar, milliy madaniyat, me'morchilikdagi yangi badiiy konstruktiv yechimlar, me'moriy majmualar, tarixiy portret va kompozitsiyalar, ikonagrafik portretlar, amaliy san'at, "O'zbekiston xalq ustasi" unvoni, yog'och o'ymakorligi.

Mustaqillik va milliy madaniyatning tiklanishi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng demokratik fuqarolik, odil jamiyat qurish maqsad qilib olindi. Madaniyat komi! insonni shakllantirishga xizmat qila boshladi. Bu borada ulkan tarixiy va jahonshumul ishlar amalga oshirildi. Jumladan:

- qadimiy tariximizning haqqoniy, chuqur va har tomonlama o'rganilishi,

tarixiy mavzulardagi sovet davrida taqiqlangan asariamning chop etilishi xalqimiz milliy-tarixiy ongini shakllantirishda muhim rol o'ynamoqda,

- sho'rolar davrida man qilingan yoki cheklangan madaniy qadriyatlar: tarixiy xotira, milliy ong, milliy ruh, diniy e'tiqodlar, xalq odatlari, davlat tili, xalq ijodi, milliy o'yinlar, tarixiy me'morchilik san'ati, ko'pgina an'anaviy ijod turlari tiklandi;

- xalq odatlari, marosimlari va bayramlari (Navro'z, Ro'za hayiti, Qurbon hayiti kabilar) ning tiklanishi va yangi bayramlar (Mustaqillik kuni, O'qituvchi va murabbiylar kuni, Xotira va qadrlash kuni kabilar) ning joriy etilishi xalq ma'naviy hayotiga yangi ruh va mazmun bag'ishlamoqda;

- diniy qadriyatlarning tiklanishi, eski machit va madrasalarning ta'mirlanishi, yangilarining barpo etilishi, diniy adabiyotlar nashr etilishiga keng imkoniyatlar yaratilishi respublikamizda vijdon erkinligini ta'minlamoqda;

- o'zbek tilining davlat tili darajasiga ko'tarilishi dilni quvontirmoqda. O'z navbatida, jahon tillarini o'rganish ehtiyoji bizni olamga yuz tutishimizga, jahon hamjamiyatiga qo'shilishga, umuminsoniy qadriyatlarni yanada kengroq o'zlashtirishimizga yordam bermoqda;

- xalq ijodi, milliy amaliy san'atimiz jonlanib, rivoj topib, vatandoshlarimiz va xorijliklarni lol qoldirmoqda. Xalq ijodi bo'yicha respublika va xalqaro anjumanlarning o'tkazilishi, ajdodlarimiz merosi, milliy-axloqiy madaniyat durdonalari yoshlarni tarbiyalashda muhim omil bo'lmoqda. Bu borada o'tkazilayotgan rang-barang tadbirlar, jumladan, ko'riklar va tanlovlar, anjumanlar vatanimizda xalqimizning boy ijodiy merosiga katta e'tibor berilayotganligidan dalolat beradi.

- Respublikamizda madaniyat sohasining yangi tizimi vujudga kela boshladi. Jumladan, Respublika "Ma'naviyat va ma'rifat" kengashi, "Ta'lim markazi", "O'zbekkino", "O'zbeknavo", "O'zbekraqs", "O'zbekmuzey", "O'zbekteatr", Badiiy akademiya, Milliy madaniy markazlar kabi ko'plab madaniy-ma'rifiy tashkilotlarning tuzilishi respublika ma'naviyati asosiy sohalarining ravnaq topishiga zamin bo'ldi.

- ko'plab nodavlat. notijorat tashkilotlari vujudga keldi;

- jahon madaniyatiga munosib hissa qo'shgan ajdodlarimiz vakillari tavalludlarining yirik sanalarini nishonlash ham xalqimizning eng ulug'vor an'alariga aylanmoqda. Masalan, YUNESKO orqali xalqaro miqyosda Bahouddin Naqshband, Bobur, Mirzo Ulug'bek, Zamahshariy, Imom al-Buxoriy kabi ko'plab mutafakkirlarining tavallud sanalari, «Alpomish» eposining 1000 yilligi, «Avesto»ning 2700 yilligi kabi sanalarga bag'ishlangan tadbirlar, O'zbekistonning qadimgi shaharlari yubileylari keng nishonlandi.

O'zbekistonda bo'lib o'tayotgan Toshkent kinofestivali, «Sharq taronalari» (Samarqand), «Teatr festivali», «Simfonik musiqa festivali» kabi xalqaro anjumanlar ham madaniyat bayramlari sifatida xalqimiz qalbidan jiov olib ulgurdi.

Mustaqillik yillarida o'tkazilayotgan «Yagonasan, muqaddas Vatan», «Kelajak ovozi», «Vatan yagonadir, Vatan bittadir», «Yangi nomlar» va boshqa ko'nk-tanlovlarning o'z yo'nalishi, o'ziga xos maqsad va vazifalari bor.

O'zbek madaniyatining xalqaro nufuzi osha boshladi. Eng avvalo, ajdodlarimiz merosini tiklash bo'yicha qilinayotgan keng ko'lamli ishlarimizni jahon hamjamiyati tan olmoqda. Bu boradagi olamshumul ishlarimizni o'rganish uchun dunyoning ko'pgina mamlakatlari, chunonchi, Amerika, Norvegiya, Gollandiya, Fransiya, Olmoniya, Turkiya kabilardan tashrif buyurgan mutaxassis olimlar ham amalga oshirilayotgan ishlarga tahsin aytmoqdalar.

O'zbek san'ati jahonga tanilmoqda, ko'plab folklor jamoalari, jumladan. Toshkentning «Kamalak», Andijonning «Sumalak», Xorazmning «Meros» kabi folklor-etnografik ansambllari xorijiy mamlakatlarga tashrif buyurib, xalqaro anjumanlarda qatnashib, ajnabiylar e'tiboriga nodir san'atimiz durdonalarini havola etishmoqda. Chet ellarda o'zbek xalq madaniyati va ijodiga oid ko'plab kitoblar, maqolalar chop etilmoqda. O'zbek xalq ertaklari, maqollari, iboralari, afsonalarining Xitoy, Eron, Turkiya, Germaniya va AQSHda nashr etilgani quvonchli holdir. Vatanimizda xalq madaniyatini taraqqiy ettirish borasida ulkan tarixiy ishlar amalga oshirilganligini butun jahon tan olmoqda. Shuni bemalol aytishimiz mumkinki, mustaqil O'zbekiston madaniyatining yangi mustahkam poydevori yaratildi.

Xullas, mustaqillik sharofati bilan xalq ijodining rang-barang turlarining tiklanishi - xalqimizning tarixiy ongi, milliy ma'naviyatini shakllantirish va ravnaq toptirishda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Bir tuzumdan ikkinchi tuzumga o'tish davrida hayotning boshqa jabhalari kabi madaniyat sohasida ham jiddiy o'zgarishlar, islohotlar amalga oshirila boshlandi.

O'zbekiston xalqining maqsadi - kuchli davlat asosida kuchli jamiyat qurish. Bundan kelib chiqib, mamlakatimiz madaniyat sohasidagi islohotlarning ham asosiy yo'nalishi madaniyat va san'at muassasalarini davlat tasarrufidan chiqarib, ularni nodavlat va jamiyat tashkilotlariga aylantirish, jamiyat va inson manfaati asosida xizmat qiluvchi yangi jamiyatlar, uyushmalar, markazlar va jamg'armalar tuzishdan iborat.

O'zbekiston madaniyat tashkilotlari va muassasalari tizimida ikki yo'nalish paydo bolmoqda: 1) Davlat tashkiloti va muassasalari; 2) Nodavlat va jamoat tashkilotlari. O'zbekiston madaniyati tizimidagi tashkilotlarda hozirgi davrda tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda, muhim tashkiliy ishlar hal etilmoqda, ish mazmuni va shakli yangilanmoqda; jiddiy izlanishlar olib borilmoqda, jahon tajribasi o'rganilmoqda va tajribalar orttirilmoqda; yangi sharoitda moddiy va iqtisodiy muammolar hal qilinmoqda.

Davlat tasarrufidagi ishlarga O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi bosh-qosh bo'lmoqda va ulkan ishlarni amalga oshirmoqda.

Jamiyatimiz madaniyat va ma'rifat «bino»sini baquwat va go'zal bo'lishi uchun hali ko'p ishlarni amalga oshirishimiz lozim bo'ladi. Bu sohada bajarilishi lozim bo'lgan ishlar talavgina Ularning ba'zilariga to'xtalamiz:

1. Respublika va viloyatlar darajasida ulkan ishlar amalga oshirilayotgan bo'lsa ham, ba'zi joylarda, jumladan, tuman, mahalla va qishloqlarda jiddiy e'tibor berish lozim bo'lgan ishlar mavjud. Ko'pgina joylardagi mahalliy rahbarlar hanuzgacha madaniyat sohasi yetarlicha e'tibor berishmayapti;

2. O‘zbekiston hududlarining mushtarakligini ta‘minlashda madaniyat va san‘atning o‘rni katta. Bu borada «Viloyatlar kuni», ya‘ni viloyatlarda bir- birining kunlarini o‘tkazish yaxshi samara beradi. Bunday tadbirlarni tumanlararo ham o‘tkazish mumkin;

3. Hozirgi davrda yoshlar ma‘naviyatiga alohida e‘tibor berish lozim bo‘lmoqda. Ba‘zi yoshlar ongida va ma‘naviy hayotida bo‘shliqning paydo bo‘lishiga mahalliy madaniyat muassasalarining talab darajasida ishlamayotganligi sabab bo‘lmoqda. Klublar, madaniyat uylari, kutubxonalar istirohat bog‘lari mahalliy aholi va yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishga va ulami g‘oyaviy, ma‘naviy kamol topishiga samarali xizmat qilishi lozim.

Madaniyat tizimining moddiy negizini yaxshilash muhim muammolarning bin sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bu borada ko‘pgina ishlar amalga oshirilayotgan bo‘lsa-da, hali qator muammolar ham mavjud:

a) madaniyat sohasida tuzilgan yangi (davlat, jamoa va nodavlat) tashkilotlariga hukumatuniz katta mablag‘lar ajratgan. Ularga moddiy va ma‘naviy yordam berib turilibdi, mablag‘ini ko‘paytirish maqsadida tijorat ishlarini olib borishga ruxsat berilgan, soliqdan ozod etilgan. Biroq ular ishni yo‘lga qo‘yish uchun ajratilgan mablag‘lardan maqsadga muvofiq foydalanishmayapti. Ishga eng zaruriy narsalar o‘rniga bu tashkilotlarning rahbarlari o‘zlari uchun qulayliklar yaratishmoqda. Shuningdek, madaniyat tizimi o‘zini o‘zi mablag‘ bilan ta‘minlash ishlarini ham yaxshi yo‘lga qo‘yishi zarur;

b) madaniyat va san‘at sanoati yo‘lga qo‘ymasdan bu sohani taraqqiy ettirib bo‘lmaydi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida kino sanoati (ssenariy yaratish, kino olish, ularni targ‘ib qilish, ijara ishlarini amalga oshirish), musiqa sanoati (musiqiy asarlarni yaratish, ijro qilish, ovoz yozib olish va ulami tarqatish), tasviriy san‘at sanoati (tasviriy durdonalar yaratish, ularni targ‘ib qilish) ko‘rgazma-savdolar, auksionlar uyushtirish) kabilarni yanada yaxshi yo‘lga qo‘yish zarur bo‘lmoqda;

d) madaniyat tizimi faoliyatini yaxshilash uchun unga, albatta, ko‘proq faol qiziquvchi, tashabbuskor va izlanuvchi ijodkorlarni jalb etish muhim ahamiyatga ega. Ko‘pgina joylarda madaniyat sohasida hamma ishlayverishi mumkin, degan tushuncha mavjud. Bunday tushuncha bilan madaniyatni rivojlantirib bo‘lmaydi. Madaniyat jonkuyar, tashabbuskor tashkilotchilar bilan tirik. Ularsiz madaniyat tizimi ishlay olmaydi va inqirozga uchraydi.

Mustaqillik O‘zbekistonning madaniy taraqqiyoti

Mustaqillik yillarida an‘anaviy madaniyatga e‘tibor kuchayib, O‘zbekiston Prezidenti farmoni bilan bir qator yangi korxonalar vujudga keldi. 1997-yil «Musavvir» Ilmiy-tekshirish markazi qoshida «Hunarmand» Assotsiatsiyasi tashkil qilib, respublikadagi turli hunarmandchilikda ijod qilib kelayotgan ustalarni qamrab oldi. Bugungi kunda an‘anaviy hunarmandchilikning yo‘qolish arafasida turgan turlarini, mahalliy markazlarini tiklash jarayoni ketyapti. Hozirgi kunda badiiy kulolchilik, kandakorlik, zargarlik, zardo‘zlik, an‘anaviy to‘qimachilik, kashtachilik, gilamdo‘zlik, do‘ppichilik, yog‘och va ganch o‘ymakorligi, naqqoshlik kabi turlar juda rivojlangan. Yetakchi kulollar A.Rahimov, S.Otajonov,


Sh.Yusupov, R.Usmonov, A.Isoqov, Narzullayevlar, R.Zuhurov; kandakorlar M.Madaliyev, D.Holidova, G.Rahmatova, U.Aliyev, O.Umarov; zargarlar F.Dadamuhamedov, G.Yo'ldosheva, G.Tosheva; ganchkorlar M.Murodov, X.Abdullayev, A.Muxtorov; yog'och o'ymakorlar S.Xo'jayev, M.Ibrohimov, O.Fayzullayev, A.Azlarov, S.Rahmatullayev; zardo'z B.Jumayev; kashtachi Z.Obloberdiyeva va boshqalar samarali ijod qilmoqdalar.

Mustaqillik davrida noan'anaviy amaliy bezak san'at turlari ham rivojlanib kelyapti. Masalan, toshkentlik kulol N. Qo'ziyevaning asarlari shu uslubda mo'jazgina ishlangan. O'zbekiston zargarlik maktabining vakillari orasida E.Gostyev, U.Xolmurodov, A.Ulumbekovalar hozirda zamonaviy, noan'anaviy yo'nalishda ijod qilmoqdalar.

Mustaqillik davri rangtasvir san'ati turli-tuman uslublar ko'lamining kengligi bilan farqlanadi. Akademik realizm, dekorativizm, milliy romantizm, abstraksionizm, instalyatsiya ko'rinishlari ko'p jihatdan ijodiy dunyoqarashning kengayishidan dalolat beradi. 1997-yilda O'zbekiston Badiiy akademiyasining tashkil etilishi tasviriy san'atning turli sohalarini rivojlanishida katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Mustaqillik davrida tasviriy san'atning turli sohaları va janrlari rivojlanib bordi. Masalan, ushbu davr haykaltaroshligida, asosan, tarixiy siymolar gavdalandi va ularning soni ko'payishi barobarida uslub jihatlarining yangilanishi ham bir qator asarlarda ko'zga tashlandi. A. Rahmatullayev, L. Ryabsev, I. Jabborov, R.Mirtojiyev, J.Kuttimurodov, K. Norxo'rozov kabi haykaltaroshlar mahobatli, A.Xotamov, E.Esanov, S.Sharipov kabi rassomlar esa dastgohli haykaltaroshlikni rivojlantirishga harakat qilishdi. Jumladan, I.Jabborov va K.Jabborovlar tomonidan Toshkentda Amir Temurning otliq haykali, Samarqand va Shaxrisabzda Amir Temur haykallari, Farg'ona va Quvada al-Farg'oniy (1998), Xorazmda Jaloliddin Manguberdi haykallari (1999) yaratildi. Haykaltarosh R.Mirboshiev ijodiga mansub «Z.M.Bobur» (1993, Andijon), «Abdulla Qodiriy» (1994, Toshkent), «Cho'lpon» (1997, Andijon), «Ona» (1999, Jizzax shahri) kabi bir qator haykal va yodgorliklar yaratildi. 1999 yilda Termizda «Alpomish» haykali va majmua-kompozitsiyasi (A.Raxmatullaev va boshqalar) bunyod etildi.

Mustaqillik yillarida uslubiy jihatdan o'ziga xos rassomlar guruhi shakllandi. Rassomlar ijodida jiddiy evrilishlar sodir bo'lmoqda. Yangi plastik izlanishlarda ertagu dostonlar, xalq og'zaki ijodiyoti, turli xil rasm-rusum va marosimlar bilan bog'liq belgilar hamda ramzlar ular rangtasvirining yangi bosqichini belgilab berdi. Ushbu davrda serqirra ijod qilgan rangtasvirchilardan R. Ahmedov, N. Qo'ziboyev, R. Choriyev, M. Nabiyev, A. Ikromjonov, B. Jalolov, S. Raxmetov,



Аждоғлар эгуи мадақдор бўлсин. Самарқанддаги
Амир Темур хайкали.

A. Mirzayev, N. Shin, V. Oxunov, J. Umarbekov, S. Alibekov. A. Isayev, J. Usmonov, N. Shoabdurahimovlarni keltirib o'tishimiz mumkin.

Bu davrdagi mahobatli sanatning rivojlanishi ijodiy erkinlik, badiiy merosimizni boy an'alariga murojaat qilish bilan bog'liq. Yangi ma'muriy-ijtimoiy inshootlar, ko'ha binolarni qayta ta'mirlash hamda yangi shahar ansambllarini barpo etish ishlarining jadallashib ketishi bilan mahobatli rangtasvirchilar ijod vositalarining yangi imkoniyatlarini qidirib topishga bo'lgan yondashuvlari sezilarli darajada faollashdi. Mahobatli san'at sohasida ijodiy izlanishlar olib borgan rassomlardan A.Aliqulov, O.Xabibullin, «Sanoyi-nafisa» guruhi, A.Buxorboyev, A.Axmedshin kabi rassomlarni aytishimiz mumkin.

Mustaqillik yillari ko'plab tadbirlar, xalqaro ko'rgazmalar, ko'rik-tanlov, festivallar o'tkazish an'anaga aylandi. 2001 - 2003-yillardan uyushtirila boshlangan Toshkent Xalqaro Badiiy ko'rgazmasi «Biyennale» ham katta ahamiyatga ega.

Ko'rgazmada o'zbekistonlik rangtasvir ustalari bilan birga dunyoning ko'plab mamlakatida ijod qilayotgan taniqli mo'yqalam ustalari o'z asarlari bilan qatnashishdi. Xalqaro anjumanda san'at tanqidchilari, ommaviy axborot vositalari vakillari, AQSH, Fransiya, Yaponiya, Koreya, Misr, Shveysariya, Germaniya, Rossiya, Qozog'iston, O'zbekiston, Turkmaniston, Estoniya, Gruziya, Qirg'iziston va boshqa mamlakatlar rassomlari ishtirok etishdi.

Shuningdek, xorijlik san'atshunoslar, olimlar va tanqidchilar ishtirokida Toshkent Xalqaro badiiy ko'rgazmasi doirasida «Zamonaviy badiiy jarayon — dolzarb muammolar va yo'nalishlar» mavzusida o'tkazilgan ilmiy-amaliy anjuman tasviriy san'at muammolarini hal qilishga xizmat qildi. Toshkent «Biyennale»si XXI asr Sharq va G'arb san'ati uyg'unligidagi yangi g'oyalarning rivojlanishiga o'z hissasini qo'shmoqda.

«Shu aziz Vatan - barchamizniki» mavzusidagi respublika festivalida respublikamizning barcha viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasi san'atkorlari o'zlarining san'at va madaniyat sohasida erishgan yutuqlarini namoyon etishdi. Respublikamiz jamoatchiligiga ayniqsa, Qashqadaryo, Andijon, Jizzax, Xorazm, Toshkent shahri va qoraqalpog'istonliklarning ko'rgazmalari manzur bo'ldi. Jumladan, Toshkent shahrining ilg'or xalq amaliy san'at ustalari, haykaltarosh va rassomlari, shuningdek, ishlab chiqaruvchilari mahsulotlarining namunalari taqdim etildi.

Mustaqillik yillaridagi ko'rgazmalarda M.Nabiyev, A.Ikromjonov, R.Choriyev, R.Ahmedov, N.Qo'ziyoyev, N.Shin, B.Bo'boev, J.Umarbekov, B.Jalolov, V.Burmakin, L.Ibrohimov, haykaltaroshlar A.Hotamov, T.Tojixojayev, D.Ro'ziyoyev, M.Borodina, grafik rassomlar M. Kagarov, A. Mamajonov, M. Sodiqovlar, yosh rassomlar D. Oxunboboyev, A. Ivanova, A. Nikolayev, M. Aliyev, V. Nechayeva, X. Ziyoxonov, X. Inog'omova, G. Alimatova, K. Boboyev kabi ko'plab taniqli san'atkorlar ijodi barchaga manzur bo'lmoqda. Shuningdek, A. Nur, V. Oxunov, G. Qodirov, G.Boymatov, R. Gagloyeva. J. Usmonov, A. Isayev, E. Is'hoqovlarning yangi, qiziqarli asarlari tomoshabinda katta qiziqish uyg'otmoqda.

Musavvirlarimiz yangi tarixiy bosqichda madaniy aloqalarni qayta tiklash, yagona ma'naviy makon yaratishga yo'naltirilgan uslub va yo'nalishlarni umuminsoniy tamoyillarga bo'ysundirishga intilmoqda.

So'nggi yillarda kelajak poydevorini bugundan baho etish maqsadida, yoshlarga va o'sib kelayotgan yangi avlodga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bularni bo'lib o'tayotgan festivallar, tanlovlar, badiiy ko'rgazmalar misolida ko'rishimiz mumkin. An'ana tusiga aylanib qolgan «San'at haftaligi», «Ustoz-shogird», «Xalqaro bolalar rasmlari biyennalesi» kabi qator ko'rgazmalar shular jumlasidandir.

Ushbu ko'rgazmalarning barchasida tanlovlar e'lon qilingan bo'lib, birlari bilan ijodiy raqobatga kirishgan yoshlarni ma'naviy rag'batlantirish orqali iqtidorlar tanlab olinmoqda va ularga keng imkoniyatlar yaratilmoqda.

Shuni guvohi bo'lamizki, yosh rassomlar o'z qiziqishlari va intilishlariga ko'ra hamohang mavzu va o'z uslublarini tanlashlari mumkin bo'lsa-da, akademik san'at poydevor vazifasini o'tamoqda. Yosh rassomlar ijodida o'ziga xos milliy san'at rivojlanganligi kishini quvontiradi. Shuningdek, jahon zamonaviy san'atining yangi shakllari va konseptual g'oyalari bilan muloqotlari faolligini yuqori baholash mumkin.

Mustaqillik yillari o'zbek an'anaviy musiqasiga e'tibor yanada kuchaydi. Milliy qadriyatlar, urf-odatlar va marosimlarning tiklanishi musiqa sohasida ham ancha o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Qadimiy milliy musiqaning boy badiiy-tasviriy vositalari bilan bir qatorda, yangi janr va turlarini o'zlashtirish natijasida o'zbek musiqa san'ati yuksak darajaga ko'tarildi. O'zbek musiqa san'ati shu kunga qadar ikki asosiy qatlamda yetib kelgan bo'lib, biri «xalq musiqasi» yoki «musiqiy folklor», ikkinchisi «mumtoz-kasbiy» yoki «ustozona» musiqa deb yuritiladi.

Mustaqillik davridagi zamonaviy O'zbekiston musiqa san'ati o'ziga serqirra ijodiy izlanishlarni qamrab olgan. An'anaviy monodiya qadriyatlari va yevropazamin ko'povozh musiqa yo'nalishlarini o'zlashtirish, ularga yanada yangi talqin berish — dolzarb masalalardan biri.

O'zbekistonda an'anaviy uslubdagi xonandalardan M.Uzoqov, J.Sultonov, K.Otaniyozov, O.Alimaxsumov, O.Otaxonov, O.Imomxojayev, F.Mamadaliyev, B.Davidova; zamonaviy-milliy yo'nalishda kuylovchilardan K.Rahimov, Sh.Jo'rayev, G'.Yoqubov; estrada xonandalaridan B. va F.Zokirovlar, N.Abdullayeva, O.Nazarbekov kabilar; sozandalardan - T.Alimatov, G'.Hojiqulov, A.Ismoilov va boshqalar; musiqali drama, opera va balet solistlari - L.Sarimsoqova, H. Nosirova, S.Qobulova, K.Zokirov, G'.Abdurahmonov, N.Ahmedova, S.Yarashev, E.Yo'ldoshev, N.Hoshimov; dirijyorlar - M.Ashrafiy, Shamsiddinov, D.Abdurahmonova, Z.Haqqazarov kabilar taniqli.

Musiqali anjumanlar mazkur san'at rivojiga munosib hissa qo'shmoqda. 1996-yil 27-avgust kuni Yurtboshimizning «O'zbekiston - Vatanim manim» qo'shiq bayrami haqida maxsus Farmoni e'lon qilindi. Unda «O'zbekiston - Vatanim manim» qo'shiq ko'rik-tanlovining xalqimiz madaniy-ma'naviy hayotida unutilmas voqea bo'lgani, minglab vatandoshlarimiz tomonidan zo'r mamnuniyat va ko'tarinki ruh bilan qo'llab-quvvatlanganligi qayd qilindi va har yili avgust

oyining uchinchi yakshanbasi «O‘zbekiston — Vatanim manim» qo‘shiq bayrami kuni deb e‘lon qilindi. Xalqning qo‘shiqqa bo‘lgan ehtiyoji kuchli bo‘lgani va respublika rahbariyatining qo‘shiqchilik san‘ati rivojiga e‘tibori asosida bu bayram har yili nishonlanib kelinmoqda. Bu ko‘rik-tanlov bosqichma-bosqich: o‘quv yurtlari va tashkilotlarda, mahalla, qishloq va shaharlarda, tuman va viloyatlarda, shuningdek, mamlakat poytaxtida ko‘tarinki mhda o‘tkazilmoqda.

O‘zbek musiqa madaniyati jahonga yuz tutmoqda. «Sharq taronalari» musiqa festivali, «Musiqiy-simfonik festival» xalq musiqa ijodiyotining turli janrlariga bag ishlangan ko‘rik-tanlov, festivallar dunyoning turli mamlakatlaridan kelgan mehmonlarda ham katta taassurot qoldirmoqda.

Samarqandning yuragi hisoblangan ko‘hna Registon maydonida bo‘lib o‘tadigan an anaviy «Sharq taronalari» xalqaro musiqa festivalining obro‘yi tobora oshmoqda. O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan asos solingan, har ikki yilda bir narta o‘tkazilayotgan mazkur an‘anaviy festival o‘zbek mumtoz musiqa madaniyatini jahonga yanada kengroq tanitish, ayni paytda dunyo musiqa madaniyati yangililarini yurtimizda namoyish etishda katta xizmat qilmoqda. YUNESKO bu anjumanni o‘z rahnamoligiga oldi. O‘tgan davr ichida festival xalqaro hamjamiyatda katta obro‘, nufuzga ega bo‘ldi. Festival xalqlar o‘rtasida madaniy xilma-xillikni targ‘ib etish vositasiga aylandi.

Jahon sivilizatsiyasining beshiklaridan birida o‘tayotgan «Sharq taronalari» musiqa festivali xalqaro miqyosda e‘tibor qozonib, nafaqat Sharq, balki G‘arb dunyosidagi ko‘plab san‘at nainoyandalarini ham o‘ziga jalb etayotgani mazkur anjumanning qisqa muddat ichida ajoyib an‘ana va katta nufuzga ega bo‘lib borayotganidan dalolat beradi.

Bu festival jahon ahlining o‘zaro madaniy muloqotga bo‘lgan hayotiy ehtiyojini, har bir xalq, har bir millat ruhida azaldan yashab kelayotgan yaxshilik, go‘zallik va nafosatga intilish hissini ro‘yobga chiqarishda beqiyos vosita bo‘lib xizmat qilmoqda.

«Yangi avlod» festivali san‘atga endi kirib kelayotgan yoshlarni kashf etdi va etmoqda. Yosh talantlaniing «Nihol» ko‘rik-tanlovi esa nafaqat musiqa olami, balki oddiy xalqning ham sevimli bayramlaridan biriga aylanib ulgurgan va katta mavqega ega. O‘zbekiston davlat san‘at instituti talabalari ishtirokida «To‘da», «Xonuma», «Halima», «Romeo va Julietta» kabi musiqali spektakllar sahnalashtirildi.

Mustaqillik davrida o‘zbek teatrining turlari va janrlari rivojlanmoqda. Yoshlar, bolalar va qo‘g‘irchoq teatrlari aloliida mavqega ega.

Mustaqillik sharofati bilan tiklangan milliy qadriyatlar, jamiyat ma‘naviyati haqidagi yangilangan tushunchalar, tarix va zamonaviylik muammolari ushbu teatrlar diqqat-e‘tiborida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbek teatr san‘atini rivojlantirish to‘g‘risida»gi 1998-yil Farmoni milliy teatr san‘atining istiqbolini belgilab bergan hujjat bo‘ldi. «O‘zbekteatr» ijodiy ishlab chiqarish birlashmasi o‘z faohyatini milliy tomosha va teatr san‘atining eng yaxshi an‘analarini asrab-avaylashga hamda boyitishga yo‘naltirdi.

Mustaqillik davrida O‘zbek teatr san‘ati milliy qadriyatлами tildashga qo‘I

urdi. Bir zamonlar qoralangan asarlar teatrlarda sahnalashtirildi, yangi asarlar yaratish harakati boshlandi. Turli teatrlarda Fitratning «Abulfayzxon» tragediyasi, To'ra Mirzoning «Amir Temur» dramasi, Cho'lponning «Kecha va kunduz» romani, «Yorqinoy» dramasi, Abdulla Qodiriyning «O'tkan kunlar» va «Mehrobdan chayon» romanlan asosida sahna asarlari yaratildi. Umuman, o'zbek teatr madaniyati yanada rivojlandi. O'zbek san'atkorlari xorijiy mamlakatlarga gastrollarga bormoqdalar. Zamonaviy o'zbek teatri san'atiga hissa qo'shgan namoyandalardan dramaturg- lar-M. Boboyev, Sh. Boshbekov, E. Samandarov va boshqalar; rejissyorlar- dan - N. Abdurahmonov, R. Yoriyev, B. Yo'ldoshev, N. Otaboyev, O. Salimov, V. Shapiro, R. Hamidov va boshqalar; rassomlardan - G. Brim, B. Kim, S.Salimov, B.To'rayev, T.Shorahimov va boshqalar; dirijyorlardan - D.Abdurahmonova, E. Toshmatov, N. Xalilov, H. Shamsiddinov va boshqalar; raqs ustalari - G. Izmaylova, M. Is'hoqova, I. Yusupov va boshqalarni ko'rsatish mumkin. Teatr san'atining rivojlanishiga hissa qo'shgan aktyorlardan Ya.Abdullayeva, M. Abduqunduzov. T. Azizov, Sh. Azizova, Yo. Ahmedov. X.Boboxonova, Z. Davletmuradova, Ye. Dmitriyeva, G.Jamilova, J.Zokirov, R.Zokirova, D.Ismoilova, M. Ixtiyorova, E. Komilov, E. Malikboyeva, E. Nosirov, M. Razzoqova, S. Rametova, A. Rafiqov, G. Rahimova, M. Teshaboyeva, N. Toshkenboyeva va boshqalarni aytishimiz mumkin.

Mustaqillikning 10 yilligi arafasida O'zbek Davlat Akademik drama teatrining yangi binosi ochildi. O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov taklifi bilan ushbu teatr «O'zbekiston Milliy akademik drama teatriga aylantirildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekteatr» ijodiy- ishlab chiqarish birlashmasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi qaroriga (1998- yil, 22-may) asosan Respublikadagi mavjud 37 ta teatrlarni birlashtiradigan yagona tizim vujudga keldi.

Respublika va Xalqaro miqyosda festivallar, tadbirlar, ijodiy va xotira kechalari, teatrlarning tashkil topgan sanalari tantanali ravishda o'tkazildi.

Mustaqillik tufayli tarixiy qadriyatlarni tiklash, o'zlikni anglash, ma'naviy boyliklarga intilish o'zbek teatrining ham muhim vazifasiga aylandi. Sahnamizda buyuk Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy obrazlari yangicha talqin qilindi. Al-Farg'oniy, Al-Buxoriy, Jaloliddin Manguberdi, Feruz kabi ulug' ajdodlarimizga bag'ishlangan asarlar keng shuhrat qozondi.

Respublika teatrlari haryili 130 dan ziyod turli mavzu va janrlarda spektakllar sahnalashtiradi. Bular asosan tarixiy, afsonaviy mavzulardagi spektakllardir.

1998- yili Xalqaro miqyosda keng nishonlangan buyuk vatandoshlarimiz hayoti va faoliyati hamda «Alpomish» dostonining 1000 yilligi munosabati bilan qator sahna asarlari yaratildi. O'zbekiston Milliy akademik drama teatrida sahnalashtirgan dramaturg Hayitmat Rasulning «Piri koinot», Farg'ona viloyati Yu. Shakaijonov nomidagi musiqali drama teatrida sahnalashtirgan «Osmonga sig'magan muhabbat», Samarqand viloyati H. Olimjon nomidagi musiqali drama teatrida sahnalashtirgan Usmon Qo'chqorning «Imom Buxoriy», Andijon viloyati Y. Oxunboboyev nomidagi musiqali drama teatrida sahnalashtirgan «Alpomishning qaytishi», Xorazm viloyati Ogahiy nomidagi musiqali drama

teatrida sahnalashtirigan Erkin Samandarovning «Jaloliddin Manguberdi» kabi asarlari Respublikamiz ma'naviy hayotida katta voqea bo'ldi.

Toshkentda «Sharq va G'arb», «Humo» kabi yirik xalqaro teatr festivallari o'tkazilishi o'zbek rejissurasi, aktyorlik san'atining yirik yutuqlari, mahorat o'rganish, tajriba almashinish maktabi vazifasini o'tadi. «Humo» festivali marafoni Toshkentda muvaffaqiyatli o'tib, Germaniya, Gruziya, Rossiya va boshqa mamlakatlar teatr jamoalarining o'zaro ijodiy uchrashuvi maskaniga aylandi. 1996-yil Amir Temur tavalludining 660 yilligiga bag'ishlangan «Navro'z» teatr festivalining muvaffaqiyati xalqaro ahamiyatga molik bo'ldi. «Andijon bahori», «37+1», «Debut» teatr festivallari san'at muxlislari uchun haqiqiy tuhfa bo'ldi. Havaskorlik teatrlari ham rivojlanmoqda. Talabalar havaskorlik teatrlarining «Nihol» festivali katta qiziqish bilan o'tkazilmoqda.

Respublikamiz teatr sohasida ham yoshlar uchun ko'p ishlar qilindi, ular uchun maxsus tomoshalar qo'yilmoqda, qo'g'irchoq teatrlari barcha viloyatlarda ishlab turibdi. «Kattalar teatrlari bolalar uchun» festivali shunday teatrlarda bolalarga xizmat ko'rsatishni tubdan yaxshilash ishiga xizmat qiladi.

XXI asr o'zbek teatrining taraqqiyotida alohida sahifa ochdi. Qadimgi ko'ngilochar milliy tomoshalar va Yevropadan kirib kelgan maxsus teatrlar uyg'unligida shakllangan o'zbek teatri bu asrda haqiqiy o'zbek milliy teatrini vujudga keltirdi. O'zbekiston teatrlari o'z ijodiy-uslubiy izlanishlari, turli asarlar talqinlariga yangicha vondashuvlari bilan teatr san'ati uslubi va ifoda vositalarining takomillashuviga sabab bo'lmoqda.

Mustaqillik davrida teatrlarimiz faoliyatida ko'pgina diqqatga sazovor o'zgarishlar yuz berdi. Teatrlaming repertuar siyosati, rejissura va aktyorlik san'atidagi yangiliklar, spektakllarning prokati, tomoshabinlar bilan aloqalaming yangicha mazmun, shakllari va nihoyat, ushbu maxsus teatrlaming xalqaro san'at va madaniyat maydonida orttirgan tajribalari e'tiborga loyiq.

Mustaqillik davrida O'zbekiston teatrlari funksiyasi o'zgardi. Ular o'z faoliyatlarida tomoshabinlarga mazmundor, ta'sirli, qiziqarli spektakllar tayyorlashga ahamiyat berdilar.

Mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan professional teatr va teatr-studiyalari xalqimiz ma'naviy dunyosini, tafakkurini boyitadigan sahna asarlari yaratmoqdalar. Ushbu dargohlarda minglab ijodiy va texnik xodimlar faoliyat olib boryapti. Mustaqillik davrida birorta ham teatr o'z faoliyatini to'xtatgani yo'q. Nodavlat va xususiy teatrlar paydo bo'lmoqda.

Teatrlarning xalqaro miqyosda yutuqlarga erishayotgani e'tibomi tortadi. Teatrlarimiz jamoalari AQSH, Turkiya, Pokiston, Germaniya, Polsha, Buyuk Britaniya, Isroil kabi xorij mamlakatlarida o'tkazilgan turH teatr festivallarida qatnashib, turli sovrin va mukofoblarga sazovor bo'lganligi quvonchlidir.

Teatr ijodkorlari mamlakatimiz hayotining turli jabhalarida faol ishtirok etmoqdalar. Vatanimiz oliy organi - Oliy Majlisga, viloyat, tuman va shahar mahalliy Kengashlariga deputatlikka saylanmoqdalar. Bu esa teatr ijodkorlariga bolgan yuksak ishonchning dalilidir.

Teatr san'atimiz ayni kunlarda bozor iqtisodiyoti sharoitiga kirib bormoqda.

O‘z-o‘zini boshqarish va ayni damda tomoshabinlarga sidqidildan xizmat qilish yo‘lida tinmay izlanmoqda. O‘zining shonli tarixiga ega o‘zbek milliy teatr san‘ati bugungi kunda taraqqiyotning yangi bosqichiga ko‘tarilish yo‘lida tinmay mehnat qilmoqda.

Mustaqillik davrida balet teatrlarida milliy mavzuga e‘tibor kuchayib boryapti. Mahalliy bastakor va baletmeysterlar milliy baletlarni yevropacha klassik raqs shakllari bilan boyitmoqda. Bu borada «Raqqosa», «Orzu», «Suhayl va Mehr», «Sevgi tumori», «Afsonalar vodiysida», «To‘maris» va boshqa milliy balet spektakllarini keltirib o‘tishimiz mumkin.

Mustaqillik yillarida ijtimoiy, siyosiy o‘zgarishlar tufayli o‘zbek kinosida ham keskin burilislilar bo‘ldi. Davlat kinokompaniyasi tashkil etildi. «Inson», «Yulduz», «Iymon», «Vatan», «5-studiya» kabi mustaqil studiyalar yuzaga keldi. Natijada kinomahsulotlar ko‘paydi. Bu davrda olingan filmlarga - «Temir erkak» (1991, rej. I.Ergashev), «Kammi» (1991, rej. J.Ayziyev), «Kim jinni» (1992, rej. A.Hamroyev), «Dallol» (1993, rej. B Odilov), «Qarib quyulmagan» (1993, rej. M. Abzalov), «Taqdir eshigi» (1994, rej. L. Fayziyev), «Bomba» (1994, rej. Z. Musoqov) va boshqalarni keltirishimiz mumkin.

O‘zbek kinematografiyasida bolalar kinosi, ilmiy ommabop va hujjatli filmlar, multi plikatsion kino ham muhim o‘rin egallaydi.

Mustaqillik davri o‘zbek kinosida uslub va janr imkoniyatlarini kengaytirish borasidagi muayyan izlanishlar ijobiy samaralar berayapti. Jumladan:

– ijodkorlarimizda kino janrlari diapazoni, uslublar rang-barangligi, badiiy mahorat, an‘ana va novatorlik masalalariga yondashuvda o‘ziga xoslik yuzaga keldi;

– turli mavzular, detektiv, komediya, tragediya, melodrama, fantastika kabi janrlarda filmlar suratga olinib, kinoijodkorlarimiz uchun o‘z mahoratini sinab ko‘rishga qulay imkoniyat va sharoitlar yaratildi;

– yangi davrning o‘ziga xos milliy kinodramaturgiyasi shaklfandi. O‘zbek filmlariga yangi mavzu, yangi qahramon kirib kelishi kuzatildi;

– kinoijodkorlarda milliy an‘analarga munosabat va yangicha qarashlar paydo bo‘ldi.

– turli xil xususiy-tijorat kinostudiyalari tashkil topdi. Hozirgi kunda respublikamizda kinomahsulot ishlab chiqaravchi 65 ga yaqin studiya mavjud.

Shuni e‘tirof etishimiz lozimki, kino san‘atimiz o‘zining milliy qiyofasi bilan dunyoga chiqa oldi. Mahoratli san‘atkorlarimiz Sh.Abbosov, R.Muhammadjonov, Yu.Roziqov, Z.Musoqov, J.Qosimov va boshqa rejissyorlarimizning kinofilmlari ko‘pgina xorij festivallarida mukofot va sovrinlarga sazovor bo‘ldi. «Abdullajon» (1991-yil, rejissyor Z.Musoqov) O‘zbekiston KFda «Eng yaxshi o‘zbek filmi» Oltin Grifoni bilan mukofotlangan. Yaponiyadagi chet davlatlar Filmlari reytingida 7-o‘rinni egallagan, «Yulduzingni ber, osmon» (1995-yil, rejissyor F. Davletshin) 1995-yili Anqaradagi Xalqaro KFda «Musiqiy janri uchun» Billur globus sovriniga ega bo‘lgan, «Voiz» (1998-yil, ssenariy muallifi va rejissyor Yu. Roziqov) 1999-yili Anape shahrida o‘tkazilgan MDH va Boltiqbo‘yi davlatlari KFda Gran-pri bosh sovrini bilan taqdirlangan, «Fellini» (1999-yil, ssenariy muallifi va rejissyor

N.Abbosov) 2000- yili «Eng yaxshi rejissyorlik ishi uchun» milliy mukofotiga ega bo'lgan. 2001-yili Varshavada «Zolotoy krest» sovrini bilan taqdirlangan. 2003-yil Shveysariyada bosh diplomlardan birigasazovor bo'ldi. 2003-yil Avstriyaning Izburg shahrida Gran-pri mukofoti bilan taqdirlangan.

«Qorqo'ynida lola» (2003-yil, rejissyor A.Shahobiddinov, Yo. To'ychiyev) filmi 2004-yilda «Ijodiy parvoz» festivalida Gran-pri mukofotini olgan. 2006-yilda «Orzu ortida» (2004-yil, ssenariy muallifi va rejissyor Yo.To'ychiyev) filmi «Ijodiy parvoz» festivalida «Eng yaxshi operatorlik ishi uchun» mukofotlangan. 2006-yilda Fransiya KFda Gran-pri sovrinini olgan. 2006-yil Qozog'istondagi «Shaken yulduzlari» festivalida diplom olgan.

«Chashma» (2006-y. ssenariy muallifi va rejissyor Yo.To'ychiyev) Moskvadagi Xalqaro KFda «Perspektiva nominatsiya» bo'limida Gran-pri sovrini bilan mukofotlangan.

Rejissyor Z. Musoqov Yaponiya, Germaniya mamlakatlari bilan ijodiy hamkorlik o'rnatdi. Yu. Roziqovning «Dilxiroj» filmi dunyoning mashhur filmlarini to'plovchi Yaponiya kino muzeyiga qo'yildi, mazkur asami Germaniya, Fransiya telekompaniyalari sotib oldilar, Rossiya kinoshunoslari iqtidorli o'zbek ijodkori «Yusuf Roziqov rejissurasi fenomeni»ni o'rganishga kirishdilar.

O'zbek kino olamiga rejissyor-ssenaristlardan Ayub Shahobiddinov, Yolqin To'ychiyev, yosh aktyorlar Ra'no Shodiyeva, Bobur Yo'ldoshev, Farrux Soipov, Ulug'bek Qodirov, Dilshod Kattabekov kabi iste'dodli yosh kadrlar kirib keldi.

Mustaqillik davri zamonaviy o'zbek sirk san'atida ikkita yo'nalish mavjud: professional va an'anaviy sirk. Professional sirk namunalari Toshkent sirki maydonida va «Sahnadagi sirk» ko'chma jamoalari tomonidan namoyish etilsa, an'anaviy sirk respublikamizda keng tarqalgan bo'lib, asosan, oilaviy guruhlar sifatida shakllangan va boy an'analarga ega. Milliy sirk san'ati qisqa vaqt ichida ravnaq topdi va xalqaro sirk maydonida munosib o'rin egalladi.

«O'zbekdavlat sirk» birlashmasi, o'zbek milliy sirk san'ati ustalari qunt bilan mehnat qilganliklari ajoyib samara berdi. Tomoshabinlar talabiga to'la javob beradigan badiiy yuksak, raqobatbardosh sirk asarlari yaratilmoqda. Sirk dasturlarida asosiy o'rin tutgan yirik shakldagi sirk asarlari, ya'ni attraksionlar sahnalashtinlib, tomoshabinlaiga taqdim etilmoqda. F. Yunusovning «O'rgatilgan vo'lbarslar»i, N.Aliyevaning «Ikki pog'onali dor», K. Qarayevning «Chavandoz yigitlar», R. Sharabiddinovning «Tuya ustida akrobatlar» attraksionlari sliular jumlasidan.

So'nggi yillarda «Sahnadagi sirk» repertuari bir necha yangi tomoshalar bilan boyidi. Ular orasida T. Tojiboyevning «Sehrli shou», M. Toshkenboyevning «O'zbekiston dorbozlari», B. va F.Axnazarovlarning «Polvonlik dostoni», T. Galimovning «O'rgatilgan ayiqlar»i kabilar mashhur.

Mustaqillik davri me'morchiligi

O'zbek xalqi me'morchiligi mohiyat e'tibori jihatidan buyuk bunyodkorlik san'atidir. Mustaqillik yillarida me'morchilik san'ati yanada rivojlanib, takomillashib bormoqda. Me'morchilikda ikki asosiy tamoyil ko'zga tashlanadi. Ulardan biri sharqona me'moriyatning an'anaviy qonun-qoidalariga rioya etishdir. Bu tamoyil "Temuriylar tarixi davlat muzeyi", "Turkiston saroyi", Oliy Majlis, Toshkent shahar hokimiyati binolari timsolida o'z aksini topgan. Xususan, 1996 yilda barpo etilgan Temuriylar tarixi davlat muzeyi o'rta asr me'morligi an'analari asosida aylana tarxli (diametri 31 m.), tomi gumbazli qilib, maxsus yaxlit supa ustiga 3 qavatli qilib qurilgan. Devor yuzasini pardoqlashda ganch, marmar va sopol koshinlar ishlatilgan. Atrofi peshayvonli, qator ustunli (20 ta, balandligi 10 m, muqarnas boshali, poyustuni kulrang marmardan ishlangan), turunjleri sirkori sopol bilan bezatilgan, binoning tashqi devori yuzasida «suls» uslubida insonni yaxshilikka undovchi so'zlar bitilgan. Binoga 30 dan ortiq katta-kichik hajmdagi billur qandillar, 500 ta yoritgichli, og'irligi 2 t, balaandligi 8 m «Zumrad» qandil zeb berib turadi. 14 ta yog'och o'ymakorligidagi eshik o'ziga xos.



1993 yilda ochilgan "Turkiston" saroyi ham milliy va zamonaviy me'morchilikning mumtoz namunalarini o'zida mujassam etgan. 1982 yilda boshlangan bu bino qurilishi uzoq yillar tugallanmasdan kelayotgan bo'lib, mustaqillikning dastlabki yillaridayoq uning loyihasi qayta ko'rib, muhim va jiddiy o'zgartishlar kiritigan. Bugungi kunda saroy xalqaro anjumanlar, yirik san'at bayramlari o'tkaziladigan, ulug' ayyomlar nishinlanadigan nufuzli va mo'tabar ma'rifiy koshonaga aylangan.

Me'morchilikdagi ikkinchi tamoyil esa O'zbekistonning jahon xamjamiyatidan munosib o'rin olish sari intilishini namoyish etuvchi jahon me'morchiligining eng yaxshi yutuqlaridan foydalanishda namoyon bo'lmoqda. Bunday binolar jumlasiga «Meridian», «Afrosiyob» (Samarqand), «Buxoro» «Interkontinental», «Sheraton» mehmonxonalari, «O'zekspomarkaz», Milliy bank, Markaziy bank, «Toshkentplaza» savdo markazi, Respublika birja markazi, banklararo moliyaviy xizmatlar Markazi, O'zbekiston Davlat konservatoriyasi va boshqa binolarni kiritish mumkin. Toshkent shahri ko'rkiga ko'rk qo'shib turgan «Oloy», «Chorsu», «Otchopar», «Yunusobod», «Mirobod», «Parkent», «qo'yliq» va boshqa bozor binolari, shuningdek «Yunusobod» tennis markazi, «Jar» sport markazi singari zamonaviy inshootlar barpo etildi.

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.Karimov g'oyasi bilan Toshkent shahridagi Vatanimizning bosh maydoni - Mustaqillik maydonida bunyod etilgan me'moriy-badiiy majmua yurtimizning o'ziga xos ramziga aylandi. Mustaqillik va ezgulik tushunchalarini ramziy tarzda uyg'un ifodalagan ushbu yodgorlik Mustaqillik va ezgulik monamenti deb ataldi. 1992 yil avgustida maydonda o'rnatilgan obida Mustaqillik monamenti deb atalgan. Ramziy

ravishdagi Er sharida O‘zbekiston Respublikasi xaritasi aks etgan ushbu obida jahon xaritasida mustaqil O‘zbekiston mamlakati mustahkam o‘rin olganini ifodalaydi. 2005 yil 28 dekabrda ushbu monument oddiga farzandini bag‘riga bosib turgan munis o‘zbek ayoli siymosi — Baxtiyor ona haykali o‘rnatildi (haykaltarosh I.Jabborov). Mustaqillik monumenti va Baxtiyor ona haykali Ezgulik arkasi, oq poyonoz shaklidagi keng yo‘lak bilan birga yaxlit ansamblni tashkil qiladi.

Mustaqillik yillarida ko‘plab me‘moriy majmualar: “Imom Buxoriy”, “al Farg‘oniy”, “Xotira va qadrlash”, “Shohidlar xotirasi” va boshqa me‘moriy obidalar barpo etildi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1997 yil 29-apreldagi “Muhammad ibn Ismoil Imom al Buxoriy tavalludining xijriy 1225 yilligini nishonlash va uni o‘tkazish to‘g‘risida” gi qaroriga muvofiq yodgorlik majmui I.A.Karimov rahbarligida yaratilgan loyiha asosida Chelak tumanining Xartang qishlog‘ida Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent, Andijon, Namangan, Qo‘qon va Shaxrisabz halq ustalarining oltin qo‘llari bilan me‘morchilik tarixida eng qisqa muddat ya‘ni sakkiz oy mobaynida barpo etildi.1998-yil 23-oktyabr kuni ochilgan Imom Buxoriy yodgorlik majmui hozirgi kunda bu tabarruk zamin butun islom olamidan, chet eldan kelgan sayyoxlar bilan gavjumdir.



O‘zbekistonning qadimiy shaharlaridagi tarixiy binolarni tiklash ishlari jadallik bilan olib borilmoqda. Bunga Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva shaharlarida qayta tiklangan o‘nlab binolar, obidalar misol bo‘laoladi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturini xayotga tadbiq etish jarayonida yuzlab akademik litsey va kasb-xunar kollejlari uchun mahobatli binolar bunyod etildi.

Nazorat topshiriqlari:

1. Mustaqillik yillarida O‘zbekiston madaniyati sohasida erishgan yutuqlari to‘g‘risida nimalarni bilasiz.
2. O‘zbekistonda istiqloq yillarida san‘atning rivoji haqida gapirib bering.
3. Mustaqillik sharoitida milliy madaniyatimiz rivojlanishining ijtimoiy-siyosiy omillari nimalardan iborat?
4. Mustaqillik va madaniyat taraqqiyotini uzviylikini izohlang.
5. Madaniy mafkuraviy sohadagi ishlarimiz jamiyatimizni ma‘naviy yuksaltirishga qodir ekanligini asoslab bering.

1.2. SEMINAR MASHG'ULOTLARI MAVZULARI

1-seminar mashg'ulot: Kirish

Ajratilgan vaqt- 4 s


Asosiy savollar:

1. Madaniyat va san'atning mazmun-mohiyati.
2. Madaniyat va san'atning jamiyat hayotidagi funksiyasi.
3. Madaniy taraqqiyot va ma'naviy meros
4. O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanish muammolari yechimida madaniyat va san'at tarixining ahamiyati.
5. O'zbekiston madaniyati va san'atining taraqqiyot bosqichlari.

Metodik tavsiyalar: Talabalar alohida termin va tushunchalarga alohida e'tibor qaratishlari zarur, madaniyat va san'atga oid terminlar lug'atini tuzib borish maqsadga muvofiq. Madaniyat va san'at tarixini o'rganishda katta rol o'ynagan olimlar faoliyatini kengroq o'rganishlari lozim. Talabalar madaniyat va san'atning mazmun-mohiyatini yoritishi kerak. O'zbekiston madaniyati va san'atining taraqqiyot bosqichlariga xos xususiyatlarni aniqlashlari lozim. O'zbekistonning birinchi prezidenti Islom Karimovning ma'naviyat, milliy qadriyatlar to'g'risida fikrlarini o'rganish asosida madaniyat va san'atning inson va jamiyat hayotidagi o'rni va ahamiyatiga baho berishlari lozim.

Seminarda qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari:

“AQLIY HUJUM”



“Aqliy hujum” biror muammoni yechishda guruh qatnashchilari tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to'plab, ular orqali ma'lum bir yechimga kelinadigan samarali metoddir. Bu metod orqali shaxsni texnik rivojlantirish mumkin. U to'g'ri va ijobiy qo'llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandart fikrlashga o'rgatadi.

“Aqliy hujum” metodini prinsipi juda sodda: Bir guruh ishtirokchi to‘planadi, ular oldiga biror muammoli vaziyatni yechish bo‘yicha o‘z yechimlarini (fikir, mulohaza) bildirishlari so‘raladi. Muzkur etapda ishtirokchilardan hech biri boshqa qatnashuvchilarning g‘oyasi, fikrini muhokama qilishi yoki baholashi mumkin emas.

“Aqliy hujum” metodini qo‘llashdagi asosiy qoidalar:

1. Bildirilgan g‘oya va fikrlar muhokama qilinmaydi va baholanmaydi.
2. Bildirilgan g‘oya va fikrlar, ular hatto bo‘lmag‘ur bo‘lsa ham, hisobga olinadi.
3. Qancha ko‘p g‘oya va fikr bildirilsa, shuncha yaxshi.
4. Bildirilgan g‘oya va fikrlarni to‘ldirish va yanada kengaytirish mumkin.
5. G‘oya va fikrlarni bildirish uchun aniq vaqt belgilanadi.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008. – 173 б.
2. Абдуллаев Н. Санъат тарихи. 1-жилд.- Т.: Ўқитувчи, 1987. 4 б.
3. Абдуллаев Н.У. Санъат тарихи. 2-жилд. 1-китоб. –Т.: Санъат, 2001. 3-12 б.
4. Ойдинов Н. Ўзбекистон тасвирий санъати тарихидан лавҳалар. –Т.: Ўқитувчи, 1997. 5 б.

2-seminar mashg‘ulot: O‘rta Osiyo qadimgi madaniyati va san‘atining o‘ziga xos xususiyatlari

Ajratilgan vaqt- 6 s


Asosiy savollar:

1. O‘rta Osiyo qadimgi madaniyati va san‘atining taraqqiyot omillari.
2. O‘rta Osiyo yaxlit madaniyatini tashkil qiluvchi submadaniyatlar (qadimgi davlatlar - Baqtriya, So‘g‘d, Xorazm, Farg‘ona, Marg‘iyona submadaniyati, sak va massagetlar submadaniyati).
3. Madaniyat rivojida zardo‘shiylik va “Avesto”ning o‘rni.
4. Ahamoniylar davrida O‘rta Osiyo xalqlari madaniyati.
5. O‘rta Osiyoda ellinizm davri madaniyati.
6. Kushonlar davri madaniyati
7. Xorazm madaniyati
8. Buyuk Ipak yo‘li va madaniyatlar almashinuvi.

Metodik tavsiyalar: Talabalar O‘rta Osiyo qadimgi madaniyati va san‘atining o‘ziga xos xususiyatlari, diniy e‘tiqodlar, urf-odatlar, axloqiy me‘yorlardagi umumiylikning madaniy umumiylikning shakllanishidagi ahamiyatiga baho berishlari lozim. O‘rta Osiyo yaxlit madaniyatini tashkil qiluvchi submadaniyatlar (qadimgi davlatlar (Baqtriya, So‘g‘d, Xorazm, Farg‘ona, Marg‘iyona) submadaniyati, sak va massagetlar submadaniyati) haqida batafsil ma‘lumot top‘lashlari kerak. Madaniyat rivojida zardo‘shiylik va “Avesto”ning o‘rniga, Ahamoniylar imperiyasi davri madaniyati hamda bu madaniyatga O‘rta Osiyo

xalqlarining qo‘shgan hissasiga, Sharq ellin madaniyati va san‘atining vujudga kelishiga baho berishlari kerak. Buyuk Ipak yo‘lining O‘rta Osiyo xalqlari madaniyati va san‘ati taraqqiyotidagi o‘rniga ahamiyat berish lozim. [A2:5-14, 28-30, 31-38; A3:13-34, Q4, Q12].

Seminarda qo‘llaniladigan ta‘lim texnologiyalari:



Maqsadi: Talaba kichik guruhda ishlaganda, darsda faol ishtirok etish huquqiga, boshlovchi rolida bo‘lishga, bir-biridan o‘rganishga va turli nuqtai nazarlarni qadrlash imkoniga ega bo‘ladi.

Qo‘llash usuli:

1. Faoliyat yo‘nalishi aniqlanadi. Muammodan bir-biriga bog‘liq bo‘lgan masaldalar belgilanadi.
2. Kerakli asos yaratiladi. O‘quvchilar mazkur muammo haqida tushunchaga ega bo‘lishlari kerak.
3. Guruhlar belgilanadi. O‘quvchilar guruhlariga 3-5 kishidan bo‘linishlari kerak.
4. Aniq ko‘rsatmalar beriladi.
5. Qo‘llab-quvvatlab va yo‘naltirib turiladi.
6. Muhokama qilinadi.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Абдуллаев Н. Санъат тарихи. 1-жилд.- Т.: Ўқитувчи, 1987. 5-14, 28-30, 31-38 б.
2. Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. Очерки искусства Средней Азии. –М.: Искусство, 1982.
3. Культура и искусства народов Средней Азии в древности и средневековье.-Т., 1978.


4. Ташкенбаев Н.Х., Сулейманов Р.Х. Культура древнекаменного века долины Зарафшан. – Т., 1980.
5. Ртвеладзе Э.В. Великий Шелковый путь. Энциклопедический справочник. Древность и ранее средневековье. -Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 1999. -280 с.
6. Пидаев Ш. Сирли Кушонлар салтанати. –Т., 1991.

Seminarda qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalari:

“KLAUSTER” (TARMOQLAR) METODI

Fikrlarning tarmoqlanishi – bu pedagogik strategiya bo‘lib, u talabalarni biron bir mavzuni chuqur o‘rganishlariga yordam berib, ularni mavzuga taalluqli tushuncha yoki aniq fikrni erkin va ochiq ravishda, ketma-ketlik bilan uzviy bog‘langan holda tarmoqlashlariga o‘rgatadi.

Bu metod biror mavzuni chuqur o‘rganishdan avval o‘quvchilarning fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirish uchun xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, o‘tilgan mavzuni mustahkamlash, yaxshi o‘zlashtirish, umumlashtirish hamda talabalarni shu mavzu bo‘yicha tasavvurlarni chizma shaklida ifodalashga undaydi.



3- seminar mashg‘ulot: Ilk o‘rta asrlar madaniyat va san’ati

Ajratilgan vaqt 4s

Asosiy savollar:

1. Ilk o‘rta asrlar madaniyati va san’ati taraqqiyotining o‘ziga xos xususiyatlari.
2. Eftaliylar davrida madaniyat va san’at.
3. Turk xoqonligi davrida madaniyat va san’at.

4. Arab istilosining O'rtasiyodagi madaniy muhitga ta'siri.
5. Arab xalifaligi davrida O'rtasiyoda madaniyat va san'at taraqqiyoti.

Metodik tavsiyalar: Ilk o'rtasiyodagi madaniyati va san'atining xususiyatlarini ochib berish, Eftaliylar va Turk xoqonligi davri madaniyati va san'atining farqli xususiyatlarini ajrata bilish, Arab istilosining O'rtasiyodagi madaniy muhitga ta'siriga baho berish lozim.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati:

1. Абдуллаев Н. Санъат тарихи. 1-жилд.- Т.: Ўқитувчи, 1987. 121-122 ; 130-134 б.
2. Зоҳидов П. Меъмор олами. –Т.: Қомус, 1996.
3. Ойдинов Н. Ўзбекистон тасвирий санъати тарихидан лавҳалар. –Т.: Ўқитувчи, 1997.
4. Хожи Исматуллоҳ Абдуллоҳ. Марказий Осиёда ислом маданияти. –Т.: Шарқ, 2005.
5. Культура и искусства народов Средней Азии в древности и средневековье.-Т., 1978.
6. Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. История искусства Узбекистана. – М.,1985.
7. Хайруллаев М. Ўрта Осиёда ilk Уйғониш даври маданияти. – Т.: 1994.

4- seminar mashg'ulot: IX-XIII asrlarda O'zbekiston madaniyati va san'ati Ajratilgan vaqt 4 s

Asosiy savollar:

1. IX-XIII asrlarda siyosiy va ijtimoiy hayotning madaniy taraqqiyotga ta'siri
2. Somoniylar davri madaniyati va san'ati
3. Qoraxoniylar davri madaniyati va san'ati
4. G'aznaviylar davri madaniyati va san'ati
5. Xorazmshohlar davri madaniyati va san'ati

Metodik tavsiyalar: Talabalar mavzuni chuqurroq o'rganish berish uchun VIII asr o'rtalarida madaniy va ijtimoiy hayot, me'morchilik san'atida o'zgarishlarga e'tibor qaratishlari lozim. Somoniylar, Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Xorazmshohlar davlatlarning hukmdorlari davrida madaniyatining o'ziga xos xususiyatlariga ta'rif berishlari kerak. Bu davrdagi hattotlik va miniatyura san'ati haqida qo'shimcha ma'lumot to'plashlari kerak.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati:

1. Абдуллаев Н. Санъат тарихи. 1-жилд.- Т.: Ўқитувчи, 1987.
2. Зоҳидов П. Меъмор олами. –Т.: Қомус, 1996.
3. Ойдинов Н. Ўзбекистон тасвирий санъати тарихидан лавҳалар. –Т.: Ўқитувчи, 1997.

4. Хожи Исматуллоҳ Абдуллоҳ. Марказий Осиёда ислом маданияти. –Т.: Шарқ, 2005.
5. Культура и искусства народов Средней Азии в древности и средневековье.-Т., 1978.
6. Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. История искусства Узбекистана. – М.,1985.
7. Хайруллаев М. Ўрта Осиёда илк Уйғониш даври маданияти. – Т.: 1994.

5- seminar mashg'ulot : Amir Temur va Temuriylar davri madaniyati va san'ati

Ajratilgan vaqt 4 s

Asosiy savollar:

1. Amir Temur va temuriylar davridagi madaniyat va san'at taraqqiyotining omillari
2. Me'morchilik va shahrsozlik.
3. Temuriylar davrida tasviriy san'at va uning turlari rivoji.
4. Badiiy hunarmandchilik va uning turli shakllari.
5. Temuriylar davrida ilm-fan va adabiyot taraqqiyoti
6. XIV-XV asrlardagi ma'naviy-madaniy rivojlanishda Naqshbandiylikning ahamiyati

Metodik tavsiyalar: Ushbu mavzuni yoritishda Amir Temur va temuriylar davri madaniyati va san'atining taraqqiyot omillari tahlil qilinishi, bu davrdagi me'morchilik va shahrsozlikning, tasviriy san'atning, badiiy hunarmandchilik va ilm-fan va adabiyot taraqqiyotining o'ziga xos xususiyatlari ochib berilishi lozim. XIV-XV asrlardagi ma'naviy-madaniy rivojlanishda Naqshbandiylikning ahamiyatiga baho berish zarur.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati:

1. Абдуллаев Н. Санъат тарихи. 1-жилд.- Т.: Ўқитувчи, 1987.
2. Зоҳидов П. Меъмор олами. –Т.: Қомус, 1996.
3. Ойдинов Н. Ўзбекистон тасвирий санъати тарихидан лавҳалар. –Т.: Ўқитувчи, 1997.
4. Пугаченкова Г.А. Среднеазиатские миниатюры. –Т.: Шарқ, 1994.
5. Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. История искусства Узбекистана. – М.,1985.
6. Хайруллаев М. Ўрта Осиёда илк Уйғониш даври маданияти. – Т.: 1994.


Seminarda qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari:

NAFIS ARRA

Mazkur metod yordamida talabalar o'rganiladigan material bo'yicha ma'lum bilimga mustaqil ega bo'lishi, jamoa bilan ishlash malakasini oshirishi, axborot almashish hamda jamoa bo'lib qaror qabul qilish ko'nikmalariga ega bo'ladi.

Qo'llash usuli:

Guruhda o'rganiladigan material nomi doskaga yoziladi va qanday savollarga javob topilishi lozim ekanligi tushutiriladi.



Guruh talabalari 5-6 kichik guruhlariga (boshlang'ich guruh) bo'linadi va har bir guruh o'rganiladigan material bo'yicha alohida mavzularni oladi. Har bir guruh o'rganiladigan mavzu bo'yicha, oldindan tayyorlangan, kerakli materiallar jamlanmasi bilan ta'minlanadi.

Boshlang'ich guruhlar 10-12 minut davomida taqdim qilingan materialni o'rganadi va muhokama qiladi. Natijada o'ziga berilgan mavzuni yaxshi biladigan 5-6 guruh ekspertlariga ega bo'linadi. Keyingi etapda har bir guruhdagi qatnashchiga ma'lum tartib raqami beriladi va tartib raqamlari bir xil bo'lgan talabalardan yangi (ekspertlar) guruhlari tuziladi.

15-20 minut davomida yangi ekspertlar guruhining har bir a'zosi oldingi guruhga berilgan mavzu mazmunini tushuntirib beradi. Natijada umumiy mavzuni yaxlitligi bo'yicha o'zlashtirish ta'minlanadi.

Ekspertlar guruhining har bir a'zosi olingan axborotni ma'lum bir vaziyatda qo'llay olishini ta'minlash uchun mavzu bo'yicha biror muammoli vaziyat guruhlariga beriladi va har bir guruh ushbu muammoni to'g'ri yechimini topishi lozim. Muammo har bir ekspert guruhida muhokamadan o'tgach, guruhlarning

sardorlari muammo bilan butun jamoani tanishtiradi va uning yechimini ko'rsatib beradi. Dars oxirida talabalar bilimni tekshirib ko'rish va baholash uchun o'rganilgan material bo'yicha ekspress test o'tkaziladi.

6- seminar mashg'ulot: XVI-XVII asrlarda O'zbek xonliklari davri madaniyat va san'ati

Ajratilgan vaqt 4 s

Asosiy savollar:

1. XVI-XVII asrlarda madaniyat va san'at taraqqiyotining o'ziga xos xususiyatlari
2. Shayboniylar davrida madaniyati va me'morchilik.
3. Ashtarxoniylar davri madaniyati va san'ati
4. XVI-XVII asrlarda hattotlik va kitobot san'atining rivojlanishi.
5. Badiiy hunarmandchilik taraqqiyoti

Metodik tavsiyalar: Mavzuni yoritish uchun talabalar XVI-XVII asrlarda madaniyat va san'at taraqqiyotining o'ziga xos xususiyatlarini ajrata bilishlari, Shayboniylar va Ashtarxoniylar davrida madaniyati va san'at taraqqiyotining omillariga baho berishlari lozim. Hattotlik san'ati va kitob bezash hamda miniatyura ishlash borasidagi yutuqlar bilan tanish bo'lishlari zarur.


Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati:

1. Абдуллаев Н. Санъат тарихи. 1-жилд.- Т.: Ўқитувчи, 1987.
2. Зоҳидов П. Меъмор олами. –Т.: Қомус, 1996.
3. Ойдинов Н. Ўзбекистон тасвирий санъати тарихидан лавҳалар. –Т.: Ўқитувчи, 1997.
4. Пугаченкова Г.А. Среднеазиатские миниатюры. –Т.: Шарқ, 1994.
5. Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. История искусства Узбекистана. – М.,1985.

Seminarda qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari:

VENNA DIAGRAMMASI

Venna-diagrammasi – bu qarama-qarshi qo'yilgan 2-3 ta aspektlarning umumiy ko'rinishlarini taqqoslashdir. Bunda fikrlash, taqqoslash, tuzish, tahlil va sintez qilish tizimi rivojlanadi.



Qo‘llash usuli:

1. Venna-diagrammasi tashkil qilish qoidasi bilan tanishib chiqadilar. Individual-juftlikda Venna diag rammasini tuzadilar va kesishmagan aylanani to‘ldiradilar.
2. Juft bo‘lib birlashadilar, taqqoslaydilar va o‘z diagrammalarini to‘ldiradilar
3. Ikki yoki uchta diagrammalar kesishgan aylanaga ularning umumiy kurinishlarini ro‘yxatini tuzadilar va yozadilar.

7- seminar mashg‘ulot: XVIII-XIX asrlarda o‘zbek xonliklari davri madaniyati va san‘ati

Ajratilgan vaqt – 6 s

Asosiy savollar:

1. XVIII-XIX asrlardagi siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning madaniy hayotga ta‘siri.
2. Buxoro amirligida madaniyat va san‘atning o‘ziga xos xususiyatlari
3. Buxoro amirligida me‘morchilik taraqqiyoti
4. Xiva xonligida madaniyat va san‘at.
5. Xiva xonligida me‘morchilik taraqqiyoti
6. Qo‘qon xonligida madaniyat va san‘at.
7. Qo‘qon xonligida me‘morchilik taraqqiyoti
8. O‘rta Osiyo xonliklari davrida hattotlik va kitobot san‘atining rivojlanishi.

Metodik tavsiyalar: Talabalar O‘rta Osiyoda xonliklar davridagi madaniyat va san‘at taraqqiyotining o‘ziga xos xususiyatlariga baho berishi, madaniy taraqqiyotga salbiy ta‘sirini tahlil qilishlari lozim. Buxoro amirligi, Xiva va Qo‘qon xonligi san‘atining o‘ziga xos jihatlari farqlay bilishlari zarur. Bu davrda yaratilgan me‘morchilik inshootlari haqida kengroq ma‘lumot berish talab etiladi.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Абдуллаев Н. Санъат тарихи. 1-жилд.- Т.: Ўқитувчи, 1987.
2. Абдуллаев Н.У. Санъат тарихи. 2-жилд.1-китоб. –Т.: Санъат, 2001
3. Зоҳидов П. Меъмор олами. –Т.: Қомус, 1996.
4. Ойдинов Н. Ўзбекистон тасвирий санъати тарихидан лавҳалар. –Т.: Ўқитувчи, 1997.
5. Пугаченкова Г.А. Среднеазиатские миниатюры. –Т.: Шарқ, 1994.
6. Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. История искусства Узбекистана. – М.,1985.

FSMU TEXNOLOGIYASI

(F) – Fikringizni bayon eting

(S) – Fikringiz bayoniga biror sabab ko'rsating

(M) – Ko'rsatilgan sababni tushuntiruvchi (isbotlovchi) misol keltiring

(U) – Fikringizni umumlashtiring

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda, bahs-munozaralar o'tkazashda yoki o'quv-seminari yakunida qo'llanilishi mumkin. Bu texnologiya tinglovchilarni o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq holda bahslashishga, shu bilan bir qatorda talabalarni o'quv jarayonida egalagan bilimlarini tahlil qilish, qay darajada egallaganliklarini baholashga hamda tinglovchilarni bahslashish madaniyatiga o'rgatadi. Ushbu texnologiya tinglovchilarga tarqatilgan o'z fikrlarini aniq va qisqa holatda ifoda etib, tasdiqlovchi yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

8- seminar mashg'ulot: Rossiya mustamlakasi davrida Turkistonda madaniyat va san'at Ajratilgan vaqt – 6s

Asosiy savollar:

1. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda madaniyat va san'at taraqqiyotining o'ziga xos xususiyatlari.
2. Madaniy hayotda sodir bo'lgan o'zgarishlar
3. Me'morchilik taraqqiyoti
4. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida tasviriy san'at
5. Turkistonda amaliy bezak va xalq san'ati.
6. Zamonaviy san'at turlarining kirib kelishi.
7. Ilm-fan taraqqiyoti

Metodik tavsiyalar: XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda madaniyat va san'at taraqqiyotining o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish va Madaniy hayotda sodir bo'lgan o'zgarishlar baho berish lozim. Ushbu davr madaniy taraqqiyotida muhim rol o'ynagan shaxslar faoliyatiga oid kengroq ma'lumot to'plash maqsadga muvofiq.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati:

1. Абдуллаев Н.У. Санъат тарихи. 2-жилд.1-китоб. –Т.: Санъат, 2001
2. Зоҳидов П. Меъмор олами. –Т.: Қомус, 1996.
3. Ойдинов Н. Ўзбекистон тасвирий санъати тарихидан лавҳалар. –Т.: Ўқитувчи, 1997.
4. Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. История искусства Узбекистана. – М.,1985.

**9- seminar mashg'ulot: Sovet mustabid tuzumi davrida O'zbekiston madaniyat va san'at
Ajratilgan vaqt – 6 s
Asosiy savollar:**

1. Mustabid tuzum xususiyatlarining madaniy hayotga ta'siri.
2. Me'morchilik taraqqiyoti
3. Tasviriy va haykaltaroshlik san'ati
4. Milliy hunarmandchilikning rivoji
5. Kino va teatr san'ati
6. Ilm-fan taraqqiyoti

Metodik tavsiyalar: Mavzuni yoritishda sho'rolar davrida madaniy hayotga mafkuraviy tazyiqning oqibatlarini tahlil qilish, zamonaviy san'atning turli ko'rinish va yo'nalishlariga baho berish, O'rta Osiyo milliy san'atining Yevropa realistik san'ati uslubi asosida, ya'ni yangi shakllanib kelayotgan avangard ko'rinishlariga tayangan holda shakllanishini ochib berish. San'at taraqqiyotini yoritish.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati:

1. Абдуллаев Н.У. Санъат тарихи. 2-жилд.1-китоб. –Т.: Санъат, 2001
2. Азизхўжаев А. Давлатчилик ва маданият. –Т.: Шарқ, 1997.
3. Ойдинов Н. Ўзбекистон тасвирий санъати тарихидан лавҳалар. –Т.: Ўқитувчи, 1997.
4. Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. История искусства Узбекистана. – М.,1985.

10- seminar mashg'ulot: Mustaqillik yillarida O'zbekiston madaniyat va san'ati

**Ajratilgan vaqt – 6 s
Asosiy savollar:**

1. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda madaniy hayot taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatgan omillar
2. Milliy ma'naviy qadriyatlarining qayta tiklanishi.
3. Me'morchilik san'atidagi o'zgarishlar va mustaqillik yillarida barpo etilgan me'moriy majmualar.
4. Tasviriy san'at taraqqiyoti

5. Haykaltaroshlik san'ati.
6. Mustaqillik yillari amaliy san'at va xalq hunarmandchiligining rivoji
7. Kino va teatr san'ati

Metodik tavsiyalar: Mustaqillik yillarida O'zbekistonda madaniy hayot taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatgan omillarni tahlil qilish. Mustaqillik yillarida barpo etilgan me'moriy majmualar haqida kengroq ma'lumotlar to'plash. Mustaqillik yillarida san'at taraqqiyotini yoritish.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati:

1. Туленов Ж., Гофуров З. Мустақиллик ва миллий тикланиш. – Т.: Ўзбекистон, 1996.
2. Ўзбекистон санъати (1991-2001йиллар) –Т.: Шарқ, 2001.
3. Фозилова С., Юлдашева У. Мустақиллик кошоналари. – Т.: Халқ мероси, 2002.
4. Рахмонов М. Узбекский театр. – Т., 1981.

I.3 ADABIYOTLAR RO‘YXATI ASOSIY ADABIYOTLAR

1. Абдуллаев Н.У. Санъат тарихи. 1-жилд.- Т.: Ўқитувчи 1987.
2. Абдуллаев Н.У. Санъат тарихи. 1-том. - Т.: Ўқитувчи, 1986. -272 б.
3. Абдуллаев Н.У. Санъат тарихи. 2-том. - Т.: Санъат, 2001. -192 б.
4. Азизхўжаев А. Давлатчилик ва маданият. - Т.: Шарқ, 1997.
5. Амир Темур ва Темурийлар даврида маданият ва санъат. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1996. – 88 б.
6. Зоҳидов П. Меъмор олами. - Т.: Қомус, 1996. - 238 б.
7. Ойдинов Н. Ўзбекистон тасвирий санъати тарихидан лавҳалар. –Т.: Ўқитувчи, 1997. – 96 б.
8. Ртвеладзе Э.В., Сагдуллаев А.С. Памятники минувших веков. – Т.: Узбекистан, 1996.
9. Туленов Ж., Ғофуров З. Мустақиллик ва миллий тикланиш. - Т.:Ўзбекистон, 1996.
10. Ўзбекистон санъати. (1991-2001 йиллар) -Т.: Шарқ, 2001.
11. Фозилова С., Юлдашева У. Мустақиллик қошоналари.- Т.: Халқ мероси, 2002.
12. Хайруллаев М. Ўрта Осиёда илк Уйғониш даври маданияти. - Т.: 1994.
13. Хожи Исмадуллоҳ Абдуллоҳ. Марказий Осиёда ислом маданияти. - Т.: Шарқ, 2005.
14. Ҳаққулов А. Таъмир санъати. -Т.: Меҳнат, 1991.
15. Qoraboyev U., Soatov G'. O'zbekiston madaniyati. - Т.: Tafakkur bo'stoni, 2011. - 196 б.

QO‘SHIMCHA ADABIYOTLAR

1. Алимухаммедов А. Антик адабиёт тарихи. -Т., 1969.
2. Березиков Е. Легенды и тайны Узбекистана. -Т., 1991.
3. Дальверзинтепе Кушанский города на юге Узбекистана. - Т., 1978.
4. История и культура Востока Азии. -Н., 1978.
5. Культура и искусства народов Средней Азии в древности и средневековье. – М., 1978.
6. Муродов А. Ўрта Ўсиёда хаттотлик санъати тарихидан. – Тошкент: Фан, 1971. – 196 б.
7. Пугаченкова Г.А. Среднеазиатские миниатюры. -Т.: Шарқ, 1994.
8. Пугаченкова Г.А., Галеркина О.И. Миниатюры Средней Азии. В избранных образцах. Из советских и зарубежных собраний. –М.: Изобразительное искусство, 1979
9. Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. Выдающиеся памятники изобразительного искусства Узбекистана. -Т., 1959.
10. Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. История искусства Узбекистана. -М., 1965. – 688 с.
11. Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. Очерки искусства Средней Азии. -М.: Искусство, 1982.

12. Рахмонов М. Узбекский театр. - Т., 1981.
13. Ташкенбаев Н.Х., Сулейманов Р.Х. Культура древнекаменного века долины Зарафшан. - Т., 1980.
14. Фахретдинова Д.А. Ювелирное искусство Узбекистана. - Т., 1988.

Internet saytlari:

1. www.artuzb.narod.ru.
2. www.architecture.uz.
3. www.artmuseum.uz.
4. www.sahnat.orexca.com.
5. www.uzsanat.land.ru.

II. TALABALAR MUSTAQIL ISHLARI MAVZULARI BO‘YICHA METODIK MATERIAL

3- semestr

Mustaqil ta’limga oid bo‘lim va mavzular	Mustaqil ta’limga oid topshiriq va tavsiyalar	Bajarilish muddatlari	Hajmi (soatda)
Ma’lum tarixiy davrda ijod qilgan shaxs faoliyati	Berilgan davrda yashab ijod qilgan shaxs haqida ma’lumot to‘plash	1-2 hafta	5/8
Ma’lum tarixiy davr me’morchiligi	Berilgan davrda yaratilgan me’morchilik obidasi haqida ma’lumot to‘plash	3-4 hafta	5/8
Ma’lum tarixiy davr tasviriy san’ati	Berilgan davrda yaratilgan tasviriy san’at asari haqida ma’lumot to‘plash	5-6 hafta	5/7
Ma’lum tarixiy davr haykaltaroshligi	Berilgan davrda yaratilgan haykaltaroshlik asari haqida ma’lumot to‘plash	7-8 hafta	5/7
Ma’lum tarixiy davrdagi madaniyat va san’at taraqqiyoti	Berilgan davr madaniyat va san’at taraqqiyoti haqida ma’lumot to‘plash va taqdimot tayyorlash	9-11 hafta	10/15
Jami			30/45

TALABALAR UCHUN MUSTAQIL ISH MAVZULARI

1. Ibtidoiy davr madaniyati va san’ati
2. Qadimgi Baqtriya madaniyati va san’ati
3. Qadimgi So‘g‘d madaniyati va san’ati
4. Qadimgi Xorazm madaniyati va san’ati
5. Qadimgi Farg‘ona madaniyati va san’ati
6. Qadimgi Marg‘iyona madaniyati va san’ati
7. Sak va massagetlar madaniyati va san’ati
8. Ahamoniylar imperiyasi davri madaniyati
9. Ellin madaniyati va sa’ati elementlarining kirib kelishi.
10. Salavkiylar davri ellin madaniyati va san’ati.
11. Yunon-Baqtriya davlatida yunonlar va mahalliy madaniyat sintezi.
12. Kushonlar davrida madaniyat va san’atning yuksalishi.
13. Buyuk Ipak yo‘lining O‘rta Osiyo xalqlari madaniyati va san’ati taraqqiyotidagi o‘rni.
14. Eftaliylar davri
15. Turk xoqonligi davrida san’at.
16. Arab istilosinig mahalliy madaniyat va san’atga ta’siri.

17. Somoniylar davri
18. Qoraxoniylar davri
19. G'aznaviylar davri
20. Xorazmshohlar davlati
21. Amir Temur davri madaniyati va san'ati.
22. Temuriylar davri madaniyati va san'ati.
23. XIV-XVI asrlardagi ma'naviy-madaniy rivojlanishda Naqshbandiylikning xizmatlari.
24. Shayboniylar davrida madaniyat va san'at.
25. Ashtarxoniylar davrida madaniyat va san'at.
26. XVIII-XIX asrlarda Buxoro amirligida madaniyat va san'at.
27. XVIII-XIX asrlarda Xiva xonligida madaniyat va san'at.
28. XVIII-XIX asrlarda Qo'qon xonligida madaniyat va san'at.
29. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida O'zbekiston madaniyati va san'ati.
30. 1917 – 1941 yillarda O'zbekiston madaniyat va san'ati
31. 1941-1945 yillarda O'zbekiston madaniyat va san'ati
32. 1945- 1990 yillarda O'zbekiston madaniyat va san'ati
33. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda madaniy hayot.

Taqdimot tayyorlash yuzasidan tavsiyalar

Prezentatsiya o'zida avvalo turli illyustrativ materialni (suratlar, reproduksiya, portretlar va h. k.), shuningdek imkon boricha sxemalar, tablitsalar, diagrammalarni aks ettirishi kerak. Matn qisqa va lo'nda tuzilib, illyustrativ materialga mos bo'lishi zarur. Prezentatsiya faqatgina matnlardan iborat bo'lib, elektron referatga aylanib qolmasligi lozim.

Slaydlarning taxminiy soni – 20-25

4-semestr

1-MI

Madaniyat va san'at mavzusiga ga oid 20 ta atamalarning izohli lug'atini tuzish

2-MI

1. XVI- XIX asrlarda Samarqand me'morchiligi
2. XVI- XIX asrlarda Buxoro me'morchiligi
3. XVI- XIX asrlarda Xiva me'morchiligi
4. XVI- XIX asrlarda Toshkent me'morchiligi
5. XVI- XIX asrlarda Qo'qon me'morchiligi
6. XIX asr ikkinchi yarmi - XX asr boshlarida O'rta Osiyoda me'morchilik
7. Sho'rolar davrida O'zbekistonda me'morchilik
8. Mustaqillik davri me'morchiligi
9. XVI-XVII asrlarda adabiyot
10. XVIII-XIX asrlarda adabiyot
11. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida adabiyot
12. XVI-XVII asrlarda ilm - fan
13. XVIII-XIX asrlarda ilm-fan

14. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida ilm-fan
15. Sho‘rolar davrida O‘zbekistonda ilm-fan
16. Mustaqillik davrida ilm-fan
17. XVI- XIX asrlarda ta’lim rivoji
18. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida O‘rta Osiyoda ta’lim taraqqiyoti
19. O‘rta Osiyoda ma’rifatparvarlik harakati
20. O‘rta Osiyoda jadidchilik harakati
21. Sho‘rolar davrida O‘zbekistonda ta’lim taraqqiyoti
22. Mustaqillik yillarida ta’lim taraqqiyoti
23. XVI-XVII asrlarda miniatyura san’ati
24. XVIII-XIX asrlarda miniatyura san’ati
25. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida tasviriy san’at taraqqiyoti
26. Sho‘rolar davri tasviriy san’ati taraqqiyoti
27. O‘rta Osiyoda qo‘shiqchilik san’ati
28. O‘rta Osiyoda teatr san’ati taraqqiyoti
29. O‘rta Osiyoda musiqa san’ati taraqqiyoti
30. O‘rta Osiyoda qog‘oz ishlab chiqarish tarixi
31. O‘rta Osiyoda xalq amaliy san’ati taraqqiyoti
32. O‘zbekistonda kino san’ati taraqqiyoti
33. O‘rta Osiyoda tomosha va tsirk san’ati taraqqiyoti
34. Mustaqillik yillarida qurilgan maqbara va masjidlar
35. Mustaqillik yillarida tasviriy san’at taraqqiyoti
36. O‘zbekistonda diniy madaniyat
37. O‘zbekiston muzeylari
38. Mustaqillik yillarida haykaltaroshlik san’ati
39. Mustaqillik yillarida xalq amaliy san’ati
40. Ommaviy madaniyat

3-MI: San’atning tur va janrlari

1. Haykaltaroshlik
2. Freska
3. Ganch o‘ymakorligi san’ati.
4. Yog‘och o‘ymakorligi san’ati
5. Naqqoshlik san’ati
6. Kandakorlik san’ati
7. Zargarlik san’ati
8. Raqs san’ati
9. Hattotlik
10. Kulolchilik
11. Do‘ppichilik
12. Gilamdo‘zlik san’ati
13. Zardo‘zlik san’ati
14. Kashtachilik san’ati tarixi
15. Miniatyura

16. Grafika
17. Portret janri
18. Manzara janri
19. Natyurmort janri
20. Animal janr
21. Bataliya janri
22. Tarixiy janr
23. Maishiy janr
24. Mifologik janr
25. Diniy janr
26. Klassitsizm
27. Realizm
28. Romantizm
29. Kubizm
30. Ekspressionizm
31. Impressionizm
32. Postimpressionizm
33. Syurrealizm
34. Avangardizm
35. Abstraktsionizm
36. Ampir
37. Barokko
38. Futurizm
39. Modernizm
40. Balet

4-MI: San'at namoyondalari

1. K.Behzod
2. Ahmad Donish
3. Shirin Murodov
4. X.Devonov
5. Qo'qonlik yog'och o'ymakori usta Najmiddin Haydarov
6. Xivalik usta Ota Polvonov
7. V.Vereshagin
8. A.Karazin
9. I.Kazakov
10. S.P.Yudin
11. Bure
12. R.Zommer
13. P.Benkov
14. Usto Mo'min (A.Nikolaev)
15. S.Siddiqiy
16. Baxrom Hamdamiy
17. L.Abdullayev

18. A.Abdullayev
19. M.Nabiyev
20. O‘rol Tansiqboyev
21. Ch.Axmarov
22. R.Choriyev
23. Bahodir Jalolov
24. Iskandar Ikromov
25. Damir Ro‘ziboyev
26. Alisher Mirzaev
27. Javlon Umarbekov
28. Akmal Nur
29. Ilhom Jabborov
30. Xaykaltarosh A.Xotamov
31. R.Mirtojiiyev
32. Komil Xorazmiy
33. Mulla To‘ychi Toshmuxammedov
34. M.Burxonov
35. M.Ashrafiy
36. A.Hidoyatov
37. Tamaraxonim
38. Muhiddin Qori Yoqubov
39. Olim Xo‘jayev

4. GLOSSARIY

Atamaning o‘zbek tilida nomlanishi	Atamaning ingliz tilida nomlanishi	Atamaning rus tilida nomlanishi	Atamaning ma’nosi
Angob	Angob	Ангоб	(frans. engobe) - sopol ustiga surtiladigan pardoz bo‘yog‘i, ko‘pincha qizil kesakdan tayyorlanadi. Sopol idishlar va buyumlar angob surtishdan oldin quritiladi. Notekis joylari tekislanadi, so‘ng ho‘l latta bilan silliqanadi.
Ганчкорлик		Резьба по алебастру	amaliy bezak san’atining keng tarqalgan turi, o‘ymakorlik tarmog‘i. Ganchkorlik qadimgi sanatlardan biri. O‘yma ganchlar, asosan binolarning ichki qismidagi devorlar, namoyon, taxmon, tokcha, jonivonlarning yuqorisi sharofalar va boshqa joylarni bezashda ishlatiladi. Ganchkorlikda o‘yma naqsh metall kesiklar vositasida ishlanadi. O‘yilgan naqshning yuzi gul ganch bilan pardozlanadi. Pardozning turlari chok pardoz, pax pardoz, lo‘la pardoz va tabaqa pardozlardir. Ganchkorlik san’atida ham tarixan bir necha mustaqil maktab g’ Samarqand, Buxoro, Xorazm, Farg‘ona, Toshkent, Xiva maktablari tashkil topgan.
Gemma	Gemma	Гемма	(lot. gemma-marvarid) qo‘yma tasvirli tosh. Ikki xil bo‘ladi: tasviri o‘yib ishlangan - intamit (mil. av. 4 ming yillik) va bo‘rtma tasvirli – kameya (mil. av. 4-a). Gemma ayni vaqtda muhr, tumor, bezak buyumi sifatida ham qo‘llanilgan. Gemma yasash ishi tosh o‘ymakorligi san’atiga kiradi.
Gliptika	Gliptics	Глиптика	(yunon. gliptike, glifo – kesaman)-asl toshlar o‘ymakorligi san’ati. Yaqin Sharqda mil.av. IV asrdan tosh sirtiga bo‘rtma naqshlar

			tushirish keng tarqalgan.
Gorelyef	Gorelyef	Горельеф	bo'rtma haykal yoki naqsh. Haykal yoki naqsh-gulning yarmidan ko'pi bo'rtib chiqqan bo'ladi.
Grafika	Graphic arts.	Графика	(yunon. grafikus-tasvirlangan) aks ettirilgan-tasviriy sanat turi. Unga oddiy qora qalamda chizilgan surat, mazmunli rasmlar, plakatlar, markalar va shu kabilar kiradi. Grafika sanati asarlari hajm jihatdan uncha bo'lmaydi va ko'pincha qog'ozda bajariladi. Grafika to'rt turga bo'linadi: dastgohli grafika, gazeta-jurnal grafikasi, plakat va amaliy (sanoat) grafikasi.
Janr	Genre	Жанр	(frans. tur, ko'rinish) - easviriy san'atda janr deyilganda, chegaralangan mavzuni o'zida aks ettiradigan san'at asarlari tushunig'ladi. Bular <u>manzara</u> - tabiat ko'rinishlari, <u>portret</u> - odam qiyofasi tasviri, <u>natyurmort</u> - meva, gul va buyumlar tasviri va h.k. Mazmunli suratlar ham o'z navbatida tasniflanadi: tarixiy, maishiy, harbiy, animalistik, interer.
Zargarlik	Jewelry-making	Ювелирное искусство	amaliy sanatning O'zbekistonda keng tarqalgan turi. Qimmatbaho tosh va metallardan ziynatlanib ishlangan buyumlar.
Zardo'zlik	Gold-embroidered	Золотошвейное искусство	amaliy sanatning bir turi bo'lib, Markaziy Osiyoda keng tarqalgan. Kashtachilik sanatining bir ko'rinishi. O'tmishda zardo'zlik bilan erkaklar shug'ullanganlar, zar va kumush iplar bilan erkaklar to'ni, sallasi, do'ppilari, poyafzallari va ayollarni ko'ylak, kamzul, etikcha va xaltachalariga bezak tikilgan.
Ilyustratsiya	Illustration	Иллюстрация	lotn. illuastratsion – yoritish, ko'rgazmali tasvirlash - kitob, jurnal, gazeta matniga qo'shimcha tarzda beriladigan, uni to'ldirishga, matn malumotlarini ko'z o'ngida

			gavdalantirishga xizmat qiladigan surat, rasm, reproduksiya, shuningdek, kartina, sxema va turli tasvirlar.
Impressionizm	Impressionizm	Импрессионизм	(frans. <i>imprezion</i> – taassurot) - XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida tasviriy san’atda paydo bo‘lgan oqim. K.Monening 1872 yilda yaratilgan «Taassurot. Chiqayotgan quyosh» kartinasi yangi oqimning paydo bo‘lishiga asos bo‘ldi. Impressionist rassomlar - K.Mone, O.Renuar, E.Dega, K.Pissaro, B.Morizo va b.G’ Bevosita ochiq havoda kartina ustida ishlab, tabiat va u bilan organik bog‘liq bo‘lgan inson qiyofasidagi o‘zgarishlarni jonli bo‘yoqlar vositasida tasvirlash imkoniga ega bo‘lgan.
Xattotlik	Calligraphy	Каллиграфия	(yunon. <i>kallos</i> – chiroyli va ... grafiya) - harflarni chiroyli va aniq qilib yozish san’ati. Kalligrafiya, ayniqsa, Sharq xalqlarida rivoj topgan. Arab yozuvida kufiy, sulo, tavqe’, riko‘, rayhoni, nash, ta’liq, nasta’liq kabi uslublar vujudga kelganki, bu uslublar yozuvni geometrik, o‘simliksimon naqshlar darajasiga ko‘targan, nafislashtirgan. Kalligrafiya san’ati kitob bezaklarida, plakatlardagina ko‘zga tashlanadigan bo‘lib qoldi. Chiroyli yozish san’ati hozir boshlang‘ich sinflarda o‘qituvchi rahbarligida o‘rganiladi.
Kandakorlik	Engraving	Чеканка и гравировка по металлу	qadimiy amaliy san’at turi, metall o‘ymakorligi. XIX asrda Buxoro, Qo‘qon, Marg‘ilon, Samarqand, Toshkent, Shahrisabz, Xorazm kandakorlik maktablari mavjud.
Kapitel	Kapitel	Капитель	ustunning yuqori qismidagi bezagi.
Kulolchilik	Pottery	Гончарное	hunarmandchilikning turli-tuman

		ремесло	loydan idish, buyum, qurilish materiallari va boshqa ishlaydigan sohasi. Afrosiyobda va Markaziy Osiyoda VIII-XII asrda rivojlana boshlangan. Ayniqsa, o‘zbeklar va tojiklar yashaydigan shahar hamda qishloqlarda keng rivoj topgan. Koratog’, Panjikent, Samarqand, Shahrisabz, Fijduvon, Toshkent, Rishtonda sopol idishlarning sirlab bezatishning o‘ziga xos uslublari vujudga kelgan.
Kolorit	Colorit	Колорит	(lot. kolor – rang) - tasviriy san’atda real hayotni haqqoniy aks ettirish uchun ishlatiladigan ranglarning o‘zaro mutanosibligini, nisbati. Rassom asarida g’oyani, obrazni ifodalashda bo‘yoqlarga alohida ahamiyat bilan qaraydigan san’atkor kolorist rassom deb ataladi.
Kompozitsiya	Compositio n	Композици я	lot. – tuzilish, qurilish. Badiiy asarning tuzilishi, asarda tasvirlanayotgan narsalarning obrazlari va badiiy vositalarning muayyan maqsadga xizmat qiladigan tartibiy joylashishi va ularning muvofiqligi.
Litografiya	Lithograph y	Литографи я	(yunon. lito-tosh, grafiya) - yassi bosmaning qadimgi va keng tarqalgan usuli bosma qolip (shakl) maxsus litografiya toshida tayyorlanadi. Yozuv yoki tasvir tosh sirtiga relefsiz litografiya tushi yoki qalami bilan tushiriladi. Maxsus litografiya qog’ozga ishlangan tasvirni tosh sirtiga ko‘chirish ham mumkun. Tasvirli yozuvli tosh sirti kimyoviy ishlovdan keyin bosiladi.
Mayolika	Majolica	Майолика	(ital. mayolika, Malorka orolining qadimgi nomidan) - keramika turi, maxsus rangli tuproqdan sirlab tayyorlangan sopol. O‘rta asrlarda Markaziy Osiyoda keng tarqalgan. Binolarni bezashda, devor va

			minoralarning sirtini xashamlashda, uy-ro'zg'or buyumlari tayyorlashda keng foydalaniladi
Manzara	Paysage	Пейзаж	ma'lum bir joyning ko'rinishi, tasviri; tasviriy san'at janri. Manzarada tabiat tasviri – dengiz ko'rinishlari (marina), daraxtzorlar, g'irlar, shahar va qishloqlarning qiyofasi, umuman, turli joylarning tasviri orqali kishining hisg'tuyg'ulari badiiy obrazlarda ifodalanadi. Manzara O'rta Asrlarda Xitoy, Yaponiya, Uyg'onish davrida esa Yevropada rivoj topdi.
Maishiy janr	Household genre	Бытовой жанр	kundalik turmushda uchraydigan hodisalarni o'zida aks ettirgan tasviriy san'atning bir ko'rinishi.
Miniatyura	Miniature	Миниатюра	(lotin. minium-kinovar qizil bo'yoq) - nafis ishlangan kichik hajmli tasviriy san'at asarlari: qo'l yozma kitoblarga ishlangan surat, manzara, grafik tasvirlar; emal, guash, akvarel va boshqa. bilan ishlangan kichik portret, suratlar. Markaziy Osiyo, jumladan O'zbekiston hududida ham qo'lyozma kitoblarga ishlangan tasvirlar qadimdan bor. Miniatyura san'ati X-XI asrlarda rivoj topgan. Sharafiddin ali Yazdiyning «Zafarnoma» si hamda «Shayboniynoma», «Fatxnoma», «Tarixi Abulxayron» kabi tarixiy asarlar katta mahorat bilan miniatyurada bezatilgan. Xirot miniatyura maktabi, Tabriz miniatyura maktabi, Isfaxon miniatyura maktabi, Buxoro miniatyura maktabi, Xindiston miniatyura maktablari mavjud bo'lgan bo'lgan.
Minora	Minaret	Минарет	(arab.- mayoq)- baland inshoot. Minoralar doira, ko'p qirrali, to'rtburchak shaklida bo'lib, yuqoriga tomon ingichkalashib

			boradi. Samarqand, Xiva, Buxoroda yuksak mahorat bilan ishlangan minoralar saqlangan.
Modern	Modern	Модерн	(frans. moderne – eng yangi, eng zamonaviy) XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Yevropa va Amerika san’atida vujudga kelgan uslubiy yo‘nalishlardan biri. Tasviriy san’at, haykaltaroshlikda yangi izlanishlar bo‘ldi, kartina va pannolar bino intererining elementi bo‘lishiga ahamiyat berildi, bu ularning dekorativ ruhda yaratilishiga olib keldi. An’anaviy uslub, badiiy shakllardan yuz o‘girib, yangi, zamonaviy uslub, shakllar yaratishda izlandilar; amalda realizmga qarshi qaratilgan, shaklbozlikdan iborat, tushunib bo‘lmaydigan, shakli go‘zallikka zid asarlar yaratdilar
Mozaika	Mosaic	Мозаика	rang-barang qoshin, shisha, marmar, tosh, yog‘och, metall parchalari birg‘biriga zich terib yopishtirib ishlangan naqsh, tasvir monumental-bezak san’ati turlaridan biri. Binolarni bezashda, dastgohli asarlar yaratishda, amaliy san’at asarlarida foydalaniladi. Mozaika tayyorlashning ikki usuli ma’lum. 1 - usulda tosh, shisha, sopol parchalari to‘g‘ridan-’to‘g‘ri devorga, polga, shiftga tsement yordamida yopishtirib suvab, tasvir hosil qilinadi (to‘g‘ridan - ’to‘g‘ri terish). 2 - usulda koshin, sopol parchalari, qog‘oz, metall, yog‘och taxtaga yopishtirib tasvir hosil qilinadi, keyin shu tasvir tegishli joyga ko‘chiriladi (qayta terish) usuli.
Monument	Monument	Монумент	(lotin. monumentum – yodgorlik) - biror muhim tarixiy voqea, ulug‘ shaxs sharafiga yaratilgan

			hashamatli yodgorlik, arxitektura yoki haykaltaroshlik asari. Har qanday obg'havo sharoitiga chidamli materiallar G' marmar, granit, bronza va boshG' dan ishlanib, o'rnatilayotgan joyning muhiti bilan uyg'unlashtirib quriladi.
Naqsh	Ornament	Узор	(arab – tasvir, gul) - elementlari ma'lum tartibda takrorlanadigan geometrik shakllar, o'simlik, qush, hayvon, va boshqalarning sxematik tasviridan tashkil topadigan bezak. Ganchkorlik, yog'och o'ymakorligi, kandakorlik, toshkaroshlikda ganch, yog'och, mis, toshga o'yib, qirqib, qog'oz, mato, yog'ochga tush, turli bo'yoqlarda chizib, bo'yab, kashtado'zlik va zardo'zlikda chok yordamida, kulolikda chizma bosma, qalami singari usullarda bo'yab, sirlab, shuningdek, qoliplar yordamida hosil qilinadi.
Plastika	Plastic	Пластик	(yunon. plastike – muloyim, go'zal) -haykaltaroshlik, bo'rttirib hajmli turli shakllar yaratishda uyg'unlik, ifodalilik tasvirlar yaratish san'ati.
Portret	Portrait	Портрет	(frants.portreit - tasvir)- real borlikda mavjud bo'lgan yolg'iz, ikki yoki bir guruh kishilarning tasviri. Kishilarning boshi, beligacha yoki butun gavdasi to'la aks ettirilishi mumkin. Portret tasviriy san'atning eng muhim janrlaridan, rassom tomonidan chiziladi, haykaltarosh tomonidan o'yib, suvab (barelef, gorelef), yo'nib (marmar, yog'och va boshqa haykallar) tayyorlanadi. Grafikada chizib, bo'yab gravyura, ofort, ksilografiya kabi usullardan tayyorlanadi. Tasvir xarakteri jihatdan monumental, oddiy intim, hajviy portretlarga bo'linadi.

			Portretning avtoportret xili keng tarqalgan.
Realizm	Realism	Реализм	voqelikni badiiy ijodning turlariga xos maxsus vositalar bilan haqqoniy, ob'ektiv tarzda aks ettirish. O'zbekiston hududida yuksak darajaga ko'tarilgan miniatyura san'atida realizm elementlari ko'zga tashlanadi.
Relief	Relief	Рельеф	(lotin. Relefo- ko'taraman) - haykaltaroshlikning bir turi. Shakl, tasvir fon (zamin)dan bo'rttirib yoki, aksincha, o'yib hosil qilinadi. Reliefning asosiy turlari: barelef va gorelef. Tasviriy san'atda qadimdan mavjud bo'lib, binolarni bezashda, medal ishlash san'atida, metallga zarb berib bezak buyumlari ishlash va hokazolarda keng qo'llaniladi.
Tasviriy san'at	Fine art	Изобразительное искусство	san'at turi. Rassomlik san'ati, grafika, haykaltaroshlik va foto san'ati sohalarini o'z ichiga oladi. Tasviriy san'at real borliqni ko'rgazmali obrazlarda, mavjud narsalarni ularning tabiiy shakli, o'rni va boshqalarni o'ziga o'xshatib, umumlashtirib va tipiklashtirib ifodalaydi, predmetlarning hajmi, o'zaro qanday masofada joylashgani va boshqalar to'g'risida tomoshabinda tasavvur hosil qiladi. Tasviriy san'atning eng qadimiy va keng tarqalgan sohasi rassomlik san'ati bo'lib, unda real borlikdagi voqea va predmetlar turli-tuman ranglardagi bo'yoqlar yordamida aks ettiriladi. Rassomlik san'ati vazifasiga ko'ra bir necha turga bo'linadi: monumental rassomlik (panno, freska, devoriy rasmlar), bezak rassomligi (tasvir, naqsh, bezak san'ati predmetlari – mato, buyum, idish, taqinchoqlar, badiiy buyumlarga va boshqalarga

		<p>ishlanadigan bezaklar), dekoratsiya san'ati (teatr rassomligi), dastgohli rassomlik (mustaqil ahamiyatga ega bo'lgan asarlar, miniatyura (qog'ozga, kitob sahifalariga, pergamentga, pape-mashe, bezak buyumlariga, taqinchoqlarga ishlanadigan kichik hajmli rasmlar, tasvirlar). Asar mazmuniga, tasvirlanayotgan predmet va voqealarning turiga qarab – tarixiy janr, maishiy janr, bataliya janri, portret, animalistika janri, manzara, marina, natyurmort, allegoriya, mifologik va diniy janrlarga bo'linadi.</p> <p>Moybo'yoq rassomligi, bo'yoqni suvda eritib, xo'l yoki quruq suvoqqa ishlanadigan rassomlik, tempera, elim, enkaustika, emal, guash, akvarel, pastel, silikat rassomligi, keramika rassomligi kabi turlarga bo'linadi. Mozaika va vitraj rassomlik san'atida alohida o'rin eg'allaydi.</p> <p>Grafika o'z tasvir vositalariga ko'ra, badiiy-tasviriy asarlarni o'z ichiga oladi. Grafika asarlarida tasvir, asosan, oq, ba'zan rangli qog'ozlarga, shuningdek, pergament, mato, taxta, yog'och, metall, plastmassa va boshqalarga ishlanadi. Badiiy ifoda vositasi – kontur chiziq, shtrix, dog', soya va yorug'lik tushayotgan tomonni munosib rang berib ifodalash (svetoten). Tasvir - qalam, pero, mo'yqalam, bur, ko'mir bilan ishlanadi. Ranglardan – akvarel, guash, pastel. Ishlatish vazifasiga ko'ra grafika – dastgohli grafika, kitob va gazetag'jurnal grafikasi, amaliy grafikasi (guvohnoma, diplom, marka, afisha, etiketka,</p>
--	--	---

			<p>sanoat grafikasi va boshqalar), plakatga bo‘linadi.</p> <p>Grafika texnikasi 2 qismga – rasm va bosma grafikaga bo‘linadi. Rasm san’ati grafikaning eng qadimiy va keng tarqalgan qismi bo‘lib, rivojlanish tarixi ibtidoiy san’at namunalari bilan boshlanadi. Bosma grafika (gravyura, litografiya) ko‘p nusxada nashr qilinadi.</p>
Terrakota	Terracotta	Терракота	<p>(lot. terra – yer va cotta - qizdirilgan) – kulollikda ishlatiladigan loy va shunday loydan tayyorlab olovda qizdirilgan mahsulot, sopol. Ro‘zg‘orda (idish va buyumlar), haykaltaroshlik va qurilishda (sopolak, parchin, arxitektura detallari) ishlatiladi. Terrakota tayyorlash uchun, odatda, tarkibi va rangi bir hil tuproq tanlanadi. Shakl berishda yog‘och va gips qoliplar ishlatiladi. Koshinning ayrim xillari ham terrakotadan tayyorlanadi.</p>
Haykaltaroshlik	Sculpture	Скульптура	<p>tasviriy san’at sohasi. Tasvirlanadigan narsani hajmli, uch o‘lchovli (uzunlik, kenglik va balandlikka ega) qilib aks ettirish prinsipiga asoslangan san’at turi. Asosan, inson, qisman hayvon va qushlar, tabiat (manzara), narsalar (natyurmort) ifodalanadi. Haykaltaroshlik asarlari, asosan, 2 turga: hamma tomonidan ko‘rish imkoni bo‘lgan, mukammal shaklli haykalga va bir tomondangina ko‘riladigan relefga bo‘linadi. Haykalda kishining boshi, beligacha (byust), tizzasigacha, butun gavdasi (bular da aniq shaxs aks ettirilgan bo‘lsa - portret), ikki yoki bir necha kishi, tors ishlanishi mumkin. Relefn ing hajmi va shakli uning</p>

		<p>o'rnatiladigan joyiga, qanday mag'sadda hizmat qilishiga qarab tanlanadi, undan ko'pincha arxitektura (friz, fronton, plafon va boshqa.)da foydalaniladi. Relefning past (barelef), baland (gorelef), tasvir fonda o'yib ishlanadigan xillari bor.</p> <p>Mazmuni va vazifasiga ko'ra haykaltaroshlik monumental, monumental bezak, dastgohli, juda kichik haykaltaroshlik asarlari, plaketka, medal, tanga, gliptika mahsulotlariga bo'linadi.</p>
--	--	--

1. ILOVALAR
1.1. FANNING O'QUV DASTURI

ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ

Рўйхатга олинди:
№ БД – 5120300 – 3.08

201 йил "26" 05



Олий ва ўрта махсус таълим
вазирлиги

201 йил "24" 06

ЎЗБЕКИСТОННИНГ МАДАНИЯТИ ВА САЊАТИ ТАРИХИ

ФАН ДАСТУРИ

Билим соҳаси: 100000 – Гуманитар соҳа
Таълим соҳаси: 120000 – Гуманитар фанлар
Таълим йўналиши: 5120300 – Тарих (жаҳон мамлакатлари бўйича)

Тошкент 2018

Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлигининг 2018 йил “14” 08 даги “531”-сонли буйругининг 10-илоvasи билан фан дастури рўйхати тасдиқланган.

Фан дастури Олий ва ўрта махсус, касб-хунар таълими йўналишлари бўйича ўқув-услубий бирлашмалар фаолиятини Мувофиқлаштирувчи Кенгашнинг 2018 йил “26” 05 даги 2 - сонли баённомаси билан маъқулланган.

Фан дастури Ўзбекистон Миллий университетида ишлаб чиқилди.

Тузувчилар:

т.ф.д. Х.Э.Юнусова - ЎзМУ “Ўзбекистон тарихи” профессори в.б.
т.ф.н. К.А.Тўхтабеков - ЎзМУ “Ўзбекистон тарихи” кафедраси доценти.
т.ф.н. А.Холикулов - ЎзМУ “Ўзбекистон тарихи” кафедраси доценти.
У.А. Усаров – ЎзМУ “Ўзбекистон тарихи” кафедраси ўқитувчиси
Ж.Э. Тогаев – ЎзМУ “Ўзбекистон тарихи” кафедраси ўқитувчиси

Такризчилар:

Ж.Х.Исмоилова - Ўзбекистон тарихи Давлат музейи директори, т.ф.д. профессор.
Р.Э.Холикова - И.Каримова номидаги ТДТУ “Ўзбекистон тарихи” кафедраси мудири, т.ф.д. профессор.
Р.Б.Сиддиқов - ЎзМУ тарих факультети “Ўзбекистон тарихи” кафедраси доценти, т.ф.н.

Фан дастури Ўзбекистон Миллий университети Кенгашида кўриб чиқилган ва тавсия қилинган (2018 йил “12” 12 даги “3” -сонли баённома).

I. Ўқув фанининг долзарблиги ва олий касбий таълимдаги ўрни

Ўзбекистоннинг маданияти ва санъати тарихи фан сифатида. Унинг ижтимоий фанлар тизимида тутган ўрни. Курсни ўрганишнинг мақсад ва вазифалари, предмети. Ўзбекистоннинг маданияти ва санъати тарихига янги ёндашув. Ўзбекистоннинг маданияти ва санъати тарихини ўрганишда миллий гоанинг роли. Ўзбекистоннинг маданияти ва санъати тарихи фанини ривожлантиришда Ўзбекистон Республикасининг Биринчи Президенти И.А.Каримовнинг “Тарихий хотирасиз келажак йўк”, “Юксак маънавият - энгилмас куч” асарларининг ахамияти. “Кадрлар тайёрлаш Миллий Дастури”да кўрсатиб ўтилган талаба-ёшларнинг тарихий дунёкарашини бойитиш, уларда мустақил фикрни қарор топтириш, Ўзбекистоннинг маданияти ва санъати тарихининг инсон ва жамият тарихи билан узвий боғлиқлигини кўрсатиб бериш.

II. Ўқув фанининг мақсади ва вазифаси

Фани ўқитишнинг мақсади – Ўзбекистоннинг маданияти ва санъати тарихини давлат ва жамият тараккиёти натижаси эканлиги, Ўзбекистон давлатчилигини ривожланишида маданият ва санъатнинг муҳим соҳа ҳисобланишини кўрсатиб бериш.

Фани ўқитишнинг вазифалари - Ўзбекистоннинг маданияти ва санъати тарихи фанидаги янги назарияларни таҳлил этиш, фanning асосий йўналишларини таҳлил ва тадқиқ этиш малакасини ҳосил қилиш. давлат ва жамият тараккиётининг ривожланиш омилларини таҳлил қилншла Ўзбекистоннинг санъати тарихи фанининг ўрнини тушунтиришдан иборат.

Фан буйича талабаларнинг билим, кўникма ва малакаларига куйдаги талаблар қуйилади. **Талаба:**

– Ўзбекистон маданияти ва санъати тарихининг асосий босқичлари; Ўзбекистон санъати тарихининг маълум бир тарихий ходисалари; жаҳон тарихида Ўзбекистон маданияти ва санъатининг тутган ўрни тўғрисида **масаввурга эга бўлиши:**

– замонавий жараёнларда Ўзбекистон маданияти ва санъатининг жаҳон ҳамжамиятида намоён бўлиши; тарихийлик ва ҳолислик нуктаи назаридан Ўзбекистон санъати тарихи муаммоларининг ишлаб чиқилиши жараёнларини **билиши** керак;

– маданият, санъат, хусусан Ўзбекистон маданияти ва санъати тарихининг долзарб муаммоларини ўрганиш; Ўзбекистон маданияти ва санъати тарихининг турли даврларидаги тарихий жараёнларнинг ўзига ҳослиги хақида; Ўрта Осиё Ренессанси даврида маданият ва санъат; Ўзбекистоннинг мустақиллик йилларидаги маданияти ва санъати тарихини **билиш кўникмаларига эга бўлиши** керак.

– Ўзбекистоннинг маданияти ва санъати тарихини билиш; миллий-маънавий ва умуминсоний масалалар бўйича қарашларда илмий асослашни

ва ифодалашни билиши, бакалаврият йўналишига мутаносиб равишда ракобатбардош умумкасбий тайёргарликка эга бўлиши; янги билимларни мустақил эгаллай олиши, ўз фаолиятини илмий асосда ташкил этиши ва ўзини камолотга етказиш устида ишлай билиши; таълим йўналиши бўйича олий маълумотли шахсларга тегишли лавозимларнинг бўш ўринларида мустақил ишлай олиш тажрибасига эга бўлиши; бакалавриятнинг тегишли йўналиши доирасида танланган ихтисослик бўйича магистратура олий таълимини давом эттириш *малакаларига эга бўлиши* керак.

III. Асосий назарий қисм (маъруза машгулотлари)

I-мавзу. Кириш. Қадимги давр маданияти ва санъати, унинг тараккиёт босқичлари

Фаннинг предмети, мақсад ва вазифалари. Маданият ва санъат тушунчаси талқинида тарихийлик. Маданият ва санъатнинг инсон ва жамият ҳаётидаги ўрни ва ахамияти. Моддий ва маънавий маданият, уларнинг ўзаро алоқадорлиги. Моддий ва маънавий маданиятнинг асосий белгилари. Маданиятнинг соҳалар бўйича таснифи ва унинг турлари. Маданиятнинг кўринишлар бўйича таснифи. Маданият ва санъатнинг умумий хусусиятлари. Маданият ва санъатнинг жамият ҳаётидаги функцияси. Маданий кадриятлар ва уларнинг шахс баркамоллиги ҳамда жамият равижидаги ахамияти. Маданий тараккиётнинг асосий қонуниятлари. Маданий тараккиёт ва маънавий мерос. Миллий маданиятлар ривожланишининг назарий масалалари.

Ўрта Осиё қадимги маданияти ва санъатининг ўзига хос хусусиятлари. Диний эътиқодлар, урф-одатлар, ахлоқий меъёрлардаги умумийликнинг маданий умумийликнинг шаклланишидаги ахамияти. Ўрта Осиё яхлит маданиятини ташкил қилувчи субмаданиятлар (қадимги давлатлар Бактрия, Сўғд, Хоразм, Фарғона, Марғиёна) субмаданияти, сак ва массагетлар субмаданияти). Ўрта Осиёнинг Шарқ ва Ғарб маданияти ва санъати ўртасидаги воситачилик миссияси. Маданият ривожиди зардуштийлик ва “Авесто”нинг ўрни.

Ахамонийлар империяси даври маданияти ҳамда бу маданиятга Ўрта Осиё халқларининг қўшган хиссаси. Оромий ёзуви. Ўрта Осиёнинг юнон македон қўшинлари томонидан босиб олиши. Эллин маданияти ва санъати элементларининг кириб келиши. Салавкийлар даври эллин маданияти ва санъати. Юнон-Бактрия давлатида юнонлар ва маҳаллий маданият синтези. Шарқ эллин маданияти ва санъатининг вужудга келиши. Меъморчиликда эллин услубининг қўлланилиши. Хайкалтарошлик санъати. Театр санъати ва мусиқа. Юнон-Бактрия ёзуви.

Хоразм маданияти. Кушонлар даврида маданият ва санъатнинг юксалиши. Оромий ёзуви асосида кушон-бактрия алфавити, сўғд ва хоразм ёзувларининг ривожланиши. Буюк Ипак йўлининг Ўрта Осиё халқлари маданияти ва санъати тараккиётидаги ўрни.

2-мавзу. Илк ўрта асрлар маданият ва санъати

Эфталлийлар ва Турк хоқонлиги даврида санъат. Бу даврда Марказий Осиёда шаҳар ва шаҳардан ташқаридаги қўрғонларнинг юзага келиши. Турк хоқонлиги даври маданияти ва меъморчилик санъати.

Араб истилосининг маҳаллий маданият ва санъатга таъсири. Арабларнинг Ўрта Осиё ерларига кириб келиши натижасида ривожланиб бораётган иктисодий ва маданий ҳаётнинг издан чиқарилиши.

3-мавзу. IX-XIII асрларда Ўзбекистон маданияти ва санъати

VIII аср ўрталарида маданий ва ижтимоий ҳаёт. Меъморчилик санъатида янги типдаги бинолар, ижодий ғоялар. Қурилишда пишиқ гиштнинг кенг қўлланилиши ва меъморчиликнинг мураккаб композицияларини яратилиши. Сомонийлар, Қорахонийлар, Ғазнавийлар, Хоразмшоҳлар давлатларнинг ҳукмдорлари даврида маданият, сарой ва қасрлар, меҳмонхона ва хаммомларда мавзули ва манзарали расмлар ва бўртма тасвирлар билан безатилишига эътибор берилиши. Кулолчилик, шиша санъати, заргарлик. Бу даврдан хаттотлик ва миниатюра санъати.

4-мавзу. Амир Темур ва Темурийлар даври маданияти ва санъати

Амир Темур ва темурийлар даври маданияти ва санъати. Ободончилик ишлари. Хунармандчилик ва унинг турлари, таракқиёти. Савдо-сотикнинг ривожланиши, қарвон йўлларининг ахамияти. Амир Темур даврида Самарқанднинг улкан маданият марказига айланиши. Амир Темур даврида ижод қилган тасвирий санъат усталари. Китобат санъатида янги кашфиётлар. Амалий, амалий-безак санъати. Бронза, қумуш ва олтиндан қуйма идишлар ясаш борасидаги муваффақиятлар. Меъморчилик. Шаҳарсозлик. Улугбек расадхонаси. Сарой ва боғлар қурилиши. Самарқанд регистони. Темурийлар даврида тасвирий санъат ва унинг турлари ривож. Деворий рассомчилик, амалий декоратив санъат. Темур даври меъморчилиги. Накқошлик, хаттотлик санъати. Самарқанд миниатюра мактаби ва унинг хусусиятлари. Бадий хунармандчилик ва унинг турли шакллари. Кулолчилик соҳасидаги янгиликлар. Мирзо Улугбек даврида Самарқандда илм-фан ривож.

Улугбек ҳукмронлиги даврида санъат. Темурийлар даври санъати ва маданияти. Абдурахмон Жомий, Алишер Навоий, Камолiddин Бехзод ва бошқаларнинг ижодлари. Мамлакатдаги ободонлаштириш ишлари.

Адабиётнинг ривожланиши. Ўзбек адабиётининг вужудга келиши. Алишер Навоий, Абдурахмон Жомий, Ҳусайн Бойқаро ижоди. XIV асрнинг иккинчи ярми ва XV асрдаги маданий юксалишнинг ахамияти. XIV-XV асрлардаги маънавий-маданий ривожланишда Накшбандийликнинг хизматлари.

5-мавзу. XVI-XIX асрларда Ўзбек ҳоликлари даври маданият ва санъати

XV аср бошларига келиб Дашти қипчоқдаги қабилалар. Мустанкил давлат тузиш ҳаракатларининг бошланиши. Шайбонийлар даврида

маданияти ва меъморчилик. Хаттотлик санъатининг ривожланиши. Китоб безаш ҳамда миниатюра ишлаш борасидаги ютуқлар.

Аштархонийлар даврида меъморчилик санъати. Тасвирий санъат меъморий безакларда, амалий санъат буюмлари кенг ўрин эгаллаши ва уларнинг ажралмас қисмига айланиши. Шу даврда ишланган гилам ва сўзаналар, сопол буюмлар, Бухородаги Нодир-Девон Беги Самарқанддаги Шердор, Тилла кори мадрасаларининг безакларида тасвирий санъат ўз ифодасини топиши. Миниатюра ва китобот санъати.

Бухоро амирлигида маданият ва санъат. Бухоронинг Марказий Осиёдаги диний марказ сифатидаги ўрни. Меъморликда анъанавий қурилишларнинг давом этиши.

Хива хонлигида маданият ва санъат. Хиванинг машхур ёлгорликлари ва унинг тугалланган кўринишга эга бўлиши. Дарвозалар, карвонсаройлар ва мадрасалар. Пахлавон Махмуд макбараси (1810) ва Тош Ховли (1838) ёлгорликларининг безакдорлиги. Ичан қалъада хон қароргоҳи ва бошқа муҳим маъмурий бинолар. Улардаги санъат асарлари.

Кўкон хонлигида маданият ва санъат. Шаҳар марказида бозор ва гузарлар, жума масжид ҳамда чорраҳаларда катта бўлмаган карвонсаройлар. Бу давр меъморлигида лой ва паҳсанинг ишлатилиши.

6-мавзу. Россия империяси мустамлакаси даврида Туркистонда маданият ва санъат (XIX асрнинг иккинчи ярми – XX асрнинг бошлари)

XIX аср охири - XX аср бошларида Ўзбекистон маданияти ва санъати. Шаҳар ва қишлоқлар турмуш тарзининг ўзгариши. Аҳмад Дониш миниатюралари. Замонавий санъат турларининг кириб келиши. Архитектура ва тасвирий санъат. Рус ва Европа китоб санъатининг кенг ёйилиши. Кино ва театр санъати. Худойберган Девонов (1877-1940) фаолияти. Ўлкадаги дастлабки театрлар. Туркистонда амалий безак ва халқ санъати. Халқ амалий санъати усталари яратган буюмларнинг ташқи бозорларга чиқиши. Гиламдўзлик, зардўзлик, қандакорлик буюмлари. Чармдўзлик ва Бухоро зардўзлиги. Ганч ва ёғоч ўймакорлиги ҳамда гиламдўзликнинг жонланиши. Бухоролик уста Ширин Муродов, Кўконлик ёғоч ўймақори уста Нажмиддин Хайдаров, Хивалик уста Ота Полвонов ва бошқаларнинг фаолияти. Қулоччилик. Турли идиш товоқлар, ўйинчоқлар ва майда хайкалчаларнинг ишланиши. Заргарликда яратилган турли хилдаги тақинчоқ ва тиллақошлар.

XX аср бошларида Ўрта Осиёда амалий-декоратив санъат асарларидаги композициялар, сюжет ва мотивлар ва реал ҳаётнинг тасвирланиши. Уларнинг Европа ва маҳаллий меъморчилик санъати анъаналарининг бир-бирига яқинлашиши. Ўрта Осиёда рус бадий мактабининг талабалари. А.Каразин, И.Казаков, С.П.Юдин, Р.Зоммер.

7-мавзу. Совет мустабид тузуми даврида Ўзбекистон маданият ва санъати

Совет ҳокимияти ҳукмронлигининг дастлабки йиллари маданий ҳаётда мафкуравий босимнинг кучайиши. Маъмурий-буйрукбозлик ва “маданий инкилоб” каби сохта гоъларнинг жамият ҳаётига мажбуран сингдирилиши. “Пролетар адабиёти”ни яратиш йўлидаги ҳаракатлар ва соф миллийлик таъсиридан холи бўлмаган асарларни таъкиб остига олиниши. “Қизил қалам” ташкилоти.

Кино ва театр санъати. Н.Ғаниев, К.Ёрматов, М.Қаюмов, М.Уйғур, А.Ходоятлов, А.Бакиров, Р.Пирмухамедов, С.Эшонтўраева каби театр ва кино намоёндаларининг фаолияти. Советлаштириш сиёсатининг кино, театр соҳаларига кириб келиши. Театрнинг ташвиқотчилик ролини ошириш йўлидаги ҳаракатлар. Дастлабки кино асарлари. Алишер Навоий номидаги катта Академик опера ва балет театри, Муқимий номидаги мусикали драма театри.

Биринчи ўзбек халқ мусика ансамблининг ташкил этилиши. Т.Содиқов, М.Бурхонов, М.Ашрафийлар фаолияти ва уларнинг ўзбек халқ мусикаларини яратилишидаги хизматлари. Маҳаллий рассомлар ижодида биринчи марта замонавий санъатнинг турли кўриниш ва йўналишларининг пайдо бўлиши. Ўзбекистон тасвирий санъати ва унда “социалистик реализм”нинг акс этиши. Ў.Тансиқбоев, Б.Ҳамдамий, Усто Мўмин. 1920-1930 йиллар ўзбек замонавий меъморчилик санъати. Маҳаллий усталарнинг халқаро кўرғазмаларда ўз асарларини намойиш этиши. Ўзбек кулолчилик санъати.

1920 йилларда маданий меросни инкор этиш гоъсининг шаклланиши ва араб ёзувини лотин графикасига алмаштириш ҳақидаги қарор. Совет мафкурасининг ислом динига муносабати.

Мустабид совет тузуми йилларида вақтли матбуот ва маданий оқартув муассасалари фаолияти.

Иккинчи жаҳон урушидан кейин Ўзбекистон маданияти. Ўзбек адабиётининг таъкиб остига олиниши. Мамлакат бўйлаб янги қатагон палласининг бошланиши. Шайхзода, Мирзақалон Исмоилий, Шухрат, Саид Аҳмад, Шукрулло ижодлари. Қарақалпоқ адабиёти ва унинг ҳам таъкиб остига олиниши. Жамият ҳаётига “ривожланган социализм” гоъсининг сингдирилиши. Театр ва кино соҳасида таъкибнинг кучайиши. Кўшиқчилик санъати. Миллий мақом санъатини сақлаб қолиш йўлидаги ҳаракатлар. Ю.Ражабий, О.Нуриддинов, Н.Ҳасанов, К.Жабборовларнинг ўзбек кўшиқчилик санъатидаги хизматлари.

Урушдан кейинги йилларда Ўзбекистон рассомлари, хайкалтарошлари, халқ амалий санъати усталарининг ижодига совет воқелигини тасвирлаш кабиларнинг кириб келиши. Шу йилларда илмий тадқиқот ишлари, археологик экспедиция фаолиятлари. Варахша, Афросиёбда археологик ишлар олиб бориллиши.

1980 йилларда ўзбек маданиятига таъкибнинг кучайиши. Ислом динига муносабат. “Наврўз”нинг таъкиб остига олиниши.

8-мавзу. Мустақиллик йилларида Ўзбекистон маданияти ва санъати

Мустақиллик йилларида Ўзбекистонда маданий ҳаёт. Меъморчилик санъати. Меъморликда жиддий ўзгаришлар содир бўлиши. Унинг маъмурий ва маданий бинолар, уларнинг бадий конструктив ечимида ўз ифодасини топиши Мустақиллик йилларида барпо этилган меъморий мажмуалар.

Рассомлик санъатининг кенгайиши. Рассомларнинг миллий тарихга мурожати. Санъатда тарихий портрет ва композицияларнинг пайдо бўлиши. Амир Темур, Мирзо Улугбек, Жалолиддин Мангубердиларнинг иконаграфик портретлари. Натюрморт, портрет ва бошқа жанрлар. Ҳайкалтарошлик санъати.

Мустақиллик йиллари амалий санъат ривожини. Ўзбекистон Республикаси Президенти Фармони ва ҳукумат қарорлари, уларнинг амалий санъат ва халқ хунармандчилигининг ривожлантирилишига ривожлантиришга қаратилган тadbирлари. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Халқ амалий санъати ва хунармандчилигининг келгусидаги ривожини давлат томонидан қўллаб-қувватлаш тadbирлари тўғрисида”ги фармони, “Ўзбекистон халқ устаси” унвонини таъсис этилиши.

Кино ва театр соҳасидаги янгиликлар. Алишер Навоий номидаги Миллий академик драма театрининг янгидан барпо этилиши. Унинг 100 йиллик юбилейини нишонланиши. Мусика соҳасидаги халқаро кўрик ташловлар.

Мустақиллик йилларида кулолчилик. Мустақиллик йиллари ёғоч ўймакорлиги, унинг маъмурий ва монументал турларининг кенг ривожланиши.

IV. Семинар машғулотларини ташкил этиш бўйича кўрсатма ва тавсиялар

Семинар машғулотларида талабалар Ўзбекистоннинг маданияти ва санъати тарихи фанидан маъруза дарсларида олган назарий билимларини мустаҳкамлаш билан бирга, семинарлар мавзулари бўйича тайёргарлик кўриш жараёнида қўшимча адабиётлар ва тарихий манбалар билан танишиш орқали қўшимча билим ва хулосалар чиқариш кўникмаларини шакллантиришдан иборат. Натижада уларнинг билим доиралари илмий жиҳатдан асосланган ҳолда кенгайди.

“Ўзбекистон маданияти ва санъати тарихи” фани бўйича семинар машғулотларининг тавсия этиладиган мавзулари:

1. Ўзбекистон ижтимоий-иқтисодий ва сиёсий ривожланиш муаммолари ечимида санъат тарихининг аҳамияти.
2. Қадимги даврда Ўрта Осиёда хунармандчилик, шаҳарсозлик маданиятининг санъат ривожидида тутган ўрни.
3. Ўрта Осиёда вужудга келган қадимги давлатлар даврида санъат.
4. Ўрта асрларда Ўзбекистон санъати ва тараккиёт босқичлари.
5. XVI-XIX аср биринчи ярми Ўрта Осиё меъморчилиги, тасвирий санъат миниатюра ва амалий санъат.

6. Ўрта Осиё Россия империяси таркибида: меъморчилик, мусика, тасвирий санъат ва илм-фан ривож.
7. XIX асрда Ўрта Осиё Россия империяси таркибида: меъморчилик, мусика, тасвирий санъат ва илм-фан ривож.
8. XIX аср иккинчи ярми XX асрда Ўзбекистонда меъморчилик, тасвирий санъат миниатюра ва амалий санъат. XIX аср иккинчи ярми
9. Миллий маънавий кадрларнинг қайта тилланиши.
10. Ўзбекистонда замонавий миллий санъат ривож. Хунармандчилик, тасвирий санъат.

Семинар машгулотлари мультимедиа қурилмалари билан жихозланган аудиторияда бир академик гуруҳга бир ўқитувчи томонидан ўтказилиши лозим. Машгулотлар фаол ва интерактив усуллар ёрдамида ўтилиши, мос равишда муносиб педагогик ва ахборот технологиялар қўлланилиши максалга мувофиқдир.

V. Мустақил таълим ва мустақил ишлар

Мустақил таълимдан кўзланган максал ва вазифалар - бу талабаларда мустақил билим олиш кўникмаларини шакллантиришдан иборат.

Мустақил таълим семинар машгулотларига тайёргарлик кўришдан ташқари фан дастурида кўрсатилмаган, аммо фан бўйича талабанинг билим доирасини кенгайтирувчи қўшимча мавзулар доирасида берилган топшириқларни бажаришни ўз ичига олади.

Мустақил таълим учун тавсия этиладиган мавзулар:

1. Ибтидоий давр санъатига оид манбалар.
2. Қадимги Марказий Осиё санъати.
3. Илк ўрта асрларда санъат ривож.
4. IX-X асрлар Мовароуннаҳр санъати.
5. Камолиддин Бехзод ва миниатюра санъати.
6. Амир Темур қурдирган санъат обидалари.
7. Амир Темур даврида китобат санъати.
8. Регистон мажмуаси.
9. Самарканд санъат обидалари.
10. Бухоро санъат обидалари.
11. Хива санъат обидалари.
12. Тошкент санъат обидалари.
13. Фарғона водийсидаги санъат обидалари.
14. XVI-XIX аср биринчи ярми Ўрта Осиё халқлари санъати.
15. XIX аср иккинчи ярми XX асрда Ўзбекистонда меъморчилик, тасвирий санъат миниатюра ва амалий санъат.
16. Мустақиллик қошоналари.
17. Мустақиллик йилларида ганч ўймакорлиги санъати.
18. Мустақиллик йилларида заргарлик санъати.
19. Мустақиллик йилларида наққошлик санъати.

20. Мустақиллик йилларида ёғоч ўймакорлик санъати.
 21. Мустақиллик йилларида кандакорлик санъати
 22. Мустақиллик йилларида кулолчилик санъати тарихи
 23. Мустақиллик йилларида каштачилик санъати тарихи
 24. Мустақиллик йилларида қурилган макбара ва масжидлар.
 25. Мустақиллик йилларида миниатюра санъатининг ривожланиши.
- Мустақил ўзлаштириладиган мавзулар бўйича талабалар томонидан рефератлар тайёрлаш ва унн тақдирот қилиш тавсия этилади.

VI. Асосий ва қўшимча ўқув адабиётлар ҳамда ахборот манбалари

Асосий адабиётлар

1. Alessandro Arcangeli. Cultural history A concise Introduction. New York, 2012.
2. Абдуллаев Н.У. Санъат тарихи. 1-2-том. -Т.: Санъат, 2001.
3. Хожи Исмадуллох Абдуллох. Марказий Осиёда ислом маданияти. -Т.: Шарк, 2005.
4. Ҳамидов Ҳ. XVI-XIX асрлар юртимиз маданияти тарихидан лавҳалар. –Тошкент: Шарк, 2009.
5. Ўзбекистон санъати. (1991-2001 йиллар) -Т.: Шарк, 2001.

Қўшимча адабиётлар

6. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараккиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Т.1. –Тошкент.: Ўзбекистон, 2017.
7. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажигимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан қурамиз. –Т.: Ўзбекистон, 2017.
8. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон маънафатларини таъминлаш .. юрт тараккиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. Ўзбекистон Республикаси Қонституцияси қабул қилинганининг 24 йилигига бағишланган тантанали маросимдаги маросимдаги маърузаси. –Тошкент.: Ўзбекистон, 2017.
9. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. –Тошкент.: Ўзбекистон, 2017.
10. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Т.: Шарк, 1998.
11. Каримов И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч. Т.: Маънавият, 2008.
12. Каримов И.А. “Ўрта асрлар Шарк алломалари ва мутафаккирларининг тарихий мероси, унинг замонавий цивилизация ривождаги роли” мавзусидаги халқаро конференцияда сўзланган нутқи. “Халқ сўзи”, 2014 йил 15-16 май.
13. Каримов И.А. Она юртимиз бахту иқболи ва буюк келажиги йўлида хизмат қилиш – энг олий саодатдир. –Т., Ўзбекистон, 2015.
14. Абу Райхон Беруний. Ҳиндистон. 2-жилд. –Т., 1965.

15. Абдуазизова Н. Туркистон матбуоти тарихи. Т.: Академия, 2000.
16. Абдулла Авлоний. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. –Т; Ўқитувчи, 1992.
17. Абдуллаев Н. Санъат тарихи. 1-том. -Т.: Ўқитувчи, 1986.
18. Абдурасулов А. Хива (Тарихий-этнографик очерклар). – Тошкент: Ўзбекистон, 1997.
19. Абу Наср Фаробий. Фозил одамлар шахри. - Т., 1993.
20. Абулғози. Шажараи турк. Т.: Чўлпон, 1990.
21. Абулғозий Боходирхон. Шажараи турк. –Т.: 1992.
22. Авесто / Аскар Маҳкам таржимаси. – Тошкент. Шарк, 2001.
23. Азизхўжаев А. Давлатчилик ва маданият. -Т.: Шарк, 1997. Алимов У. Имом ал-Бухорий барҳаёт. - Т., 2011.
24. Алимухаммедов А. Антик адабиёт тарихи. -Т., 1969.
25. Амир Темур жаҳон тарихида. –Тошкент. Шарк, 1996.
26. Бобабеков Х.Н. История Коканда. –Т.: Фан, 2011.
27. Бобобеков Х.Н. Кўкон тарихи. —Т.: Фан, 1996.
28. Бобоев С. Аҳмад Фаргоний. - Т.: Тафаккур, 2010.
29. Бобожонов Д., Абдуллаев М. Хоразм амалий санъат усталари. –Хива 2010
30. Долимов У. Туркистонда жадид мактаблари. –Т; Университет, 2006.
31. Зоҳидов П. Меъмор олами. -Т.: Комус, 1996.
32. Исаев Й. Абу Али ибн Сино. - Т.: Тафаккур.
33. История Узбекистана (XVI– первая половина XIX в.). Коллектив авторов. Отв. ред. Алимова Д.А. – Ташкент: Фан, 2012.
34. Қодиров Н.Н. Туркистон ўлкасидаги рус таълим муассасалари тарихи. (1867-1917йй.) –Тошкент. Fan texnologiyalari, 2014.
35. Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. –Т; Маънавият, 2002.
36. Матниёзов М., Сотликов А. Жаҳон тарихи ва маданиятида Хоразм. – Урганч: Хоразм, 1999.
37. Маънавий ва диний етуклик давр талаби. -Т., 2010.
38. Маънавият юлдузлари. –Тошкент, 2001.
39. Муниров К. Хоразмда тарихнавислик: (XVII–XIX ва XX аср бошлари). – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2002.
40. Мустафаева Н. XX АСРДА ЎЗБЕКИСТОНДА МАДАНИЯТ ВА ТАФАККУР тарихшунослик таҳлили. –Тошкент. Наврўз, 2014.
41. Ойдинов Н. Рассом ўқитувчилар тайёрлаш муаммолари. –Т.: Ўқитувчи-Зиё, 1997.
42. Ойдинов Н. Ўзбекистон тасвирий санъати тарихидан лавҳалар. –Т.: Ўқитувчи, 1997.
43. Пугаченкова Г.А. Среднеазиатские миниатюры. -Т.: Шарк, 1994.
44. Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. Выдающиеся памятники Узбекистана. -Т.: Фан, 1985.
45. Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. История искусства Узбекистана. - М., 1985.
46. Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. Очерки искусства Средней Азии. -М.:

4.2. FANNING ISHCHI O'QUV DASTURI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

TARIX KAFEDRASI

“TASDIQLAYMAN”

GulDU prorektori H.H. Qo'shiyev

«_____» _____ 2021 y.

№ _____

O'ZBEKISTON MADANIYATI VA SAN'ATI TARIXI fanining

ISHCHI O'QUV DASTURI

2021-2022 o'quv yili

(2 kurs III – IV - semestrlar)

Bilim sohasi: 100000 – Gumanitar

Ta'lim sohasi: 120000 – Gumanitar fanlar

Ta'lim yo'nalishi: 5120300 – Tarix (jahon mamlakatlari bo'yicha)

Ishchi o'quv dasturi

Umumiy o'quv soati – 132/128

Shu jumladan:

Ma'ruza – 12/24

Amaliyot mashg'ulotlari – 20/24

Mustaqil ta'lim soati – 40/30

GULISTON – 2021

Fanning ishchi o'quv dasturi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018 yil 14.06. dagi 531 - sonli buyrug'i (buyruqning 10 - ilovasi) bilan tasdiqlangan "Jahon sivilizatsiyalari tarixi" fani namunaviy o'quv dasturi asosida ishlab chiqildi.

Tuzuvchi: L.B. Qodirova, GulDU "Tarix" kafedrasini dots., PhD _____
(imzo)

Taqrizchi: N.Mirzayeva, GulDU "Tarix" kafedrasini dots., t.f.n. _____
(imzo)

Fanning ishchi o'quv dasturi "Tarix" kafedrasining ____ - avgistdagi 1 - sonli majlisida ko'rib chiqilib, fakultet Ilmiy-uslubiy Kengashida ko'rib chiqish uchun tavsiya qilindi.

Kafedra mudiri: dots. B.To'yhiboyev

Fanning ishchi o'quv dasturi "Ijtimoiy-iqtisodiy" fakulteti Ilmiy-uslubiy Kengashining 2020 yil ____ - avgistdagi ____ - sonli majlisida tasdiqlandi.

Fakultet Ilmiy-uslubiy
Kengashi raisi: dots. Z.Zikriyayev

Fanning ishchi o'quv dasturi GulDU o'quv-uslubiy Kengashining 2021 yil "____"
avgustdagi № ____-sonli majlisida muhokama etildi va tasdiqlandi.

I. O'quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limdagi o'rni

O'zbekistonning madaniyati va san'ati tarixi fan sifatida. Uning ijtimoiy fanlar tizimida tutgan o'rni. Kursni o'rganishning maqsad va vazifalari, predmeti. O'zbekistonning madaniyati va san'ati tarixiga yangicha yondashuv. O'zbekistonning madaniyati va san'ati tarixini o'rganishda milliy g'oyaning roli. O'zbekistonning madaniyati va san'ati tarixi fanini rivojlantirishda O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A. Karimovning "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q", "Yuksak ma'naviyat engilmas kuch" asarlarining ahamiyati. "Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi" da ko'rsatib o'tilgan talaba-yoshlarning tarixiy dunyoqarashini boyitish, ularda mustaqil fikrni qaror toptirish, O'zbekistonning madaniyati va san'ati tarixining inson va jamiyat tarixi bilan uzviy bog'likligini ko'rsatib berish.

II. O'quv fanining maqsadi va vazifasi

Fanni o'qitishning maqsadi - O'zbekistonning madaniyati va san'ati tarixini davlat va jamiyat taraqqiyoti natijasi ekanligi, O'zbekiston davlatchiligini rivojlanishida madaniyat va san'atning muhim coha hisoblanishini ko'rsatib berish.

Fanni o'qitishning vazifalari - O'zbekistonning madaniyati va san'ati tarixi fanidagi yangi nazariyalarni tahlil etish, fanning asosiy yo'nalishlarini tahlil va tadqiq etish malakasini hosil qilish, davlat va jamiyat taraqqiyotining rivojlanish omillarini tahlil qilishda O'zbekistonning san'ati tarixi fanining o'rnini tushuntirishdai iborat.

Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi. Talaba:

- O'zbekiston madaniyati va san'ati tarixining asosiy bosqichlari; O'zbekiston san'ati tarixining ma'lum bir tarixiy hodisalari; jahon tarixida O'zbekiston madaniyati va san'atining tutgani o'rni to'g'risida **tasavvurga ega bo'lishi**;
- zamonaviy jarayonlarda O'zbekiston madaniyati va san'atining jahon hamjamiyatida namoyon bo'lishi; tarixiylik va xolislik nuqtai nazaridan O'zbekiston san'ati tarixi muammolarining ishlab chiqilishi jarayonlarini **bilishi** kerak;
- madaniyat, san'at, xususan O'zbekiston madaniyati va san'ati tarixining dolzarb muammolarini o'rganish; O'zbekiston madaniyati va san'ati tarixining turli davrlaridagi tarixiy jarayonlarning o'ziga xosligi haqida; O'rta Osiyo Renessansi davrida madaniyat va san'at; O'zbekistonning mustaqillik yillaridagi madaniyati va san'ati tarixini bilish **ko'nikmalariga ega bo'lishi** kerak.

O'zbekistonning madaniyati va san'ati tarixini bilish, milliy- ma'naviy va umuminsoniy masalalar bo'yicha qarashlarda ilmiy asoslashni va ifodalashni bilishi, bakalavriat yo'nalishiga mutanosib ravishda raqobatbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bulishi; yangi bilimlarni mustaqil egallay olishi, o'z faoliyatini ilmiy asosda tashkil etishi va o'zini kamolotga etkazish ustida ishlay bilishi; ta'lim yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotli shaxslarga tegishli lavozimlarning bo'sh o'rinlarida mustaqil ishlay olish tajribasiga ega bo'lishi; bakalavriatining tegishli yo'nalishi doirasida tanlangan ixtisoslik bo'yicha magistratura oliy ta'limini davom ettirish **malakalariga ega bo'lishi** kerak.

Fandan o'tiladigan mavzular va ular bo'yicha mashg'ulot turlariga ajratilgan soatlarning taqsimoti

3-SEMESTR

T/r	Fanning bo'limi va mavzusi, ma'ruza mazmuni	Soatlar			
		Jami	Ma'ruza	Amaliy mashg'ulot	MI
1	Kirish	12	2	4	6
2	Qadimgi davr madaniyati va sana'ati, uning taraqqiyot bosqichlari.	12	2	4	6
3	Ilk o'rta asrlar madaniyat va san'ati	12	2	4	6
4	IX-XIII asrlarda O'zbekiston madaniyati va san'ati	12	2	4	6
5	Amir Temur va Temuriylar davri madaniyati	14	4	4	6
	ON	10			10
	YaN				
	Jami	72	12	20	40

4-SEMESTR

T/r	Fanning bo'limi va mavzusi, ma'ruza mazmuni	Soatlar			
		Jami	Ma'ruza	Amaliy Mash'ulot	MI
1	XVI-XVIII asrlarda o'zbek xonliklari davri madaniyat va san'ati.	18	4	4	6
2	XVIII-XIX asrlarda o'zbek xonliklari davri madaniyati va san'ati	16	6	6	6
3	Rossiya mustamlakasi davrida Turkistonda madaniyat va san'at	16	4	4	6
4	Sovet mustabid tuzumi davrida O'zbekiston madaniyat va san'at	18	6	6	6
5	Mustaqillik yillarida O'zbekiston madaniyat va san'ati	16	4	4	6
	ON	10			10
	YaN				
	Jami	78	24	24	30

2. O'quv materiallari mazmuni

2.1. Ma'ruza mashg'ulotlari mazmuni

2.1.1. Kirish (2 soat)

Fanning predmeti, maqsad va vazifalari. Madaniyat va san'at tushunchasi talqinida tarixiylik. Madaniyat va san'atning inson va jamiyat hayotidagi o'rni va ahamiyati. Moddiy va ma'naviy madaniyat, ularning o'zaro aloqadorligi. Moddiy va ma'naviy madaniyatning asosiy belgilari. Madaniyatning sohalar bo'yicha tasnifi va uning turlari. Madaniyatning ko'rinishlar bo'yicha tasnifi. Madaniyat va san'atning umumiy xususiyatlari. Madaniyat va san'atning

jamiyat hayotidagi funksiyasi. Madaniy qadriyatlar va ularning shaxs barkamolligi hamda jamiyat ravnaqidagi ahamiyati. Madaniy taraqqiyotning asosiy qonuniyatlari. Madaniy taraqqiyot va ma'naviy meros. Milliy madaniyatlar rivojlanishining nazariy masalalari.

[A2:4; A3:3-12; A6:5].

2.1.2. Qadimgi davr madaniyati va san'ati, uning taraqqiyot bosqichlari (2 soat)

O'rta Osiyo qadimgi madaniyati va san'atining o'ziga xos xususiyatlari. Diniy e'tiqodlar, urf-odatlar, ahloqiy me'yorlardagi umumiylikning madaniy umumiylikning shakllanishidagi ahamiyati. O'rta Osiyo yaxlit madaniyatini tashkil qiluvchi submadaniyatlar, qadimgi davlatlar (Baqtriya, So'g'd, Xorazm, Farg'ona, Marg'iyona) submadaniyati, sak va massagetlar submadaniyati). O'rta Osiyoning Sharq va G'arb madaniyati va san'ati o'rtasidagi vositachilik missiyasi. Madaniyat rivojida zardo'shtiylik va "Avesto"ning o'rni.

Ahamoniylar imperiyasi davri madaniyati hamda bu madaniyatga O'rta Osiyo xalqlarining qo'shgan hissasi. Oromiy yozuvi.

O'rta Osiyoning yunon makedon qo'shinlari tomonidan bosib olishi. Ellin madaniyati va san'ati elementlarining kirib kelishi. Salavkiylar davri ellin madaniyati va san'ati. Yunon-Baqtriya davlatida yunonlar va mahalliy madaniyat sintezi. Sharq ellin madaniyati va san'atining vujudga kelishi. Me'morchilikda ellin uslubining qo'llanilishi. Haykaltaroshlik san'ati. Teatr san'ati va musiqa. Yunon-Baqtriya yozuvi.

Xorazm madaniyati. Kushonlar davrida madaniyat va san'atning yuksalishi. Oromiy yozuvi asosida kushon-baqtriya alfaviti, so'g'd va xorazm yozuvlarining rivojlanishi. Buyuk Ipak yo'lining O'rta Osiyo xalqlari madaniyati va san'ati taraqqiyotidagi o'rni.

[A2:5-14, 28-30, 31-38; A3:13-34, Q4, Q12].

2.1.3. Ilk o'rta asrlar madaniyat va san'ati (2 soat)

Eftaliylar va Turk xoqonligi davrida san'at. Bu davrda Markaziy Osiyoda shahar va shahardan tashqaridagi qo'rg'onlarning yuzaga kelishi. Turk hoqonligi davri madaniyati va me'morchilik san'ati.

Arab istilosining mahalliy madaniyat va san'atga ta'siri. Arablarning O'rta Osiyo yerlariga kirib kelishi natijasida rivojlanib borayotgan iqtisodiy va madaniy hayotning izdan chiqarishi.

[A2:121-122, 130-134; A3:35-38, A11: 14-22, A12, Q4, Q7].

2.1.4. IX-XIII asrlarda O'zbekiston madaniyati va san'ati (2 soat).

VIII asr o'rtalarida madaniy va ijtimoiy hayot. Me'morchilik san'atida yangi tipdagi binolar, ijodiy g'oyalar. Qurilishda pishiq g'ishtning keng qo'llanilishi va me'morlikning murakkab kompozitsiyalarini yaratilishi. Somoniylar, Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Xorazmshohlar davlatlarning hukmdorlari davrida madaniyat, saroy va qasrlar, mehmonxona va hammomlarda mavzuli va manzarali rasmlar va bo'rtma tasvirlar bilan bezatilishiga e'tibor berilishi. Kulolchilik, shisha san'ati, zargarlik. Bu davrdagi hattotlik va miniatyura san'ati.

[A2:134-136; A3:35-38, A11: 72-74, Q7].

2.1.5. Amir Temur va Temuriylar davri madaniyati va san'ati (4 soat).

Amir Temur va Temuriylar davri madaniyati va san'ati. Obodonchilik ishlari. Hunarmandchilik va uning turlari, taraqqiyoti. Savdo-sotiqning rivojlanishi, karvon yo'llarining ahamiyati. Amir Temur davrida Samarqandning ulkan madaniyat markaziga aylanishi. Amir Temur davrida ijod qilgan tasviriy san'at ustalari. Kitobat san'atida yangi kashfiyotlar. Amaliy, amaliy-bezak san'ati. Bronza, kumush va oltindan quyma idishlar yasash borasidagi muvaffaqiyatlar. Me'morchilik. Shaharsozlik. Ulug'bek rasadxonasi. Saroy va bog'lar qurilishi. Samarqand registoni. Temuriylar davrida tasviriy san'at va uning turlari rivoji. Devoriy rassomchilik, amaliy dekorativ san'at. Temur davri me'morchiligi. Naqqoshlik, xattotlik san'ati. Samarqand miniatyura maktabi va uning xususiyatlari. Badiiy hunarmandchilik va uning turli shakllari. Kulolchilik sohasidagi yangiliklar. Mirzo Ulug'bek davrida Samarqandda ilm-fan rivoji.

Ulug'bek hukmronligi davrida san'at. Temuriylar davri san'ati va madaniyati. Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Kamoliddin Behzod va boshqalarning ijodlari. Mamlakatdagi obodonlashtirish ishlari.

Adabiyotning rivojlanishi. O'zbek adabiyotining vujudga kelishi. Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Husayn Boyqaro ijodi. XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asrdagi madaniy yuksalishning ahamiyati. XIV-XV asrlardagi ma'naviy-madaniy rivojlanishda Naqshbandiylikning xizmatlari.

[A2: 136-139; A3:38-53, A5, Q5, Q7].

2.1.6. XVI-XVII asrlarda o'zbek xonliklari davri madaniyat va san'ati (6 soat).

XV asr boshlariga kelib Dashti Qipchoqdagi qabilalar. Mustaqil davlat tuzish harakatlarining boshlanishi. Shayboniylar davrida madaniyati va me'morchilik. Hattotlik san'atining rivojlanishi. Kitob bezash hamda miniatyura ishlash borasidagi yutuqlar.

Ashtarxoniylar davrida me'morchilik san'ati. Tasviriy san'at me'moriy bezaklarda, amaliy san'at buyumlari keng o'rin egallashi va ularning ajralmas qismiga aylanishi. Shu davrda ishlangan gilam va so'zanalar, sopol buyumlar, Buxorodagi Nodir-Devon Begi, Samarqanddagi Sherdor, Tillakori madrasalarining bezaklarida tasviriy san'at o'z ifodasini topishi. Miniatyura va kitobot san'ati.

[A2: 139-143; A3:38-53, A5, Q7].

2.1.7. XVIII-XIX asrlarda o'zbek xonliklari davri madaniyati va san'ati (4 soat).

Buxoro amirligida madaniyat va san'at. Buxoroning Markaziy Osiyodagi diniy markaz sifatidagi o'rni. Me'morlikda an'anaviy qurilishlarning davom etishi.

Xiva xonligida madaniyat va san'at. Xivaning mashhur yodgorliklari va uning tugallangan ko'rinishga ega bo'lishi. Darvozalar, karvonsaroylar va madrasalar. Pahlavon Mahmud maqbarasi (1810) va Tosh Hovli (1838) yodgorliklarining bezakdorligi. Ichan qal'ada xon qarorgohi va boshqa muhim ma'muriy binolar. Ulardagi san'at asarlari. Qo'qon xonligida madaniyat va san'at. Shahar markazida bozor va guzarlar, juma masjid hamda chorrahalarda katta bo'lmagan karvonsaroylar. Bu davr memorligida loy va pahasning ishlatilishi

[A5; Q6, Q7].

2.1.8. Rossiya imperiyasi mustamlakasi davrida Turkistonda madaniyat va san'at. XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlari (4 soat).

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida O'zbekiston madaniyati va san'ati. Shahar va qishloqlar turmush tarzining o'zgarishi. Ahmad Donish miniatyuralari. Zamonaviy san'at turlarining kirib kelishi. Arxitektura va tasviriy san'at. Rus va Yevropa kitob san'atining keng yoyilishi. Kino san'atining kirib kelishi. Xudoybergan Devonovning (1877-1940) faoliyati. Turkistonda amaliy bezak va xalq san'ati. Xalq amaliy san'ati ustalari yaratgan buyumlarning tashqi bozorlarga chiqishi. Gilamdo'zlik, zardo'zlik, kandakorlik buyumlari. Charmdo'zlik va Buxoro zardo'zligi. Ganch va yog'och o'ymakorligi hamda gilamdo'zlikning jonlanishi. Buxorolik usta Shirin Murodov, Qo'qonlik yog'och o'ymakori usta Najmiddin Haydarov, Xivalik usta Ota Polvonov va boshqalarning faoliyati. Kulolchilik. Turli idish tovoqlar, o'yinchoqlar va mayda haykalchalarning ishlanishi. Zargarlikda yaratilgan turli xildagi taqinchoq va tillaqoshlar.

XX asr boshlarida O'rta Osiyoda amaliy-dekorativ san'at asarlaridagi kompozitsiyalar, syujet va motivlar va real hayotning tasvirlanishi. Ularning Yevropa va mahalliy me'morchilik san'ati an'alarining bir-biriga yaqinlashishi. O'rta Osiyoda rus badiiy maktabining talabalari. A.Karazin, I.Kazakov, S.P.Yudin, R.Zommer.

[A3:53-56, Q7].

2.1.9. Sovet mustabid tuzumi davrida O'zbekiston madaniyat va san'at (6 soat).

Sovet hokimiyati hukmronligining dastlabki yillari madaniy hayotda mafkuraviy bosimning kuchayishi. Ma'muriy-buyruqbozlik va "madaniy inqilob" kabi soxta g'oyalarning jamiyat hayotiga majburan singdirilishi. "Proletar adabiyoti" ni yaratish yo'lidagi harakatlar va sof milliylik ta'siridan xoli bo'lmagan asarlarni ta'qib ostiga olinishi. "Qizil qalam" tashkiloti.

Kino va teatr san'ati. N.G'aniev, K.Yormatov, M.Qayumov, M.Uyg'ur, A.Hidoyatov, A.Bakirov, R.Pirmuhamedov, S.Eshonto'rayeva kabi teatr va kino namoyondalarining faoliyati. Sovetlashtirish siyosatining kino, teatr sohalariga kirib kelishi. Teatrning tashviqotchilik rolini oshirish yo'lidagi harakatlar. Dastlabki kino asarlari. Alisher Navoiy nomidagi katta Akademik

opera va balet teatri. Muqimiy nomidagi musiqali drama teatri.

Birinchi o'zbek xalq musiqa ansamblining tashkil etilishi. T. Sodiqov, M. Burxonov, M. Ashrafiylar faoliyati va ularning o'zbek xalq musiqalarini yaratilishidagi xizmatlari. Mahalliy rassomlar ijodida birinchi marta zamonaviy san'atning turli ko'rinish va yo'nalishlarining paydo bo'lishi.

O'zbekiston tasviriy san'ati va unda "sotsialistik realizm"ning aks etishi. O'. Tansiqboyev, B. Hamdamiy, Usto Mo'min. 1920-1930 yillar o'zbek zamonaviy me'morchilik san'ati. Mahalliy ustalarning xalqaro ko'rgazmalarda o'z asarlarini namoyish etishi. O'zbek kulolchilik san'ati.

1920 yillarda madaniy merosni inkor etish g'oyasining shakllanishi va arab yozuvini lotin grafikasiga almashtirish haqidagi qaror. Sovet mafkurasining islom diniga munosabati.

Mustabid sovet tuzumi yillarida vaqtli matbuot va madaniy o'qartuv muassasalari faoliyati.

Ikkinchi jahon urushidan keyin O'zbekiston madaniyati. O'zbek adabiyotining ta'qib ostiga olinishi. Mamlakat bo'ylab yangi qatag'on pallasining boshlanishi. Shayxzoda, Mirzakalon Ismoiliy, Shuhrat, Said Axmad, Shukrullo ijodlari. Qoraqalpoq adabiyoti va uning ham ta'qib ostiga olinishi. Jamiyat hayotiga "rivojlangan sotsializm" g'oyasining singdirilishi. Teatr va kino sohasida ta'qibning kuchayishi. Qo'shiqchilik san'ati. Milliy maqom san'atini saqlab qolish yo'lidagi harakatlar. Yu. Rajabiy, O. Nuriddinov, N. Hasanov, K. Jabborovlarning o'zbek qo'shiqchilik san'atidagi xizmatlari.

Urushdan keyingi yillarda O'zbekiston rassomlari, haykaltaroshlari, xalq amaliy san'ati ustalarining ijodiga sovet voqeligini tasvirlash kabilarning kirib kelishi. Shu yillarda ilmiy tadqiqot ishlari, arxeologik ekspeditsiya faoliyatlari. Varaxsha, Afrosiyobda arxeologik ishlar olib borilishi.

1980 yillarda o'zbek madaniyatiga ta'qibning kuchayishi. Islom diniga munosabat. "Navro'z" ning ta'qib ostiga olinishi.

[A3:56-9, A4, A6].

2.1.10. Mustaqillik yillarida O'zbekiston madaniyat va san'ati (4 soat).

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda madaniy hayot. Me'morchilik san'ati. Me'morlikda jiddiy o'zgarishlar sodir bo'lishi. Uning ma'muriy va madaniy binolar, ularning badiiy konstruktiv yechimida o'z ifodasini topishi. Mustaqillik yillarida barpo etilgan me'moriy majmualar.

Rassomlik san'atining kengayishi. Rassomlarning milliy tarixga murojati. San'atda tarixiy portret va kompozitsiyalarning paydo bo'lishi. Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Jaloliddin Manguberdilarning ikonagrafik portretlari. Natyurmort, portret va boshqa janrlar. Tasviriy san'atda rangtasvir. Haykaltaroshlik san'ati.

Mustaqillik yillari amaliy san'at rivoji. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni va hukumat qarorlari, ularning amaliy san'at va xalq hunarmandchiligining rivojlantirilishiga qaratilgan tadbirlari. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalq amaliy san'ati va hunarmandchiligining kelgusidagi rivojini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tadbirlari to'g'risida"gi farmoni. "O'zbekiston xalq ustasi" unvonining ta'sis etilishi.

Kino va teatr sohasidagi yangiliklar. Alisher Navoiy nomidagi Milliy akademik drama teatrining yangidan barpo etilishi. Uning 100 yillik yubileyining nishonlanishi. Musiqa sohasidagi xalqaro ko'rik tanlovlar.

Mustaqillik yillarida kulolchilik. Mustaqillik yillari yog'och o'ymakorligi, uning maishiy va monumental turlarining keng rivojlanishi.

[A3:56-9, A8, A9, A10].

2.2. Amaliy mashg'ulotlar mazmuni

2.2.1. O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanish muammolari yechimida san'at tarixining ahamiyati. (4 soat)

1. Madaniyat va san'atning mazmun-mohiyati.
2. Madaniyat va san'atning vazifalari

3. Madaniyatning sohalar bo'yicha tasnifi va uning turlari.
4. Madaniy taraqqiyotning asosiy qonuniyatlari.
5. Ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanish muammolari yechimida madaniyat va san'at tarixining ahamiyati.
6. O'zbekiston madaniyati va san'atining taraqqiyot bosqichlari.

2.2.2. O'rta Osiyoda vujudga kelgan qadimgi davlatlar davrida madaniyat va san'at (4 soat).

9. O'rta Osiyo qadimgi madaniyati va san'atining taraqqiyot omillari.
10. O'rta Osiyo yaxlit madaniyatini tashkil qiluvchi submadaniyatlar (qadimgi davlatlar Baqtriya, So'g'd, Xorazm, Farg'ona, Marg'iyona submadaniyati, sak va massagetlar submadaniyati).
11. Madaniyat rivojida zardo'shtilik va "Avesto"ning o'rni.
12. Ahamoniylar davrida O'rta Osiyo xalqlari madaniyati.
13. O'rta Osiyoda ellinizm davri madaniyati.
14. Kushonlar davri madaniyati va san'ati taraqqiyotining o'ziga xos xususiyatlari
15. Buyuk Ipak yo'li va madaniyatlar almashinuvi.

2.2.3. Ilk o'rta asrlar madaniyat va san'ati (4 soat).

1. Ilk o'rta asrlar madaniyati va san'ati taraqqiyotining o'ziga xos xususiyatlari.
2. Eftaliylar davrida madaniyat va san'at.
3. Turk xoqonligi davrida madaniyat va san'at.
4. Arab istilosining O'rta Osiyodagi madaniy muhitga ta'siri.
5. Arab xalifaligi davrida O'rta Osiyoda madaniyat va san'at taraqqiyoti.

2.2.4. IX-XIII asrlarda O'zbekiston madaniyati va san'ati (4 soat).

1. IX-XIII asrlarda siyosiy va ijtimoiy hayotning madaniy taraqqiyotga ta'siri
2. Somoniylar davri madaniyati va sana'ati
3. Qoraxoniylar davri madaniyati va sana'ati
4. G'aznaviylar davri madaniyati va sana'ati
5. Xorazmshohlar davri madaniyati va sana'ati
6. Hattotlik va miniatyura san'ati taraqqiyoti

2.2.5. Amir Temur va Temuriylar davri madaniyati va san'ati (6 soat).

1. Amir Temur va temuriylar davridagi madaniyat va san'at taraqqiyotining omillari
2. Me'morchilik va shaharsozlik.
3. Temuriylar davrida tasviriy san'at va uning turlari rivoji.
4. Badiiy hunarmandchilik va uning turli shakllari.
5. Temuriylar davrida ilm-fan taraqqiyoti
6. Temuriylar davrida adabiyot taraqqiyoti
7. XIV-XV asrlardagi ma'naviy-madaniy rivojlanishda Naqshbandiylikning ahamiyati
8. XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asrdagi madaniy yuksalishning ahamiyati.

2.2.6. XVI-XVII asrlarda O'zbek xonliklari davri madaniyat va san'ati (4 soat)

6. XVI-XVII asrlarda madaniyat va san'at taraqqiyotining o'ziga xos xususiyatlari
7. Shayboniylar davrida madaniyati va me'morchilik.
8. Ashtarxoniylar davri madaniyati va san'ati
9. XVI-XVII asrlarda hattotlik va kitobot san'atining rivojlanishi.
10. Badiiy hunarmandchilik taraqqiyoti

2.2.7. XVIII-XIX asrlarda o'zbek xonliklari davri madaniyati va san'ati (6 soat)

9. XVIII-XIX asrlardagi siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning madaniy hayotga ta'siri.
10. Buxoro amirligida madaniyat va san'atning o'ziga xos xususiyatlari
11. Buxoro amirligida me'morchilik taraqqiyoti
12. Xiva xonligida madaniyat va san'at.
13. Xiva xonligida me'morchilik taraqqiyoti
14. Qo'qon xonligida madaniyat va san'at.

15. Qo'qon xonligida me'morchilik taraqqiyoti
 16. O'rta Osiyo xonliklari davrida hattotlik va kitobot san'atining rivojlanishi.
- 2.1.8. Rossiya mustamlakasi davrida Turkistonda madaniyat va san'at (4 soat)**
8. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda madaniyat va san'at taraqqiyotining o'ziga xos xususiyatlari.
 9. Madaniy hayotda sodir bo'lgan o'zgarishlar
 10. Me'morchilik taraqqiyoti
 11. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida tasviriy san'at
 12. Turkistonda amaliy bezak va xalq san'ati.
 13. Zamonaviy san'at turlarining kirib kelishi.
 14. Ilm-fan taraqqiyoti
- 2.1.9. Sovet mustabid tuzumi davrida O'zbekiston madaniyat va san'at (6 soat).**
7. Mustabid tuzum xususiyatlarining madaniy hayotga ta'siri.
 8. Ikkinchi jahon urushi yillarida madaniyat va san'at.
 9. Me'morchilik taraqqiyoti
 10. Tasviriy va haykaltaroshlik san'ati
 11. Milliy hunarmandchilikning rivoji
 12. Kino va teatr san'ati
 13. Ilm-fan taraqqiyoti
 14. Madaniy hayotga mafkuraviy tazyiq oqibatlari
- 2.2.10. Mustaqillik yillarida O'zbekiston madaniyat va san'ati (4 soat)**
8. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda madaniy hayot taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatgan omillar
 9. Milliy ma'naviy qadriyatlarning qayta tiklanishi.
 10. Me'morchilik san'atidagi o'zgarishlar va mustaqillik yillarida barpo etilgan me'moriy majmualar.
 11. Tasviriy san'at taraqqiyoti
 12. Haykaltaroshlik san'ati.
 13. Mustaqillik yillari amaliy san'ati va xalq hunarmandchiligining rivoji
 14. Kino va teatr san'ati

Seminar mashg'ulotlari multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi lozim. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishla munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiqdir.

3. Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakli va mazmuni

Talabalarning ma'ruza, seminar mashg'ulotlariga tayyorlanib kelishi va o'tilgan materiallarni mustaqil o'zlashtirishlari uchun kafedra o'qituvchilari tomonidan ma'ruza matnlari ishlab chiqilgan, har bir talabaga ushbu materiallardan foydalanish tavsiya etaladi.

Talabaning fanni mustaqil tarzda qanday o'zlashtirganligi joriy, oraliq va yakuniy nazoratda o'z aksini topadi. Shu sababli reyting tizimida mustaqil ishlarga alohida ball ajratilmaydi, ular JN, ON va YaN lar tarkibiga kiritilgan.

Mustaqil ta'lim uchun fan bo'yicha jami 3-semestrda 40 va 4- semestrda 30 soat ajratilgan.

Ushbu soatlar taxminan quyidagi tartibda taqsimlanadi:

- Oraliq nazoratga tayyorlanish – 10 / 10 soat.
- Berilgan mavzular bo'yicha tayyorlangan mustaqil ishlar yuzasidan hisobot tayyorlash – 30/20 soat.

Amaliy mashg'ulotlarda nazariy bilimlar mavzuga oid savol va topshiriqlarni bajarish orqali mustahkamlanadi. O'zbekiston madaniyati va san'ati tarixi fanini chuqur o'zlashtirish

uchun talaba fanning har bir bo'limini mustaqil o'rganishi va berilgan topshiriqlarni bajarish orqali mustahkamlashi zarur.

Qoldirilgan darslarni topshirish uchun talaba dars materialini tayyorlab kelishi va o'qituvchining og'zaki suhbatidan o'tishi zarur. Qoldirilgan ON va YaN lar belgilangan tartib bo'yicha topshiriladi.

Mustaqil ta'limning mazmuni va hajmi
(Ma'ruza, amaliy mashg'ulot va mustaqil ishlar)

Mustaqil ta'limga oid bo'lim va mavzular	Mustaqil ta'limga oid topshiriq va tavsiyalar	Bajarilish muddatlari
Ma'lum tarixiy davrda ijod qilgan shaxs faoliyati	Berilgan davrda yashab ijod qilgan shaxs haqida ma'lumot to'plash	1-2 hafta
Ma'lum tarixiy davr me'morchiligi	Berilgan davrda yaratilgan me'morchilik obidasi haqida ma'lumot to'plash	3-4 hafta
Ma'lum tarixiy davr tasviriy san'ati	Berilgan davrda yaratilgan tasviriy san'at asari haqida ma'lumot to'plash	5-6 hafta
Ma'lum tarixiy davr haykaltaroshligi	Berilgan davrda yaratilgan haykaltaroshlik asari haqida ma'lumot to'plash	7-8 hafta
Ma'lum tarixiy davrdagi madaniyat va san'at taraqqiyoti	Berilgan davr madaniyat va san'at taraqqiyoti haqida ma'lumot to'plash va taqdimot tayyorlash	9-11 hafta
Jami		

4. Reyting baholash tizimi

4.1. Reyting nazorati jadvali

Fan bir o'quv yilida va bir semestrda o'qitiladi. Elektron ta'lim tizimi talablaridan kelib chiqqan holda bitta blok-moduldan iborat va quyidagi reyting nazoratlari grafigi belgilandi:

№	Reyting nazorat /shakli, maksimal ballari	1-ON	2-ON	YaN
1.	Maksimal baho	5	5	5
2.	Shakli: (og'zaki, test, yozma)	Yozma (3 tadan topshiriq beriladi. Har bir topshiriq 5 baho)	Og'zaki (3 tadan topshiriq beriladi. Har bir topshiriq 5 baho)	Yozma (3 savol, har bir savol 5 baho)
3.	Muddati (haftalarda)	7	15	17

4.2. Baholash mezonlari:

- Seminar mashg'ulotlarini bajarishda olingan baholar oraliq nazoratda inobatga olinadi.
- Oraliq nazorat yozma yoki og'zaki (3 ta topshiriq, har bittasi 5 bahodan baholanadi) shaklda o'tkaziladi. Barcha sovallarga to'g'ri javob berilsa, 5 baho bilan baholanadi.
- Yakuniy nazorat variantlari ma'ruza va seminar mashg'ulotlar mavzularini qamrab olgan holda shakllantiriladi. 3 ta savoldan iborat variantlar asosida yozma ish o'tkazilib, har bir savol 5 baho bilan baholanadi va 3 ta savol bo'yicha o'rtacha chiqqan baho bilan baholanadi.

Talabalarni o'zlashtirishini baholash:

5 baho "a'lo"

- fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtira olish;

- fanga oid asosiy ko'rsatgichlarni bilish va baholash;
- berilgan savolarga batavsil javob berish va mazmunini to'la yoritish;
- fikrni ilmiy-nazariy adabiyotlar yordamida asoslash;
- barcha amaliy ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish;
- nazariy bilimlarni turli vaziyatda qo'llay olish;
- tizimli yondoshish, uzviylikka amal qilish.

4 baho “yaxshi”

- fanga oid asosiy ko'rsatgichlarni bilish va baholash;
- fanga oid asosiy ko'rsatgichlarni bilish va baholash;
- tizimli yondoshish, uzviylikka amal qilish;
- asosiy amaliy ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish;
- nazariy bilimlarni turli vaziyatda u yoki bu qo'llay olish darajada.

3 baho “qoniqarli”.

- fanga oid asosiy ko'rsatgichlarni bilish va baholash;
- fanga oid asosiy ko'rsatgichlarni bilish va baholash;
- ayrim amaliy ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish;
- nazariy bilimlarni turli vaziyatda u yoki bu qo'llay olish darajada.

2 baho “qoniqarsiz”.

- O'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil fikr yurita olmaslik;
- fanga tizimli yondoshish olmaslik;
- asosiy amaliy ko'nikma va malakalarni o'zlashtira olmaslik.

5.INFORMATSION-USLUBIY TA'MINOT

5.1. ASOSIY ADABIYOTLAR

1. Alessandro Arcangeli. Cultural history a concise Introduction. New York, 2012.
2. Абдуллаев Н.У. Санъат тарихи. 1-2-том. –Т.: Ўқитувчи, 1986, 1987
3. Abdullayev N.U. O'zbekiston san'ati tarixi. –Т.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2007.
4. Хожи Исмагуллох Абдуллох, Марказий Осиёда ислом маданияти. –Т.: Шарқ, 2005.
5. Ўзбекистон санъати (1991-2001 йиллар) –Т.: Шарқ, 2001.
6. Ҳамидов Ҳ., Эрназаров Ф. XVI-XIX асрлар юртимиз маданияти тарихидан лавҳалар. - Тошкент: Фан, 2009.
7. Qoraboyev U., Soatov G'. O'zbekiston madaniyati. – Toshkent: Tafakkur bo'stoni, 2011.

5.2. QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга қўтарамиз. Т. I. -Тошкент.: Ўзбекистон, 2017.
2. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан қурамиз. -Т.: Ўзбекистон, 2017.
3. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 24 йилигига бағишланган тантанали маросимидаги маросимидаги маърузаси. -Тошкент.: Ўзбекистон, 2017.
4. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. -Тошкент.: Ўзбекистон, 2017.
5. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. - Т.: Шарқ, 1998.
6. Каримов И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч. Т.: Маънавият, 2008.
7. Каримов И.А. “Ўрта асрлар Шарқ алломалари ва мутафаккирларининг тарихий мероси. унинг замонавий цивилизация ривожигаги роли” мавзусидаги халқаро конференцияда



- сўзланган нутқи. «Халқ сўзи», 2014 йил 15-16 май.
8. Абдуазизова Н. Туркистон матбуоти тарихи. - Т.: Академия, 2000.
 9. Абдулла Авлоний. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. –Т: Ўқитувчи, 1992.
 10. Абдурасулов А. Хива (Тарихий-этнографик очерклар). - Тошкент: Ўзбекистон, 1997.
 11. Абу Наср Фаробий. Фозил одамлар шаҳри. - Т., 1993.
 12. Абулғозий Боходирхон. Шажараи турк. -Т.: 1992.
 13. Авесто / Асқар Маҳкам таржимаси. – Т.: Шарқ, 2001.
 14. Азизхўжаев А. Давлатчилик ва маданият. -Т.: Шарқ, 1997.
 15. Алимов У. Имом ал-Бухорий барҳаёт. - Т., 2011.
 16. Алимухаммедов А. Антик адабиёт тарихи. -Т., 1969.
 17. Амир Темур жаҳон тарихида. –Т.: Шарқ, 1996.
 18. Бобоев С. Аҳмад Фарғоний. - Т.: Тафаккур, 2010.
 19. Бобожонов Д., Абдуллаев М. Хоразм амалий санъат усталари. –Хива, 2010.
 20. Долимов У. Туркистонда жаҳид мактаблари. –Т.: Университет, 2006.
 21. Зоҳидов П. Меъмор олами. -Т.: Қомус, 1996.
 22. История Узбекистана (XVI- первая половина XIX в.). Коллектив авторов. Отв. ред. Алимова ДА. – Т.: Фан, 2012.
 23. Қодиров Н.Н. Туркистон ўлкасидаги рус таълим муассасалари тарихи. (1867-1917 йй.) –Тошкент: Fan texnologiyalari, 2014,
 24. Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. –Т.: Маънавият. 2002.
 25. Матниёзов М., Сотлиқов А. Жаҳон тарихи ва маданиятида Хоразм. - Урганч: Хоразм, 1999.
 26. Маънавий ва диний етуклик давр талаби, -Т., 2010.
 27. Маънавият юлдузлари: (Марказий Осиёлик машҳур сиймолар, алломалар, адиблар)// Тўпловчи ва масъул муҳаррир: М. М. Хайруллаев. Тўлдирилган қайта нашр. – Т.: А. Қодирий номидаги халқ мероси нашр., 2001. – 348 б.
 28. Муниров К. Хоразмда тарихнавислик: (XVII -XIX ва XX аср бошлари). - Тошкент: Фафур Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 2002,
 29. Мустафаева Н. XX асрда Ўзбекистонда маданият ва тафаккур тарихшунослик таҳлили. –Тошкент: Наврўз, 2014.
 30. Ойдинов Н. Ўзбекистон тасвирий санъати тарихидан лавҳалар. -Т.: Ўқитувчи, 1997.
 31. Пугаченкова Г.А. Среднеазиатские миниатюры. -Т.: Шарқ, 1994.
 32. Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. Выдающиеся памятники Узбекистана. -Т.: Фан, 1985.
 33. Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. История искусства Узбекистана. - М., 1985.
 34. Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. Очерки искусства Средней Азии. - М.: Искусство, 1982.
 35. Рахметов М. Узбекский театр. - Т., 1981.
 36. Ртвеладзе Э.В., Сагдуллаев А.С. Памятники минувших веков. -Т.: Узбекистан, 1996.
 37. Султонов У. Тошкент масжидлари тарихи. -Т.; Янги аср авлоди. 2015.
 38. Тарих шоҳидлиги ва сабоқлари. Чоризм ва совет мустамлакачилиги даврида Ўзбекистон миллий бойликларининг ўзлаштирилиши. Масъул муҳаррир Д.Алимова. -Т.: Шарқ, 2001.
 39. Темур тузуклари. -Т.: 1991, 1996, 2011, 2015.
 40. Туленов Ж., Ғофуров З. Мустақиллик ва миллий тикланиш. - Т.: Ўзбекистон, 1996.
 41. Ўзбекистоннинг санъати тарихи. -Т.: Фан. 1999.
 42. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Биринчи китоб. Туркистон Чор Россияси


- мустамлакачилиги лаврида. Масъул муҳаррир М.Жураев. - Т.: Шарк. 2000.
43. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. Масъул муҳаррир М.Жураев. - Т.; Шарк. 2000.
 44. Фозилова О., Юлдашева У. Мустақиллик қошоналари. - Т.: Халқ мероси, 2002.
 45. Хайруллаев М. Ўрта Осиёда илк Уйғониш даври маданияти. - Т.: 1994,
 46. Холбоев С. Миллий университетнинг тарихий илдизлари ва ташкил топиши. -Т; Шарк, 2003.
 47. Хоразм тарихи. 1 жилд. – Урганч,1996.
 48. Худойкулов Т. XIX асрда Қўқон хонлиги (ижтимоий-сиёсий, иқтисодий ва маданий ҳаёти). –Тошкент: Тафаккур. 2016.
 49. Хаққулов Л. Таъмир санъати. -Т.: Меҳнат, 1991.
 50. Хофиз Таниш Бухорий. Абдулланом. 1-2 жилд. - Т.: Шарк, 1999-2000.
 51. Шарипов Р. Туркистон жадидчилик ҳаракати тарихидан. -Т: Ўқитувчи, 2002.

5.3. Internet saytlari:

1. www.ziyonet.uz.
2. www.edu.uz.
3. www.google.uz.
4. www.fvat.uz.
5. www.mirknig.ru.

4.2. TARQATMA MATERIALLAR






Qoyatosh suratlari tarixiy manba sifatida



Ibtidoiy va qadimgi kishilarning san'ati, estetik iste'dodi qanday bo'lganligi haqidagi ma'lumot



Qadimgi insonlarni o'rab turgan tabiiy muhit: hayvonot va o'simlik dunyosi, bugungi kunda yo'q bo'lib ketgan hayvonlar haqida ma'lumot



Ibtidoiy yoki qadimgi davr kishilarining xo'jalik hayoti haqida, hayvonlarni ov qilish, qo'lga o'rgatish va xonakilashtirish, chorvachilikning vujudga kelishi, uning turlari va dehqonchilik taraqqiyoti haqida ma'lumot



Qadimgi insonlarning g'oyaviy qarashlari va diniy e'tiqodini o'rganishda muhim tarixiy manba. Suratlarda tasvirlangan e'tiqodiy va diniy marosimlar, urf-odatlar qadimgi insonlarning dunyoqarish haqidagi ma'lumot.

Bizgacha yetib kelgan «Avesto» qismlari

«Yasna»

- («sajda», «ta'zim») — xudolar va olovning muqaddasligi, turli xil marosimlar va urf-odatlar haqidagi qism. Bu qismda olovning oliy xudo Ahura (ulugʻ) - Mazda (donishmand) izmidaligi, olovning insonning gunohkor yoki gunohsiz ekanligini aniqlab beruvchi xususiyati kuylanadi;

«Yasht»

- Ahuramazda, yer, quyosh, osmon (havo) va suv hamda insonning ma'naviy dunyosi (ma'rifati, ahloqi va iymon-e'tiqodi)ni madh etuvchi alqovlar

«Visparad»

- ma'budlarni sharaflovchi duolar va ibodat (namoz) payti ularga qarata aytiladigan murojaatlar;

«Videvdod»

- Ahuramazda va Zardushtning savol-javoblari, yomon ruhlar va devlami yengish yo'Uari va gunohlardan poklanish qoidalari.

Amir Temur davri madaniy taraqqiyotini yuzaga keltirgan omillar

Ijtimoiy-siyosiy omil

- Amir Temur parokanda bo'lgan xalqning boshini bir yerga qovushtirib, mamlakatdagi o'zboshimchaliklar va zo'ravonliklarga barham bergan.

Iqtisodiy omil

- Izdan chiqib ketgan xo'jalik tizimlari: dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq tizimi tartibga tushirildi. Iqtisodiy islohotlar — mulk, soliq, vaqf va boshqalar to'g'risida qonunlar qabul qilinib, pul islohoti o'tkazilgan. Boshqa davlatlar bilan diplomatic va savdo-sotiq aloqalari o'matilgan.

Ma'naviy omil

- Mo'g'ullar tomonidan oyoqosti va yo'q qilingan madaniy boyliklar, ma'naviy meros hamda ma'naviy qadriyatlar qayta tiklanishiga alohida e'tibor berilgan. Mo'g'ullar istilosigacha hukmronlik qilgan sulolalarning ilm-fanni rivojlantirish, ma'naviy boyliklarni, ma'naviy-madaniy merosni to'plash, saqlash, foydalanish va ularni rivojlantirish an'analari davom ettirilgan.

G'oyaviy-mafkuraviy omil

- Davlat mafkurasining ahvoli va holati. Bu davriga kelib. Movarounnahr va Xurosonda keng tarqalgan tasavvuf- Naqshbandiylik ta'limoti jamiyat hayotidan mustahkam o'rin egallay boshlagan edi.

Huquqiy omil

- Mamlakat hayotida huquq ustuvorligiga erishish. qonunlarga qat'iy amal qilish, oddiy fuqarodan tortib, oliy martabali aslzodalargacha qonunchilikka itoat etishi adolatli davlat siyosatining asosiy dasturiga aylangan.

4.4. TESTLAR

1. Madaniyat nechta asosiy qismga bo‘linadi?

- A. 1 qismga B. 2 qismga C. 3 qismga D. 4 qismga

2. Madaniy meros nima?

- A. Bilimlar majmuasi B. Me‘moriy obidalar
C. San‘at yodgorliklari D. Qadriyat, g‘oyalar, tajriba, bilimlarni o‘zlashtirish

3. Massagetlarning quyoshga sig‘inganliklari va otni qurbon qilganliklari haqida kim yozib qoldirgan?

- A. Beruniy B. Suqrot C. Gerodot D. Arrian

4. Ikkidaryo oralig‘iga xos bo‘lgan zinasimon inshoot-zikkurat topilgan Markaziy Osiyo yodgorligi?

- A) Oltintepa B) Nomozgoh C) Kellelitepa D) Sopollitepa

5. “Avesto”ning nechta kitobi hozirgiacha saqlanib qolgan?

- A. 4 ta B. 5 ta C. 7 ta D. 6 ta

6. Ahuramazda, yer, quyosh, osmon (havo) va suv hamda insonning ma‘naviy dunyosi (ma‘rifati, axloqi va iymon-e‘tiqodi)ni madh etuvchi alqovlar “Avesto” ning qaysi qismini tashkil etadi?

- A) Yasht B) Videvdat C) Yasna D) Visparad

7. “ Kim g‘alla eksa, u haqiqat tarqatadi” degan fikr qaysi kitobda berilgan?

- A. Videvdat B. Yasna C. Yasht D. Vindedat

8. Yunon-Baqtriya davrida hozirgi Afg‘oniston hududida butunlay yunon an‘analari asosida barpo etilgan shaharni aniqlang

- A) Oyxonim B) Baqtra C) Marv D) Qo‘hnaqal‘a

9. Parfiya davrining eng mashhur yodgorliklaridan biri- ellinistik san‘atning ajoyib namunasi sanaladigan ritonlar qaysi yodgorlikdan topilgan

- A) Niso B) Oyxonum C)Taxti Sangin D) Termiz

10. Kushon davriga oid yodgorliklarni aniqlang

1.Xolchayon; 2. Dalvarzintepa; 3.Sho‘rabashat; 4.Bitayan; 5.Uchqo‘rg‘on; 6.Ayritom; 7.Zartepa; 8.Ershi

- A. 1,2,6,7 B. 1,2,3,4 C. 4,5,6,8 D. 2,3,4,5

11. Zardushtiylikdan ezgulik va yovuzlikning o‘zaro kurashi, buddaviylikdan taqvodorlik yo‘lini; nasroniylikdan missiya (xudoning vakili) g‘oyalarini birlashtirgan dinni aniqlang

A. Zurvonlik B. Moniylik C. Mazdakiylik D. Nestorianlik

12. Kushon davriga oid yodgorliklarni aniqlang

1.Xolchayon; 2. Dalvarzintepa; 3.Sho'rabashat; 4.Bityan; 5.Uchqo'rg'on;
6.Ayritom; 7.Zartepa; 8.Ershi

A. 1,2,6,7 B. 1,2,3,4 C. 4,5,6,8 D. 2,3,4,5

13. Sheroz kutubxonasi bilan raqobat darajasida bo'lgan ulkan kutubxonaga asos solgan sulola qaysi qatorda to'g'ri berilgan?

A) Qoraxoniylar B) Saljuqiylar C). Xorazmshohlar D) Somoniylar.

14. Markaziy Osiyo xalqlari milliy madaniy uyg'onish davri nechta davrga bo'linadi?

A) 3 ta davrga bo'linadi B) 4 ta davrga bo'linadi C) 6 ta davrga bo'linadi D) 1 ta davrga bo'linadi

15. Uyg'onish davriga alohida tipdagi madaniyat deb baho bergan shaxs kim?

A. Beruniy B. Ibn Sino C. Xorazmiy D. Farobiy

16. Islom sivilizatsiyasining rivojlanish xususiyatini belgilab bergan muhim omilni aniqlang.

A) arab islom madaniyatining ancha qadimiy va ancha yuksak mahalliy madaniyatni inkor etmay qabul qilishi

B)arablarning o'z milliy madaniyatini boshqa xalqlarning madaniyatidan ustun qo'yishi.

C)arablarning mahalliy xalqlarga ularning o'z ona tilida yozishi va so'zlashishini ta'qiqlashi

D) islomda ilm-fandagi har qanday yangiliklarning kirib kelishiga yo'l qo'ymasligi

17. Quyidagilardan IX asrga oid obidalarni aniqlang?

A. Ismoil Samoniy maqbarasi B. Zangi ota maqbarasi

C. Ahmad Yassaviy maqbarasi D. To'rabekxonim maqbarasi

18. Amir Temur davridagi madaniy yuksalishning bosh omilini aniqlang

A) siyosiy-ijtimoiy omil B) iqtisodiy omil C) ma'naviy omil D) g'oyaviy omil

19. Sharofiddin Ali Yadziy «Zafarnoma» asarida bayon qilishicha, Temur bu inshootni Hindistondan yig'ib keltirgan boyliklari evaziga 1399-1404 yillarda ni qurdirgan

A) Bibixonim masjidi B) Oqsaroy C) Ko'ksaroy D) Go'ri Amir

20. Samarqanddagi Jome masjidi Temurning qaysi yurishidan keyin qurilgan?

A. Xitoy B. Hindiston C. Eron D. Xorazm

21. “Sharq Rafaeli” deb nom olgan musavvir Kamoliddin Behzod yashab faoliyat ko‘rsatgan yillarni aniqlang.

A) 1455-1536 yillar B) 1469-1506 yillar C) 1475-1526 yillar D) 1483-1530 yillar

22. Buxorodagi Jome masjidi qachon qurilgan?

A. XVI asrda B. XVII asrda C. XV asrda D. XVI asr boshida

23. Samarqanddagi Registon maydoni kimning davrida shakllandi?

A. Shohrux B. Ulug‘bek C. Temur D. Umarshayx

24. Temuriylar davrida qurilgan saroylar necha xil bo‘lgan?

A. 4 xil B. 2 xil C. 6 xil D. 3 xil

25. Tabobat ilmi bilan qiziqqan Ashtarxoniy hukmdor?

A. Subhonqulixon B. Ubaydullaxon C. Abdulazizxon D. Imomqulixon

26. Torevtika...

A. asl toshlar o‘ymakorligi san’ati B. metall o‘ymakorligi
C. yog‘och o‘ymakorligi D. ganch o‘ymakorligi

27. Turkistonda ma’rifatchilik harakati qachon vujudga kelgan?

A. XIX asr boshlarida B. XIX asr II yarmida
C. XVIII asr oxirida D.) XX asr boshlarida

28. Islomxo‘ja minorasi nechanchi yillarda qurilgan?

A)1908-1910-yy B)1904-1912-yy C)1905-06yy D) 1870-72-yy

29. Dastlabki yozma sahna asari qachon kim tomonidan yozilgan?

A) Behbudiy,1911-y B) A.Samadov,1913-y
C) Hamza,1916-y D) A.Avloniy,1914-y

30. O‘zbek milliy teatr asoschisi kim?

A) Behbudiy B) Mannon Uyg‘ur C) Hamza D) A.Avloniy

31. Toshkent Davlat konservatoriyasi ochilgan yilni aniqlang

A) 1936-yil B) 1939-yil C) 1935-yil D) 1932-yil

32. O‘zbek musiqali teatriga asos solingan yilni aniqlang.

A) 1929-yil B) 1937-yil C) 1933-yil D) 1930-yil

33. Jadid o'z vazifalarini amalga oshirishda qanday vazifalarni ustivor deb bilgan?

1.o'lkada yangi usul maktablari tarmog'ini kengaytirish. 2.qobiliyatli yoshlarni chet elga o'qishga yuborish.3.turli ma'rifiy jamiyatlar va teatr truppalarni tuzish.4.gazeta va jurnallar chop etish.5.xalqning ijtimoiy-siyosiy va madaniy ongini yuksaltirish. 6. Rossiya bilan aloqalarni rivojlantirish.

A) 1.2.3.6. B) 1.2.3.4.5. C) 2.4.6. D) 1.2.3.4.5.6.

34. Musiqa ilmining katta bilimdoni va bastakor sifatida Xorazm maqomlariga notalar bitib qog'ozga tushirgan, sozanda va ijrochi...

A) Muhammad Rahimxon II (Feruz) B) Mahtumquli Firog'iy
C) Munis Xorazmiy D) Komil Xorazmiy

35. O'rta Ossiyo madrasalarida o'quv dasturining boshlang'ich bosqichi nima deb atalgan?

A) a'lo B) avsat C) avval D) adno

36. Firdavsiyning "Shohnoma"siga ishlangan "Siyovushni olov bilan sinash" miniatyurasining muallifi

A) Xo'ja Muhammad Musavvir B) Muhammad Murod Samarqandiy
C) Muhammad Sharif D) Muhammad Muqim

37. Usto Mo'min deb nom olgan, O'zbekistonda ijod qilgan rus musavviri?

A. A.Nikolaev B. P. Benkov C. A.Volkov D. O.Tatevosyan

38. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Oltin meros» xayriya jamg'armasini qo'llab-quvvatlash to'g'risida»gi qarori qachon qabul qilindi?

A. 1994 yil B.1996 yil C. 1998 yil D. 1999 yil

39. Toshkentda Amir Temurning otliq haykali, Samarqand va Shahrisabzda Amir Temur haykallari, Farg'ona va Quvada al-Farg'oniy, Xorazmda Jaloliddin Manguberdi haykallari muallifi

A. I.Jabborov B. R.Mirboshiyev C. A.Raxmatullayev D. M.Nabiyev

